



O'ZBEKİSTON MILLİY UNIVERSİTETİ  
HUZURİDAGI PEDAGOG KADRLARНИ  
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ  
(MİNTAQAVİY) MARKAZI

# DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI

MODULI BO'YICHA  
**O'QUV - USLUBIY  
MAJMUA**

**2023**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI\**

**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI  
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ  
(MINTAQAVIY) MARKAZI**

**“DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI”**

**MODULINING**

**ISHCHI O'QUV DASTURI**

**Tinglovchilar kontingenti:** Akademik litseyning barcha fani o'qituvchilari

**Toshkent – 2023**

**Mazkur ishchi o‘quv dasturi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2023 yil “28” avgustdagи 4-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va namunaviy dastur asosida tayyorlandi.**

**Tuzuvchilar:**

**dotsent B.Omonov**

**Taqrizchi:**

**F.Qanoatova**      Shahrisbz davlat Pedagogika instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasini o‘qituvchisi, dotsent

Fanning o’quv uslubiy majmuasi Shahrishabz davlat Pedagogika instituti “Ijtimoiy fanlar” fakulteti kengashining 2023 yil \_\_\_\_\_ ” dagi “\_\_\_” sonli bayoni bilan tasdiqlangan

**Fakultet dekani:**

**dots. E.Tilayev**

Fanning o’quv uslubiy majmuasi Shahrishabz davlat Pedagogika instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasining 2023 yil \_\_\_\_\_ ” dagi “\_\_\_” sonli bayoni bilan tasdiqlangan

**Kafedra mudiri:**

**dots. B.Omonov**

**O’quv-uslubiy  
bo’lim boshlig’i:**

**A.Berdiev**

**MUNDARIJA:**

1.	<b>ISHCHI DASTURI</b>	<b>4</b>
2.	<b>MA’RUZA MATNLARI</b>	<b>10</b>
3.	<b>AMALIY MASHG’ULOTLAR ISHLANMASI</b>	<b>121</b>
4.	<b>GLOSSARIY</b>	<b>190</b>
5.	<b>ADABIYOTLAR RO‘YXATI</b>	<b>221</b>

## **ISHCHI DASTURI**

### **KIRISH**

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4910-son hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-iyundagi “Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi 296-son Qarorlarida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u zamonaviy talablar asosida malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda akademik litseylar pedagog xodimlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan tayanch modullari mavzulari orqali akademik litseylarda faoliyat olib borayotgan pedagog xodimlarning zamonaviy biologiya fanining rivojlanish tendensiyalari va yutuqlarini mazmun-mohiyatini o‘rganish, molekular biologiya asoslarini o‘zlashtirish, odam hayot faoliyatida ovqatlanish va metabolizm jarayonlarining asosiy o‘rnini tahlil etish va baholash bilan bирgalikda pedagog xodimlarning ehtiyojlari asosida tanlab olingan tanlov modullari bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari ta’minlanadi.

Malaka oshirish kursining o‘quv dasturi quyidagi tayanch modullar mazmunini o‘z ichiga qamrab oladi:

### **Modulning maqsadi va vazifalari**

Modulning **maqsadi** pedagog xodimlarning o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarini yuqori ilmiy-metodik darajada ta’minlashlari uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini muntazam yangilash, kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratining uzlusiz rivojlanishini ta’minlashdan iborat.

### **Modulning vazifalari**

- pedagog xodimlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini uzlusiz yangilash va rivojlantirish;

- pedagoglarning zamonaviy talablarga mos holda akademik litseylardagi o‘qitish sifati va samaradorligini ta’minalash uchun zarur bo‘lgan kasbiy mahorat darajasini oshirish;

- o‘qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish hamda ulardan o‘quv jarayonida samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish;

- o‘quv jarayonini ilm-fan va ishlab chiqarish bilan samarali integratsiyasini ta’minalashga qaratilgan faoliyatni tashkil etish.

## **Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan talablar**

### **Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari hamda kompetentligiga qo‘yiladigan talablar:**

Kurs yakunida tinglovchilar quyidagi yo‘nalishlarda bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo‘lishlari talab etiladi:

#### **Tinglovchi:**

- davlat va huquq, uning paydo bo'lishi va rivojlanishi to'g'risida umumiy tasavvurga bo'ladi;
- davlatning amal qilishi va uning tuzilmaviy organlari; davlat va huquqning tarixiy va hozirgi zamon tushunchasi, huquq shakllari, huquq ijodkorligi, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, huquqbazarlik va yuridik javobgarlik, ularning turlari; qonuniylik; davlat mexanizmini amalga oshirish kabi masalalarni, davlat va huquq tarixini bilib, bu bilimidan lozim darajada foydalana oladi;
- talaba normativ-huquqiy aktlarni sharxlash va qo'llash, qabul qilinayotgan normativhuquqiy hujjatlami Konstitutsiyaga va xalqaro-huquqiy standartlarga mos kelishi, davlat va huquq tarixidan olgan bilimlarini tarixiy merosni hurmatlash, hodisa va jarayonlarni tahlil qilish usullarini qo'llash, huquqiy muammolar bo'yicha yechimlar bilishi kerak.

#### **Kurs natijasiga ko'ra ega bo'ladigan kompetensiyalar:**

- Kelajakdagi kasbiy faoliyatda milliy g'oya, ma'naviyat, tarbiya va huquq ta'limi tizimidagi fanlar bo'yicha nazariy va amaliy bilim va ko'nikmalarni namoyon etadi;
- ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda ishtirok etadi.

#### **Tinglovchi:**

- huquqiy Fikrlarni Ijro Etish: Huquqni tushunish va uni ilmiy ravishda tahlil qilish, huquqiy tushunchalarni va normativ-huquqiy hujjatlarni chuqurlashtirib olish katta ahamiyatga ega. Huquqni o‘rganayotgan kishi o‘z huquqiy fikrlarini aniq, iflos va aniqlig‘i bilan bayon qila olishi lozim.
- huquqiy Materiallarni Tahlil Qilish: Huquqiy fanlarda o‘qituvchilar va talabalar uchun huquqiy materiallarni tahlil qilish malakasi katta ahamiyatga ega. Qonunlar, qarorlar, president buyruqlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish va ularning shakli, mazmuni, va ma’nosи bo‘yicha fikr bildirish muhimdir.

- yuridik Ko‘nikmalar va Praktika: Davlat va huquq nazariyasi sohasida yuridik ko‘nikmalarga erishish va ularni amaliyatda tatbiq qilish malakasi muhim. Yuridik ko‘nikmalarning asosiy maxsusligi va har bir huquqiy masalada ularni qanday qo‘llab-quvvatlash kerakligi bo‘yicha malakali bo‘lish lozim.
- munozara va ko‘rib chiqish malakasi: Huquqiy fikrlarini o‘ziga xos usulda ko‘rib chiqish, shuningdek, fikrlarini boshqa o‘quvchilar yoki huquqshunoslar bilan munozara qilish, huquqiy muzokaralarda qatnashish muhimdir. Bu, huquqiy fikrlarni anglash, savollar bo‘yicha mantiqiy bahslash va huquqiy muzokaralarda ijobiy qatnashishga imkoniyat yaratadi.
- huquqiy So‘zlashmalarni O‘rganish: Huquqiy so‘zlashmalarni tushunish va o‘z fikrlarini ma’lum qilishda ham ahamiyatga ega. Yuridik matnlar, huquqiy hujjatlar va qarorlarning ma’nolari va muhokamalarni tushunish malakasini rivojlantirish muhimdir.
- xalqaro Huquq: Davlat va huquq nazariyasi sohasida xalqaro huquq tushunchalarini o‘rganish ham muhimdir. Xalqaro mazmuni va tuzilishi, xalqaro qarorlar va himoyachilarini tushunish, shuningdek, xalqaro huquq qo‘llanmalariga hukmdorlik qilish ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lishi lozim.

### **Tinglovchi:**

- qonuniy materiaallarni tushunish: Davlat va huquq nazariyasiga oid qonun, nizom, qaror, qonun-hujjatlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni tushunish katta ahamiyatga ega. Bu, huquqiy normativlarni tahlil qilish, ularni muvofiqlikka solishtirish va huquqiy masalalarni tahlil qilishda muhimdir.
- huquqiy fikrlarni yozish va bayon qilish: Huquqiy fikrlarini ilmiy usulda yozish va bayon qilish, maqolalar yozish, davlat va huquq nazariyasi mavzularida ilmiy tadqiqotlar olib borish kabi ko‘nikmalar kompetensiyalarga ega bo‘lishda muhimdir.
- o‘z huquqiy fikrini boshqalarga yetkazish: Kompetensiyalaridan biri ham, o‘z huquqiy fikrini etkazib boshqalarga yetkazish va muzokaralar qilishdir. Huquqiy savollar va muzokaralarda faol qatnashish, o‘z fikrlarini boshqalarga ilmiy va tajribaviy ravishda yetkazish lozim.
- huquqiy analiz va qarashlar: Huquqiy materiallarni tahlil qilish va bu tahlillar asosida huquqiy masalalarga yechim topishda malakali bo‘lish. Huquqiy holatlarni to‘g’ri tahlil qilish va muammolarga to‘g’ri qarash topish kompetensiyalardan biri.
- huquqiy murojaatlar va huquqiy ko‘rib chiqishlar: Huquqiy murojaatlarni tuzish va ularni bajarish, huquqiy savolga ishonchli javob berish va huquqiy ko‘rib chiqishlar tuzish muhim kompetensiyalardir.

- yuridik ko‘rib chiqish va nazariyalarini foydalanish: Xalqaro yuridik ko‘rib chiqishlarni va nazariyalarini tushunish, ulardan foydalanish va o‘z huquqiy fikrlarini moliyalashtirish katta muhim.

- qarorlar, va boshqa Huquqiy Hujjatlarni Tuzish: Davlat va huquq nazariyasi sohasida qonun, prezident qarorlari, qonun-qarorlar, va boshqa huquqiy hujjatlarni tuzish va ularni yuzaga keltirish ***kompotensiyalariga*** ega bo‘lishi lozim.

**“Davlat va huquq nazariyasi” modul bo‘yicha soatlar taqsimoti.**

Modul mavzulari	Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soat					
	Hammasi	Auditoriya o‘quv yuklamasi			jumladan	
		Jami				
			Nazariy	Amaliy		
1. Davlat va huquq nazariyasi umumnazariy fan sifatida	4	4	2	2		
2. Davlat va huquqning kelib chiqishi	4	4	2	2		
3. Davlat tushunchasi, belgilari, mohiyati va tiplari	4	4	2	2		
4. Davlat shakllari	4	4	2	2		
5. Davlat funksiyalari	4	4	2	2		
6. Davlat mexanizmi	4	4	2	2		
7. Ijtimoiy normalar tushunchasi va ularning tasnifi	4	4	2	2		
8. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat	4	4	2	2		
9. Huquq normalari tushunchasi, belgilari va o‘ziga xos xususiyatlari	4	4	2	2		
10. Huquq shakli (manbai) tushunchasining mazmuni	4	4	2	2		
11. Huquq ijodkorligi: tushunchasi, prinsiplari va turlari	4	4	2	2		
12. Huquq tizimi	4	4	2	2		
<b>Jami:</b>	<b>24</b>	<b>24</b>	<b>12</b>	<b>12</b>		

**NAZARIY, AMALIY VA KO‘CHMA MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI**

**1-MAVZU: Davlat va huquq nazariyasi umumnazariy fan sifatida**  
**REJA:**

1. Davlat va huquq nazariyasining o‘ziga xos xususiyatlari.
2. Davlat va huquq nazariyasi fanining predmeti va metodlari.
3. Davlat va huquq nazariyasining ijtimoiy fanlar tizimidagi o‘rnii.
4. Davlat va huquq nazariyasi fanining funksiyalari

## 2-MAVZU: Davlat va huquqning kelib chiqishi

**REJA:**

1. Jamiyat tushunchasi. Ibtidoiy jamiyatdan – fuqarolik jamiyatiga qadar.
2. Davlat kelib chiqishining asosiy xususiyatlari. Ilk davlatlarning shakllanishi. Davlatning paydo bo‘lishiga oid nazariyalar.
3. Huquqning kelib chiqishi va uning asosiy sabablari. Huquqning kelib chiqishiga oid nazariyalar

## 3-MAVZU: Davlat tushunchasi, belgilari, mohiyati va tiplari

**Reja:**

1. Davlat tushunchasi va uning asosiy belgilari.
2. Davlatning mohiyati
3. Davlat tipologiyasi

## 4-MAVZU: Davlat tushunchasi, belgilari, mohiyati va tiplari

**Reja:**

1. Davlat tushunchasi va uning asosiy belgilari.
2. Davlatning mohiyati
3. Davlat tipologiyasi

## 5-MAVZU: Davlat tushunchasi, belgilari, mohiyati va tiplari

**Reja:**

1. Davlat tushunchasi va uning asosiy belgilari.
2. Davlatning mohiyati
3. Davlat tipologiyasi

## 6-MAVZU: Davlat tushunchasi, belgilari, mohiyati va tiplari

**Reja:**

1. Davlat tushunchasi va uning asosiy belgilari.
2. Davlatning mohiyati
3. Davlat tipologiyasi

## 7-MAVZU: Ijtimoiy normalar tushunchasi va ularning tasnifi

**Reja:**

1. Ijtimoiy normalar tushunchasi va ularning tasnifi
2. Huquq tushunchasi, belgilari va turlari.
3. Huquqning prinsiplari va funksiyalari.

## 8-MAVZU: HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYAT

**REJA:**

1. Huquqiy ong tushunchasi va tarkibi
2. Huquqiy ongning vazifalari, funksiyalari, turlari va tuzilishi
3. Huquqiy tarbiya tushunchasi va vazifalari
4. Huquqiy madaniyat tushunchasi va tarkibiy tuzilishi
5. Shaxsning huquqiy madaniyati, huquqiy madaniyatning funksiyalari

## 9-MAVZU: Huquq normalari tushunchasi, belgilari va o‘ziga xos xususiyatlari.

**Reja:**

1. Huquq normalari tushunchasi, belgilari va o‘ziga xos xususiyatlari.
2. Huquq normalarining turlari.
3. Huquq normalarining tuzilishi.

## 10-MAVZU: Huquq shakli (manbai) tushunchasining mazmuni.

**Reja:**

1. Huquq shakli (manbai) tushunchasining mazmuni.

- 2. Huquq shakllari (manbaalari)ning turlari.**
- 3. O‘zbekiston Respublikasining huquq manbaalari.**

**11-MAVZU: Huquq ijodkorligi: tushunchasi, prinsiplari va turlari**

**Reja:**

- 1. Huquq ijodkorligi: tushunchasi, prinsiplari va turlari**
- 2. Qonun ijodkorligi tushunchasi va bosqichlari.**
- 3. Normativ huquqiy aktlarning zamon, makon va shaxslar doirasida amal qilishi.**

**12-MAVZU: HUQUQ TIZIMI**

**Reja:**

- 1. Huquq tizimi tushunchasi va tavsifi**
- 2. Huquq tizimining tarkibiy tuzilishi**
- 3. Huquqiy tartibga solish predmeti va usuli**

## **Ma'ruza matnlari**

## **1-MAVZU: Davlat va huquq nazariyasi umumnazariy fan sifatida**

### **REJA:**

- 1. Davlat va huquq nazariyasining o‘ziga xos xususiyatlari.**
- 2. Davlat va huquq nazariyasi fanining predmeti va metodlari.**
- 3. Davlat va huquq nazariyasining ijtimoiy fanlar tizimidagi o‘rni.**
- 4. Davlat va huquq nazariyasi fanining funksiyalari**

#### **Davlat va huquq nazariyasining o‘ziga xos xususiyatlari.**

Dunyo jadallik bilan rivojlanayotgan bugungi sharoitda insonlarda jamiyatda mavjud barcha vogelik va hodisalarga nisbatan qiziqish uyg‘onadi. Bu esa ularni o‘rganishni, tadqiq etishni talab etadi. Shunday muhim ijtimoiy hodisalar, insonlarni qiziqtirib kelayotgan masalalar qatorida davlat va huquq aloxida o‘rin egallaydi.

Inson o‘zi tug‘ilgan zaminni, diyorni, mamlakatni o‘ziga xos xususiyatlarini, dunyo davlatlari o‘rtasidagi mavqeini o‘rganishga, shu yurtda istiqomat qilish jarayonida unga berilgan huquq va erkinliklar hamda ularning mohiyatini tadqid etishga xarakat qiladi. Binobarin, davlat va huquq masalasi xar vaqt insonlar diqqat markazida bo‘ladi.

Xar bir ijtimoiy xodisani tadqid etish muayyan ilmiy yo‘nalishda, ma’lum bir fan orqali amalga oshiriladi. Davlat va huquq masalasi - Davlat va huquq nazariyasi fani yordamida o‘rganiladi.

Davlat va huquq nazariyasi asosiy yuridik o‘quv fani sifatida:

**birinchidan**, o‘zining muayyan predmetiga ega;

**ikkinchidan**, davlat va huquq haqida yaxlit bilim beradi, davlat va huquqning mohiyatini, taraqqiyot bosqichlari va qonuniyatlarini ochib beradi;

**uchinchidan**, davlat va huquq sohasida to‘plangan bilimlar sifatida «davlat», «huquq» va boshqa kategoriyalarni ifoda etadi;

**to‘rtinchidan**, davlat va huquqning ijtimoiy hodisa sifatida rivojlanishidagi obyektiv jarayonlarni va taraqqiyot qonuniyatlarini aks ettiradi.

Xullas, davlat va xuquq nazariyasi yuridik ta’lim tizimidagi o‘quv fanlari orasida markaziy o‘rin egallaydi. Bu fan bo‘lajak huquqshunoslarda huquqiy tafakkur va dunyoqarashni, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirishda alohida ahamiyatga ega. Davlat va huquq nazariyasini xukuqshunoslik alifbosi deyish mumkin.

#### **Ushbu fanning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagi omillarda o‘z ifodasini topadi:**

- Davlat va huquq nazariyasi jamiyatdagи muhim ijtimoiy xodisa davlat va huquqni o‘rganadi;
- Davlat va huquq inson hayotining asosiy mezoni xisoblanadi;
- Davlat va huquq bir necha asrlik tarixiy davrni o‘z ichiga oladi;
- Inson o‘zi istiqomat qilayotgan zaminga, ya’ni davlatga xamisha qiziqish bilan qaraydi;
- Inson o‘z faoliyati davomida muayyan qoida, norma, ya’ni huquqqa amal qilish barobarida uning mohiyatini anglashga ehtiyoj sezadi;
- Davlat va huquq dunyo rivoji, jamiyat taraqqiyoti bilan aloqadorlikda rivojlanib boradi.

Turli tarixiy davrda, muayyan makonda istiqomat qilgan insonlar o‘sha davrning siyosiy tuzumi, mafkuraviy-g‘oyaviy jixatlari, boshqaruv xususiyatlari, ijtimoiy ongning taraqqiyotidan kelib chiqqan holda, davlat va huquqqa munosabat bildiradi. Mamlakatimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritganidan so‘ng jamiyat hayotining barcha jabhalarida bo‘lgani kabi davlat va huquqqa ham yangicha qarash, yangicha yondoshuv paydo bo‘ldi. Mamlakatimiz sobiq ittifoq tarkibiga kirgan vaqtida davlatga iqtisodiy xukmron sinflarning tashkiloti, huquqqa esa ijtimoiy tartibga solishning zo‘rlik quroli sifatida munosabat bildirilgan.

Bugungi kunga kelib, ya’ni demokratiya sharoitida davlat ijtimoiy qarama-qarshiliklarni zo‘rlik va bostirish yo‘li bilan emas, balki ijtimoiy kelishuv, xalq ta’biri bilan aytganda, murosai

madora bilan bartaraf etish vositasiga aylanmoqda. Zamonaviy huquqqa esa, ijtimoiy hamjixatlik va kelishuvga asoslangan ijtimoiy tartib-intizomga erishish, erkinlik, adolatparvarlik va tenglikni vujudga keltirish vositasi sifatida yondoshilmoqda.

Davlat va huquq nazariyasi ham o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra taraqqiy etmoqda. Unga yangicha zamonaviy qarash, yondoshuv shakllanmoqda. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi o‘z oldiga demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatni qurishdek buyuk maqsad qo‘yar ekan, davlat va huquqqa, uni o‘rganishga, tadqiq etishga ehtiyoj sezila boshladi. Huquqiy davlatda qonun ustuvorligi eng asosiy tamoyil sifatida e’tirof etilsa, fuqarolik jamiyatining zaruriy sharti, unda yashayotgan fuqarolarning yuksak huquqiy ongi va madaniyati, huquqlardan habardorlik darajasi hamda huquqqa nisbatan chuqrur hurmatda ifodalanadi. Bu tushunchalar albatta, davlat va huquq nazariyasining obyekti xisoblanadi. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, davlat va huquq nazariyasi zamonaviy, dunyo taraqqiyoti, sivilizatsiya bilan hamohang harakatlanuvchi muhim ijtimoiy fan sifatida maydonga chiqadi.

Davlat va huquq nazariyasi nafaqat mamlakatimizda, balki jahon hamjamiatida yangilanish va yuksalishni o‘z boshidan kechirmoqda. Chunki, dunyo jadallik bilan rivojlanmoqda. Davlatga munosabatni, davlatni boshqarishni, davlat mohiyatining anglashni zamonaviy ko‘rinishlarini vujudga kelayotganligi muhim ijtimoiy hodisa xisoblangan - davlatning rivojlanayotganligi bildiradi. Davlat va huquqning paydo bo‘lishi va rivojlanishidagi umumiylilik, o‘zaro aloqadorlik o‘z navbatida davlat bilan bir qatorda huquq ham jadallik bilan takomillashib borayotganligidan dalolat beradi. Huquqqa liberal yondoshuv, uning insonlar hayotiga yanada yaqinlashayotgani, ularning manfaatlarini yanada mukammal aks ettirayotganligina namoyon etmoqda.

Insoniyat ongi va tafakkurining yuksalishi barcha ijtimoiy hodisa kabi davlat va huquqni ham yangicha talqin etmoqda. Davlat ham, huquq ham inson uchun, uning manfaati uchun mavjudligi va faoliyat olib borishi fuqarolar tomonidan e’tirof etilmoqda. Turli tarixiy davrlarda davlat va huquqdan turli guruhlar, ayrim tabaqalar yoki alohida shaxslarning manfaatining ximoyachisi, ijtimoiy qarama-qarshiliklarni bostirish quroli sifatida foydalanilgan bo‘lsa, bugunga kelib ular inson hayotidagi farovon hayotni ta’minlish mezonini sifatida maydonga chiqadi.

Davlatning mohiyatini anglash, huquqqa zamonaviy yondoshuv, huquqiy davlatning mazmun-mohiyati, fuqarolik jamiyatni barpo etishni, inson huquq va erkinliklarini ta’minlashning eng asosiy yo‘nalishlarini tadqiq etish aynan davlat va huquq nazariyasining vazifasidir. Bu o‘z navbatida fanning xususiyatlarini ochib berish bilan bir qatorda, bugungi kundagi uning ijtimoiy ahamiyatini, naqadar dolzarbligini namoyon etadi.

### **Xozirgi zamon hamda davlat va huquq nazariyasi fani**

XXI asrga kelib dunyo fanlari jamiyatning yuksak taraqqiyotiga asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Olamshumul kashfiyotlar, misli ko‘rilmagan ixtiolar turli fanlarning yutug‘idir. Bugungi sivilizatsiya sharoitida fanning yangi-yangi ko‘rinishlarining paydo bo‘lishi bilan bir vaqtida avval mavjud bo‘lgan fanlar takomillashtirib borilmoqda. Davlat va huquq nazariyasi fani ham shular jumlasidan. Shu o‘rinda “fan” tushunchasiga to‘xtalib o‘tish o‘rinli. Fan – bu muayyan soha bo‘yicha bilimlar berishga ixtisoslashtirilgan ilm yo‘nalishi xisoblanadi.

“**Fan** — tabiat, jamiyat va inson tafakkuri to‘g‘risidagi tushunchalarda, kategoriyalarda, qonunlarda aks ettirilgan, haqqoniyligi amaliyotda tasdiqlangan bilimlar tizimidir. Har bir fan o‘ziga xos obyekti va unga mos keluvchi predmeti bilan ajralib turadi”. Fan jamiyat va tabiatni, umuman borliqni anglashning kalitidir. Xar bir fan o‘z predmeti va metodiga ega. Predmet va metodlarsiz fanning o‘zi bo‘lishi mumkin emas. Fanning **predmeti** shu fan o‘rganadigan masalalar majmuidan iborat bo‘lsa, fanning **metodi** fan o‘rganadigan masalalarni o‘rganish usullaridir.

**Fanning predmetini** ana shu obyektlar va ularni aks ettirishdan hosil bo‘lgan bilimlarning majmui va o‘rganiladigan masalalar tashkil etadi.

Har bir fanni o‘rganish, eng avvalo, predmetini aniqlab olishdan boshlanadi. Bu esa o‘rganilayotgan fanning boshqa fanlardan farqini ko‘rsatadi.

Demak, har bir o‘quv fanining predmetini aniqlash uchun bu fanning umumiy fanlar tizimida tutgan o‘rni, roli va ahamiyatini, o‘rganadigan obyektini bilib olish kerak.

Barcha fanlarni, predmeti va metodi nuqtai nazaridan, ikkita katta guruhga bo‘lish mumkin. Birinchi guruhga tabiat qonuniyatlarini o‘rganuvchi matematika, fizika, biologiya, ximiya kabi **tabiiy fanlar**, ikkinchi guruhga esa kishilik jamiyatining rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganuvchi falsafa, tarix, iqtisodiyot, siyosatshunoslik, adabiyot, huquqshunoslik kabi **ijtimoiy fanlar** kiradi.

**Huquqshunoslik fani** — eng muhim ijtimoiy fanlardan biri. Chunki u kishilik jamiyatiga xos bo‘lgan davlat va huquqni yaxlit ijtimoiy hodisa va voqelik sifatida o‘rganadi.

Har bir fan obyektiv olamdagи narsa va hodisalarning u yoki bu tomonlarini o‘rganishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi.

Mustaqil fan bo‘lmish davlat va huquq nazariyasi ham mavjud voqelikda yuz berayotgan davlat va huquqni ijtimoiy hodisa sifatida har tomonlama o‘rganishni o‘zining asosiy maqsadi deb biladi. Demak, mavjud *voqelikda yuz berayotgan, davlat va huquqqa tegishli hodisa hamda jarayonlar davlat va huquq nazariyasi fanining obyektini* tashkil etadi.

*Davlat va huquq nazariyasi fanining predmetini davlat va huquqning kelib chiqishi, rivojlanishi va xarakatda bo‘lishining eng umumiy qonuniyatlarini tashkil etadi. “...Davlat va huquq nazariyasi davlat va huquqning ayrim jihatlariga tegishli bo‘lgan qandaydir alohida ijtimoiy qonuniyatlarni emas, balki aynan uyg‘un birlikda olingan shu qonuniyatlar butun tizimining eng umumiy va mavhum ko‘rinishda o‘z doirasiga kiritadi, ya’ni o‘rganadi. Shunday qilib, u barcha davlat va huquq hodisalarini va jarayonlari uchun umumiy qonuniyatlarni o‘rganadi, davlat va huquqni yahlit ijtimoiy hodisa sifatida tadqid etadi”<sup>1</sup>.*

**Davlat va huquq nazariyasi** huquqiy amaliyot qonuniyatlarini aks ettiruvchi tajribani mantiqan umumlashtiradi, ular taraqqiyotining asosiy tamoyillarini aniqdab beradi. Davlat va huquq nazariyasi huquqiy amaliyot bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, amaliyotga xizmat qiladi va amaliyotdan kelib chiqadi.

Davlat va huquq nazariyasi xayot tarixiy taraqqiyot jarayonida ilgari surgan vazifalar negizida o‘z xulosa va takliflariga aniqliklar kiritadi, ularni boyitadi va rivojlantiradi. Davlat va huquq har bir jamiyat ijtimoiy taraqqiyotining muhim ko‘rsatkichidir. Demokratik huquqiy davlatni shakllantirishda shaxs, davlat va jamiyat huquqiy madaniyatini yuksaltirish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Davlat va huquq nazariyasi** — davlat va huquq taraqqiyotining umumiy qonunlari haqidagi fan bo‘lib, uning predmetini davlat va huquqning mohiyati, kelib chiqishi, rivojlanish prinsiplari va qonuniyatlarini tashkil etadi.

Har bir jamiyatdagi demokratik o‘zgarishlar va islohotlar muhim ijtimoiy ahamiyatga ega. Bu jarayonlarga jahon, davlat va huquq tarakkiyoti ta-labları, andazalari va tamoyillari nuqtai nazaridan qarash zarur. Bu, *bir tomon dan*, O‘zbekistondagi huquqiy islohotlarning yo‘nalishlari va mezonlari, qadriyatlari va maqsadlarini aniq, belgilashga yordam bersa, *ikkinci tomon dan* mamlakatimizda davlat va huquq qachon paydo bo‘lgan, qanday rivojlangan, qayoqqa qarab ketyapti, uning o‘ziga xos jihatlari, rivojlanishining shakl va ko‘rinishlari qanday, mezonlari bormi yoki dunyo-dagi mavjud huquqiy taraqqiyot o‘zanidan ketyaptimi, degan savollarga javob topish imkonini beradi. Ana shu muammolar davlat va huquq nazariyasi fanining asosiy masalalarini tashkil etadi.

Davlat va huquq nazariyasi davlat va huquqda tegishli hodisa va jarayonlarining muhim, zaruriy, umumiy tomonlarini o‘rgangan holda jamiyat taraqqiyotining obyektiv qonuniyatlarini tushuntirib berish, uning ijtimoiy-siyosiy maqsadlarini belgilash va mavjud ijtimoiy munosabatlarni davlat va huquq yo‘li bilan boshqarish mexanizmlarini ochish, ularning rivojlanish istiqbollarini ko‘rsatib berish bilan shug‘ullanadi. Shunday qilib, davlat va huquq nazariyasi faniga quyidagicha ta’rif berish mumkin:

<sup>1</sup> Венгеров А.Б. Теория государства и права. –М.: “Юрист” 1995йил. 9-бет.

**Davlat va huquq nazariyasi** — ijtimoiy hodisa bo‘lmish davlat va huquqning kelib chiqishi, rivojlanishi va faoliyat ko‘rsatishshshng umumiylarini o‘rganuvchi fandir.

Davlat va huquq nazariyasi fanining predmetiga faqat amaldagi davlat va huquq munosabatlari, jarayonlari, hodisalarining eng umumiylar belgilarigina emas, balki fuqarolarning ular to‘g‘risidagi tasavvurlari, qarashlari, fikrlari ham kiradi. Demak, davlat va huquq nazariyasi predmeti doirasiga ijtimoiy ongning huquq bilan bog‘liq va uning vositasida o‘rganiladigan qismi, ya’ni huquqiy ong ham kiradi.

**Davlat va huquq nazariyasi o‘zining mustaqil predmet yo‘nalishiga ega bo‘lib, ijtimoiy, shuningdek, yuridik fanlar tizimida muayyan o‘rin tutadi.** Fanning bu xususiyatini *President I.A.Karimov O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining umumiylig‘ilishidagi nutqida shunday ta‘kidladi:* “...olimlarimiz, birinchi navbatda, ijtimoiy fan vakillari oldida turgan ulkan vazifalar haqida to‘xtalib o‘tmogchiman. Mamlakatimiz mustaqilligini mustaxkamlash, milliy davlatchilikni shakllantirish, huquqiy demokratik davlatni barpo etish va fuqarolik jamiyatini qaror toptirishdek ulug‘ orzu-umidlar bilan yashar ekanmiz, ijtimoiy fanlar sohasidagi ilmiy izlanishlar va ularning natijalariga alohida e’tibor bermaslik mumkin emas”<sup>2</sup>.

Zero, bizning hayotimizda shunday obyektiv davlat va huquq qonuniyatlarini xukm suradiki, ularni tushunmay turib, sohaviy yoki maxsus yuridik fanlarni o‘rganish mumkin emas. Davlat va huquq nazariyasini turli ijtimoiy fanlar bilan taqqoslash ularning o‘zaro mustahkam bog‘liqligini va hatto bir-birlariga singib ketganligini ko‘rsatadi. Davlat va huquq nazariyasing yuridik fanlar tizimidagi o‘rni haqida so‘z ketganda, mazkur da’vo yanada haqqoniyoq yangraydi. Binobarin, davlat va huquq nazariyasi maxsus va yuridik tarmoq fanlariga nisbatan umumlashtiruvchi, dasturiy, yo‘naltiruvchi hamda uslubiy ahamiyatga molik fan sifatida maydonga chiqadi.

### **Davlat va huquq nazariyasi fani predmeti va metodlari**

Barcha fanlar o‘z predmeti, ya’ni shu fan tomonidan o‘rganiladigan masalalarga ega bo‘lish bilan birga, o‘z metodlari, ya’ni fanning o‘rganish usullariga ham ega bo‘ladi. “Metodologiya” kategoriyasi yunoncha “metodos” so‘zidan olingan bo‘lib, biror narsani o‘rganish yo‘li degan ma’nioni anglatadi. Metod – bu umumiylar ma’noda maqsadga erishish usuli, muayyan tarzda izga solingan faoliyatdir. Metod – bu maxsus ma’noda bilish vositasi, o‘rganiladigan mavzuni tafakkurda xosil qilish yo‘lidir. Davlat va huquq nazariyasi fanining **metodlari** davlat va huquq taraqqiyotining qonuniyatlarini, hozirgi axvoli va mohiyati sohasida bilim olishga yordam beruvchi usul va vositalar birligidan iborat.

**Davlat va huquq nazariyasi fanining metodlari davlat va huquqni o‘rganish usullaridir.** Har qanday fandagi kabi, davlat va huquq nazariyasida ham turli yondashuvlar, har xil qarashlar mavjud. Davlat va huquq nazariyasing metodlari davlat va huquqning mohiyati, turli jihatlari va xususiyatlarini, rivojlanish qonuniyatlarini va prinsiplarini o‘rganishga imkon beradi.

**Davlat va huquq nazariyasing metodlari davlat va huquqning turli sohalari va jihatlarini ochib berishga yordam beradi.** Ular davlat va huquq to‘g‘risidagi bilimlarni o‘rganish, to‘plash va umumlashtirish kalitidir.

**Davlat va huquq nazariyasing metodlari** davlat va huquqning shakllanish va rivojlanish qonuniyatlarini bilishga ko‘maklashadi; davlat va huquqniig mohiyati va vazifalariga, funksiyalari va taraqqiyot tamoyillariga ilmiy yondashish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

*Davlat va huquq hodisalari, voqealari, jarayonlari to‘g‘risidagi bilimlarni qo‘llaniladigan nazariy tadqiqotlar va amaliy harakat qilish usullari va yo‘llarining yig‘indisiga davlat va huquq nazariyasing ilmiy o‘rganish metod («metod» grekcha so‘z bo‘lib, aynan «biron narsaga borish yo‘li» demakdir) lari deyiladi.*

<sup>2</sup> Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. Т.2. –Т.: “Ўзбекистон” 1996 йил. 260-бет.

**Davlat va huquq nazariyasining metodlarini quyidagi uch asosiy guruhga bo‘lish mumkin:**

- eng umumiy;
- umumiy ilmiy;
- xususiy ilmiy metodlar.

Eng umumiy metodlar — har tomonlama fikr yuritishning asosiy qonun-qoidalarini o‘zida ifodalaydigan dunyoqarash shaklidagi usullardir. Ularga *metafizika* va *dialektik* metodlar kiradi.

Metafizika («Metafizika» grekcha so‘z bo‘lib, aynan ma’nosisi «fizika ketidan keladigan narsa» degani bo‘lib, hozirgi kunda fanda «Qotib qolgan fikr yuritish usuli» ma’nosida ishlatalidi) metodi bilan ish ko‘rvuchilar davlat va huquq ilgaridan mavjud bo‘lgan, bundan keyin ham bo‘ladi, u abadiy va o‘zgarmasdir, hech qanday boshqa ijtimoiy hodisalar bilan ichki bog‘lanishda emas, rivojlanishda emas, qanday bo‘lsa shundayligicha saqlanib qoladi deb fikr yuritadilar.

Dialektika metodi bilan ish ko‘rvuchilarning birlari — davlat va huquq parvardigori olam — Ollohnning ilohiy kuchi ila paydo bo‘lgan va shu asosda rivojlanadi (**obyektiv idealizm**);

ikkinchilari — davlat va huquq; insonlar onging; ya’ni ularning ruhiyati, histuyg‘ulari, sezgilarining maxsuli (**subyektiv idealizm**);

uchinchilari — davlat va huquq muayyan sabablarga ko‘ra vujudga kelgan va shu asosda rivojlanadi (**obyektiv materializm**);

to‘rtinchilari — davlat va huquq jo‘g‘rofiy muhitning, etnik va milliy xususiyatlarning maxsuli (jug‘rofiy determinizm) deb fikr yuritadilar.

Davlat va huquq nazariyasining eng umumiy metodini — *ilmiy dialektika* tashkil qiladi. Bu metod quyidagilarni taqozo etadi:

**birinchidan**, davlat va huquq sohadagi har bir jarayonda moddiy va ma’naviy asoslarning borligini, inson tafakkuri ularni har tomonlama to‘liq qamrab olishini e’tirof etish;

**ikkinchidan**, hech bir davlat yoki huquqning, ularda yuz berayotgan voqeа, hodisa va jarayonlarning sababsiz sodir bo‘lmasligini, ular o‘zaro aloqadorlikda va rivojlanishda ekanligini, eskilari yo‘qolib, ularning o‘rniga yangilari kelishini tan olgan holda ularni hamma vaqt taraqqiyotda va harakatda olib qarash;

**uchinchidan**, har qanday davlat va huquqda yuz berayotgan voqeа, hodisa, jarayonlarni bilishga butun insoniyat amaliy faoliyatini jalg qilish;

**to‘rtinchidan**, davlat va huquqqa oid voqeа-hodisalarni bilish jarayonida egallanadigan, haqiqatlar obyektiv, bir vaqtning o‘zida nisbiy va mutlaq xususiyatga ega bo‘lib, mavxum emas, balki aniq shaklda mavjud bo‘lishini tan olishi va shu asosda ish yuritish.

Shuning uchun ham ushbu metod davlat va huquq nazariyasining eng umumiy metodinigina emas, balki metodologik asoslaridan birini ham tashkil qiladi.

**Umumiy ilmiy metodlar.** Bizga ma’lum, umumiy ilmiy metodlar o‘z tarkibiga barcha fanlarni o‘rganishda asos bo‘luvchi *analiz*, *sintez*, *tizimli*, *funktional* kabi usullarni qamrab oladi.

Ular eng umumiy metodlardan farqli ravishda, davlat va huquqda yuz berayotgan voqeа-hodisalar va jarayonlarni bilishning ma’lum bosqichlarida qo‘llaniladigan usullardir.

**Analiz («analiz»)** — grekcha so‘z bo‘lib, «ajratish, bo‘lish» degan ma’noni anglatadi) metodi orqali davlat va huquq muayyan tarkibiy qismlarga ajratilgan holda o‘rganiladi. Ushbu usul orqali obyektni tadqiq etishda, uning jamiyat hayotidagi o‘rnini aniqlanadi, umumiylarini xususiyalaridan, zaruriylarini tasodifiyalaridan, asosiylarini muxim bo‘limganlaridan ajratiladi va shu orqali ularning mazmun-mohiyati yoritib beriladi.

**Sintez («sintez» grekcha so‘z bo‘lib, «qo‘sish, birlashtirish» deganidir) metodi** orqali davlat va huquqni, ularga tegishli ijtimoiy xodisalar va tushunchalarni fikran birlashtirish, umumlashtirish orqali yangi bilim va tasavvurlarga ega bo‘lish mumkin.

Analiz va sintez metodlari uzviy aloqadorlikda bo‘lib, umum ilmiy bilishdagi analitik-sintetik usulning o‘zaro ta’sir qiluvchi xususiyatlaridir. Masalan, O‘zbekiston davlatini ijtimoiy hodisa sifatida fikran analiz qiladigan bo‘lsak, uni, eng avvalo hokimiyat, fuqaro, hududlar kabi tarkibiy qismlarga bo‘lamiz va ularning har birini alohida-alohida o‘rganamiz. Ayni vaqtida analizdan olingan bilimlarni fikran qayta birlashtirsak, ya’ni sintez qilsak, O‘zbekiston suveren demokratik respublika ekanligini ko‘rsatuvchi yangi bilimga ega bulamiz.

**Tizimli («tizim - sistema» — grekcha so‘z bo‘lib, «qismlardan tarkib topgan majmua» degan ma’noni anglatadi) metod** davlat va huquqning ichki strukturaviy tuzilishini, tarkibiy qismlarining “gorizontal” va “vertikal” yo‘nalishlari va ularning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganadi. Tizimli o‘rganish falsafa fanining yutug‘i bo‘lib, bugungi kunda ushbu usuldan barcha ijtimoiy xodisalarni o‘rganishda va jamiyatning barcha sohalarini tadqiq etishda keng qo‘llanilmoqda<sup>3</sup>.

**Funksional («funksiya» lotincha so‘z bo‘lib «amalga oshirish, bajarish, yuzaga chiqarish» degan ma’noni anglatadi) metod** davlat va huquqning jamiyatda mavjud ijtimoiy xodisa sifatida ularning vazifalari nimadan iboratligini o‘rganadi. Ushbu metod yordamida davlat va huquqda oid voqeа-hodisalar va jarayonlarning vazifalarini aniqlash orqali ular o‘rtasidagi munosabat-larni tushuntirishdir. Masalan, biz hokimiyatni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud xokimiyatiga ajratar ekamiz, eng avvalo, ularning har birining funksiyalarini aniqlab olamiz, shundan keyin ular o‘rtasidagi munosabatlarni tushunib olishga o‘tamiz.

Bundan tashqari davlat va huquqni o‘rganishda **xususiy ilmiy metodlardan** foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Xususiy ilmiy metodlar tabiiy, ijtimoiy va boshqa fanlarning taraqqiyoti natijasida kelib chiqadi va ularga **sotsiologik, statistik, qiyosiy, kibernetik, tarixiy, mantiqiy** va boshqa metodlar kiradi.

**Sotsiologik (“Sotsiologiya” termini lotincha lotincha “societas” (jamiyat) va yunoncha “logos” (ta’limot) so‘zlaridan iborat bo‘lib, jamiyat to‘g‘risidagi fan degan ma’noni bildiradi) metod** yordamida davlat va huquqni o‘rganishda sotsiologik usullar: so‘rov, anketalashtirish, kuzatuvarlar olib borish, jamoatchilik fikrini urganish orqali yangi ma’lumotlar olishimiz mumkin. Olingan ma’lumotlardan davlat va huquqni rivojlantirishda foydalanish mumkin. Sotsiologik tadqiqotlar inson faoliyatining har bir sohasi uchun juda qimmatli ma’lumotlarni yetkazib beradi. Bu usul demok-ratik huquqiy davlatni shakllantirishga qaratilgan huquqiy islohotlar va amaliy tadbirlarning samaradorligini aniqlashda yordam beradi.

**Statistik («statistika» — lotincha so‘z bo‘lib, «hisob-kitob» degan ma’noni anglatadi) metod** — davlat va huquq institutlari to‘g‘risidagi matematik hisob-kitoblar yordamida miqdoriy ma’lumotlarni olishga qaratilgan ilmiy usullardan biridir. Bu usul, olingan miqdoriy ma’lumotlarni umumlashtirish asosida davlat va huquqni rivojlantirishning miqdoriy yo‘nalishlarini belgilab olishga xizmat qiladi.

**Qiyoslash metodi** — muayyan davlat va huquqni boshqa joydagisi, boshqa shakldagi davlat va huquq bilan fikran taqqoslash asosida ma’lumotlar olish, ulardan ilmiy xulosalar chiqarish, yangi bilim hosil qilish usuli hisoblanadi.

Ushbu metod turli davlatlar va huquqiy tizimlarning umumiyligi va o‘ziga xos tomonlarini bilish hamda ana shu asosda davlat va huquq taraqqiyotining qonuniyatlarini ochishga, davlat va huquq sohasidagi hodisalar va jarayonlarni o‘zaro solishtirish asosida ular o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlashga imkon beradi.

<sup>3</sup> Карапт: Керимов Д.А. Философские основания политico-правовых исследований. – М.: Мысль, 1986. 200 – 210 – бетлар.

**Kibernetik («kibernetika» grekcha so‘z bo‘lib, «boshqarish san’ati» degan ma’noni bildiradi) metod.** Dunyoning bugungi ko‘rinishini axborot texnologiya vosilarisiz tasavvur etish qiyin. Davlat va huquqni o‘rganish va tahlil etishda kompyuterlardan, multimediya, slayd va boshqa zamonaviy texnik vositalardan foydalanish oz vaqt sarflab, sifatli ma’lumotlar olishimizga zamin yaratadi.

**Mantiqiy metod** – davlat va huquqni o‘rganishda mantiq fanining umumiyligini qonuniyatlar asosida oqilona, to‘g‘ri xulosa chiqarishga imkon beradi. U ilmiy bilishning mavhum shaklidir. U davlat va huquqning mantiqiy o‘rganishining usul va vositalarini ifodalaydi.

**Tarixiy metod** - davlat va huquqning paydo bo‘lishi, rivojlanishini taraqqiyotning muayyan davrida xronologik izchillikda o‘rganishni taqozo etadi. Ushbu metod qo‘llaniladigan davlat va huquqning qaror topishi, rivojlanishi, tarixiy taraqqiyotning murakkab jarayonlari bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. Bunda ko‘pincha kishilik jamiyatining turli davrlarida ro‘y bergan voqealar, hodisalar haqida bilim olish imkonini beradigan tarixiy manbalar, qonunlar, maxsus hujjatlar va boshqalarni tahlil qilish usuli qo‘llaniladi.

Shunday qilib, **davlat va huquq nazariyasining metodlari** davlat va huquqda tegishli voqealar-hodisalar va jarayonlarni bilishga, ularning qonuniyatlarini ochishga qaratilgan umumfalsafiy, umummilliy, xususiy-ilmiy usullar, yollar, qoidalar va vositalar tizimidir. Ulardan amalda foydalanish olib borilayotgan tadqiqotning predmeti va vazifalariga bog‘liqdir.

#### **Davlat va huquq nazariyasining ijtimoiy fanlar tizimidagi o‘rnini va roli.**

Davlat va huquq nazariyasi boshqa ijtimoiy fanlar tizimida o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Davlat va huquq masalalari nafaqat davlat va huquq nazariyasi, balki turli ijtimoiy fanlar tomonidan ham o‘rganiladi. Har bir ijtimoiy fan davlat va huquqning u yoki bu jihatlarini o‘z predmeti nuqtai nazaridan talqin etadi.

Davlat va huquq nazariyasi o‘quv fani sifatida turli ijtimoiy va yuridik fanlar bilan uzbviy bog‘liqdir. Ushbu aloqadorlik mazkur fanlar o‘rganadigan obyektning umumiyligidan kelib chiqadi. Ular o‘z predmeti doirasida davlat va huquqni ijtimoiy hodisa sifatida o‘rganadilar. Shu bilan birga, bu fanlarning har biri muayyan xususiyatga, o‘zi o‘rganadigan fan sohasiga ega.

Davlat va huquq nazariyasi o‘z baxs mavzuiga ega bo‘lib, huquqshunoslikka aloqador bo‘lgan va boshqa ijtimoiy fanlar tizimida tegishli o‘rinni egallaydi. Shuning uchun davlat va huquq nazariyasini, bir tomonidan, yuridik bo‘lmagan fanlar va ilmlar (iqtisodiyot, falsafa, sotsiologiya, siyosatshunoslik, etnografiya) bilan, ikkinchi tomondan – yuridik (davlat va huquq tarixi, siyosiy ta’limotlar tarixi, sohaviy yuridik) fanlar bilan o‘zaro munosabatini aniqlash to‘laasoslidir. Bu ushbu fan mavzu doirasini aniqroq belgilab olish va uni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Davlat va huquq nazariyasi ijtimoiy fanlar bo‘lmish falsafa, iqtisodiyot nazariyasi, sotsiologiya, siyosatshunoslik, madaniyatshunoslik, tarix kabi fanlar bilan ham bog‘liqdir. Ayni paytda davlat va huquq nazariyasi bu fanlardan farq ham qiladi.

**Iqtisodiy fanlar hamda davlat va huquq nazariyasi.** Iqtisodiy fanlar ishlab chiqarish munosabatlari tizimi, xo‘jalik hayotini tashkil etish, xo‘jalik sohalari, mexnat, moliya, kredit kabi masalalarni o‘rganadi. Davlat va huquq nazariyasi o‘quv fani esa davlat va huquqni o‘zining asosiy predmeti deb hisoblaydi. Iqtisodiy fanlar hamda davlat va huquq nazariyasining o‘zaro ta’siri, ularning bir-biri bilan o‘zaro aloqasi, davlat va huquqning iqtisodiyotga qanchalik bog‘liq ekanligini aniqlashga imkon beradi.

**Falsafa hamda davlat va huquq nazariyasi.** Falsafa tabiat va jamiyat rivojlanishining umumiyligini qonuniyatlarini o‘rganadi. Shu bois, u davlat va huquq masalalarini umumiyligini tarzda, ijtimoiy hodisa sifatida ko‘rib chiqadi.

Davlat va huquq nazariyasi fani falsafaning xulosalariga tayangan holda, davlat va huquq muammolarini aniqlashtiradi hamda bir qator maxsus nazariy masalalarni o‘rganadi. Bunda falsafa bilan davlat va huquq nazariyasi bir-birini takrorlamaydi, balki to‘ldiradi.

Falsafa borliqning ongga, insonning uni o‘rab turgan atrof-muhitga munosabatining umumiyligini xaqidagi bilimlar tizimidir. Falsafa davlat va huquqning mohiyati, tabiatini, uning ijtimoiy hodisalar tizimidagi o‘rnini aniqlaydi va faqat shuning o‘zi bilan cheklanadi. Davlat va huquq nazariyasi fani esa davlat va huquqni barcha ko‘rinishlari va belgilari bilan bir

butun holda batafsil o'rganadi. Agar falsafa davlat va huquqning mohiyatini aniqlash kalitini bersa, davlat va huquq nazariyasi falsafani ijtimoiy taraqqiyot, davlat va huquqning umumiy tamoyillarini ifodalash bilan qurollantiradi.

Falsafaning umumiy qonun va kategoriyalardan davlat va huquqqa tegishli voqeahodisalar va jarayonlarni o'rganishda amaliy foydalanish, bir tomondan, davlat va huquq sohasida to'plangan barcha bilimlarni ilmiy jihatdan umumlashtirib, bu bilimlarni davlat va huquq nazariyasining kategoriysi sifatida bayon qilish imkoniyatini beradi; ikkinchi tomondan, davlat va huquq nazariyasi fanining ilmiy tadqiqotlari natijasida olingan hamda amaliyotda tasdiqlangan bilimlar, ma'lumotlar falsafaning obyektiv qonunlarni ochishi va umumiy kategoriyalarni ishlab chiqishi uchun empirik ma'lumotlar bo'la oladi.

Shunday qilib, falsafa fani davlat va huquq nazariyasi uchun tayanch nuqtalaridan biri bo'lib, metodologiya vazifasini bajaradi, davlat va huquq nazariyasi esa falsafa uchun empirik ma'lumot manbai vazifasini bajaradi.

**Sotsiologiya hamda davlat va huquq nazariyasi.** Davlat va huquq nazariyasi sotsiologiya fani bilan ham o'zaro aloqada. Chunki sotsiologiya fani ham jamiyatni yaxlit, uyushgan tizim sifatida tadqiq etib, jamiyat a'zolarining, xususan turli xil jamoalarning, aholi turli qatlamlarining davlatga, huquqda qanday munosabatda bo'lishini, ularning davlat va huquq to'g'risidagi fikr-mulohazalarini «inson mezoni» bo'lmish amaliy ko'rsatkichlar, aniq matematik hisob-kitoblar asosida o'rganadi. Shunga ko'ra, sotsiologiya fani davlat va huquq nazariyasi fani uchun dastlabki empirik ma'lumotlarni tuplab berish vazifasini bajaradi. Davlat va huquq nazariyasi esa, o'z navbatida, sotsiologiya fani bergen ma'lumotlarni umumlashtirib, ulardan nazariy xulosalar chiqaradi.

Sotsiologiya yaxlit tizim bo'lmish jamiyat, hamda u bilan aloqadorlikda o'pganiladigan alohida ijtimoiy guruhlar, sotsial jarayonlar haqidagi fandir. Sotsiologiya o'zining xulosalarida empirik ma'lumotlarga, ijtimoiy tajribalarga asoslanadi. Barcha ijtimoiy hodisalar, jumladan, davlat va huquq ham sotsiologik tadqiqotlarning obyektiga aylanadi. Sotsiologiya ham, falsafa singari, davlat va huquqni bilish-ning umumiy vositasi hisoblanadi. U davlat va huquqni o'rganish asosida o'zining predmetini chuqurlashtiradi va oydinlashtirib oladi.

Davlat va huquq nazariyasi **tarix fani** bilan ham uzviy aloqadordir. Tarix jamiyatshunoslikka oid fan xisoblanadi. U insoniyat madaniy va ma'naviy taraqqiyotining har xil turlari va davrlari, jamiyatning rivojlanish yo'nalishlari va tiklanish bosqichlarini, insoniyatning o'tmishdan keljak tomon yuksalib borish sabablari va mohiyatini tadqid etadi. Muayyan xalqlar, davlatlarning muayyan davrlardagi hayotining aniq shakllari va tajribasini va xatto ayrim huquqiy yodgorliklarni ham o'rganadi. Lekin tarix fani uchun vaqt chegarlari muhimdir. U umumlashma xulosalar chiqarmaydi, qonuniyatlar ketidan quvmaydi, ayni shu jihatlari bilan davlat va huquq nazariyasidan farq qiladi.

**Siyosatshunoslik hamda davlat va huquq nazariyasi.** Siyosatshunoslik fani siyosat, uning shakllari, siyosiy jarayonlar va siyosiy birlashmalar, jumladan, partiyalar, siyosiy hokimiyatga va davlat hokimiyatiga erishish vositalari, fuqarolik jamiyat, davlat va shaxsning o'zaro munosabati kabi hodisalarini o'rganadi. Siyosatshunoslik inson siyosiy madaniyatini ijtimoiy-siyosiy munosabatlar tizimi orqali, ya'ni fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalga oshirish orqali o'rganadi.

Davlat va huquq nazariyasining siyosatshunoslik fani bilan bog'likdigi har ikkala fanning ham bir obyektni, ya'ni jamiyat siyosiy tizimining muhim elementi bo'lmish davlat va huquqni ilmiy jihatdan tadqiq etishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bunda davlat va huquq nazariyasi davlat va huquqning vujudga kelishi, rivojlanishi, amaliy faoliyatining umumiy qonuniyatlarini o'rgansa, siyosatshunoslik fani davlat va huquqiy siyosatni, aniqrori, jamiyatda yuz berayotgan siyosiy hodisalar va jarayonlarni ya'ni siyosat nazariyasi va amaliyotini o'rganadi. Ularning har ikkalasi bir predmet — davlat va huquqni, davlatning ichki va tashqi siyosatini turli tomonlardan o'rganadi, ilmiy tadqiqotlar natijasida olingan bilimlar bilan bir-

birlarini to‘ldiradi. Oqibatda, siyosatshunoslik fani o‘zining keng qamrovligiga ko‘ra, davlat va huquq nazariyasi fani uchun metodologik asoslardan biri vazifasini bajaradi.

Shunday qilib, davlat va huquq nazariyasi ijtimoiy fanlar tizimida quyidagicha o‘rin tutadi.

**Birinchidan**, davlat va huquq nazariyasi ijtimoiy fanlar jumlasiga kiruvchi huquqshunoslik fanining tarkibiy qismidir. U huquqshunoslikka nisbatan xususiylik, boshqa ijtimoiy fanlarga nisbatan esa, alohidalik kasb etadi.

**Ikkinchidan**, davlat va huquq nazariyasi boshqa ijtimoiy fanlar singari jamiyat ijtimoiy ehtiyojlarining mahsuli sifatida paydo bo‘lgan. U boshqa ijtimoiy fanlar bilan birgalikda davlat va huquqqa tegishli voqe-a-hodisalar va jarayonlarni har tomonlama o‘rganadi, boshqa fanlarning metodlaridan metodologik asos sifatida foydalanadi. Ayni vaqtida, davlat va huquq nazariyasi ijtimoiy fanlarni davlat va huquqqa oid aniq ma’lumotlar bilan ta’minlab, nazariy va amaliy jihatdan qurollantiradi.

**Uchinchidan**, davlat va huquq nazariyasi huquqshunoslik fani orqali davlat va huquq bilan qiziqayotgan har qanday ijtimoiy fan sohasining ilmiy tadqiqot mavzuidan o‘rin egallashi mumkin.

**To‘rtinchidan**, hozirgi kunda suveren O‘zbekiston davlati o‘zbek xalqining mushtarak maqsadlariga muvofik. tarzda va mustaqil ravishda faoliyat yuritmokda. Bu esa O‘zbekiston davlati va huquqini bir necha ijtimoiy fanlarning tadqiqot obyektiga aylantirmokda.

Masalan, O‘zbekiston davlatining jamiyatni boshqarish faoliyati — boshqaruv, ma’muriy fanlarning; iqtisodiy-xo‘jalik yuritish faoliyati — iqtisodiyot fanlarining; siyosiy faoliyati — siyosatshunoslik fanlarining; jamiyatni yaxlit tizim sifatida o‘rganish — sotsiologiya fanining ilmiy tadqiqot obyektiga aylangan. Hosil bo‘lgan bilimlar esa ushbu fanlar predmetlarining tarkibiy qismlarini tashkil qiladi. Bu davlat va huquqning ko‘pgina ijtimoiy fanlar obyektiga aylanib borayotganligidan darak beradi. Bu davlat va huquq nazariyasining ijtimoiy fanlar tizimida tutgan o‘rni yanada mustahkamlanib borayotganligini ko‘rsatadi.

Davlat va huquq nazariyasining barcha ijtimoiy fanlar bilan aloqasi ham ikki tomonlamadir. Davlat va huquq nazariyasi ijtimoiy fanlarning xulosalariga asoslangan holda xilma-xil falsafiy, tarixiy materiallarni umumlashtirib, davlat va huquqning vujudga kelishi sabablarini, taraqqiyot bosqichlarini, davlat va huquqning mohiyatini, mazmuni va shakllarini ochib beradi. Shu ma’noda davlat va huquq nazariyasi boshqa ijtimoiy fanlarni takrorlamaydi, balki to‘ldiradi. Bu hol esa davlat va huquq nazariyasi o‘zining predmetiga va xususiyatlariga ega ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Bundan yana ham keng qamrovli xulosalar chiqarish mumkin. O‘zbekistonda davlatchilikning huquqiy asoslari kuchayib borishi, huquqiy madaniyat, fuqarolarning huquq va erkinliklari, huquqiy ta’limning rivojlanib borishi bilan davlat va huquq nazariyasi hamda barcha ijtimoiy fanlar o‘rtasidagi aloqadorlik kuchayib bormoqda.

### **Davlat va huquq nazariyasi yuridik fanlar tizimida**

**Yuridik fanlar** — ijtimoiy hodisa sifatida davlat va huquqning tushunchasi, mohiyati, tanifi, kelib chiqishi, rivojlanishi va amal qilinishining umumiyligi va maxsus qonuniyatlarini to‘g‘risidagi huquqiy bilimlar tizimidir.

Barcha yuridik fanlar diqqat markazida davlat va huquq asosiy o‘rin egallaydi. Ayni paytda har bir yuridik fan davlat va huquqning muayyan tomonlarini, jihatlarini o‘rganadi. Shuning uchun huquqshunoslik fanlarining har biri o‘zining mustaqil predmetiga ega.

Davlat va huquq ko‘p qirrali ijtimoiy hodisa sifatida kishilik jamiyatining barcha sohalari (iqtisodiyot, siyosat, ma’naviyat va bosh-kalar) bilan chambarchas bog‘liqidir. Shu sababli, ijtimoiy taraqqiyot jarayonidagi obyektiv va subyektiv sabablar natijasida davlat va huquqning turli muammolarini o‘rganuvchi huquqshunoslik fanlari tizimi vujudga kelgan.

Ayrim olimlar yuridik fanlarni **uchta katta guruhga** bo‘lishadi. Bular **fundamental tarixiy-nazariy, sohaviy va amaliy yuridik fanlardir**.

Boshqa birlari esa, huquqshunoslik fanlarini ularning predmeti va metodlariga ko‘ra quyidagi to‘rt guruh: tarixiy-nazariy yuridik fanlar, tarmok, yuridik fanlari, amaliy yuridik fanlar, xalqaro huquqiy fanlardan iborat deya fikr bildiradilar. Ularning fikricha:

**Birinchi guruh: tarixiy-nazariy yuridik fanlarga** davlat va huquq nazariyasi, davlat va huquq tarixi, siyosiy va huquqiy ta’limotlar tarixi, musulmon huquqi, rim huquqd, qiyosiy huquqshunoslik, huquq falsafasi, huquq sotsiologiyasi, huquqiy madaniyat nazariyasi kabi o‘quv fanlari kiradi.

**Ikkinci guruh: tarmoq yuridik fanlariga** oila huquqi, fuqarolik huquqi, konstitusiyaviy huquq ma’muriy huquq mexnat huquqi, jinoyat huquq, moliya huquqi, yer huquqi, ekologiya huquqi, xo‘jalik huquqi, fuqarolik-protsessual huquq jinoyat-protsessual huquq xo‘jalik-protsessual huquq kabi fanlar kiradi.

**Uchinchi guruh: amaliy yuridik fanlarga** kriminalistika, sud buxgalteriyasi, huquq statistikasi, huquqiy psixologiya, sud psixiatriyasi, sud tibbiyoti kabi fanlar kiradi.

**To‘rtinchi guruh: xalqaro-huquqiy fanlar** xalqaro huquqning turli sohalarini o‘rganadi. Ular qatoriga xalqaro umumiy huquq xalqaro xususiy huquq diplomatiya va konsullik huquqi, xalqaro shartnomalar huquqi, xalqaro dengiz huquqi, xalqaro kosmos huquqi, xalqaro iqtisodiy huquq xalqaro guumanitar huquq va boshqalar kiradi.

Yuridik fanning bugungi kundagi amaliy faoliyatiga ko‘ra, quyidagi zamonaviy tasnifini e’tirof e’tamiz:

- Tarixiy-nazariy;
- Xorijiy davlat va huquqni o‘rganadigan;
- Sohaviy;
- Sohalararo;
- Amaliy yuridik;
- Xalqaro huquq fanlari.

Demak, zamonaviy huquqshunoslik fani davlat va huquq masalalarini o‘rganuvchi ko‘p tarmoqli turli yuridik fanlar tizimidan iborat bo‘lib, bu tizimda har bir yuridik fan o‘z o‘rniga ega.

Davlat va huquq nazariyasi o‘zining mohiyati va ahamiyatiga ko‘ra, tarixiy-nazariy huquqiy fanlar jumlasiga kiradi. U umumiy, tarmoqli amaliy, xalqaro huquq fanlari bilan o‘zaro aloqadadir.

Davlat va huquq nazariyasi huquqshunoslik fanlari tizimida markaziy o‘rinni egallaydi. Davlat va huquq nazariyasi barcha huquqshunoslik fanlari uchun umumiy bo‘lgan asosiy tushunchalar (kategoriyalar) va nazariy qoidalar (prinsiplar)ni ishlab chiqadi. Masalan, «davlat», «huquq», «demokratiya», «qonuniylik», «huquqiy tartibot», «huquqiy munosabat», «huquqiy javobgarlik» kabi tushunchalar u yoki bu darajada hamma yuridik fanlarga taalluqlidir. Bundan tashqari, davlat va huquq nazariyasi barcha yuridik fan-lar foydalanadigan xususiy huquqiy metodlar va prinsiplarni ham ishlab chiqadi.

Shunday qilib, davlat va huquq nazariyasi predmetiga kiruvchi masalalar huquqshunoslik fanlari tizimining o‘zagini tashkil etadi. Davlat va huquq to‘g‘risidagi asosiy va umumnazariy bilimlarni egallamasdan turib, boshqa yuridik fanlar muammolarini o‘rganish mumkin emas. Bundan kelib chiqib, davlat va huquq nazariyasi-ni tarmoq va maxsus yuridik fanlarning kirish qismi, ya’ni barcha yuridik fanlarning umumiy qismi deb qabul kilmaslik kerak. Ammo davlat va huquq nazariyasini boshqa yuridik fanlardan ajratib qo‘yish ham to‘g‘ri bo‘lmaydi.

Davlat va huquq nazariyasi barcha yuridik fanlarning aniq materiallariga tayanadi, ularni nazariy jihatdan umumlashtiradi. Tarmoq va maxsus yuridik fanlar esa davlat va huquq nazariyasingning xulosalariga asoslanadi. Demak, davlat va huquq nazariyasi boshqa barcha yuridik fanlar bilan o‘zaro aloqada bo‘lib, ular bir-birlarini boyitadi va to‘ldiradi.

Davlat va huquq nazariyasini huquqshunoslikning barcha sohalari bilan bog‘liqlikda o‘rganish zarur. Chunki har bir yuridik fan o‘z mustaqil predmet doirasida yaxlit davlatni va huquqning turli jihatlarini, qirralarini, tomonlarini o‘rganadi.

Davlat va huquq nazariyasi tarixiy yuridik fanlar bilan chambarchas bog‘liqidir. Masalan, davlat va huquq tarixi fani davlat va huquqning paydo bo‘lishi va tarixiy tarakdiyot bosqichlarini

xronologik tarzda o'rganadi, davlat va huquq institutlariga turli tarixiy davrlar bo'yicha ma'lumotlar beradi, davlatchilik va qonunchilikning rivojlanish tarixini yoritib beradi. Huquqiy yodgorliklar davlat va huquq tarixinining markaziy mavzuini tashkil etib, muayyan tarixiy davrlardagi huquqiy madaniyat darajasining yaqqol ko'rsatkichidir.

Davlat va huquq nazariyasi o'z xulosalarini tarixiy ma'lumotlar bilan asoslaydi, bunda u tarixiy metoddan keng foydalanadi. Xech bir tarixiy-huquqiy fakti nazariya yordamisiz ochib berish mumkin emas. Nazariya tarixiy voqealarga yondashish prinsipini belgilaydi, tarixni ilmiy o'rganish vositasi bo'lib xizmat qiladi: Tarix va nazariya bir-birisiz mavjud emas, biri ikkinchisini taqozo etadi. Akademik SH. 3. Urazayev ta'biri bilan aytganda, «nazariyasiz tarix, tarixsiz nazariya bo'lmaydi».

Shuningdek, davlat va huquq nazariyasi konstitusiyaviy huquq xalqaro huquq kabi bir qator huquqiy fanlar bilan o'zviy aloqada bo'lib, ularning chiqargan ilmiy xulosalaridan davlat va huquq hodisalarini o'rganishda foydalanadi, bu xulosalarni nazariy jihatdan umumlashtiradi.

Nazariy jihatdan umumlashtirilgan xulosalar boshqa maxsus va amaliy yuridik fanlar uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, davlat va huquq nazariyasi maxsus soha yuridik fanlari uchun huquqshunoslik fanlari tizimida alohida o'rinn egallaydi. Bu quyidagilarda namoyon bo'ladi: *birinchidan*, bu fan boshqa fanlardan farqdi ravishda davlat va huquqning vujudga kelishi, rivojlanishi va amal qilishining umumiyligini qonuniyatlarini o'rganadi; *ikkinchidan*, davlat va huquqning umumiyligini qonuniyatlarini o'rganishdan tashqari, tarmoq, amaliy yuridik fanlarning o'z yechimini kutayotgan muammolarini ham ilmiy jihatdan tadqiq etish bilan shug'ullanadi; *uchinchidan*, huquqshunoslik sohasida metodologik vazifani bajaradi.

Davlat va huquq nazariyasi boshqa huquqshunoslik fanlaridan quyidagi o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi.

*Birinchidan*, davlat va huquq nazariyasi ijtimoiy hodisa bo'lgan davlat va huquq taraqqiyotining umumiyligini qonuniyatlarini o'zida aks ettiradi. Bu uning ijtimoiy xususiyatidir. Shu bilan birga davlat va huquq nazariyasi umumnazariy ijtimoiy fan hisoblanadi.

*Ikkinchidan*, davlat va huquq nazariyasi ijtimoiy hayotning bevosita davlat va huquq hodisalariga taalluqli bo'lgan siyosiy-huquqiy muassasalarini o'zida aks ettiradi. Bu uning, siyosiy va huquqiy xususiyatlaridir. Shuning uchun ham davlat va huquq. nazariyasi siyosiy-huquqiy fan sifatida boshqa ijtimoiy fanlardan farq qiladi.

*Uchinchidan*, davlat va huquq nazariyasi davlat va huquqning eng umumiyligini qonuniyatlarini o'rganuvchi fan sifatida nazariy fan xususiyatiga ega. U o'zining nazariy fan ekanligi bilan boshqa tarmoq soha huquqiy fanlaridan farq qiladi.

Demak, davlat va huquq nazariyasi huquqshunoslik fanlari tizimida markaziy umumlashtiruvchi ahamiyatga ega. U barcha yuridik fanlarning xulosa va takliflarini o'zida uyg'unlashtiradi, ularning o'zarbo'yishiga yordam beradi.

### **Davlat va huquq nazariyasi fanining funksiyalari**

Davlat va huquq nazariyasi fani o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini ado etish uchun quyidagi asosiy funksiyalarini bajaradi.

*Birinchisi* — davlat va huquq nazariyasi fanining *evristik funksiyasi*. Davlat va huquq nazariyasi obyektiv voqelik — davlat va huquqni har tomonlama bilib olishning mantiqiy usullari va metodik qoidalari tizimiga ega. Bu funksiya davlat va huquqni izohlash, tushuntirish, davlat va huquq hodisalarini sharhlash bilangina emas, balki bu hodisalarining mohiyatini ochish orqali yangi-yangi qonuniyatlarini topish bilan ham shug'ullanadi. Mana shu evristika funksiyasidir. Evristika — haqiqatni topish san'ati hisoblanadi. Shunga ko'ra, davlat va huquq nazariyasi real voqelik — O'zbekiston davlati va huquqining yangi-yangi qirralarini topish san'ati vazifasini bajaradi.

*Ikkinchisi* — davlat va huquq nazariyasi fanining *metodologik funksiyasi*. Davlat va huquq nazariyasi davlat va huquq jarayonlarini o'rganish vositalari bo'lgan qonunlar, kategoriyalar va tushunchalarini ilmiy jihatdan ishlab chiqadi. Ishlab chiqilgan bu ilmiy tushunchalar, ta'riflar, qoidalari, prinsiplar boshqa maxsus va amaliy yuridik fanlar uchun yo'riqnomasi vazifasini o'taydi. Shunga ko'ra, davlat va huquq nazariyasi boshqa huquqiy fanlar uchun metodologik funksiyani bajaradi.

*Uchinchisi* — davlat va huquq nazariyasining siyosiy funksiyasi. Davlat va huquq doimo siyosatning obyekti bo‘lib kelgan. Siyosatning asosiy maqsadi esa xamisha davlat hokimiyatini egallash, shu orqali jamiyatni boshqarishni tashkil etishdan iborat bo‘lgan. Shuning uchun ham siyosatni — davlatni boshqarish san’ati deb ham atashadi. Shu ma’noda davlat va huquq nazariysi O‘zbekistonning davlat hokimiyati va boshqa siyosiy tashkilotlarni o‘z ichiga oluvchi siyosiy hokimiyatni amalga oshirishni tashkil etishga ko‘maklashadi. Bu davlat va huquq nazariyasining siyosiy funksiyasidir.

*To‘rtinchisi* — davlat va huquq nazariysi fanining amaliy funksiyasi. Davlat va huquq nazariysi davlat va huquq hodisalari, instituti to‘g‘risidagi bilimlarni amalda qo‘llash vazifasini ham bajaradi. U O‘zbekiston davlati faoliyatini takomillashtirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, tinch-totuv yashashlarini ta’minlash, davlatning ichki va tashkoy siyosatini barqarorlashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqadi.

*Beshinchisi* — davlat va huquq nazariysi fanining ilmiy bashorat qilish funksiyasi. Ilmiy bashorat — mavjud vogelikning obyektiv qonunilarini bilish asosida, kelajakda yuz beradigan yoki yuz berishi mumkin bo‘lgan voqeя, jarayon va hodisalarni oldindan ko‘ra bilish, aytib berishdir. Davlat va huquq nazariysi davlat va huquq rivojlanishining obyektiv qonuniyatlarini o‘rganish asosida ularning kelajakdagagi taqdiri to‘g‘risida ilmiy bashorat qilish funksiyasini ham bajaradi.

*Oltinchisi* — davlat va huquq nazariysi fanining dunyoqarashni shakllantirish funksiyasi. Davlat va huquq nazariysi davlat va huquqqa oid har bir hodisa, voqeя, jarayonlarning yuzaga kelish va rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganib, odamlarning aqluzakovatini o‘stirish asosida davlat va huquq taraqqiyoti to‘g‘risidagi qarashlarning yaxlit ilmiy manzarasini yaratadi. Bu ushbu nazariyaning dunyoqarashni shakllantirish funksiyasidir.

*Yettinchisi* — davlat va huquq nazariysi fanining g‘oyaviy-tarbiyaviy funksiyasi. Davlat va huquq nazariysi millatimizning istiqlol tufayli o‘sib borayotgan o‘zini o‘zi anglash, bilish ehtiyojlarini qondirishga, davlatimizni jahon davlatlari bilan qiyoslab o‘rganish asosida milliy ongimizni o‘stirishga, yangicha milliy g‘ypyp va tuyg‘uni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu uning g‘oyaviy-tarbiyaviy funksiyasidir. Ushbu funksiya, shuningdek, milliy mafkuramizning huquqiy asosi bo‘lgan — Konstitusiya va qonunlarning ustunligini, qonun oldida barcha fuqarolarning tengligi qoidalariga og‘ishmay amal qilishni, millatimizni umuminsoniy qadriyatlarning eng yaxshi an‘analariga sodiq holda tarbiyalashni ham o‘z ichiga oladi.

## 2-MAVZU: Davlat va huquqning kelib chiqishi

### REJA:

4. **Jamiyat tushunchasi. Ibtidoiy jamiyatdan – fuqarolik jamiyatiga qadar.**
5. **Davlat kelib chiqishining asosiy xususiyatlari. Ilk davlatlarning shakllanishi. Davlatning paydo bo‘lishiga oid nazariyalar.**
6. **Huquqning kelib chiqishi va uning asosiy sabablari. Huquqning kelib chiqishiga oid nazariyalar**

**«Jamiyat» tushunchasi. Kishilik jamiyati. Ibtidoiy jamiyat.**

#### **Quldarlik jamiyati. Fuqarolik jamiyati**

Jamiyat inson xayvonot dunyosidan ajralgandan so‘ng paydo bo‘lgan. Inson jamiyatning birlamchi bugani va asosidir. Jamiyat — ongli insonlar o‘zaro aloqalarining muayyan tizimi. Inson doimo jamiyat bilan aloqada. Inson jamiyatdan tashqarida yashay olmaydi. U faqat jamiyatdagina rivojlanadi, o‘z qobiliyati va imkoniyatlarini namoyon etadi, shaxs sifatida shakllanadi. O‘z navbatida, shaxs ham jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘sadi. Insonsiz jamiyatni tasavvur etish mumkin emas.

**Jamiyat** — muayyan tabiiy ehtiyoj va manfaatlariga ko‘ra birlashgan kishilarning ma’lum tarzda tashkil etilgan tizimidir. Kishilar, ularning tashkilotlari, jamoalari turli iqtisodiy, ma’naviy, ahloqiy, diniy va boshqa munosabatlar orqali jamiyatga birlashadi.

**Jamiyat** — kishilarning murakkab ijtimoiy birlashmasidir. Jamiyatda biologik qonunlar emas, balki sotsial qonunlar amal qiladi. Jamiyat birlashishga moyil bo‘lgan birliklar, ya’ni guruhlar, sinflar, qatlamlardan iborat. «Jamiyat» — yer kurrasidagi barcha kishilarni birlashtiruvchi eng keng tushunchadir. «Kishilik jamiyati» tushunchasi shundan kelib chiqqan. «Jamiyat» tushunchasi o‘z ichiga «fuqarolik jamiyati» va «davlat» tushunchalarini oladi.

**Jamiyat** — muayyan ijtimoiy munosabatlar tizimidir. Shuning uchun jamiyatga aniq tarixiy nuqtai nazardan yondashmoq kerak. Kishilik jamiyati o‘z taraqqiyotida turli bosqichlarni bosib o‘tgan. Misol uchun insoniyatning qadimiy, o‘rta asrlar, yangi va eng yangi davr tarixini ko‘rsatish mumkin.

Jamiyat ijtimoiy hayotdagi iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy sohalarning xususiyatlarini o‘zida namoyon etadi. «Jamiyat» tushunchasi ijtimoiy muloqot subyektlarini, ya’ni shaxs, oila, millat va boshqalarni aniqlashga imkon beradi.

Tarixiy rivojlanishning turli bosqichlarida jamiyat turli shakllarni oladi. Uning ichki tuzilishi, ya’ni iqtisodiy va ijtimoiy strukturasi ham har xil bo‘ladi. Kishilik taraqqiyoti davomida jamiyat tuzilishi murakkablashib boradi.

Ammo ayrim hollarda, odatda iqtisodiy, siyosiy, milliy, diniy manfaatlar asosida jamiyat «ajrashish kayfiyatlariga» mubtalo bo‘ladi. Davlat jamiyatning eng muhim tarkibiy elementidir. U jamiyatda asosan siyosiy funksiyalarini bajaradi. Jamiyat bilan davlat aynan bir narsa emas. «Jamiyat» tushunchasi «davlat» tushunchasidan keng.

**Fuqarolik jamiyati** — davlatning fuqarolaridan, ya’ni o‘zaro o‘zviyaloqadorlikda bo‘lgan hamda ahloqiy, huquqiy va siyosiy madaniyatga ega kishilardan iborat jamiyatdir. Fuqarolik jamiyati nafaqat davlatning majburlov kuchi bilan, balki uning a’zolari bo‘lmish fuqarolarning o‘zları orqali ongli ravishda saqlab turiladigan va qat’iy tartib qaror topgan jamiyatdir. Bunday jamiyat o‘zini o‘zi yuksak darajada tashkil etishi bilan ajralib turadi. Fuqarolik jamiyatiga davlatning kuchli ta’siri talab etilmaydi. Davlat bunday jamiyatning nazoratida bo‘ladi, chunki davlat — fuqarolik jamiyatining «yollarma xizmatkor»dir. Zero, davlat fukarolar, korxona va muassasalardan olinadigan soliqdar hisobiga yashaydi. Fuqarolik jamiyati nafaqat o‘zining siyosiy, madaniy hayotini, balki iqtisodiy, ijtimoiy hayotini ham boshqarib turadi.

Hamma jamiyatlar ham fuqarolik jamiyati emas. Fuqarolik jamiyati ancha yuksak darajadagi ijtimoiy rivojlanish ko‘rsatkichidir.

Davlat, huquq va jamiyat muayyan aloqadorlikdadir. «Jamiyat» — eng keng tushuncha. Davlat uning ichida yuzaga keladi. Davlat huquqni keltirib chiqaradi, ammo huquq ham davlatni

shakllantiradi va yo'naltiradi. Jamiyat davlat va huquq ta'sirida u yoki bu tomonga o'zgaradi. Huquq hamma uchun majburiy bo'lib, davlat uchun ham, jamiyat a'zolari uchun ham muhimdir. Davlat va jamiyat o'zaro aloqador, ammo teng ahamiyatli emas. Davlat bilan jamiyat aynan bir narsa emas. Mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlар qanchalik mukammal bo'lsa, jamiyat va davlatning funksiyalari (vazifalari) ham shunchalik aniq ajralib turadi.

Fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat uz munosabatlarda bo'ladi. Jamiyat o'zining ijtimoiy va iqtisodiy hayotiga oid ko'plab muammolarni davlatning yordamisiz (va aralashuvlari) hal qiladi. Fuqarolik jamiyati o'zini o'zi boshqaradi va huquqiy davlat siyosatiga, undagi huquqiy tizimga hal qiluvchi ta'sir o'tkaza oladi.

### **Ibtidoiy jamoa tuzumining xususiyatlari**

Davlat va huquqning kelib chiqishi masalasi barcha huquqshunoslik fanlari uchun muhim mavzudir. Ammo huquqshunos olimlar ushbu masalada umumiyl fikrga kelganlaricha yo'q.

Umuman, *davlat va huquqning kelib chiqishiga ikki xil yondashish mumkin. Birinchisi* — davlat va huquq ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishi natijasida paydo bo'lgan degan nuqtai nazar; *ikkinchisi* — muayyan davrda aniq bir davlat va huquq paydo bo'lgan degan nutqtai nazar. Davlat va huquq nazariyasi uchun umuman davlatning kelib chikishi haqidagi masala alohida ahamiyatga ega.

Avvalambor, davlat va huquqning qanday paydo bo'lganligiga ular o'z rivojlanishida qanday asosiy bosqichlardan o'tganligi nuqtai nazaridan qarash zarur. Hakiqatdan ham, davlat va huquq qanday sharoitda, nima uchun, nima maqsadda paydo bo'lganligi aniqlangandan keyingina ularning tabiatini, mohiyatini va ijtimoiy hayotdagi rolini aniq belgilash mumkin.

Kishilik jamiyatining ilk bosqichlarida davlat ham, huquq ham bo'limgan. Odamlar bu tushunchalar haqida tasavvurga ham ega bo'limganlar. Kishilik jamiyati ma'lum bir tarixiy davr mobaynida davlat va huquq bo'lmasa ham yashay olgan.

Kishilik jamiyatining ibtidoiy jamoa tuzumi deb ataladigan dastlabki bosqichi juda uzoq davom etgan. Ibtidoiy jamoa tuzumida odamlarning xayoliga davlat va huquq haqidagi g'oya kelmaganligi uchun emas, balki bularga hali ehtiyoj yo'qligi, jamiyat hali davlat va huquqsiz yashay olishi mumkinligi uchun mavjud emas edi. Davlat va huquq ayrim ijtimoiy guruhlarning yoki sinflarning hohishi natijasida emas, balki kishilarning irodasidan tashqari, jamiyat taraqqiyotining qonuniy natijasi sifatida paydo bo'lgan.

Shunday qilib, *davlat va huquq paydo bo'lmadan oldin ham qadimiy jamiyat bo'lgan. Bu davr ibtidoiy jamoa tuzumi hukmron bo'lgan katta bir tarixiy davrni tashkil etgan.*

Agar kishilik jamiyati 3—5 million yil avval paydo bo'lgan bo'lsa, davlat 5—6 ming yil ilgari kelib chiqqan. Demak, davlatning moxiyatini to'g'ri tushummoq uchun ibtidoiy jamoa tuzumi davridagi ijtimoiy hokimiyat va sotsial normalarning ta'rifini bilish zarur.

Uzoq vaqtlar bizning ajdodimiz — *kroman'on odam* (bundan 40 ming yil avval dunyoga kelgan deb hisoblanadi) ovchilik, baliq tutish, meva va ildizlarni to'plash bilan, ya'ni tabiatdagi tayyor mahsulotlarni o'zlashtirish bilan hayot kechirgan. Buning uchun u tayyor materiallardan quroq sifatida foydalangan.

Kramonyonlarning ijtimoiy tuzilishi oila jamoasi ko'rinishida bo'lgan. Oila jamoasini eng obro'li, ozuqa topishda tajribali, odat va udumlarni yaxshi biladigan a'zolar boshqargan. *Oila jamoasining asosini qarindoshlik munosabatlari tashkil qilgan.* U bir necha avlod — otaonalar, yosh erkak va ayollar hamda bolalarni birlashtirgan. Ular ma'lum hududda ko'chmanchi hayot kechirganlar. Oila jamoasi tashqi hujumdan himoyalanib, harbiy yurishlar tashkil qilish, jamoa bo'lib ov qilish uchun qarindoshlik asosida yirik uyushmalarga birlashishi mumkin bo'lgan.

Ibtidoiy jamoaning sotsial tuzilishi asosida qarindoshlik munosabatlari tashkil qilganligi sababli, bu tashkiliy tuzilish *urug'chilik* tuzumi deb ataladi. Bu jamiyatda mehnat, oziq-ovqat, oila-nikoh, munosabatlari aniq belgilangan tizimga asoslangan. Oilaning munosabatlarda erkak va ayolning yoshiga, o'matilgan nikoh shakllariga qarab oilaning yakka nikohlikdan haram shakllarigacha bo'lgan turlari tarqalgan.

Mehnat kurollarining oddiyligi, mehnat unumdorligining pastligi kishilarni yashash uchun o'z kuch-g'ayratlarini va ishlab chiqarish vositalarini birlashtirishga majbur qilgan. Ishlab chiqarish

vositalari umumiy bo‘lib, birgalikda topib keltirilgan mahsulotlar bab-baravar taqsimlangan. Bularning hammasi yuksak darajadagi onglilikdan emas, balki hayotiy zaruratdan kelib chiqqan.

Kishilarning dastlabki yachevkasi avval guruh, keyin qon-qarindoshlik, umumiy mehnat va mulkka asoslangan qabilar urug‘doshlik tashkilotlariga bo‘lingan. Urug‘ kishilarning ilk uyushmasi bo‘lman. U jamoaviy nikohga asoslangan oilaning shakllanish davrida paydo bo‘lgan.

Kabilia-urug‘doshlik tuzumida davlat hokimiyati emas, ijtimoiy hokimiyat bo‘lgan. Bu — hudud hokimligi bo‘lmay, balki kishilar ustidan hokimlikdir. Chunki urug‘ kishilarning hududiy birlashmasi emas, shaxsiy birlashmasi edi. Urug‘ bir joydan ikkinchi joyga ko‘chib o‘tishi mumkin bo‘lgan, binobarin, urug‘ning doimiy hududi ham bo‘lman. Ijtimoiy hokimiyat kuchga (qo‘sish, politsiyaga) emas, balki obro‘, izzat-xurmat, urf-odatga tayangan. Ijtimoiy hokimiyat organlari ypyg‘ a‘zolarining kengashi, ular saylagan oqsoqollar, harbiy boshliqlardan iborat bo‘lgan. Ularda jamoat ittifiqidan boshqa hech qanday majbur etish usuli bo‘lman. Jamiyatda imtiyozlilar, boylar va kambagallar bo‘lman, hamma teng sanalgan.

Davlatga qadar mavjud bo‘lgan ijtimoiy hokimiyatning xususiyatlari quyidagilardan iborat bo‘lgan: *birinchidan*, ijtimoiy hokimiyat urug‘ va qabila doirasida tarqalib, qarindoshlik aloqalariga asoslangan; *ikkinchidan*, ijtimoiy hokimiyat o‘z-o‘zini boshqarish va ibridoiy demokratiyaga asoslangan, ya’ni hokimiyatning subyekti va obyekti bir bo‘lgan; *uchinchidan*, ijtimoiy hokimiyat organlari bo‘lgan urug‘ a‘zolarinint yig‘ilishlari, oqsoqollar, harbiy boshliqlar ibridoiy jamoaning eng asosiy masalalarini hal qilganlar.

**Ibridoiy jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish usullari.** Bu yerda uchta asosii usulni — taqilash, ijozat berish va ijobji (pozitiv) majburlashni ko‘rsatish mumkin.

**Taqiqlash** asosan tabu, ya’ni biror *harakatni*, masalan, qarindoshlar o‘rtasidagi nikohni diniy e’tiqod bilan mustahkamlangan ko‘rinishda ta‘qiqlash bo‘lgan. Odamlar qadimiy zamonlardayok, qon-qarindoshlar o‘rtasidagi nikohning, biologik va ijtimoiy zararini tushungan hamda o‘z hayotining eng qadimiy davrlaridan boshlaboq qattiq jazo qo‘llash yo‘li bilan bu holatni taqilashgan. Qon-qarindoshlik nikoh ularini taqilash jamoalarning, ypyg‘-aymokdarning, boshqa guruhlarning tabiiy kdyta tiklanishiga xizmat qilgan.

**Ruxsat etish** insonning yoki odamlar uyushmasining o‘zlashtiruvchi iqtisodiyotdagagi hatti-harakatini belgilab berish bilan barobar, yana hayvonlarning turlarini va ularni ov qilish muddatini, o‘simliklar turlarini va ularning hosilini to‘plash muddatlarini, o‘simliklarning ildizlarini kovlab olish, u yoki bu hududdan, suv manbalaridan foydalanish, nikohga qadar (ba’zi jamoalarda) jinsi munosabatda bo‘lish mumkinligi kabilarni belgilab bergen. Shuningdek, muayyan ajratilgan hududlarda ov qilish va ozuqa yig‘ish, yirik hayvonlarning go‘shtini jamoa a‘zolari o‘rtasida taqsimlash va qo‘shti jamoa a‘zolariga xadya qilish uchun berish, o‘rnatilgan tartib bo‘yicha ovchilarning o‘zlariga taqsimlash, jamoa a‘zosiga keltirilgan zarar uchun o‘ch olishda birgalikda ishtirok etish kabilarga ruxsat etilgan.

Jamoada erkaklar bilan ayollarning, bolalar bilan kattalarning vazifalari taqsimotini buzish, odam o‘ldirish, badanga shikayet yetkazish, kannibalizm, tug‘ishganlar bilan jinsiyoq aloqada bo‘lish, sehrgarlik (bu ish bilan faqat maxsus shaxslar — sexgarlar shug‘ullangan), ayollar va bolalarni o‘g‘irlash, o‘g‘irlilik, er-xotinlik ittifoqi qoidalarini, shu jumladan, jamoalar o‘rtasida nikoh. uchun ayollarni ayirboshlash nisbatini buzish, doimiy aldamchilik, er-xotinlik ishonchini bo‘zish va boshqa shunga o‘xshash xatti-harakatlar taqilangan oziq-ovqat tayyorlash jarayonida zaruriy xatti-harakatlarni tashkil etish, uy-joy qurish, gulxan yoqish va olovni uchirib qo‘ymaslik, quroq tayyorlash, ko‘chib yurish vositalarini (masalan, *qayiklar*) tayyorlash kabilarda ijobji majburlash bo‘lgan. Ammo tartibga solishning bu usullari tabiiy sharoitni o‘zgartirishga, insonni tabiatdan ajratishga qaratilmagan bo‘lib, faqat tabiat mahsulotlarini o‘zlashtirishni va ularni qayta ishlashni, inson eqтиyojlarini qondirish uchun moslashtirishning foydali shakllarini ta‘minlash bo‘lgan.

### **Davlat kelib chiqishining asosiy sabablari**

Inson ekologik inqirozlarga javoban kechirish va qayta ishlab chiqarshning yangi usuliga — ishlab chiqarish iqtisodiyotiga o‘tishi bilan javob bergen. Yangi tosh asri, ya’ni

«Neolit inqilobi» yuz bergen. Odamlar asta-sekin ovchilik, baliqchilik, tayyor o'simliklarni hamda dehqonchilik, chorvachilikning ibridoiy shakllaridan, dehqonchilikning yangi rivojlangan shakllariga o'ta boshlagan. Masalan, sug'oriladigan, jumladan irrigatsiya inshootlari yordamida sug'oriladigan dehqonchilik yuzaga kelgan. Xo'jalik hayotining yangi tashkiliy ko'rinishlari jamiyat hayotida asosiy iqtisodiy o'rinni egallay boshlagan.

«Neolit inqilobi» davomida inson tayyor hayvonot va o'simlik mahsulotlarini qurol yordamida o'zlashtirar edi. Endi tabiatni o'zgartirishga, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishga, yangi o'simliklar va hayvonot turlarini yaratish, shu bilan tabiatning tabiiy shakllarini almashtirish yo'liga o'tila borgan. Bu o'tish faqat dehqonchilik va chorvachilikda yangi turlar yaratish emas, balki boshqa ishlab chiqarish sohalarida ham (kulolchilik, metall ishlab chiqarish va uni qayta ishslash) yuz bergen. Ishlab chiqaruvchi iqtisodiyot miloddan avvalgi IV—III minginchi yillarda inson hayotining asosiy omili bo'lgan.

«Neolit inqilobi» oqibatida yer sharining ba'zi hududlarida ilk dehqonchilik jamoalari tashkil topgan. Yakin Sharqda, bu holat miloddan avvalgi 7 ming, yillarda sodir bo'lgan. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning keyingi bosqichida miloddan avvalgi IV—III ming yillarda ilk dehqonchilik jamoalarida yuksalish yuz bergen. Bu yuksalish asosida dastlabki sivilizatsiyalar — ilk sinfiy jamiyatlar tashkil toptan. Ular Dajla, Frot, Amu va Sir kabi yirik daryolar vodiylarida tashkil topgan. Bu mintaqalarda dehqonchilik uchun sharoit juda qulay edi.

Miloddan avvalgi III—II ming yillarda O'rta yer dengizidan Tinch okeani sohillarigacha bo'lgan hududda dastlabki madaniyat sivilizatsiyalari tashkil topgan. Ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va xarakteri jihatidan ilk dexdonchilik jamoalarining kelib chiqishi, taraqqiyot bosqichlari — insoniyat rivojlanishining umumiyligi jarayonida alohida o'rinni egallaydi.

Ishlab chiqarish idtisodiyotiga o'tish sivilizatsiyaning yuksalishi va odamlarning ko'payishini ta'minlab berdi. Olimlarning fikricha, o'q-yoy bilan qurollangan ovchiga o'zini to'ydirishi uchun 20 kv. km. hudud kerak bo'lgan. Bu maydon bir necha dehqonni boqish uchun yetarlidir. Boshqa hisoblarga qaraganda, ishlab chiqarsh xo'jaligiga o'tish oqibatida yer yuzi aholisi mezolit davri oxirida (miloddan 7 ming yil avval) 10 ming kishi bo'lgan bo'lsa, neolit davri oxiriga kelib (miloddan avvalgi II ming yil) 50 mlngacha ko'paygan. Taxminiyligiga qaramay, bu hisob-kitob dehqonchilik va chorvachilikka o'tgandan keyin yer yuzi aholisi keskin ko'payganligidan guvohlik beradi.

Ishlab chiqarish iqtisodiyoti o'zining ilk bosqichdayoq, inson bilan tabiat o'rtasida shunday ayirboshlashni vujudga keltirgan ediki, inson qo'shimcha mahsulot ishlab chiqara boshlagan, o'simliklar seleksiyasi, sug'oriladigan dehqonchilik, ayniqsa, sun'iy so'g'orish dastlabki davrlardayoq ko'p hosil bera boshladi.

Qo'shimcha maxsulot ishlab chiqish va uning o'zlashtirilishi mulkning yangi shakllarini — jamoa, guruh xususiy mulk shakllarini keltirib chiqargan, jamiyatning tabaqlanishiga olib kelgan. Ishlab chiqarishning yangi tuzilishi jamiyatning soning bo'linishiga olib kelgan. Natijada jamiyatning yuqori qatlamlari asosiy ishlab chiqaruvchi ommadan ajrala boshlagan, moddiy ishlab chiqarish jarayonida ishtirot etmay qo'ygan.

*Shunday qilib, «neolit inqilobi» — insoniyatning ishlab chiqarish iqtisodiyotiga o'tishiga, ibridoiy jamoaning sotsial tabaqlanishiga, sinflarning kelib chiqiishga, davlatning paydo bo'lishiga olib kelgan.*

### **Ilk davlatlarning paydo bo'lishi**

Eng qadimiy davlatlar, ilk dehqonchilik jamiyatlarining ijtimoiy-iqtisodiy asosida paydo bo'lgan va ilk sinfiy davlatlar hisoblangan. Bu dastlabki davlatlar miloddan avvalgi IV—III minggchi yillarda Mesopotamiyada, Mesoamerikada, Torli, Peruda, har xil davrda va bir-biridan mustaqil tashkil topgan.

Ular dastlabki shahar-davlat shaklida edi. Erkin jamoachi dehqonlar endi urug' (oila) jamoasini emas, balki qo'shnichilik jamoasini tashkil qilgan. Ular bir necha qishloq guruhlaridan ajralib chiqib, xo'jalik va diniy markazni, keyinchalik ma'muriy xo'jalik va diniy markazlaarni tashkil qilgan. Bunday shaharlar unchalik katta bo'lмаган. Bunday davlatda

yo‘lboshchilar va kohinlar o‘troq yashaganlar. Bu shahar-davlatlarda majlislar, kengashlar o‘tkazilgan.

Shahar-davlatlarda sotsial tabaqalanish kuchli bo‘lgan, mulkiy tengsizlik, mehnat taqsimoti mavjud edi. Kulollar, misgarlar, duradgorlar va boshqa hunarmandlar yashagan, dastlabki ma’muriy boshqaruvchilar — ishlab chiqarishni, hisob-kitobni, jamoa ishlarini (hasharni) tashkil qilish, jamoa jamg‘armasidan ba’zi narsalarni ajratib berish bilan shug‘ullanuvchi shaxslar paydo bo‘lgan edi.

Shahar-davlatlarda boshqaruv, ma’muriy va mafkuraviy markaz (shahar jamoasi, saroy va ibodatxona) tashkil topgan. Shu jumladan ibodatxonalar diniy, tashkiliy, hokimlik, taqsimot va axborot tizimi bo‘lib qolgan.

Shahar yaqin qishloqlarga nisbatan davlat boshqaruvi vazifasini bajara boshlagan. Bu vazifalar (funksiyalar) turlicha edi, jamoa dehqonchilagini va yer egaligini boshqarish; jamoaning diniy marosimlarini bajarish; davlatlararo mahsulot ayirboshlash (vaqt kelib tovar ayirboshlashga bosib o‘tgan); harbiy hujumlardan himoya qilish, boshqa shahar-davlatni bosib olish uchun harbiy yurishlarni tashkil qilish; o‘lpon yoki soliqlarni undirish; jamoa zahiralarini (asosan oziq-ovqatni) tabiiy ofat yuz berganda, xarbiy bosqin bo‘lganda taqsimlash uchun to‘plash; janjallarni (tortishuvlarni) hal qilish uchun, an’analarni, odatlarni qo‘llab-quvvatlash uchun, dunyoviy va diniy qoidalarni joriy qilish uchun, hunarmandchilik, savdo-sotiqni rivojlantirish uchun tegishli instittlarni tuzish.

Shahar davlatlarning dastlabki muhim vazifasi erkin jamoachi dehqonlarning (ilk dehqonchilik jamiyatlarining) asosiy sotsial va ishlab chiqarish kuchlariga — ya’ni maydonlariga, suvga, sug‘orish shoxobchalariga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan axborot xizmati funksiyasi edi. Ariqlar qazish, ko‘priklar qurish, jamoa zahirasini ta’minlash, hisobga olish, to‘lovlar, soliqlarning hammasi shahar-davlatlarda har xil ma’lumot to‘playdigan keng tarmoqli axborot tizimining tashkil topishiga olib kelgan. Masalan, inklar davlatida muayyan oilaning a’zolari haqda, shumerlar davlatida hasharga chiqqanchiqmaganlar *haqida* ma’lumotlar to‘plangan. Bunday tizim va boshqarishni tashkil qilish jamiyatdan ajralib chiqqan maxsus axborot xizmatchilari guruhi — kohinlar, hattotlar zimmasida edi.

Bu guruh bilimda hukmronlik qilgan, jamoa zahiralarini nazorat qilib sud va jazolash vazifalarini bajargan, axborotning nazoratini yuritib ijtimoiy yaqinlashtiruvga xizmat qilgan. Sotsial institut sifatida tashkil topayotgan dastlabki davlat ilk dehqonchilik, ilk sinfiy jamiyatda ishllb chiqaruvchi iqtisodiyotni tashkil etib, unga xizmat qilgan.

Ushbu konsepsiya davlat va huquq nazariyasida davlatning kelib chiqishi xaqidagi markscha-leninchcha mulohazalardan tubdan farq qiladi. Bu konsepsiya dastlabki shahar davlatlarining tashkiliy funksiyalariga, davlatning kelib chiqishi va ishlab chiqaruvchi iqtisodiyot o‘rnatalishidagi o‘zaro bog‘liqlikka doir yangi bilimlarga asoslangan.

Sinfiy yondashuvga ko‘ra ibridoiy jamiyatdan sivilizatsiyaga o‘tish bosqichida qo‘srimcha mahulot, xususiy mulk paydo bo‘lib, jamiyat sinflarga bo‘linar, hukmron sinf kelib chiqib, u davlatni tashkil qilar va davlat yordamida majburlash yo‘li bilan ekspluatatsiya qilinuvchi sinfni tobelikda ushlab turar, urushlar bo‘lar, asir tushganlar o‘ldirilar, hatto iste’mol ham qilinar edi. Keyinchalik esa ulardan turli ishlarni bajarishda foydalanganliklari sababli dastlabki ekspluatatsiya qilinadigan sinf asir-qo‘llar bo‘lib, qashshoqlashib, qaram bo‘lib qolgan fuqarolar ham ular qatoriga qo‘shilgan edi. Shu sababli birinchi davlat — quidorlik davlati bo‘lib, bir sinfnинг ikkinchi bir sinf ustidan hukmronligini ta’minlaydigan mashina deb ta’riflanardi.

Shahar-davlatlarning funksiyalari turlicha edi. Oqibatda dastlabki bosqichlardoq keng tarmoqli davlat apparati tashkil topdi. Uncha katta bo‘lmagan qadimiy shahar-davlatlarda yozma manbalarga qaraganda, miloddan avvalgi IV—III ming yillarda 80 dan 130 gacha amal va kasblar bo‘lgan. Ilk sinfiy tuzumda jamiyat zodagonlarga, boy shaharliklarga, erkin shaxslarga bo‘lingan. Shahar-davlatlarning dastlabki apparati dehqonchilik jamoalarining sotsial boshqarish tuzumi (dehqonlarning yig‘ini, oqsoqollar kengashi, yo‘lboshchilar, sarkardalar)

asosida tashkil topgan. Keyinchalik bajaradigan funksiyalari, jamoaga yakin qishloqlarga munosabatidan kelib chiqib, shahar-davlatning boshqarish apparati bo‘lib qolgan.

Ilk davlatlarning sinfiy tabiatini vaqt o‘tishi bilan o‘zgargan. Jamiyatning tabaqalanishi, sinflarning tashkil topishi, bilan u yoki bu sinf davlatni egallab olgan, uni o‘z manfaatlariga moslashtirishgan. Sinflar va davlatning tashkil topishi mustaqil, yonma-yon, bir-biri bilan hamkorlikda borgan. Sinflarning tashkil topishi dastlabki davlatning (shumerlarda, mayyalarida, atsteklarda, inkarda, qadimgi Misrda, Hindistonda, Xitoyda) kelib chiqishini pag‘batlantirgan. Shu bilan birga, dastlabki davlatning o‘zi ham sinflarning kelib chiqishiga turki bergan, ilk sinfiy jamiyatning kelib chiqishini tezlashtirgan. Ilk sinfiy davlatlarda jamoa zodagonlarining ajralib chiqishi yanada kuchaygan, mansablarni egallahda sulola mexanizmi yuzaga kelgan (mansablar ajdoddan avlodga qoldirilgan), eng muhimi shu asosda alohida guruuhlar cheksiz boylik orttiravergan.

Ilk davlatlar hukmron sinfning faoliyati natijasidagina kelib chiqqan emas. Bu ishlab chiqaruvchi iqtisodiyot, dehqonchilik madaniyati vujudga kelayotgan bosqichdagi jamiyat taraqqiyotining natijasidir. Ammo, u yoki bu sinf davlatni qo‘lga olib, uning yordamida hukmron sinf bo‘lib qolishi ham mumkin bo‘lgan. Moddiy ishlab chiqarish usuli — jamiyat va ijtimoiy tartiblarning rivojlanishini ta’minlovchi omil, ijtimoiy tarakxiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchidir.

Davlat apparati dastlabki bosqichlardoq keng tarmoqli murakkab tizimga ega edi. U o‘zini saqlash va faoliyat ko‘rsatish uchun ma’lum manbalarga muhtojlik sezgan. Bunday manbalar soliqlar, yig‘imlar va boshqa tushumlar edi.

Davlat asosida tuzilgan har qanday jamiyat samarali boshqarishta muhtoj bo‘lib, uning keyingi rivojlanishi shunday boshqarishni izlash bilan bog‘liqdir.

Davlat o‘z funksiyalarini bajarish uchun odamlarning alohida qatlami — davlat apparatiga ega bo‘lgan. Bu muayyan hokimiyatga ega bo‘lgan, ya’ni zaruriyat tug‘ilganda majburlash, zo‘ravonlik yordamida aholining boshqa tabaqalarini o‘z erkiga buysundirish, u yoki bu manfaatlarni ta’minlovchi kishilar guruhi edi.

Buning uchun ilk davlatlarda, ibridoiy jamiyatning sotsial tizimidan farqli ularoq o‘ziga xos davlat institutlari — sudlar, turmalar, politsiya, armiya paydo bo‘lgan. Ular majburlashga moslashtirilgan organlar edi.

Ilk sinfiy jamiyatda katta sug‘orish inshootlarini va sag‘analarni qurishda o‘n minglab kishilar ishtirok etardi. Lekin, ba’zi hollarda, ko‘pchilik tomonidan qabul qilingan tartib-qoidalarni bajarmaganlarga nisbatan majburlash qo‘llanildi.

Ammo ilk sinfiy davlatlardagi majburlash va maxsus organlarning rolini bo‘rttirib ko‘rsatish kerak emas. Bu davlatlarda umumijtimoiy funksiyalarni, ya’ni mehnat, ishlab chiqarish faoliyatini, jamiyatning ma’naviy hayotini boshqarishga mo‘ljallangan asosiy organlar hisoblanardi.

Davlat ibridoiy jamiyatdan hududiy tashkil topishi bilan farq ham qilardi. Xududiy tuzilishning birinchi bosqichi shahar edi. Shahar odamlarini qarindoshlik asosida emas, balki ma’lum hududga ko‘ra birlashtirgan.

Jamiyat tuzilishining, yangi davlat shaklini tahlil qilish asosida quyidagicha xulosa qilish mumkin. Davlat yagona hududiy kenglikdagi xo‘jalik faoliyati (ba’zi olimlar yagona hududiy kenglikka yagona iqtisodiy kenglikni *ham* qo‘shadilar), turli umumijtimoiy funksiyalarni bajaradigan va davlatning majburlash kuchini ishlata oladigan davlat apparatining mavjudligi, yagona soliqlar va moliya tizimiga egaligi bilan ibridoiy tuzumdan farq qiladi.

Bundan tashqari davlat hududida o‘zaro muloqot quroli sifatidagi til birligi (buvday til bo‘lishi, ma’lumki unda yashovchi etnik guruuhlar xilining mavjudligi va undan foydalanish mumkinligi inkor etilmaydi), yagona mudofaa va tashqi siyosat, transport, axborot, energetik tizim, davlat tomonidan himoya qilinadigan shaxs huquqlarining ma’lum birligi kabilar ham davlatning ibridoiy tuzumdan farqini ko‘rsatadi.

Yuqoridaqilar davlatning paydo bo‘lishiga asosiy sabablardir. Davlat paydo bo‘lishining aniq shakllari esa turlicha bo‘lishi mumkin.

## **Davlat paydo bo‘lishining turli shakllari**

Haqiqatan ham, davlatning paydo bo‘lishi uzoq davom etadigan murakkab tarixiy jarayon bo‘lib, bu jarayon, turli xalqlarda, turli mintaqalarda har xil kechgan. Sharqda davlat kelib chiqishining Osiyocha ishlab chiqarishga asoslangan shakli keng tarqalgan. Bunga qadimiy Misr, Bobil, Hind, Xitoy davlatlarining paydo bo‘lishini ko‘rsatish mumkin. Bu davlatlarda urug‘doshlik tuzumining ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmalari bo‘lmish yerga jamaa mulkchiligi, kollektiv mulkchilik va boshqalar o‘ta barqaror bo‘lgan. Bu davlatlar bir vaqtning o‘zida ham qishloq xo‘jalik muamoalarini ekspluatatsiya qilgan, ham ishlab chiqarishning tashkilotchilari bo‘lgan.

Afina va Rimda esa davlatning kelib chiqish jarayoni o‘zgacha yo‘ldan borgan. Qadimgi Afinada urug‘doshlik jamiyatni ichida avj olgan sinfiy qarama-qarshiliklardan davlatning sof klassik shakli paydo bo‘lgan. Rimda plebeylarning uzlusiz kurashi natijasida urug‘doshlik tuzumi yemirilib, uning harobalari o‘rnida davlat paydo bo‘lgan. Germanlarda esa davlat boshqa hududlarni bosib olish natijasida paydo bo‘lgan.

Davlatning kelib chiqishidagi umumiy prinsiplar muayyan tarixiy sharoitlarda har xil bo‘lgan. Davlat qisman urug‘doshlik tuzumini o‘zgartirish, qisman bu tuzumga yangi organlar kiritish yoki bu tuzumni surib chiqarish, shuningdek, davlat hokimiyatining chinakam organ lari bilan to‘la almashtirish orqali paydo bo‘lgan.

Davlat aslo jamiyatga tashqaridan zo‘rlab kiritilgan kuch emas. Davlat, Gegel aytgan, «ma’naviy g‘oyaning haqiqatga aylanishi», «aklning obrazi va haqiqatga aylanishi» ham emas. *Davlat — kishilik taraqqiyotining ma’lum bosqichida kelib chiqqan sivilizatsiya mahsulidir.* Demak, davlat jamiyatning mahsuli. U jamiyatning siyosiy tashkiloti bo‘lib, muayyan hududda sinfiy, umuminsoniy, diniy, milliy va boshqa aniq manfaatlarni amalga oshirishga ko‘maklashadi.

**Davlat — insoniyat hayotining muhim obyektiv tashkiliy shaklidir. U ma’lum iqtisodiy, ijtimoiy va ma’naviy muhitdan kelib chiqqan, siyosiy hayotda katta o‘rin va sotsial qimmatga ega.**

Davlatning paydo bo‘lishi — tarixiy qonuniyat.

Insoniyat davlat paydo bulguniga qadar o‘z taraqqiyotida uzoq yo‘lni bosib o‘tgan. Davlat ham, huquq ham bo‘lidan ibridoiy jamiyat asosan ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi bilan farq qiladigan turli bosqichlarni o‘tgan. Mehnat qurollarining rivojlanishi va takomillashishi, yirik ijtimoiy mehnat taqsimoti (ziroatchilikning chorvachilikdan, hunarmandchilikning dehqonchilikdan ajralishi, savdoning alohida iqtisodiy sohaga aylanishi) natijasida mehnat unumдорligi oshgan, ortiqcha maxsulotlar hosil bo‘lgan. Bu esa xususiy mulkchilikka va jamiyatning mulkiy jihatdan qatlamlarga ajralishiga olib kelgan. Natijada asosiy mashg‘uloti xususiy mulkchilik munosabatlarini va mulkdorlar manfaatini himoya qilishdan iborat bo‘lgan kishilarining maxsus guruhlari yuzaga kelgan.

Shunday qilib, ibridoiy jamiyatdagi sarkardalar, oqsoqollar, qabila boshliqlari, diniy hokimiyat egalariga tegishli bo‘lgan ijtimoiy hokimiyat asta-sekin davlat hokimiyatiga aylangan. Davlat paydo bo‘lgincha mavjud bo‘lgan jamiyatdagи ijtimoiy hokimiyatni saqlashning asosiy vositasi — oliy ruhoniylarning shaxsiy obro‘sni edi. Davlat hokimiyatining mohiyatini esa majburlash tashkil eta boshlagan. Insonning jamiyatdagи mavqeи tubdan o‘zgargan. Agar ibridoiy jamiyatda insonning mavqeи alohida shaxsning oilaga, uruqqa yoki qabilaga mansubligi bilan belgilangan bo‘lsa, davlatga ega jamiyatda insonning mavqeи uning huquqiy holati va davlat hokimiyati egalariga shaxsiy yaqinligiga qarab belgilanadi.

Davlat jamiyat rivojining muayyan bosqichida yuzaga kelgan. U o‘zining shakllanishi va rivojlanishida uzoq, murakkab yo‘lni bosib o‘tgan. Jamiyat rivojining dastlabki bosqichlarida Davlat yetarlicha rivojlanmagan siyosiy tashkilot edi. Bunday davlat eng avvalo majburlashga asoslangan.

Demokratiya sharoitida davlat sivilizatsiya talablariga mos tarzda rivojlanadi. U iqtisodiy va ma’naviy omillar asosida hokimiyatning mamlakatdagи tartib-intizomni

ta'minlaydigan bir butun tashkilotiga aylanadi. Davlat o'zining asosiy vazifasini — xalq hokimiyatchiligi, iqtisodiy erkinlik, mustaqil shaxs erkinligini amalga oshiradi.

### Davlatning kelib chiqishi to‘g‘risidagi nazariyalar

Davlatning kelib chiqishi to‘g‘risida turli nazariyalar mavjud.

Davlatning kelib chiqishi haqidagi *patriarxal nazariyasiga* binoan, davlat oilaning taraqqiy etishi natijasida paydo bo‘lgan. Oiladan urug‘-qabila — davlat vujudga keladi.

Patriarxal nazariya tarafdorlari davlat bevosita kattalashib ketgan oiladan kelib chiqqan, monarx hokimiyati esa oilaning barcha a’zolariga rahbarlik qiladigan otadan meros bo‘lib o‘tgan deb hisoblaydilar. Ushbu nazariya Yunonistonda (qadimgi Gretsiyada) paydo bo‘lgan va Arastu (Aristotel) asarlarida asoslab berilgan, XVII asrda yashagan ingliz olimi Filmerning «Patriarx» asarida rivojlantirilgan. Muallif Injilga asoslanib, Odam Atoning hokimiyatni xudodan olib, o‘zining katta o‘g‘li — patriarchga, u esa o‘zining avlodlari bo‘lgan qirollarga bergenligini isbotlashga uringan.

Patriarxal nazariya ingliz sotsiologi, tarixchisi va yuristi Genri Men (1822—1888) tomonidan yaratilgan. Bu nazariyaning Rossiyadagi tarafdori rus olimi N. Mixaylovskiy edi. U urug‘doshlik aloqalarining yo‘q bo‘lishiga va davlatning paydo bo‘lishiga urug‘doshlik aloqalarining davomi bo‘lgan milliy aloqalarning rivojlanishi sabab bo‘lgan deydi. Uning ta’biri bo‘yicha dastavval oila vujudga kelgan, oila o‘sib kabilaga aylangan, qabila esa o‘sib borib davlatga aylangan.

XVII—XVIII asrlarda davlatning kelib chiqishining *shartnomali nazariyasi* paydo bo‘lgan. Bu nazariyaga ko‘ra, hokimiyat xalq tomonidan, xalqning monarx bilan bitim tuzish natijasida o‘rnataladi. Shartnomali nazariyaning vakillari Gollandiyada Hugo Grotsiy va Spinoza, Angliyada Lokk, Fransiyada Jan Jak Russo, Rossiyada Radishchev bo‘lgan.

Russoning kitobi aynan shunday: «Ijtimoiy shartnoma» deb atalgan. Shartnomali nazariyaga odamlar qo‘zg‘olon ko‘tarish, monarxlarni qulatish huquqiga ega, ular davlatga birlashib, o‘zlarining tabiiy erkinliklarini yo‘qotmaydigan balki cheklaydilar, xolos, degan tabiiy huquqiy ta’limot asos qilib olingan. Shartnomali nazariyada insonning tabiiy huquqlari asoslab berilgan. Shartnoma nazariyasiga ko‘ra, davlat ongli ijod mahsuli, odamlar kelishgan ahd natijasi. Davlat — o‘zaro kelishuv asosida va ongli tarzda birlashgan kishilar tashkiloti bo‘lib, ana shu shartnoma asosida ular o‘zlarining erkinliklari va hokimiyatining bir qismini davlatga beradilar.

**Zo‘ravonlik nazariyasi** davlatning kelib chiqishini bosqinchilik yoki bir kabilaning boshqa qabilani bosib olishi bilan izohlaydi. Bu nazariya tarafdorlari sinflar va davlatni urush, zo‘ravonlik, bosqinchilik mahsuli, deb izohlaydi. Davlat g‘olibning hokimiyatini mustahkamlash uchun tuziladi. Zuravonlik nazariyasining vakillari avstriyalik yurist L. Gumplovich, nemis nazariyotchisi YE. Dyuring va K.Kautskiylardir.

Bosqinchilik, zo‘ravonlik davlatning paydo bo‘lish jarayonini to‘xtatib qolishi yoki tezlashtirishi mumkin, lekin u birinchi sabab bo‘lolmaydi. Davlatni vujudga keltiruvchi bosh omil moddiy ishlab chiqarshning taraqqiyot darajasi, ishlab chiqaruvchi kuchlar darajasidir.

Davlat kelib chiqishining psixologik nazariyasi ham bor. Bu nazariya tarafdori sotsiolog Gabriel Tarddir. Bu nazariya davlatning kelib chiqishini kishilarning hukmronlikka va buysunishga bo‘lgan ehtiyoji bilan izohlaydi. Rus olimi Korkunov, professor Petrojitskiylar ham davlat insonning buysunishga intilishi doirasida paydo bo‘ladi, deb hisoblaganlar. Psixologik nazariya xalqni alohida xususiyatlarga ega bo‘lgan kishilarga buysunishni istovchi passiv omma deb biladi.

Davlat kelib chiqishining psixologik nazariyotchisi sotsialist Rudolf Pamperiyen davlatning kelib chiqishini kishilarga xos bo‘lgan hokimiyat instinkti bilan izohlaydi, hokimiyat instinktini ochlik yoki sevgi instinkti bilan taqqoslaysi. U davlatga qarashlarni oilada vujudga kelgan tasavvurlar bilan bog‘lashga va bu bilan psixologik nazariyani patriarchal nazariya bilan birlashtirishga urinadi.

**Irrigatsiya nazariyasiga** ko'ra, davlatning kelib chiqishi, ularning ilk shakllari Sharqdagi ulkan irrigatsiya inshootlarini qurish va ulardan foydalanish bilan bog'liq. Ushbu nazariya nemis olimi Vittfogelning «Sharq istibdodi» asarida ifodalab berilgan.

**Sinfiy nazariya** namoyandalarining, K.Marks, F. Engels, V.I. Lenin fikricha, davlat iqtisodiy sabablar — ijtimoiy mehnat taqsimoti, qo'shimcha mahsulot, xususiy mulkning paydo bo'lishi, jamiyatning qarama-qarshi iqtisodiy manfaatlarga ega sinflarga ajralishi tufayli kelib chiqqan. Ushbu jarayonlarning obyektiv natijasi o'laroq davlat o'zining maxsus boshqarish va bostirish vositalari bilan ana shu sinflarning kurashini bostirib turadi. Bunda davlat hukmron sinf manfaatlarini himoya qiladi.

Davlat kelib chiqishining *sinfiy nazariyasi*, ya'ni markscha-leninchcha ta'lilot davlat va huquqning mohiyatini ularni vujudga keltirgan iqtisodiy bazis bilan bog'liq ravishda olib karaydi. Bu nazariyaning o'ziga xos xususiyati — davlatning sinfiy mohiyatini e'tirof etish ham davlatni materialistik talqin qilishdir. Bu nazariyaga ko'ra, har qanday davlat jamiyatga nisbatan butun jamiyat irodasining ifodachisi sifatida emas, balki iqtisodiy hukmron sinfning quroli, ekspluatator sinflarning ekspluatatsiya qilinuvchilarni ezish, bostirish quroli sifatida maydonga chiqadi.

Sinfiy nazariya tarafdarları davlatni hukmron sinfning siyosiy hokimiyat tashkiloti, huquqni esa shu sinfning qonun holiga keltirilgan irodasi deb k. araydi. Bu ta'lilotga ko'ra, davlat sinflarning bir-biriga nisbatan qarama-qarshiligidini jilovlab turish uchun zarur bo'ladi, davlat yordamida iqtisodiy hukmron sinf siyosiy hukmron sinf ham bo'lib qoladi, bu sinf davlat siymosida mazlum sinfnı bostirib, ezish uchun yangi qurolg'a ega bo'ladi.

**Teologik nazariya** vakillari davlatning xudo tomonidan yaratilganligini uqtiradilar. Ular «butun hokimiyat xudoniki» degan qoidani ilgari suradilar. Bu nazariya qadimda paydo bo'lgan va o'rta asrlarda keng tarqalgan. Ushbu nazariya teokratik, ya'ni davlat boshliga ayni paytda uning diniy raxnamosi bo'ladigan davlat qaror topgan davrdagi jarayonlarni aks ettiradi.

Davlatning kelib chiqishi to'g'risidagi ayrim nazariyalar shulardan iborat. Bu nazariyalar davlatning kelib chiqishiga sabab buluvchi turli omillarni ko'rsatadilar. Davlatning vujudga kelishiga iqtisodiy, harbiy, siyosiy, mafkuraviy, biologik, ilohiy, ison ruhiyati va boshqa omillvar sabab bo'lishi mumkin.

Iqtisodiyot davlat va huquqda nisbatan birlamchi kuch, davlat esa ikkilamchi kuch bo'lib maydonga chiqadi. Davlat iqtisodiyotning hosilasi, lekin paydo bo'lgandan keyin u ma'lum nisbiy mustaqillikka ega bo'ladi, jamiyat hadyotida va uning iqtisodiy taraqqiyotida aktiv rol uynaydi. Davlat iqtisodiyotga nisbatan ijobiy va salbiy rol uynashi mumkin. Agar davlat o'z umrini o'tayotgan ishlab chiqarish munosabatlarini himoya qilsa, o'z taraqqiyotiga to'sqin bo'ladi. Agar davlat yangi ishlab chiqarish munosabatlarini rivojlantirishga yordam bersa, yangi, yanada progressiv jamiyatning iqtisodiy negizini barpo etishga intilsa, ijobiy ilg'or kuch bo'lib maydonga chiqadi.

### **Huquq kelib chiqishining asosiy sababları**

Neolit inqilobi insoniyat tarixini, uning taraqqiyotini ikki usulga — o'zlashtiruvchi va ishlab chiqaruvchi iqtisodiyotga bo'linishining chegarasagina emas, balki murakkabligi jihatdan davlatdan qolishmaydigan sotsial institut bo'lmish huquqning kelib chiqishini o'rganish uchun ham muhim metodologik asosdir.

Agar davlatning kelib chiqishi jarayonini o'rganishda ibtidoiy jamiyatdagi tashkiliy va sotsial tuzilmalarni o'rganishga asosiy e'tibor bsrilgan bo'lsa, huquqning kelib chiqishini o'rganishda ibtidoiy jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish usullariga e'tibor berish lozim.

Shu munosabat bilan bir necha tabiiy savollar tug'iladi. Inson va uning turli uyushmalari ypyg', jamoa, aymoq va shunga o'xshashlarning hatti-harakatlarini nima belgilab bergen, qanday k;ilib ta'minlagan? Huquq eng qudratli sotsial tartibga solish vositasining biri bo'lganmi yoki u kishilik jamiyatni taraqqiyotining ma'lum bosqichida kelib chiqqanmi? Davlat kelib chiqqunga qadar va davlat tashkil topgandan keyingi jamiyatlardagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish tizimi bir-biridan nima bilan farqlanadi?

Huquqning kelib chiqish sababları va mohiyatini hal qilish davlat va huquq nazariyasining eng asosiy masalalaridandir.

Sovet davrida chiqqan davlat va huquq nazariyasiga oid darsliklarda hukukning kelib chiqishi masalasi davlatning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq ravishda ko‘rib chiqilgan. Bunda sinfiy hamiyat a’zolari hatti-harakatini, xususiy mulkni himoya qilishni, sinfiy hukmronlikni, ekspluatatsiyani tartibga solishii o‘rganishda asosiy e’tibor majburlash, zo‘rlik imkoniyatiga qaratilardi. Huquqning jamiyatning yangi holatini qo‘llab-qo‘vvatlash tizimi sifatidagi umumijtimoiy ahmiyatiga, umuminsoniy qadriyat sifatidagi jihatlariga yetarlicha e’tibor berilmasdi.

Bunday o‘ta sinfiy yondashuv jamiyat hayotidagi zo‘rlikning o‘rnii bilan, davlatning sinfiy zo‘ravonlik mashinasi, huquq esa uning quroli, tayanchi, zo‘rlikning shakli deb tushunadigan markscha-leninchta tasavvur bilan bog‘liq. Hozirgi zamon huquqshunoslik fani umumlashirgan yangi tarixiy ma’lumotlar huquqning paydo bo‘lishidagi muhim tomonlarni e’tiborga olishni taqozo etadi. Bu ma’lumotlar insonning hatti-harakatlarini ilk sinfiy jamiyatda tartibga solish ibtidoiy jamiyatdagi tartibga solishdan nafaqat mazmuni va tartibga solish usuli bilan, balki boshqa bir qator muhim jihatlari bilan ham farq qilib turishidan guvoxlik beradi.

Miloddan avval IV-III minginchi yillarda ijtimoiy tartibga solish tizimida yangi element — dehqonchilik jamiyatida ishlab chiqarish faoliyatini yozma normalarda aniq belgilab qo‘yish paydo bo‘lgan.

Normativ dehqon taqvimlarining paydo bo‘lishi normalarni yangicha qayd etish, ularning yangicha ifoda etilishi edi. Miloddan avvalgi IV-III ming yillarda Mesopotamiya, Misr, Hindistondagi dehqonchilik jamiyatlarining taqvimlarida huquq paydo bo‘la boshlagan.

Shahar-davlatlar rivojlanishining keyingi bosqichlarida ta’qiqlovchi, ijozat beruvchi, pozitiv majburlash tizimini ifodalaydigan, barcha tartibga soluvchi tizimning axborotini umumiyl, dunyoviy shaklga o‘tkazgan yozma manbalar kelib chiqqan. Lekin bu manbalar avvalgidek diniy-e’tikrd bilan bog‘lanishni saklagan edi. Shu bosqichda qonunlar, kodekslar, qonunlar tuplami, qonunlarni, sud tajribasini sistemalashtirish kelib chiqqan. Bizga ma’lum ilk qonunlar to‘plami — podsho Ur-Nammu (Shumer davlatida) miloddan avvalgi III ming yillikda qabul qilgan qonunlar edi.

Bizgacha yetib kelgan ilk sinfiy jamiyatning qonunlari birinchi davatlarning tuzilishini ifodalaydi. Ular birinchi siyosiy uyushgan jamiyat hayotining hamma tomonlaridagi vogelikdan ancha uzoq edi.

Huquq rivojlanishining dastlabki bosqichlarida «ijobiy» qonunlar paydo bo‘lgan. Ular xalq ommasining kurashini cheklab turgan ekspluatatsiyani kuchaytirishga yo‘naltirilgan huquqni tashkil qilgan. Bunday kurash eng qadimiy huquqiy hujjatlar — Xammurappi qonunlarida, Salon islohotlarida, XII jadval qonunlarida o‘z ifodasini topgan.

Huquq paydo bo‘lishi bilanoq umumijtimoiy funksiyani bajarish bilan birga, normativ sinfiy tartibga solish (hukmron sinf nuqtai nazaridan turib ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish) vazifasini ham bajargan.

Ilk sinfiy jamiyatda protseduralar tartib qoidalar ta’minalash shakllari sifatida yangi xususiyatga ega edi. Avvaliga ilk sinfiy jamiyatning normalarini sotsial nazorat qilish yangi usullari tashkil topgan. Ibtidoiy jamiyatda jamoa, guruhlar, jamoa oqsoqollari shunday nazoratchi sifatida ishtirok etardi. Ilk sinfiy jamiyatda esa ularning o‘rnini maxsus tayinlangan mansabdar shaxslar (masalan: ja-moachi — dexkrnlarning ishga chikishini hisobga oluvchi, mehnatini tashkil qiluvchi hisobchilar), maxsus tuzilgan davlat institutlari — politsiya, armiya egallagan. O‘zaro nizolarni hal qilish uchun maxsus davlat organi — sud tashkil qilingan. Shuningdek, qonunlarni tatbiq qilish, tartibbzarlarni jazolash uchun undan foydalangandar.

U yoki bu bitimlarni, vakolatnomalarni va boshqa protsedura hujjatlarini tasdiqlashni kasb qilib olgan shaxslar paydo bulgan. Endi-likda davlat shartnoma munosabatlari aralasha boshlagan. Shu asnoda ilk sinfiy jamiyatning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish tizimi protsedura tomonidan rasmiylashtirilgan institusiyaviy xarakter kasb eta boshlagan.

Ilk sinfiy jamiyatlarda odat huquqiga o'sib o'tgan odatlar ham bo'lgan. Bu odatlarni davlat apparati jumladan sud e'tirof etgan va himoya qilgan.

Odat huquqining uziga xos protsedura tomonlari bor. Unda o'tmish sarqitlarining shakllari hali kuchli saqlangan. U etnik marosimlar, ramzlar, sud jarayoni tartiblari, din, axloq aqidalaridan, hatto folkloridan hali to'liq ajralmagan. Ilk sinfiy jamiyatdan to'liq ma'nodagi jamiyatga (Osiyo ishlab-chiqarish usulidagi, Yevropa tipidagi quzdorlik, feudal davlatlari) o'tish bilan odat huquqi pretsedentga o'rnini bo'shata boshlagan. Lekin huquqiy pretsedent ham mahalliy sharoitni, sinfiy o'ziga xoslikni hisobga olgan. Faqat statut huquqi (qonunlar) astasekin odat va pretsedent huquqini to'ldirib, uni siqib chiqara boshlagan.

Ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning bunday tizimi boshqacha yondashuvni va ahloq qoidalarini o'rnatishni, aholini xabardor qilishning yangi usullarini talab qilgan. Masalan, adolatli narx-navoni belgilovchi Xammu-rappi qonunlari toshlarga o'yib yozilgan va ular bozorga yaqin joyga o'rnatilgan.

Shuningdek, sanksiyalar ham avvalgi bosqichda qo'llanilgan tadbirlardan mutlaqo farq qilgan. Ilk sinfiy huquqda ular o'sib kelayotgan mulkiy va ijtimoiy tengsizlikka xizmat qila boshlagan. Bu holat ijtimoiy jihatdan yuqori turuvchilarning mulkini himoya qiluvchi sanksiyalarning keskin kuchayishida, shaxsga qarshi qaratilgan jinoyatlar uchun beriladigan jazolarni shaxsning mavqeiga qarab (erkin shaxs, qul, erkak, ayol, bolalar) belgilashda, imtiyozlarning qonunlashtirilishida ifodalangan. Bibliyada, masalan, «kimdir biror shaxsni urganda u vafot etsa, o'limga hukm qilinsin. Agar, u o'z qulini yoki xizmatkorini tayoq bilan urganda ular qazo qilsa, bunday shaxs jazolanishi lozim» — deb ko'rsatilgan.

Jazolarning bunday tabaqlanishi ilk sinfiy jamiyatlarda keng tarqalgan. Sotsiologiya fani ma'lumotlariga qaraganda, ilk huquq, uchun quyidagi holat xosdir: ilk sinfiy jamoaning undan yettisida bir xildagi jinoyat uchun oddiy jamoa a'zolari yuqori tabaqa vakillariga nisbatan qattiqroq jazolangan, bittasida barobar va faqat ikkitasida — masala aksincha hal qilingan. Ilk huquq, sanksiyalari — mulkiy jarima, pul jarimalari, tan jarohati, o'lim jazosi qat'iy o'rnatila boshlagan.

Yurish-turish qoidalari ya'ni normalar aniq mantiliy tuzilishga ega bo'la boshlagan. Sanksiyalar diniy elementlardan xolis bo'la boshlagan. Bunda boshqacha sanksiyalar koxinlar va din xizmatchilari tomonidan emas, balki davlat tomonidan, uning maxsus apparati tomonidan qo'llangan. Shart (gipoteza) ni, qoidaning o'zi (dispozitsiya) ni va oqibat (sanksiya)ni bir normada berish (normativ) tartibga solish tizimining rivojlanishida, huquq o'matilishida muhim bosqich hisoblanadi.

Huquqning mazmuni, uni qo'llash usullari ifodalash shakllari, jarayoni, ta'minlash usullar, hamda yangi huquq normalari haqida axborot berish tizimi haqidagi holatlarni hisobga olish bilan o'zlashtiruvchi jamiyatning sotsial normalari o'rtasidagi farqlarni, jamiyatda huquq va boshqa regulatorlar o'rtasidagi farqlarni aniqlab olish mumkin.

Shunday qilib, huquq — ilk sinfiy jamiyat tashkil topayotgan bosqichdagi ishlab chiqaruvchi xo'jalikni, erkin jamoachi dehqonlar va hunarmandlar mehnatini tartibga soluvchi normativ usul sifatida vujudga kelgan. *Huquqning kelib chiqishi qishlok, xo'jalik mehnati jarayonini va uning natijalarini tatssimlashni tartibga soluvchi maxsus qoidalarning tashkil topishi bilan bog'liqdir*. Bu qoidalalar dehqon taqvimlari shaklida maxsus belgilangan. Shu bilan birga bu normalar haqida axborot beruvchi, ularning ijrosini nazorat qiluvchi mustaqil tizim ham rivojlanib borgan.

Shahar-davlatlarning, sinflarning kelib chiqishi jarayonida huquq shahar-davlatlarning funkpiyalarini ta'minlash usuli edi. Dehqonchilik jamoalarining tabaqlanishi, sinfiy jamiyatning rivojlanishi, xususiy mulk va pul tovar munosabatlarining kelib chiqishi bilan huquq aniq sinfiy harakterga ega bo'la boshlagan. Endi u sotsial guruhlarning iqtisodiy va boshqa manfaatlariga xizmat kila boshlagan. Bu mulkni himoya qiluvchi sanksiyalarni kuchaytirish orqali amalga oshirilgan.

### **Huquq paydo bo'lishining asosiy bosqichlari va o'ziga xos belgilari**

Huquqning paydo bo'lishida asosan 3 ta bosqichni ajratib ko'rsatish mumkin.

*Birinchi bosqich* — xukuhning paydo bo‘lish boskichi. U asosan ishlab chiqaruvchi iqtisodiyot shakllari vujudga kelayotgan jamiyatga xosdir.

*Ikkinci bosqich* — ushbu tartibga solish tizimi qoidalarining shakllanishi davri. Bu bosqich ishlab chiqaruvchi iqtisodiyotning turli shakllari to‘liq o‘rnatilgan jamiyatlarda mavjud edi.

*Uchinchi bosqich* — bir qator ilk davlatlarda huquqning yozma tarzda muayyan tizimga solinishi, ya’ni kodifikatsiyalashishidir.

### **Huquqning ilk funksiyalari**

Huquqning ilk funksiyalari paydo bo‘lishi tarixiy edi. Uning ijtimoiy ahamiyati katta. Bu ilk sinfiy jamiyatning dastlabki bosqichlarida huquq bajaradigan funksiyalarda ko‘rinadi.

*Birinchidan*, huquq normal tashkiliy-mehnatni, jamiyatning ishlab chiqarish faoliyatini, normal iqtisodiy axborot ishlab chiqarishni, mahsulot iste’moli va ayirboshlashni tartibga solish funksiyasini bajaradi.

*Ikkinchidan*, huquq davlat tuzumini, jamiyatning ijtimoiy tuzilishini, iqtisodiy hayotning tashkil etilishini, ma’lum sotsial guruhlarning hukmronligini, mafkura asoslarini, dehqon jamoalarining, jamiyatning boshqa a’zolarining hayoti, erkinligi, mulkini qo‘riqlash funksiyasini bajaradi.

*Uchinchidan*, huquq jamiyatdagi qarama-qarshiliklarni, o‘zboshimchaliklarni va boshqa sotsial ziddiyatlarni yumshatadi. Bu uning gumanistik funksiyasidir.

*To‘rtinchidan*, huquq bir qator zaruriy prinsiplarni va yurish-turish qoidalarini, ruhiy va ahloq qoidalarini ijtimoiy ongga singdiradi. Bu uning mafkuraviy funksiyasidir.

*Beshinchidan*, huquq yosh avlodni, jamiyatning hayotiy maqsadlarini, sotsial hayot ideallarini, ahloqiy va huquqiy qadriyatlarni o‘zlashtirishga tayyorlaydi. Bu uning tarbiyaviy funksiyasi bo‘lib, juda muhim hisoblanadi.

Huquqning yana bir funksiyasi ko‘plab munozaralarga sabab bo‘lmokda. Bu yerda hukmron guruhlar hukmronligini, davlatning sinfiy zo‘ravonlik, harbiy bosqinchilik va shunga o‘xshash noqonuniy harakatlarini asoslash va ta’minalashda huquqdan foydshanish haqda gap boryapti. Bu funksiya huquq paydo bo‘lishining muhim masalalaridan biri bo‘lib, turli huquqiy nazariyalarda turlicha hal qilinadi. Shuni ta’kidlash lozimki, huquq kelib chiqishining dastlabki bosqichidayoq sinfiy zo‘rlikni, davlatning majburlash funksiyasini ta’minalashga xizmat qilgan. Zo‘rlik funksiyasini yuridik ifodalash huquq mavjudligining hayotiy voqeligidir. Lekin bu funksiya huquqning asosiy sotsial ahamiyati va vazifasi emas va funksiya ma’lum vaqtida, odatda jamiyatning ichki va tashqi hayotida favqulorra holat yuz bergandagina amalda bo‘ladi.

Zo‘rlik funksiyasining paydo bo‘lishi — huquq tizimi va davlat hokimiyatining o‘zaro munosabatidagi nomutanosiblik, obyektiv va subyektiv omillarning harakati natijasidir. Demak, huquqning «zo‘rlik» funksiyasini xaspo‘splash kerak emas, shu bilan birga, uni huquqning asosiy funksiyasi deb qarash ham yaramaydi. Bunday holat huquqning ijtimoiy qimmatini aslo kamaytirmaydi. Yuqorida sanab o’tilganlar xuquqning doimiy amaldagi funksiyalaridir.

### **Huquq kelib chiqishi haqidagi nazariyalar**

Huquqning kelib chiqish jarayoni va funksiyalarini o‘rganishda uning davlat hokimiyati bilan o‘zaro bog‘liqligi masalasini chetlab o‘tish mumkin emas. Ilk davlatlardayoq huquq davlat organlari, ularning vakolatlari, faoliyati doirasi, ya’ni hokimiyat tuzilishini o‘rnatuvchi va mustahkamlovchi, davlat hokimiyati tashkil qilishining asosi sifatida paydo bo‘lgan.

Huquq, bir tomonidan, davlat tashkiliy to‘zidishining zaruriy elementi, ikkinchi tomonidan esa davlat hokimiyatini amalga oshirish shakli, davlatni boshqarish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Odatda davlat hokimiyati qonunlarni, boshqa huquqiy hujjatlarni qabul qilish bilan shug‘ullanadi, ularning bajarilishini ta’minalaydi. Bu davlat hokimiyatini amalga oshirishning odatdagagi huquqiy shaklidir.

Kayerda davlat hokimiyati huquqiy shaklda bo‘lmasa, o’sha davlatda o‘zboshimchalik, shaxsiy hukmronlik, byurokratiya hukmronlik qiladi, xalq uchun salbiy oqibatga ega bo‘lgan juda katta ijtimoiy xaloqatlar kelib chiqadi. Shuning uchun ham davlat hokimiyatining huquqiy shakllar bilan ta’milanishi — davlat hokimiyati tashkil etilishi va

faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Huquq uchun esa bu — paydo bo‘lish va rivojlanishning yana bir obyektiv vositasi hisoblanadi.

Shunday qilib, davlat va huquq nazariyasida huquq ijtimoiy institut sifatida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham davlat va huquqning kelib chiqishini o‘rganish uchun huquqiy nazariyalarga katta o‘rin berilgan.

*Tabiiy huquq nazariyasi.* Bu nazariya tarafdarlarining fikricha, davlat tomonidan o‘rnatilgan huquqdan tashqari insonga (u tug‘ilishi bilan) xos bo‘lgan tabiiy huquq mavjud. Bu huquqni jamiyat ham, davlat ham insonga xadya qilmagan. Huquq inson va uning faoliyatining asosiy shartidir. Shaxsning tabiiy huquqlariga yashash, erkinlik, tenglik, mulkka e galik va boshqa huquqlar kiradi. Tabiiy huquq — amaldagi pozitiv huquqqa (qonunlarga, odatlarga, pretsedentlarga) nisbatan oliv huquq bo‘lib, u o‘zida idrok va azalii adolatni mujassamlashtiradi.

Tabiiy huquq nazariyasi, ijtimoiy voqelik sifatida insondagi azaldan mavjud huquqlar yig‘indisi bo‘lib, u huquqning kelib chiqishi muammosini mohiyatan yo‘qqa chiqaradi. Bu nazariya jamiyat ehtiyojlari va tartibga solish tizimining rivojlanishidagi ma’lum bosqichning obyektiv natijasi bo‘lmish huquqhning davlat, sinflar va boisha sotsial tizimlarning kelib chiqishi bilan bog‘liqligini inkor etadi.

Bu nazariya huquq kelib chiqishining obyektiv jarayonlarini o‘rganish va tushuntirishda har bir insonda ijtimoiy voqelik sifatida ma’lum miqdorda huquqlar bor deb hisoblaydi.

Tabiiy huquq nazariyasi juda katta ijtimoiy salohiyatga ega. Chunki, adolat, insonparvarlik, demokratizm, oddiy idrok bilan amaldagi huquqni (agar u ijtimoiy taraqqiyotga, jamiyatning farovonligiga to‘siq bo‘lsa), baholaydi va tanqid qiladi.

Sotsialistik mamlakatlardagi ma’muriy buyruqbozlik, o‘ta markazlashgan, davlat mulkiga tayangan hokimiyat va rejali boshqarish tizimidan demokratik huquqiy tizimga, bozor iqtisodiyotiga, inson huquqlarini tan olish va himoya qilishga, turli mulkchilik shakllariga, jumladan xususiy mulkka o‘tishda tabiiy huquq nazariyasi o‘zining ijtimoiy ahamiyatini yaqqol namoyon etdi.

Tabiiy huquq nazariyasi o‘z dalillarini diniy nuqtai nazardan turib asoslashi orqali huquqning kelib chiqishi hakidagi *ilohiy* (*teologik*) nazariya bilan ham boklanadi. Haqiqatan ham, agar inson tabiiy huquqlarga dunyoga kelishi bilan ega bo‘lsa, bu holat iloxiy kelib chiqsh bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Boshqacha aytganda, diniy e’tiqod bo‘yicha bu huquqlarni insonga jamiyat yoki davlat emas, balki Yaratganning o‘zi beradi.

Teologik (iloxiy) nazariyasida, ayniqsa, foma Akvinskiy (XII — XIII asrlar) davridan boshlab, amaldagi huquqning asosini ilohiy qonunlar va tabiiy huquqlar tashkil qiladi deb e’lon qilingan. Bu nazariyani islom dini va katolik cherkov namoyondalari qo‘llaydilar. Huquqning kelib chiqishini tushuntirishda teologik nazariya tarafdarlari asosiy qonunlar insonga Xudo tomonidan beriladi deb ko‘rsatilgan diniy kitoblarga tayanganlar.

Ilohiy nazariya ilk sinfiy jamiyat ijtimoiyiqtisodiy hayotining tajribasini, quldarlikning ayrim tomonlarini umumlashtirgan va mustadkamlagan, o‘z davrining mahsuloti bo‘lgan qonunlarga umumiyl, universal ahamiyat beradi, ularni ilohiy aqlning obro‘sni bilan mustahkamlaydi.

Tabiiy huquq va ilohiy nazariyalardan farqli o‘laroq, huquqning *tarixiy maktabi* huquq kelib chiqishidagi aniq tarixiy jarayonlarga katta e’tibor beradi. Huquqning tarixiy maktabi IX asrning birinchi yarmida Germaniyada tashkil topgan. Savini (keyinchalik Prussiya qirolining adliya vaziri bo‘lgan) va uning tarafdarlari asarlarida asosiy e’tibor odat huquqiga, o‘sha davrdagi Yevropaning mahalliy huquq tizimlariga qaratilgan edi. Bu mualliflarning fikricha, huquq qonun chiqaruvchilar tomonidan vujudga keltirilmaydi, huquq xalq ruhining (til paydo bo‘lishi kabi) rivojlanishi natijasida o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladi, huquqshunos olimlar esa xalq ruxining namoyon bo‘lishini sezishlari va ifoda etishlari, uning nizolarini yuridik formulalarda bayon qilishlari, qonun chiqaruvchi esa tayyor huquqni topib, uni amaldagi qonunga aylantirishi lozim. Huquq Savini fikricha, xalq ruhi rivojining mahsulotidir.

Huquqning tarixiy maktabi tarixiy nuqtai nazardan, «huquq — tarixiy taraqqiyotning obyektiv natijasi», deb to‘g‘ri xulosa chiqargan. «Xalq ruhi» — deganda nimani tushunish mumkin? YA’ni gap uning rivojlanishining dastlabki sababi nimada ekanligida.

Huquqning tarixiy maktabi — huquqning kelib chiqishini o‘rganishda nazariy-huquqiy tafakkurda olg‘a qo‘ylgan katta qadamdir. Bu maktab huquqning kelib chiqishida etno madaniyat qatlaming ahamiyatini to‘g‘ri ilg‘ab ola bilgan va turli xalqlarda bu jarayonning xususiyatlarini ko‘ra bilgan. Shuningdek, jamiyatning hayotidagi xo‘jalikmehnat, madaniyturmush sohalaridagi «dastlabki sabablarni», «ruh», «ijtimoiy ong» sohasiga ko‘chirish soxtalashadir bo‘lib, tanqidiy inkor etilishi lozim.

Huquq kelib chiqishining markscha-leninchcha *sinfiy nazariyasi* bu jarayonga materialistik yondashuvga asoslangan. U huquqning davlat, iqtisodiy tuzum, sinfiy tuzum, zo‘rlik va majburlash bilan bog‘liq ekanligini bo‘rttirib ko‘rsatadi. Bu nazariya huquq — huquq normasining majburiy ijrosini ta‘minlay oladigan apparatsiz hech narsa emas deb, ta‘kidlagan. Shu bilan birga, huquqling jamiyat hayot faoliyatini ta‘minlay oladigan tartibga solish sifatidagi qadriyati inkor qilingan, huquqning ta‘qib etuvchi, jazolovchi, majburlovchi funksiyasi tatqiq etilgan.

Markscha-leninchcha nazariyada huquq normalarining eski ypyg‘ odatlarini sikib chiqargan sinfiy xususiyati ta‘kidlangan, xususiy mulkning kelib chiqishi va sinflarning tashkil topishi bilan yurish-turish qoidalari ijtimoiy tengsizlikni aks ettirgan va mustahkamlangan, jamiyatning sinflarga bo‘linishi va davlatning kelib chiqishi bilan yurish-turish qoidalarining ijrosi davlatning majburlashi bilan ta‘minlangan.

Huquq kelib chiqishi to‘g‘risidagi bu nazariyalarning hammasi ijtimoiy hayotda bo‘lgan va xalqlar, davlatlar tarixidagi misollar bilan tasdiqlanishi mumkin. Lekin bu jarayonlarni burttirish, huquqning tashkil topishidagi boshqa umumiyy omillarni xaspo‘shlash — huquq kelib chiqishining ijgimoiy qonuniyatlarini anglash va tushuntirishdan chetlashish, haqiqatni buzib ko‘rsatishdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. -T., 1998.
- 2.Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdur // Xalq so‘zi.-2005.-29 yanv.
- 3.X.Boboyev., H.Odilqoriyevlar tahriri ostida. Davlat va huquq nazariyasi.. -T., 2000.
- 4.Tadjixanov U., Odilqoriyev X., Saidov A. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyaviy huquqi. –T., 2001.
- 5.Saidov A., Tadjixanov U., Odilqoriyev X. Davlat va huquq asoslari. -T., 2002.
- 6.Tadjixanov U. Gulyamov Z. Pravovoye regulirovaniye deyatelnosti militsii. -T., 1995.
- 7.Dzaparov A.T. Normi prava. Vidi pravovix norm, reguliruyushix deyatelnost organov vnutrennix del. -T., 1993.
- 8.Saidov A., Tadjixanov U. Davlat va huquq nazariyasi. 2-jild. –T., 2002.
- 9.Islamov Z.M. Davlat va huquqning umumnazariy muammolari. 2-q. T., 2001.
10. Islamov Z.M. Huquq tushunchasi, mohiyati, ijtimoiy vazifasi. T., 2004.
11. Nersesjans V.S. Huquq falsafasi. T., 2003.
12. Malaxov V.P., Kazakov V.N. Teoriya gosudarstva i prava. –M., 2002.
13. Marchenko M.N. Obshaya teoriya gosudarstva i prava. Tom 1-2. –M., 1998.

### **3-MAVZU: Davlat tushunchasi, belgilari, mohiyati va tiplari**

#### **Reja:**

- 1. Davlat tushunchasi va uning asosiy belgilari.**
- 2. Davlatning mohiyati**
- 3. Davlat tipologiyasi**

#### **Davlat tushunchasi va uning asosiy belgilari**

«Davlat nima?» degan savol davlat va huquq nazariyasining eng asosiy masalalaridan biridir. Huquqiy adabiyotlarda bu savolga javob berishda yagona nuqtai nazar yo‘q. Chunonchi, sovet huquqshunosligida davlatning mohiyati sinfiy nuqtai-nazardan cheklanmagan hokimiyat, hukmron sinf diktaturasi ma’nosida talqin qilinar edi.

G‘arbiy huquqiy nazariyalarda esa, davlat butun jamiyat manfaatlarini ifoda etadigan sinfiy, ijtimoiy ziddiyatlarni murosaga keltiradigan sinflar ustidagi tuzilma, qurol deb ta’riflanadi.

Albatta, davlat tushunchasiga u yoki bu yondashuvni dabdurustdan inkor etish to‘g‘ri emas. Davlatga berilgan har qanday ta’rifni diqqat bilan o‘rganish kerak. Bunda asosiy e’tiborni davlatning mohiyati nimadan iboratligiga qaratish lozim. Shu bois, mohiyat mazkur hodisadagi bosh, belgilovchi, asosiy jihatdir, ya’ni bu hodisani tashkil etadigan ichki o‘ziga xos xususiyatlari yig‘indisi bo‘lib, ularsiz har qanday hodisa o‘ziga xoslikdan mahrum bo‘ladi. **Davlat mohiyatining asosiy jihat** hokimiyat va uning kimga tegishliligi masalasidir.

Davlat kishilik jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida paydo bo‘ladi. Ushbu bosqichda ilgari mavjud bo‘lgan ijtimoiy maxsulotni teng taqsimlash tizimi natija bermay qo‘yadi, jamiyatning yanada rivojlanishi uchun boshqarish bilan shug‘ullanadigan Sharq jamiyatlaridagidek siyosiy yoki Yevropa mamlakatlaridagidek siyosiy va iqtisodiy sohalardagi nufuzli (elita) qatlaming ajralib chiqishi zarurati tug‘iladi. Bu esa, o‘z navbatida, jamiyatning tabaqalarga bo‘linishiga olib keladi.

Ibtidoiy jamoa tuzumida hokimiyat jamiyatning barcha a’zolariga taalluqli edi. Keyingi bosqichda esa hokimiyat siyosiy ma’no kasb eta boshlaydi, ya’ni u, eng avvatto, imtiyezli ijtimoiy guruhlar, sinflar manfaatlari uchun xizmat qila boshlaydi. Binobarin, davlatning kelib chiqishi hamisha ijtimoiy hokimiyatning ommaviy siyosiy hokimiyatga aylanishi bilan bog‘liq. Bu, hokimiyatning ijtimoiy jamoa tuzumidan farqli o‘laroq, eng avvalo, jamiyatning imtiyozli qismi va sinfiy manfaatlarga xizmat qilishini bildiradi. Bunday holatda sinfiy yondashuv mazkur hokimiyatni tavsiflash, bunday Davlatning mohiyatini ta’riflashga imkon yaratadi.

Davlat hokimiyatining tabiatini har doim bir xil bo‘lmaydi. Chunonchi, k.adimgi Afina va Rimdag‘i sinfiy lik hech qanday shubha tug‘dirmaydi. Mazkur davlatlarda hokimiyat quidorlar sinfiga xizmat qilgan, quidorlar esa asosiy ishlab chiqarish vositalari (yer)ning, shuningdek, ishlab chiqaruvchi (qullar)ning ham egalari bo‘lganlar. Qullar davlat hokimiyatini amalga oshirishda k.atnashish u yokda tursin barcha huquqlardan ham mahrum edil ar.

O‘rtalasr jamiyatida ham hokimiyat feodallar — katta yer egalari qo‘lida bo‘lgan. Dehqonlar hokimiyatni boshqarishda qatnashishdan va qariyb barcha yuridik huquqdardan mahrum edilar. Ular tuda yoki qisman feodallar mulki maqomida bo‘lgan. Demak, quidorlik va feudal jamiyatlarida oshkora ijtimoiy tengsizlik va davlat hokimiyatining sinfiylik mohiyati yaqqol namoyon bo‘ladi.

Burjua jamiyatida qonun oldida barcha rasman teng bo‘lib, tenglik prinsipi davlatlar konstitusiylarida mustahkamlab qo‘yilgan. Ammo ilk burjua jamiyatida qonunlar mulkiy, ma’lumotga oid va shu kabi senzlarni ham belgilagan va ushbu qonunlar mulki oz bo‘lgan fuqarolarning saylov huquqlarini cheklab qo‘ygan. Shu bilan hokimiyat iqtisodiy jihatdan boy guruhlarga xizmat qilgan.

Huquqshunoslik fanida davlatga turli ta’riflar beriladi. Davlat —muayyan hududni ishg‘ol etgan va yagona hokimiyatga uyushgan xalqdir; davlat — insonlarning yashash qoidasi shakli, kishilar o‘rtasidagi psixologik aloqa (psixologiya maktabi); davlat — absolyut ruhning mujassami (Gegel); davlat — organiq hodisa, voqelik, jonli organizm (G. Spenser va boshqalar).

Davlat jamiyatga, mamlakatga va xalqka aloqador. U jamiyatdan, mamlakatdan, xalqdan tashqari yashamaydi. Davlatga ta’rif berishda uning turlari va shaklini e’tiborga olish zarur. Davlat bir necha ming yillardan beri rivojlanib, o‘zgarib kelgan. Shunga qaramay, turli turdag‘i va shakldagi davlatlar qandaydir umumiyl belgilarini saqlab qolgan. Bu hol hamma davlatlarga xos bo‘lgan eng asosiy belgilarni aks ettiruvchi umumiyl ta’rifga imkon beradi.

Xo‘sh, davlatningqsanday belgilari bor?

Davlat — siyosiy tashkilot. Lekin insoniyat jamiyat tarixida boshqa tashkilotlar ham bo‘lgan va hozir ham bor. Masalan, ishlab chiqarishni tashkil etish, siyosiy partiya, kasaba uyushmalari va boshqa jamoat tashkilotlari shular jumlasidandir.

Suveren bo‘lmagan, qaram davlat tom ma’nodagi davlat emas. Shuning uchun suverenitet davlatning eng muhim belgilaridan biridir. Davlat belgilaridan uning nomi, bayrog‘i, gerbini farq qila bilish lozim. Har bir davlat o‘z nomini o‘zi tanlaydi, o‘z gerbi va bayrog‘ini belgilab, ularga o‘ziga ma’qul bo‘lgan siyosiy va g‘oyaviy mazmun beradi.

Yuksak uyushqoqlik, e’tiqod, ommani tarbiyalash, yangi jamiyat qurish yo‘lidagi ijodiy, yaratuvchilik ishi davlatning o‘ziga xos belgisidir. Davlat zo‘rlik ishlatalishdan voz kechmaydi, lekin zo‘rlik davlatning asosiy mazmuni emas.

#### **Davlatning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:**

1. *O‘ziga xos ommaviy hokimiyatning – davlat hokimiyatining mavjudligi*, ya’ni hokimiyat va boshqaruv apparatining, majburlash apparatining borligi.
2. *Aholining hududlar bo‘yicha uyushganligi*. Bu fuqarolarning davlat chegaralari doirasida, muayyan ma’muriy-hududiy birliklarda yashashini bildiradi.
3. *Suverenitet*, ya’ni ichki va tashqi siyosatni o‘tkazishda mustaqil bo‘lish.
4. *Huquq ijodkorligi*, ya’ni davlat hududida yashovchi barcha kishilar rioya etadigan qonunlarni chiqarishga qodirlilik.
5. *Aholidan* davlat apparatini saqlash hamda aholining kam ta’minlangan qismiga yordam berishga sarflanadigan *soliqlarni to‘p-lash*.
6. *Umuminsoniy funksiyalarini (vazifalarini) bajarish*, ya’ni hu-dudni ko‘riqlash, jinoyatchilikka qarshi kurash, umumiylar farovonlik maqsadlarini amalga oshirish.

#### **Davlat hokimiyatining o‘ziga xos xususiyatlari**

Davlat hokimiyat — ijtimoiy hokimiyatning bir turidir. «Davlat hokimiyat» tushun«siyosiy hokimiyat» tushunchasiga yaqin turadi. Bir guruh huquqshunos olimlar siyosiy hokimiyat davlat hokimiyatidan kengroq tushuncha, deb hisoblaydilar. Chunki siyosiy hokimiyat faqat davlat tomonidangina emas, balki jamiyat siyosiy tizimining boshqa tarkibiy qismlari bo‘lmish siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari va boshqalar tomonidan ham amalga oshiriladi. Ikkinchisi guruh mualliflar esa «siyosiy hokimiyat» va «davlat hokimiyat» tushunchalari sinonim deb hisoblaydilar.

Davlat hokimiyatining o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

*birinchidan*, davlat hokimiyat butun jamiyatga joriy etiladi;

*ikkinchidan*, davlat hokimiyat ommaviy siyosiy xarakterga ega;

*uchinchidan*, davlat hokimiyat davlat majburloviga tayanadi;

*to‘rtinchidan*, davlat hokimiyat maxsus shaxslar, ya’ni mansabdar shaxslar, davlat xizmatchilari, siyosatdonlar va boshqalar tomonidan amalga oshiriladi;

*beshinchidan*, davlat hokimiyat soliklar tizimini o‘matadi;

*oltinchidan*, davlat hokimiyat axrlining hududiy belgisi bo‘yicha bo‘ladi.

#### **Davlatning mohiyati**

**Davlat** — syyosiy hokimiyat tashkiloti bo‘lib, muayyan hududda turli sinfiy, umuminsoniy, diniy, milliy, va boshqa manfaatlarni amalga oshirishga ko‘maklashadi.

**Davlatning mohiyati** uning faoliyatining mazmunini tashkil etadi. Davlatni uning faoliyati bilan aralshtirmaslik kerak. Davlat faoliyati uning muayyan vogelik sifatida namoyon bo‘lishidir. Har bir davlat u yoki bu jamiyatda tutgan o‘rniga qarab o‘z mohiyatiga ega bo‘ladi.

Davlatning mohiyatini aniqlashda shakl va mazmun jihatiga e’tibor berish zarur:

*birinchidan*, har qanday davlat — siyosiy hokimiyat tashkiloti. Bu masalaning shakliy tomoni.

*ikkinchidan*, davlat kimning manfaatlari xizmat qiladi. Bu masalaning mazmun jihatidir.

Davlatning mohiyatiga asosan ikki xil (sinfiy va umumijtimoiy) yondashuvlarni ko‘rsatish mumkin.

**Sinfiy yondashuvda** davlat ik,tisodiy hukmron sinfning siyosiy hokimiyatining tashkiloti sifatida qaraladi. Bunda davlat faqat hukmron sinfning manfaatlarini ta’minlashga xizmat qiladi, uning umuminsoniy jihatni ikkinchi darajali bo‘ladi.

**Umumijtimoiy yondashuvda** davlat turli sinf va ijtimoiy guruhlarning manfaatlarini kelishtiruvchi siyosiy hokimiyat tashkiloti sifatida namoyon bo‘ladi.

Davlatning mohiyatiga taalluqli bu ikki asosiy yondashuvdan tashqari, yana diniy, milliy, irqiy va boshqa yondashuvlarni ko‘rsatish mumkin. Ular muayyan, bir davlat siyosatida milliy, Diniy, irqiy

va boshqa manfaatlar ustuvor ahamiyatga ega bo‘lganda ayniqsa muhimdir. Demak, davlatning mohiyati murakkab va ko‘p qirrali. Davlatning mohiyati sinfiy va umumijtimoiy xususiyatlar bilangina cheklanmaydi. Har qanday davlatning mohiyati aniq tarixiy sharoitlardan kelib chiqadi, unda u yoki bu jihatlar ustunlik qiladi.

### Davlatning mohiyati to‘g‘risidagi nazariyalar

Davlatning mohiyatini ilmiy o‘rganish uchun faqat sinfiy yondashuv kifoya emas. Bu o‘rinda davlat turrisidagi turli nazariyalardan, ya’ni «elitar», «texnokratik davlat», «plyuralistik demokratiya», «umumiylar farovonlik davlati» kabilarning xulosa va qoidalaridan foydalanish zarur.

Davlatning paydo bo‘lishi, davlat hokimiyatining mohiyati, maqsadi, vazifalari, davlat rivojlanishining yullari to‘g‘risida har xil nazariyalar mavjud. Bu davlatning murakkab ijtimoiy hodisa ekanligi, uning utmishda va xozirgi kundagi turlituman shakllari, ayni paytda davlatning siyosiy hokimiyatni amalga oshirish, undagi faoliyatining har xil sinf va ijtimoiy guruhlarning manfaatlariga dahldorligi bilan bog‘liq. Bu obyektiv omil.

Agar muammoga ilmiy nuqtai nazardan yondashilsa, u turli mualliflarning har xil mafkuraviy va siyosiyfalsafiy nuqtai-nazarlari bilan ham bog‘liqligini ko‘rish mumkin.

Davlat haqidagi nazariyalarni to‘rt guruhgaga ajratish mumkin.

*Birinchidan*, davlatning mohiyati haqidagi nazariyalar;

*Ikkinchidan*, davlatning maqsad va vazifalari to‘g‘risidagi nazariyalar;

*Uchinchidan*, davlat faoliyatining vosita va usullari to‘g‘risidagi nazariyalar;

*To‘rtinchidan*, davlatning rivojlanish yo‘llari va istiqbollari to‘g‘risidagi nazariyalar.

Turli huquqshunosolimlar davlat bilan bog‘liq muammolar to‘g‘risida mulohaza yuritib, qayd etilgan masalalarning barchasiga u yoki bu yusinda murojaat etadilar. Turli guruhlarga oid nazariyalar umumiylikka ega bo‘lgan har xil nazariyalarni vujudga keltiradi.

Davlatning modiyati haqidagi nazariyalarga quyidagilarni kiritish mumkin.

**1. Elitar nazariY.** Mazkur nazariya XX asr boshida vujudga kelgan (V. Poreto, T. Moski) va XX asrning o‘rtalarida rivoj topgan (X. Lassuel, D. Sartori, T. Day va boshqalar). Bu nazariyaning asosiy g‘oyasiga ko‘ra, xalq ommasi davlatni idora qilishga qodir emas, binobarin, mazkur boshqaruvni jamiyat tepasida turgan elita amalga oshirishi zarur. Elita kelib chiqishi, ma’lmoti, tajribasi, qobiliyatiga ko‘ra ta’riflanadi. Ayni paytda ushbu tabaqaga taalluqli bo‘lmaganlar xalq ommasi hisobiga to‘ldirilishi, ya’ni omma orasidagi eng qobiliyatilar ushbu tabaqaga qo‘shilishi mumkin.

Mazkur nazariyaning hozirgi kundagi tarafдорлари bir necha elitalar mavjudligi, ular orasida hokimiyat uchun kurash borayotganligi, lekin xalq o‘z saylov huquqidan foydalaniб elitalarning faoliyatini nazorat qilishi mumkinligini e’tirof etadilar.

Chindan ham hokimiyatni joriy etish o‘ta cheklangan kishilar doirasi — deputatlar, davlat mahkamasi xodimlari va hokazolar tomonidan amalga oshiriladi. Aslida mazkur kishilarning xalq turli ijtimoiy guruh va qatlamlar manfaatlarini ifoda etishi muhimdir. Shu maqsadda xalq tanlagan va vakil qilgan kishilarning ishi ustidan faol nazoratni ta’minalash, ularning elitaligini tushunish zarur. Shubhasiz, ushbu nazariyaning salbiy jihatlari ham bor. Masalan, aholining hokimiyatdan uzoqlashtirilishi, hokimiyatning sinfiy tabiatini inkor etish kabilar.

**2. Plyuralistik demokratiya nazariyasi.** Mazkur nazariya ham XX asrda paydo bo‘lgan. Uning vakillari G. Laski, M. Dyuverje, R. Darindorf, R. Dal kabi olimlardir. Ushbu nazariya sotsial-demokratlar, shuningdek, liberallar qarashlarining ham in’ikosidir. Mazkur nazariyaga ko‘ra hozirgi jamiyatda sinflar, mohiyatan yo‘qolib ketdi, hokimiyat esa o‘z sinfiy tabiatidan xalos bo‘ldi, jamiyat turli belgilari — yosh, kasbkor, turar joy, manfaatlar doirasi va boshqalarga ko‘ra vujudga keladigan kishilarning ijtimoiy birlashmalari (stratlar) yig‘indisidan iborat, shunday qilib, qariyalar va yoshlari, sportchilar va qahvaho‘rlar kabilarning ijtimoiy birlashmalari mavjud.

Ushbu nazariyaga ko‘ra, har bir odam ko‘pgina jamoat birlashmalariga a‘zo bo‘ladi, ular asosida davlat idoralariga «tazyiq» o‘tkazadigan va natijada davlat siyosatini yo‘naltiradigan siyosiy va ijtimoiy uyushmalar tashkil etiladi. Demak, har bir odam, birlashma davlat hokimiyati «zarrasi»ga ega bo‘ladi, davlatni boshqarishda faol ishtirok etadi. Natijada davlat umumiy irodani, butun jamiyat

manfaatlarini ifodalaydigan omilga aylanadi. Ushbu nazariyaning ijobiy jihatni uning chinakam demokratik tavsifga egaligidan, barcha fuqarolarning davlatni boshqarishda qatnashuvini asoslashdan iborat.

**3. «Umumiy farovonlik davlat» nazariyasi.** Mazkur nazariya ikkinchi jadon urushidan so‘ng paydo bo‘lgan va u ilgari mavjud bo‘lgan, davlatning ijtimoiy dayotga aralashmasligi ta’limotiga qarama-qarshidir. Bunda huquqbazarlik holatlari istisno etiladi («davlat tungi qorovuldir» nazariyasi). Uning mohiyati 30-yillarda D. Keysn tomonidan ifoda etilgan. Mazkur nazariya D. Myurdal, G. Pigu, K. Boulding, V. Mundlarning tadqiqotlarida rivojlantirilgan. Bu nazariyaning bosh g‘oyasi — davlatning sinflar ustidan maqomidir. Shu bois, u aholining barcha qatlamlari manfaatlarini ifoda etishi, barchanining farovonligini ta’minalashi lozim. Mazkur nazariyaning vujudga kelish sabablari rivojlangan mamlakatlardagi aholi hayot darajasining yuqori darajada ta’minalanganligi, ijtimoiy, madaniy va boshqa sohalarda yirik davlat dasturlarining amalga oshirilganligidir. Bu nazariya har bir insonning qadr-qimmatiga e’tibor beradi, uning manfaatlarini davlat faoliyatining asosi deb hisoblaydi.

Mazkur nazariyaning ijobiy jihatni, fikrimizcha, umuminsoniy qadriyatlar va inson huquqlarining ustuvorligi unga asos qilib olinganligidir.

**4. «Texnokratik davlat» nazariyasi.** Mazkur nazariya XX asrning 20-yillarda vujudga kelib, 60-70 yillarda ancha keng tarqaldi. Ushbu nazariya tarafdarlari orasida T. Veblen, D. Barnxeym, G. Saymon, D. Bell kabi olimlar bor. Bu nazariya elitar nazariya tgishiniga juda uxshab ketadi. Lekin u xozirgi voqelikni ham inobatga oladi.

Mazkur nazariyaga ko‘ra, jamiyatni mutaxassis boshqaruvchilar, menedjerlar boshqarishlari lozim (aksariyat hollarda ular chindan ham boshqaradilar). Ayni paytda shular jamiyatning haqiqiy ehtiyojini, uning oqilona rivojlanish yo‘llarini, buning uchun zarur vositalarni aniqlashga qodir. Bu jamiyatning ilmiy asoslangan progressiv rivojini ta’minalaydigan boshqaruv imkonini yaratadi. Mazkur ta’limotning g‘oyalaridan boshqa nazariyalarda ham faol foydalanilmoqda, chunki ular faqat davlatning moxiyatiga emas, balki uning boshqa jihatlariga ham taalluqlidir.

**«Texnokratik davlat» nazariyasi** paydo bo‘lishi aksariyat mamlakatlarning texnik vositalar, jumladan, komtyuterlarni, radioelektronikani o‘zlashtirish va ulardan foydalanishdagi muvaffaqiyatlarga erishganligi bilan bog‘liqdir. Ushbu nazariyaga ko‘ra, texnikaning bundan keyingi rivojlanishi davlat boshqaruvining aksariyat muammolarini yangitdan hal etish imkonini beradi. Masalan, radiotelevizion texnikadan foydalanib fuqarolardan sotsiologik so‘rov, hatto, referendum o‘tkazish mumkin. Shunday qilib, kompyuterlar ayrim kishilarning irodasidan mustasno holda yechimlarga kelishning imkonini beradi. Ushbu yechimlar adolatli va okilona bo‘ladi.

**5. Davlatning bundan keyingi rivojini bashorat qiluvchi nazariyalar orasida «Konvergensiya nazariyasi»** ajralib turadi. U XX asrning 50-60 yillarda paydo bo‘lgan (D. Gelbreyt, R. Aron, P. Sorokin asarlari). Ushbu nazariyaning moxiyati — insoniyatning xozirgi davrdagi rivojlanish bosqichidagi ikki tizim, ya’ni Fap6 — AQSH, Angliya va boshqa davlatlarning sotsialistik lager mamlakatlari bilan o‘zaro ta’sirida vujudga kelganligidir. Natijada har bir guruh bir-biridan yaxshi tomonlarni qabul qilib, davlatlarning mohiyatiga, uyushishiga, faoliyat shakllariga va hokazolarga ko‘ra yaqinlashuvi yuz beradi. Bu shunga olib keladiki, muayyan vaqtidan so‘ng ular orasidagi tafovut deyarli yo‘qoladi va bir xildagi «postindustrial davlatlar» — «umumiy farovonlik» davlatlari paydo bo‘ladi.

Mazkur nazariya mualliflarining bashoratlarini to‘g‘ri deb baholash mumkin, zero uning aksariyat g‘oyalari hozirgi hayotda o‘zining tasdig‘ini topdi.

**6.Davlatning tarixiy-materialistik nazariyasi.** Bu nazariya davlat mayjudligi va rivojining ko‘pgana jihatlarini tahlil etadi. Ushbu nazariya zaminida tarixiy materializm va sinfiy g‘oyer yotdi. Davlat iqtisodiy hukmron sinfining hokimiyat quroli sifatida talqin etiladi.

Davlatning xususiyatlari, eng avvalo, jamiyatning muayyan bosqichdagi iqtisodiy rivojlanishi bilan belgilanadi. Maqsad — sotsialistik, so‘ngra kommunistik jamiyatni qurish, davlatning pirovard taqdiri esa uning kommunistik jamiyat qurishi bilan barham topishidir.

**7.Huquqiy davlat nazariyasi.** Ushbu nazariyaga muvofik. ijtimoiy hayotning barcha sohalarida huquqning hukmron bo‘lishi, davlat faoliyatining vosita va usullarini oydinlashtiradi.

Mazkur nazariya mualliflari, davlat faoliyati huquqiy maqsadlarda, huquq asoslarida va huquqiy vositalar yordamida amalga oshirilishi to‘g‘risida haqli ravishda fikr yuritadilar. Mazkur nazariya hozirgi kunda keng tarqalgan. U eng dolzarb va taraqqiy parvardir. Jamiatni demokratlashtirish, davlat idoralari ishida o‘zboshimchalik va qonunsizlikni bartaraf etishga yo‘nalganligi uning ijobjiy jihatidir.

Davlat to‘g‘risidagi nazariyalar turli-tuman. Ular to‘g‘risida gapirganda, davlatning jamiat siyosiy tizimidagi o‘rnini aniqlashga qaratilgan nazariyalar xaqida ham mulohaza yuritish lozim. Shu yerda jamiatning siyosiy tizimi tushunchasiga e’tibor qaratish joiz.

#### **Davlat tipologiyasi. Davlat tipologiyasi tushunchasi**

Davlat — turlituman xususiyat va belgilarga ega bo‘lgan murakkab va ko‘p k;irrali ijtimoiy hodisadir. Bu esa davlatlarni turlicha tasniflashga imkon beradi. Masalan, davlatlarni hududlarining katta-kichikligiga qarab ulug‘, katta, o‘rta, kichik davlatlarga bo‘lish mumkin.

Davlatga tarixiy yondashuv asosida davlatlarni qadimiy, o‘rta asr va hozirgi zamon davlatlariga ajratsa bo‘ladi. Tarixiy va madaniy rivojlanishga ko‘ra esa davlatlar dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi va sanoat bilan shug‘ullanuvchi davlatlarga (yoki indo‘strial rivojlanishgacha, industrial va postindustrial davlatlar) bo‘inadi.

Ma’rifiylik (sivilizatsiya) tavsifiga ko‘ra davlatlar — Sharq, Fap6 va aralash (o‘rta holatdagi), iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko‘ra esa — yuksak darajada rivojlangan, o‘rta darajada rivojlangan va «qashshoq» davlatlarga bo‘linadi.

Ushbu tasniflarning aksariyati davlatdan ko‘ra ko‘proq jamiatni tavsiflaydi. Buning ajablanadigan joyi yo‘q. Mazkur tasniflarning biror tasi ham davlatni boshqa hodisalardan ajratib turgan bosh omil — siyosiy hokimiyatni amalga oshirishni inobatga olmaydi. Shu bois, hokimiyat munosabatlariga ko‘ra tasniflash muhim. Bunda hokimiyatning mohiyati, uning sinfiy va ijtimoiy ahamiyati tavsiflanadi. Davlatlar shunga ko‘ra turlarga ajratiladi.

*Davlat tipologiyasi — davlatning mohiyatan o‘ziga xos xususiyatlarini ajratishda yoki biror tipga mansubligini belgilashda foydalanadigan ta’limot, bilimlar tizimidir.*

Demak, **davlat tipologiyasi** — davlatlarni muayyan mezon asosida turlarga ajratish, tasniflashdir. Huquqshunoslik fanida davlat tipologiyasiga ikki xil yondashuvni sinfiy va ma’rifiy — ajratib ko‘rsatish mumkin.

#### **Davlat tipologiyasiga sinfiy yondashuv**

**Birinchi yondashuv** — sinfiy yondashuv bo‘lib, unda davlat tipologiyasining asosiy mezoni ijtimoiyiqtisodiy formatsiyalar hisoblanadi. Davlat ishlab chiqarish munosabatlari tipiga ko‘ra, iqtisodiy bazis ustidagi element sifatida — quzdorlik, feodal, burjua va sotsialistik davlat tiplariga bo‘inadi. Bu tipologiya davlatlarning sinfiy tipologiyasi deb ataladi.

**Bu tipologiyada, birinchidan**, davlatlar muayyan ijtimoiy-iqtisodiy omillar asosida tiplarga ajratiladi; **ikkinchidan**, davlatlar o‘z taraqqiyotida ma’lum bosqichlarni o‘tishini ularning tabiiy-tarixiy xarakteri ko‘rsatadi.

**Sinfiy tipologiyaning kamchiliklari quyidagilardan iborat:** *birinchidan*, barcha davlatlarni bu tipologiya doirasiga kiritish mumkin emas;

**ikkiichidan**, bu tipologiyada milliy, madaniy, diniy va boshqa bir qator omillarga yetarlicha e’tibor berilmaydi.

#### **Davlat tipologiyasiga ma’rifiy yondashuv**

Ikkinci yondashuv — sivilizatsiya<sup>4</sup> mezoniga asoslangan davlat tipologiyasidir. Bu yondashuvda ma’naviy belgilar, ya’ni madaniy, milliy, diniy, psixologik va boshqalar tipologiyaning asosiy mezoni hisoblanadi. Bu tipologiyani davlatlarning ma’rifiy (sivilizatsiyaviy) tipologiyasi deb atash mumkin.

Bu yondashuvning ko‘zga ko‘ringan vakili A. Toynbidir. Uning fikricha, sivilizatsiya — jamiatning milliy, diniy, jugrofiy va boshqa belgilarining yaxlitligi bilan ajralib turadigan

<sup>4</sup> Цивилизация (латинча «civilis» — фуқаровий, ижтимоий) - жамиятнинг ўз тараққиёти жараённида яратган моддий ва маънавий бойликларини янада кўпайтириб хамда такомиллаштириб бориш усувлари мажмуми

muayyan holatidir. Shu belgilarga ko'ra, davlatlarni Sharq, va Rarb sivilizatsiyasi asosida — Fapo va Sharq davlatlariga, qadimiy va o'rta asrlar sivilizatsiyasiga ko'ra — qadimiy va o'rta asrlar davlatlariga bo'lish mumkin.

**Ma'rifiy tipologiyaning ijobiy tomonlari quyidagilardan iborat:** *birinchidan*, ma'lum sharoitlardagi madaniy omillar tipologiyaning asosiy mezoni qilib olinadi; *ikkinchidan*, ma'naviy mezonlarning ko'pligi, muayyan sivilizatsiya ning o'ziga xos xususiyatlari tipologiyani aniq amalga oshirishga imkon beradi.

**Shu bilan birga, davlatlarning ma'rifiy tipologiyasi ham bir kator kamchiliklarga eta.** **Ular kuyidagilardan iborat:** *birinchidan*, ijtimoiy-iqtisodiy omillar yetarlicha hisobga olinmaydi; *ikkinchidan*, bu tipologiya davlat tipologiyasiga qaraganda, ko'proq jamiyat tipologiyasidir.

Sivilizatsiyaviy tipologiya sinfiy yondashuvdan ancha keng. Ma'rifiy tipologiyada davlat sivilizatsiya maxsuli sifatida namoyon bo'ladi.

### Davlatning tarixiy tiplari tushunchasi

Tipologiya davlat tipi degan ilmiy tushunchani ajratib ko'rsatishga olib keladi. Davlatning tipi quyidagi xususiyatlardan iborat:

*birinchidan*, davlatning tipi, iqtisod, ishlab chiqarish usuli, ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarning tabiatiga bog'liq bo'lgan hokimiyatning sinfiy taalluqligidan kelib chiqadi, Davlatdagi hokimiyat odatda, qo'lida ishlab chiqarish vositalari mavjud bo'lgan iqtisodiy jihatdan hukmron sinfga xizmat qiladi;

*ikkinchidan*, sinfiy manfaatlarning aks etishiga asoslangan bir mohiyatli hokimiyatga ega davlatlar guruhi birlashtiriladi. Bu davlatlarni quidorlik, feodal, burjua va sotsialistik davlatlarga bo'lishga olib keladi;

*uchinchidan*, davlatning tipi biror davlatning uyushganligi, maqsadga intilishi, amal qilish va rivojlanishidagi umumiyy, jo'z'iy jihatlarni belgilashga imkon beradi;

*to'rtinchidan*, bir tipdagi davlatlardan keyin boshqa tipdagi davlatlar, ya'ni quidorlik davlatidan so'ng feodal davlat, feodal davlatdan so'ng burjua davlati kelishi qonuniyatları aniqlangan. Albatta, oxirgi almashuv (burjua davlati bilan sotsialistik davlat almashuvi)da oldingi tiplarning o'zaro almashuv qonuniyatları tarixan tasdiqlandi.

Davlat va huquqning mohiyati hamda mazmunini chuqur tushunib yetish uchun umumiylidkan xususiylikka, davlat va huquq umumiyy tushunchasidan qadimiy davr davlati va huquqi tushunchasiga, o'rta asrlar davlati va huquqi tushunchasidan yangi va hozirgi zamon davlati va huquqi tushunchasiga tomon borish va kurib chiqish lozim. Shunda muammoni yanada aniqlashtirish muayyan davlat va huquqni o'rganib bo'lib, davlat va huquq tarixi va nazariyasini o'rganishga o'tishga imkon beradi.

Kishilik jamiyat tarixi uch katta tarixiy davrdagi davlat va *huquqning* uch turini, ya'ni qadimiy, o'rta asr va yangi zamon davlati va huquqi tizimini bergen. Jamiyat, davlat va huquq taraqqiyotining qonuniyati ana shunday. Tarixning taraqqiyot yo'li shundan iborat.

Kishilik jamiyat o'zining quyi bosqichidan yuqori bosqichiga, qadimiy jamiyatdan o'rta asrlarga, undan yangi va hozirgi zamon jamiyatni tomonga rivojlanadi, buning teskarisi bo'lmaydi.

O'z taraqqiyotida ba'zi bosqichlarni chetlab o'tish, ba'zi taraqqiyot bosqichini boshqa mamlakatlardan farqli o'larok; boshdan kechirish mumkin, lekin bunda taraqqiyotning bosh yo'li barcha xalqlar uchunumumiy bo'lib qolaveradi, ular kishilik sivilizatsiyasshteng umumiyy qonuniyatları asosida rivojlanadi. Shunisi xarakterlikli, jamiyat taraqqiy etgan sari xalqlarning bir-birlari bilan munosabati, bir-biriga ta'siri ham tobora oshib boradi. Buni shunda ko'rish mumkinki, ibridoij-jamoa tuzumidan davlatli jamiyatga o'tish ba'zn xalqlarda eramizdan bir necha ming yil oldin. boshqa xalqlarda esa ko'p asrlardan keyin boshlangan. Dunyo miqyosida o'rta asrlarga o'tishdn ko'ra ozroq vaqtini oldi. O'rta asrlardan yangi zamonga o'tish bundan ham tezroq bo'ldi.

Huquqshunoslik fanida, aynikra sovet davridagi huquqshunoslikda, asosan to'rt tipdagi — quidorlik, feodal, kapitalistik, sotsialistik davlatlar farqlanadi. Fikrimizcha, ilk ikki tiplar faqat Yevropada mavjud bo'lgan, qolgan hududlarda — Osiyoda, Afrikada, Amerikada esa davlatlar

boshqacha tipga mansub bo‘lganlar. Ularni Rarbdagi davlatlardan farqli ravishda, davlatning sharqona tipiga mansub deyish mumkin. Ular bir-biridan ham mohiyat, ham funksiyalari, ham jamiyat hayotidagi roli, vazifasi, shakli, faoliyat metodlari, maqsadlari jihatidan farq qiladi.

### Davlat tipologiyasiga Fapbcha va Sharqona yondashuv

Sinfiy yondashuvning tor doiralari ko‘p jihatlarda namoyon bo‘ladi. Chunki barcha davlatlar ham davlatning sinfiylik yondashuviga asoslangan tipologiyaga sigavermaydi. Shu munosabat bilan Sharq davlatlarining tipologiyasi muammosini ko‘rsatish lozim. Afsuski, huquqshunos olimlar o‘rtasida mazkur masala yetarlicha o‘rganilmagan. Quldorlik yoki feodal davlat tiplarini «Sharq davlati turi» ga taallukli qilib ko‘rsatish keng tarqalgan.

Holbuki, Sharq davlatlari o‘zining sivilizatsiyaviy mazmuniga ko‘ra Fapb davlatlaridan tubdan farq qiladi. Masalan, Fap6 davlatlarida siyosiy hokimiyat iqtisodiy hukmron sinf qo‘lida bo‘lib, davlat hokimiysi bevosita iqtisod, asosiy ishlab chiqarish vositalariga mulk egaligi tabiatiga bog‘liq. Sharq davlatlarida esa ustuvorlik ayni davlat hokimiyatining o‘zidadir. Chunki, iqtisodiy sohalardagi xrkimlik, ishlab chiqarish vositalariga egalik qilish imkon siyosiy hukmronlikka bog‘liq bo‘ladi. Sharq mamlakatlarida xususiy mulk mavjud bo‘lmagan, ayni paytda davlat mulki rahbar doiralar qo‘lida bo‘lgan.

Shu bois, Sharq davlatlarini Yevropa davlatlari tiplariga mansub deb topish va ularni «kapitalistik davlatlargacha» bo‘lgan bir tipga birlashtirish (feodal va quldorlik davlatlariga) to‘g‘ri emas. Buning ustiga, Sharq davlatlari Yevropa davlatlaridan farq kdlish bilan birga, o‘z mohiyat xususiyatlariga ham ega edilar. Jumladan, Xitoyda quldorlik amalda mavjud bo‘lmagan, Misr va Ossuriyada esa davlat ancha muhim mavqega ega bo‘lgan. Bu mintaqada davlat hokimiysi tizrtmida ruhoniylar mavqeい ham turlicha bo‘lgan, huquqiy tizimlar ham bir-biridan jiddiy farq qilgan. Fikrimizcha, davlat tipologiyasiga Fap6cha va Sharqcha yondashuv mavjudligi to‘g‘risida gapirish to‘g‘riroq bo‘lsa kerak.

Davlat hokimiysi aksariyat ijtimoiy guruh deb baholanmaydigan kichik guruh (davlat hokimiysi tepasidagilar, partiya-davlat elitasi va hokazo)lar qo‘lida bo‘ladi. Albatta, bunday guruh biror sinf yoki ijtimoiy guruhding manfaatlarini ham ifoda etishi mumkin. Aksariyat hollarda shunday bo‘ladi ham, u holda hokimiyatning sinfiy mazmuni, binobarin, davlat tipi ko‘zga tashlanadi. Biroq ko‘pincha bunday guruh faqat o‘z manfaatlarinigina ifoda etadi. Shuning uchun davlat hokimiysi hamisha ham faqat sinfiy tabiatga ega bo‘lavermaydi.

Ko‘p hollarda bunday guruh ijtimoiy tayanchga ega bo‘lish maqsadida dinga murojaat qiladi (Sharq davlatlaridagidek), sobiq SSSRda Stalin davrida bo‘lganidek jismoniy va mafkuraviy tazyiqni amalga oshiradi.

### Sharq davlatlarining xususiyatlari

Turli davrdagi davlatlarni tavsiflashga kirishishdan oldin «Sharq tipi» dagi davlatlarning xususiyatlariga qisqacha to‘xtab o‘tish lozim. Mazkur davlat tipining tarixda ilk tip bo‘lganligini alohida ta‘kidlash kerak. Ilk davlatlar bundan 5 ming yillar muqaddam so‘g‘oriladigan dehqonchilik mintaqalari (Misr, Hind va Xitoy)da paydo bo‘lgan, Ularning paydo bo‘lishiga sabab, so‘g‘orish tizimlari qurilishi natijasida mehnat unumdorligining tez sur’atlar bilan oshib borishi bo‘lgan qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishining bunday tabiatni jamoaning saqlanib qolishiga olib kelgan. Oilaning bir o‘zi suv inshootlari tizimini qurish va undan foydalanishning uddasidan chika olmagan. Shu bois Sharq mamlakatlarida yerga xususiy mulkchilik paydo bo‘lmagan, ishlab chiqarish vositalariga egalik qiluvchi sinflar ham vujudga kelmagan.

Davlatning kelib chiqish jarayonida piramida kabi qurilgan jamiyat paydo bo‘lgan eng yuqorida yagona hokimiyat egasi podshoh, fir‘avn, shoh, xon o‘rtada uning eng yaqin safdoshlari, maslahatchilari — vazirlar, quyida pastroq rutbada amaldorlar joylashgan. Piramidaning asosini esa qishloq xo‘jalik jamoalarini tashkil ettan. Ushbu jamoalar ijtimoiy mahsulotning anchagina kismini soliq tarzida davlat mahkamasiga to‘laydigan ekspluatatsiya obyekti bo‘lgan.

Albatta, Sharq mamlakatlarida umuman xususiy mulk mavjud bo‘lmagan, deb aytish mumkin emas. Xususiy mulk shoxlarning qasrlari, qullari, qimmatbaho mulklari tarzida, savdogarlar va hunarmandlarning bir qismida esa kapital va moddiy boyliklar tarzida mavjud bo‘lgan. Biroq xususiy mulk Sharq jamiyatida ijtimoiy ishlab chiqarshda muhim mavqega ega bo‘lmagan. Ijtimoiy boylikning

asosiy hissasi davlat va saroy mulkidagi erkin jamoa a'zolari yoki qo'llar tomonidan barpo etilgan. Qullar faqat davlat va saroy mulkidagina mavjud bo'lgan. Shunday qilib, yagona davlat mulki mavjud bo'lgan, davlat podshoh shaxsida «barcha narsa»ga egalik qilgan. Jumladan, u barcha aholining hatto, o'ziga eng yaqin bo'lganlarning hayoti va mulkiga ham ho'jayinlik qilgan.

Sharq jamiyatni tub o'zgarishlarga uchramaydigan barqaror tabiatga ega bo'lgan. Jumladan, qadimgi Misrda davlat eramizdan avvalgi IV—III ming yilliklarda paydo bo'lib, 30 asrdan ko'proq vaqt davomida faoliyat ko'rsatgan. 50 asrcha muddat davomida Xitoy davlati amal qilgan va u qariyb XIX asr oxirlarigacha o'zgarmay kelgan.

Fap6 davlatlari Sharq davlatlaridan ancha keyin paydo bo'lgan, biroq ular tez rivojlanib ketgan. Aynan Yevropada ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar (va davlat tiplari)ning tezroq almashuvi yuz bergan.

### O'tish davri davlatlari

Mustamlakachilik asoratidan ozod bo'lgan mamlakatlardagi davlat tabiatini tahlil etish katta qiziqish uyg'otadi. Ularda aksariyat shunday vaziyat vujudga keladiki, unda birorta ham sinf hokimiyatni olish va uni o'z qo'lida saqlab turish uchun yetarlicha kuchga, uyushqoqlikka ega bo'lmaydi, Bunday mamlakatlarda aksariyat turli ijtimoiy kuchlarning bloki vujudga keladi, ular umummilliy manfaatlar asosida birlashadilar. Biroq bunday birlashmalar aksariyat vaqtinchalik bo'ladilar va umummilliy manfaatlarni yechish asnosida ularda sinfiy yoki umumijtimoiy manfaatlarning kuchayishi vujudga keladi. Shu bois, davlatning bunday tipini o'tish davri davlati deb atash mumkin.

Biroq bunday vaziyat uncha ko'p uchramaydi. Aksariyat hokimiyat sinfiy kuchlar bloki qo'lida emas, balki kichik partiyaviy, harbiy yoki boshqa turdag'i elita qo'lida bo'lib, u umumijtimoiy vazifalarni amalga oshiradi, eng avvalo, o'z manfaatlarini ko'zlab ish yuritadi.

Bundan tashqari, an'anaviy sinfiy yondashuv bir ijtimoiyiqtisodiy formatsiyadagi davlatlar orasida mohiyatan farqlar mavjudligini tushuntirmaydi. Chunonchi, hozirgi Janubiy Afrika Respublikasi (JAR) davlati bilan aparteid davridagi JAR davlati o'rtaida farq mavjud. Yoxud soqi sovet davlati stalinizm va «qayta kurish» davrlarida turli mohiyatga ega davlat edi. Ushbu muammolar davlat mohiyatining yana bir jihatidan kelib chiqqan holda tushuntirilishi mumkin. Shunga qaramay, davlatning umumijtimoiy moxhiyati (sinfiy mohiyat singari) hokimiyat munosabatlarida ko'rinadi. Bu yerda davlat hokimiyatining aholining katta qismiga taalluqliligi xususida emas, balki jamiyatning qo'lida davlat hokimiyati bo'lgan qismi to'g'risida ran bormokda.

### Hozirgi zamon davlatlarining turlari

Hozirgi kunda huquqshunoslik fanida davlatlar totalitar, avtoritar, liberal va demokratik davlatlarga bo'lib o'rganilmokda. Bunday tasniflash tobora keng qo'llanilmokda. Uning o'ziga xos jihatlari bor.

**Totalitar davlatda** «davlat — hamma narsa, inson esa — hech narsa» degan g'oya hukmronlik qiladi. Barcha hokimiyat hukmron elita qo'lida bo'lib, boshqalar davlatni boshqarishdan chetlatiladi.

**Avtoritar davlatda** haqiqiy hokimiyat elita qo'lida bo'ladi, shaxsning manfaatlari davlat manfaatlari qurban qilinadi. Siyosiy sohada ijozat etilganidan tashqari, barcha narsa taqiqlanadi.

**Liberal davlatda** jamiyat hayotining barcha sohalarida fuqarolarning huquq va erkinliklari rasman tengligi amal qiladi, fuqarolarning davlat ishlari da rasman qatnashuvlariga yo'l qo'yiladi. Taqiqlanmagan narsadan boshqasi ijozat etilishi mumkinligi prinsipiga amal qilganday bo'ladi, biroq davlat tuzumi va ijtimoiy tuzumni o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

**Demokratik davlat** fuqarolarning davlat va jamoat ishlarini boshqarishda qatnashishi huquqlarini ta'minlaydi, shunday ishtirokka yordam beradi. Shaxs huquq va erkinliklarining doirasi keng bo'lib, ularni amalga oshirish ham ta'minlanadi. Ijtimoiy hayotning barcha sohalarida qonunda bevosita taqiqlanmagan harakat larni amalga oshirishga yo'l qo'yiladi. Albatta, davlatlarning biz ko'rib chiqqan tipologiyasi kamchiliklardan holi emas. Lekin, ta'kidlash joizki, mazkur tipologiya sinfiy yondashuvga asoslangan tipologiyani muhim jihatlar bilan to'ldiradi, kishilik taraqqiyotining

tarixiy bosqichlaridagi davlatlar tipining umume'tirof etgan bir qator xususiyatlarini ajratib ko'rsatishga imkon beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

14. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. -T., 1998.
15. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishduri // Xalq so'zi.-2005.-29 yanv.
16. X.Boboyev., H.Odilqoriyevlar tahriri ostida. Davlat va huquq nazariyasi.. -T., 2000.
17. Tadjixanov U., Odilqoriyev X., Saidov A. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyaviy huquqi. –T., 2001.
18. Saidov A., Tadjixanov U., Odilqoriyev X. Davlat va huquq asoslari. -T., 2002.
19. Tadjixanov U., Gulyamov Z. Pravovoye regulirovaniye deyatelnosti miliitsii. -T., 1995.
20. Dzaporov A.T. Normi prava. Vidi pravovix norm, reguliruyushix deyatelnost organov vnutrennix del. -T., 1993.
21. Saidov A., Tadjixanov U. Davlat va huquq nazariyasi. 2-jild. –T., 2002.
22. Islamov Z.M. Davlat va huquqning umumnazariy muammolari. 2-q. T., 2001.
23. Islamov Z.M. Huquq tushunchasi, mohiyati, ijtimoiy vazifasi. T., 2004.
24. Nersesyans V.S. Huquq falsafasi. T., 2003.
25. Malaxov V.P., Kazakov V.N. Teoriya gosudarstva i prava. –M., 2002.
26. Marchenko M.N. Obshaya teoriya gosudarstva i prava. Tom 1-2. –M., 1998.

### **4-MAVZU: DAVLAT SHAKLLARI**

**Reja:**

- 1. «Davlat shakllari» tushunchasi.**
- 2. Davlat boshqaruvi shakli tushunchasi**
- 3. Davlatning tuzilish shakli va uning turlari**
- 4. Davlatning siyosiy rejimi va uning o'ziga xosligi**

#### **«Davlat shakllari» tushunchasi**

«Davlat shakllari» tushunchasi davlat va huquq nazariyasinint eng muhim masalalaridan biridir. «Davlat shakllari» tushunchasi «davlat moxiyati» tushunchasi bilan bevosita bog'liq. Davlat shakli murakkab ijtimoiy hodisa bo'lgan davlat mohiyatini bilishda muhim ahamiyatga ega.

Davlat shakli uning mazmun-mohiyati bilan ajralmas. Har qanday davlat shakli o'zining mazmuni bilan «juft» falsafiy kategoriyalardek bog'lanib ketgan. Mazmun davlat hokimiyatining, subyektining taalluqlilagini belgilash imkonini beradi va uni kim amalga oshiradi, degan savolga javob qiladi. Shaklni tushunish esa davlat hokimiyati qanday uyuştirilganligi, qaysi idoralar orqali namoyon bo'lishi, ushbu idoralarning tashkil etilish tartibi qanday bo'lishi, ulardagi vakolatlarning muxdati, davlat hokimiyatini amalga oshirish usullarini tushunishga yordam beradi.

Davlat jamiyatning maxsus tarkibiy hududiy tashkiloti sifatida qanday muayyan shakllarda namoyon bo'ladi? Davlat har xil shakllarga ega bo'lishi mumkin. Huquqiy adabiyotlarda davlat shakli tushunchasiga turlicha ta'rif beriladi. Chunonchi, ba'zilar, davlat shakli tushunchasiga davlat tuzumi degan tushunchani bildiradigan boshqaruvi shakli, davlat tuzilishi shakli va siyosiy rejim kiradi, deb hisoblaydilar.

Ba'zi huquqshunoslar davlat shakli deganda davlat boshqaruvi va davlat tuzilishi shaklida o'z ifodasini topadigan davlat organlari strukturasi va tashkilotini tushunadi. Bunda davlat shakli tushunchasiga siyosiy rejimni qo'shmaydilar.

Deak, davlat shakli tushunchasiga turlicha yondashiladi. Ayrim huquqshunos-olimlar davlat shaklini tor ma'noda talqin etadilar. Ularning fikricha, mazkur tushuncha faqat boshqaruvi shaklidir. Boshqalar esa unga keng ma'no, ya'ni boshqaruvi va davlat tuzilishi shakllarini kiritadilar.

Ba'zi mualliflar davlatning ichki va tashqi shakllarini ajratadilar. Davlatning ichki shakli deganda demokratiyani tashqi shakli deganda esa siyosiy hokimiyatning muayyan

yuushtirilishi tushuniladi. D. A. Kerimovning fikricha, demokratiya siyosiy idora usulining turi bo‘lganligi bois uni davlatning ichki shakli deb tushunish mumkin, boshqaruv shakllari va davlat tuzilishi esa davlatning tashqi shaklini tashkil etadi.

Boshqa guruh davlatshunos-olimlar davlatni funksional dinamik va statik uyushgan tizim sifatida tahlil etishni taklif qiladilar. Davlatning shakli dinamik ma’noda — siyosiy (davlat) idora usuli, statik ma’noda esa — boshqarish shakli va davlat tuzilishi tarzida talqin kilinadi.

Yana bir guruh huquqshunoslar davlat shakliga quyidagicha ta’rif beradilar: davlat shakli — davlat organlarining paydo bo‘lish tartibi, ularning strukturasi, xususan, davlatning oliv organlari strukturasi, ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabat, xususan davlatning markaziy organlari bilan tarkibiy qismi organlari va mahalliy organlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabat, shuningdek, ularning jamiyatga rahbarlik qilish shakli.

Bu ta’rif o‘zun bo‘lsa ham, unda davlat shakli tushunchasining mazmunini ochib berishga harakat qilingan. Qisqacha so‘z bilan aytganda, davlat shakli — davlat hokimiyatining tuzilish shaklidir.

Davlat shakliga, shuningdek, mamlakatning taraqqiyot darajasi, uning madaniyati mamlakatda tarkib toptan tarixiy an'analar, urf-odatlar ham ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, Angliyada davlat shakllari o‘rta asrlarda tarkib topgan bo‘lib, ular hozirgi kunga qadar xurmat qilinmokda.

Tabiiyki, ran davlat hokimiyatining tuzilish shakllari haqida borar ekan, bunda ham boshqaruv shakli, ham davlat tuzilishi shakli, ham siyosiy rejim tushuniladi. Siyosiy rejimni davlat shaklining asosiy, ichki tomoni deyish mumkin.

Davlatiing siyosiy rejimi bilan uning shakli boshqaboshqa narsa. Yuridik adabiyotlarda siyosiy rejim deganda asosan hokimiyatning amalga oshirish usullari va metodlarining yigindisi tushuniladi. Masalan, demokratik rejim, fashistik rejim va xokazo.

Bayon etilgan mulohazalar huquqiy adabiyotlarda davlat shakli haqida yagona tushunchaning ishlab chiqilmaganligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, davlat shakli tushunchasining ananaviy hisoblangan ta’ifi mavjud bo‘lib, u aksariyat mualliflar tomonidan qabul qilingan.

Bu ta’rif quyidagicha: «Davlat shakli» deganda davlatdagি siyosiy hokimiyatni yuushtirishning uch asosiy elementlari tushuniladi. Bular:

*birinchidan*, boshqarish shakli; *ikkinchidan*, davlat tuzilishi; *uchinchidan*, siyosiy rejim (davlat) idora usuli yaxlitligidir.

Shunday qilib, davlat shakli mazmuni uch elementdan (boshqaruv shakli, davlat tuzilishi shakli, siyosiy rejim: ya’ni davlat idora usuli) tashkil topadi.

*Boshqaruv shakli* — davlat hokimiyati va boshqaruvi oliv idoralarining tashkil etilishi va yuushtirishining muayyan tartibidir.

*Davlatning tuzilishi shakli* — davlatning ma’muriyhududiy tuzilishi, markaziy, mintaqaviy va mahalliy hokimiyatlar o‘zaro munosabatlarining muayyan tartibidir.

*Siyosiy rejim* (davlat idora usuli) — siyosiy (davlat) hokimiyatini amalga oshirishning usul va metodlaridir.

Davlat shaklini bunday tuiunish birdan paydo bo‘lmagan. Uzoq vaqt mobaynida davlat shakli ikki element, ya’ni boshqarish shakli va davlat tuzilishi shaklidan iborat deb tushunilgan. Keyinchalik davlat shakli tushunchasiga siyosiy rejim ham qo‘sildi. Ba’zi huquqshunos-olimlar «davlat shakli» va «siyosiy rejim» tushunchalarini bir narsa deb hisoblaydilar. Hozirgi kunda davlat hokimiyatining yuushtirilishi uch element — boshqaruv, davlat tuzilishi va siyosiy rejimning mushtarakligidan iborat degan nuqtai nazar keng tarqalgan.

### «Davlat boshqaruv» shakli tushunchasi

Davlatni tushunishda boshqaruv shakli alohida ahamiyatga ega. Zero, boshqaruv shakli davlat yo‘li bilan uyushgan jamiyatda davlat hokimiyatini kim amalga oshirishini belgilaydi,

Davlat boshqaruv shakli insoniyatni qadimdan qiziqtirib kelgan muammo. Aflatundan so‘ng Arastu ham qadimgi dunyodagi davlat hokimiyatini uyushtirish va amalga oshirishning turli shakllarini o‘rganib, davlatning tasnifini ishlab chiqishga harakat qilgan. Bunda u davlatni kim boshqaradi va qanday boshqarilishiga, ya’ni boshqarish shakllariga e’tiborni qaratgan. Forobiy,

Gobbs, Monteskye, Lokk, Russo, Ahmad Donish kabilarning asarlarida davlat boshqaruv shakli to‘g‘risidagi bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish, ularning *vujusta* kelishi va rivojlanishi masalalari ko‘tarilgan.

### **Boshqaruv shakli — muayyan davlatda hokimiyatni uysushtirish usullarining majmuidir.**

Ushbu ta’rifni yanada aniqlashtirsak, u oliv davlat hokimiyatini tashkil etish, ayni paytda davlatning oliv va markaziy idoralari, mazkur idoralar tarkibi, vakolatlari, paydo bo‘lish tartibi, shuningdek, ularda xalqning ishtirok etish darajasi, mazkur idoralar vakolatlarining muddatini nazarda tutadi.

Insoniyatga davlat boshqaruvining azaldan ma’lum bo‘lgan **monarxiya va respublika boshqaruvi shakllari mayjud**. Qadimgi yunon faylasufi Arastuning fikricha, oliv hokimiyat yakka shaxs tomonidan amalga oshirilganpa *monarxiya*, cheklangan shaxslar guruhi tomonidan amalga oshirilganda *respublika*, barcha xalq tomonidan amalga oshganda esa *demokratiya* bo‘ladi.

Ushbu ta’rif hozirgi kungacha ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Chunki davlat boisharuv shakllari: monarxiya — oliv hokimiyatning bir kishi tomonidan yoki respublika — oliv hokimiyat saylanadigan vakillik idorasiga taalluqligiga ko‘ra bo‘linishi saqlanib qolgan.

### **Monarxiya — davlat boshqaruvining shakli**

«**Monarxiya**» atamasi yunonchadan olingen bo‘lib («monos» — bir «arxe» — hokimiyat), «yakkahokimiyatchilik», «yakkahukmronlik» degan ma’noni anglatadi. Davlat shakli sifatida monarxiya bir qator belgilarga ega.

Ular quyidagilardan iborat:

- monarx davlatni shaxsiylashtiradi;
- monarx tashqi va ichki siyosatda davlat boshlig‘idir;
- monarx xalq vakili, millat otasi, ya’ni fuqarolarning boshlarini qovushtirib, davlatga birlashtiradigan shaxs sifatida faoliyat ritadi. Fransiya qirollaridan biri Lyudovik IV ning «Davlat — bu Men» degani bejiz emas. Lekin bu hol haqiqiy yuridik ahvolni emas, balki davlat hokimiyatini uta shaxsiylashtirishi ifoda etadi.

Monarx davlatni yakka hokimlik bilan boshqaradi. Albatta, bu uning davlatdagagi barcha ishlarni bir o‘zi uddalay oladi degani emas. Davlat ishlarini boshqarish bilan davlatning turli idoralarda xizmat kilayotgan ko‘p sonli davlat xizmatchilari, ya’ni vazirlar, maslaxatchilar, mansabdar shaxslar shug‘ullanadilar. Monarx muhim, prinsipial davlat ishlarini bilan, qarorlar qabul qilish bilan mashg‘ul bo‘ladi. U davlat hokimiyatining to‘la egasidir. Monarx hokimiyati oliv makrmga ega bo‘lib, mustaqil. U davlatda oliv hokimiyat timsolidir. Odatda monarx hokimiyati muqaddas sanalib. diniy rutbaga ega bo‘ladi.

Monarx turlituman xalqaro, siyosiy va milliy kuchlar ta’sirida bo‘lmay qolmaydi. Ammo, shunday ham bo‘ladiki, monarxning qarorlari tasodifiy va subyektiv omillarga ham bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bu tushunarli. Zero, monarx ham odam va unga ham odamlarga xos xususiyatlar begona emas.

Monarx hokimiyati, odatda meros bo‘lib, bir monarxdan ikkinchisiga o‘tadi. Xalk; hokimiyatning bir shaxsdan ikkinchisiga o‘tishiga hech qanday munosabat bildirmaydi. Monarx muddatsiz va umrbod davlat hokimiyatiga ega bo‘ladi. Bu, tabiiyki, monarxning faqat tabiiy o‘limigina uning hukmronligiga chek qo‘yishi mumkinligini bildirmaydi. Tarixdan monarxlarning taxtdan tushirilganligi, o‘ldirilganligi, boshqalar bilan almashtirilganligiga oid ko‘plab misollar topish mumkin.

Monarx mas’uliyatdan forig‘dir, ya’ni u o‘z boshqaruv natijalari uchun muayyan yuridik va siyosiy javobgarlikka tortilmaydi. Ba’zan, tarixda xalqning monarxii javobgarlikka tortganligi to‘g‘risidagi misollar ham uchraydi.

Monarxiyaning gullab yashnagan payti — yangi davr arafasi bo‘lib, bu paytda boshqaruvning respublika shaklidan farqi aniq namoyon bo‘ladi. **Monarxiyaning mutlaq (cheklanmagan) va cheklangan turlari bor.**

### **Monarxiyaning turlari**

Mutlaq (cheklanmagan) monarxiyaning asosiy xususiyati — monarxning mutlaq hokimiyatini cheklaydigan biror davlat idorasining yo‘qligidir.

Mutlaq monarxiyaning. quyidagi belgilarini ko‘rsatish mumkin:

*birinchi*, hokimiyatdan muddatsiz, ya’ni umrbod foydalanish;  
*ikkinchi*, taxtni meros yoki qarindoshlik bo‘yicha egallash;  
*uchinchi*, tashqi munosabatlardagi vakillikni vakolat (mandat) bilan emas, balki o‘z xaqqi-huquqiga ko‘ra amalga oshirish;  
*to‘rtinchi*, davlat boshlig‘i javobgarligining yo‘qligi (faqat xudo oldida mas’uliyatning mavjudligi).

Bunday sharoitlarda tabaqa — vakillik muassasalari zarur bo‘lmaganligi bois tugatiladi yoki ular to‘la tanazzulga yuz tutadi.

Cheklangan monarxiyaning asosiy xususiyati — monarxning hokimiyati muayyan ravishda cheklanganligidadir. Cheklangan monarxiya turli tarixiy davrlarda turlicha maqomga ega bo‘lgan. Qizig‘i shundaki, Arastu monarxiyalarning ruhiy zaminidan kelib chiqib, uni «to‘g‘ri» va «noto‘g‘ri» monarxiya boshqaruv shakli (tiraniya va despotiya) ga bo‘ladi. Uning fikricha, basharti monarch barchaning manfaatlariga xizmat qilish o‘rniga o‘zining g‘arazli, shaxsiy manfaatlarirgi ko‘zlab ish tutsa, u boshqarishda o‘zboshimchalikka yo‘l qo‘yadi.

*Cheklangan monarxiyaning tabaqa vakillik va konstitusiyaviy monarxiya turlari mavjud. Konstitusiyaviy monarxiya esa o‘z navbatida dualistik va parlementer monarxiya turlariga bo‘linadi.*

**Konstitusiyaviy monarxiya** burjua jamiyatining shakllanishi davrida paydo bo‘lib, u monarch hokimiyati vakillik idorasi bilan cheklangan boshkaruv shakliga to‘g‘ri keladi. Bu holat odatda parlament tasdiqlaydigan Konstitusiya bilan mustahkamlanadi. Monarxning Konstitusiyani o‘zgartirishga haqqi yo‘q. Shu bilan dualistik monarxiyaning ikkiyoqlama jihatni tushunarli bo‘ladi. Amaldagi va yuridik hokimiyat monarch tuzadigan xukumat va qonun chiqaruvchi idora hisoblangan parlament o‘rtasida bo‘linadi. Mamlakatni boshqarishni monarch amalga oshiradi, uning oldida vazirlar hisob beradilar. Xukumatni tuzish parlamentning partiyaviy tarkibiga bog‘liq emas.

Bunta o‘tmishdagi Prussiya, Avstriya, Italiya, Ruminiya kabi davlatlar misol bo‘ladi. Bugungi kunda boshqaruvning bunday shakli deyarli uchramaydi.

**Parlementer monarxiyada** (hozirgi Angliya, Belgiya, Norvegiya, Shvetsiya mamlakatlari) qirol (qiroliche) shohlik qiladi, lekin u hokimiyatni boshqarmaydi. Xukumat parlament tomonidan saylovlarda ko‘p ovoz olgan muayyan partiyalar vakillaridan tuziladi. Eng ko‘p miqdorda deputatlik mandatiga ega partiya boshlig‘i hukumat boshlig‘i bo‘ladi. Qonunlarni parlament qabul qiladi va ular monarch tomonidan rasman imzolanadi. Shunday qilib, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud sohalarida monarch hokimiyati ramziy tusga ega. Biroq, bu monarch sof ramziy shaxs degani emas.

Sovet davrida monarxiya o‘z umrini o‘tab bo‘lgan deb talqin etilardi. Boshkacha qilib aytganda, mazkur boshqaruv shaklining bir necha yuz yillar davomida ba’zi mamlakatlar uchun jozibali ekanligi hakida lom mim deyilmasdi. Chunonchi, 1975 yilning noyabrida Ispaniya xalqi referendumda (plesbissitda) monarxiya o‘rnatishni ma’qullab ovoz berdi.

SSSR parchalanib ketgandan so‘ng ayrim respublikalarda, xususan, Rossiya va Ukrainada monarxiyani tiklash imkoniyatlari tutrisida munozaralar bo‘ldi. Buni tushunish qiyin emas. Og‘ir kunlarda, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy hayotdagi bosh-boshdoqlik sharoitlarida aksariyat kishilar monarch hokimiyatiga — «xalqlar otasi», «millat birligining ramzi»ga va xrakazolarga umid boglaydilar. Biroq ayni paytda monarxiya, rus faylasufi I. A. Ilinning fikricha, boshqarishning «organik» shakli bo‘lib, u diniy asoslarga tayanadi va shu bois maxsus ijtimoiy ruhiy muhitni taqozo etadi, uni dekret bilan kiritish, boz ustiga tasodifiy shaxsni monarch deb e’lon qilish mumkin emas.

### **Respublika — davlat boshqaruvining shakli**

Boshqaruvning **respublika** (lotincha respublika — jamoat ishi) shaklida davlat hokimiyatini axrli muayyan muddatga saylab qo‘yadigan idoralar amalga oshiradi. Respublika ham monarchiyadek, muayyan tarixga ega. Tarixan respublika boshqaruv shaklining bir necha turlari ma’lum.

Afina davlatida (eramizgacha V—IV asrlar) **demokratik respublika** mavjud bo‘lgan. Unda afinalik erkin fuqarolarning qo‘lga aylanishiga

yo‘l qo‘yilmasdi. Bu respublikada ijtimoiy raqobat, qulga egalik qilishning maxsus tavsifi, jamoa qulchiligi mavjud edi, shuningdek, davlat boshqaruvining samarali tizimi faoliyat ko‘rsatardi.

Sparta (eramizgacha V—IV asrlar) va Rim davlatlari (eramizgacha V— II asrlar) **aristokratii respublikalar** bo‘lgan. Ular davlat sifatida aksariyat aholining aristokratok qismi manfaatlarini ifodalagan.

O‘zbekiston — suveren demokratik respublika.

### **Respublikaning turlari**

Yangi davrda parlamentar respublika va prezidentlik respublikasi turlari paydo bo‘ldi.

**Parlamentar respublikaning**, o‘ziga xos xususiyati hokimiyat pogonalarida kelishmovchiliklarning mavjud bo‘lmashigidir. Zero, ijroiya hokimiyati boshliga (Bosh vazir) va uning mahkamasi parlament, aniqrog‘i, parlamentdagi ko‘pchilik tomonidan tayinlanadi va nazorat qilinadi. Xukumat o‘z vazifalarini qonun chiqaruvchilarning aksariyati qo‘llab-quvvatlasagina bajarishi mumkin, bunday ishonchdan mahrum bo‘lganda, u iste’foga chiqadi. Odatta parlamentar respublikalarda Prezident unchalik katta mavqega ega bo‘lmaydi. Ijroiya hokimiyati go‘yo qonun chiqaruvchi hokimiyat ishini davom ettiradi, tu bilan hokimiyat tarmoqlari orasida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan kelishmovchilik tugatiladi.

Biroq parlamentar respublika ham kamchiliklardan xoli emas. Bunday nuksonlardan biri — partiyaviy tizim o‘ta bo‘linganligidir. Ushbu holatda parlament koalitsiyalarning ham bo‘linishiga, bu esa o‘z navbatida xukumatning barqarorligiga olib keladi. Muayyan holatlarda hatto ekstremistik partiylar ham (ozchilik bo‘lsada) ko‘pchilikni tashkil etgan parlament birlashmasining bir qismiga aylanishi, bu esa mamlakat uchun ijro etuvchi va qonun chiqaruvchi hokimiyatlar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklardan kam bo‘lmagan jiddiy salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Bundan tashqari, parlamentar respublikada shafqatsiz boshqaruv shakli (tiraniya) paydo bo‘lish imkoniyati istisno etilmaydi. YA’ni buni parlament barpo etishi mumkin. Boshkaruvning parlamentar shakli samaradorligi va barqarorligi parlamentda o‘rin uchun kurashuvchi siyosiy partiyalarga bog‘liq.

Davlat boshqaruvining **presidentlik respublikasida** saylangan davlat boshlig‘i ayni paytda xukumat boshlig‘i bo‘ladi. U parlament roziligi bilan xukumatni tuzadi va uni tarqatib yuborish huquqiga ham ega.

Boshqaruvning prezidentlik shakli umumxalq yo‘li bilan saylangan Prezidentning umummilliy manfaatlarining ifodachisi, millatning ramzi sifatida namoyon bo‘lishidir. Mazkur shaklda bir shaxs favqulodda holatlarda mas’uliyat va rahbarlikni o‘z zimmasiga olishi mumkin. O‘zbekiston — Prezidentlik respublikasi.

Boshqaruvning prezidentlik shakli odatda parlament boshqaruvidan ko‘ra yuqori darajadagi siyosiy barqarorlikni ta’minlaydi, chunki xukumat (Prezident) Konstitusiyada belgilab qo‘yilgan qat’iy muayyan muddatga saylanadi.

Boshqaruvning prezidentlik shaklida ham muayyan zaif jihatlar mavjud. Boshqaruvning parlamentar shaklidan farqli, hokimiyatning ijro etuvchi va qonun chiqaruvchi tarmoqlari orasida ziddiyat yoki muholifat bo‘lishi, shuningdek, konstitusiyaviy tanglik vaziyati bo‘lishi, bunday holat, masalan, Prezident va parlament a’zolarining ko‘pchiligi har xil partiylar va siyosiy oqimlarga mansub bo‘lganda yuz berishi mumkin.

**Sotsialistik respublika** boshqaruvning maxsus shakli bo‘lib, u sotsialistik inqilob natijasida bir qator mamlakatlarda vujudga keldi va marksizm-leninizm nazariyotchilarining fikricha, ishchilar sinfi boshchiligidagi xalqning to‘la-to‘kis hukmronligini ta’minlaydigan chinakam demokratik respublika bo‘lishi lozim edi.

Sotsialistik respublikaning xususiyatlari quyidagilardan iborat:

*birinchidan*, hokimiyatning oliy va mahalliy idoralari demokratok sentralizm prinsipi asosida vakillik tizimiga qorishib ketadi;

*ikkinchidan*, davlat hokimiyati asosini tashkil etadigan vakillik idoralari yetakchi mavkega ega bo‘ladi;

*uchinchidan*, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma’naviy jarayonlariga yakka rahbarlik qilinadi. Bu moddiy va ma’naviy taqsimlanishni nazorat qilish va mutanosiblashtirish imkonini beradi;

*to ‘rtinchidan*, jamiyat va davlat hayotida ishchilar sinfi va uning partiyasi rahbarlik qiladi;

*beshinchidan*, hokimiyatlarning vakolatlari bo‘linishi zarurligi inkor etiladi.

Sotsialistik respublika shaklining uch turini ko‘rsatish mumkin. Bular Parij Kommunasi, sovetlar va xalq-demokratik shakllari bo‘lib, ular negizida proletar diktaturasi prinsipi yotadi.

Ba’zan boshqaruvning aralash shakllari, parlament-prezidentlik shakllari mavjud bo‘lib, ular keltirilgan tasnif doirasiga sigmaydilar. Ular parlament va prezident hokimiyatlarining (masalan, Fransiyadagidek) o‘ziga xos uyg‘unlashuvi ko‘rinishida bo‘ladi.

Har qanday boshqaruv shaklini bir tomonlama baholamaslik lozim. Respublika monarxiyaga nisbatan idora qilishning ilg‘or shaklidir deyish har doim ham to‘g‘ri bo‘lavermaydi. Ayni paytda shunday vaziyatlar ham bo‘ladiki, monarxiya u yoki bu jamiyatni barqarorlashtirishi mumkin. Uz navbatida, boshqaruvning respublika shakli monarxiya shajaralarining o‘rnatalishi uchun debocha bo‘lishi ham mumkin. Masalan, respublika shaklidagi davlatlarda totalitar tizim mavjudligi sharoitlarida boshqaruvning monarxiya shakli alomatlari, davlat boshlig‘ining almashtirilmasligi ro‘y beradi.

### **Davlat boshqaruvi shakli: asosiy xulosalar**

*Boshqaruv shakli monarxiya yoki respublika shaklida bo‘lishi mumkin.*

**Monarxiya** boshqaruvning shunday shaklici. unda davlat boshida yakka shaxs, ya’ni imperator, podsho, shoh, monarch turadi. Respublika esa davlat boshliqdari va oliv organlarning saylab qo‘yilishini hamda qonun chiqaruvchi organlarning kollegial ishlashini nazarda tutadi. Monarxiya ham, respublika ham qadimiy davlatlarda mavjud bo‘lib, chunonchi, boshqaruvning monarxiya shakli Rim davlatida, qadimgi Sharq mamlakatlarida, Misrda, Vavilonida bor edi.

Boshqaruvning respublika shakli qadimiy Yunonistonga, Rim davlatiga ham ma’lum bo‘lgan.

O‘rta asrlarda monarxiya eng ko‘p tarqalgan boshqaruv shakli bo‘lib, ko‘pgina Yevropa mamlakatlarida monarch hokimiyati kirol, imperator qo‘lida, Rossiyada knyaz, podsho qo‘lida bo‘lgan. Usha davrda respublikalar ham bor edi (Venetsiya, Novgorod va Pskov). Yangi davrda boshqaruvning respublika shakli ko‘proq tarqalgan. Hozirgi zamon davlatlari uchun boshqaruvning monarxiya shakli ham ma’lum (masalan, Angliyada).

Respublika va monarxiya har xil bo‘lishi mumkin. Respublika aristokratik bo‘lsa, unda hokimiyat organlariga bo‘ladigan saylovlarda faqat boylar, aslzodalar qatnashadilar. Respublika demokratik bo‘lishi mumkin. U holda hokimiyat organlarini saylashda aholining keng qatlamlari katnashadi.

Monarxiya boshlangich, tabaqa vakillik, cheklanmagan, konstitusiya bilan cheklangan va shu singari shakllarda bo‘lishi mumkin. Monarxning tevarakatrofida kimlar turganligi va ular kanday mavkega ega ekanligiga qarab monarch hokimiyati cheklangan yoki cheklanmagan bo‘ladi.

### **«Davlat tuzilishi shakli» tushunchasi va uning turlari**

X,ar qanday davlat muayyan cheklangan hududda joylashadi. O‘z hududini qo‘riqlash uchun chegaralar o‘rnatadi. Shu hududda uning fuqarolari istiqomat qiladilar. Davlat o‘z funksiyalarini bajarish uchun turlituman faoliyatni amalga oshiradi. Biroq davlat o‘z faoliyatini bir markazdan turib amalga oshirishi axrli ko‘p va hudud katta bo‘lganda juda qiyin.

Fuqarolar sonining ortib borishi va yer maydonining kengayishi natijasida davlat o‘z hududini muayyan hududiy qismlarga bo‘ladi. Ular okruglar, viloyatlar, o‘lkalar, shtatlar, kantonlar, gubernalar, uezdlar va hokazolar deb nomlanishi mumkin. Shu hududlarda mahalliy-

hudududiy hokimiyat idoralari tashkil etiladi. Natijada davlat hokimiyati va boshqaruvining markaziy va mahalliy idoralari o'rtasida vakolatlarni taqsimlash ehtiyoji tug'iladi. Bu davlat tuzilishi zarurligini keltirib chiqaradigan *birinchi sababdir*.

*Ikkinci sabab* u yoki bu davlat axrlisining ko'p millatliligidir. Har bir xalq millat o'z an'analariga, davlatchilik tarixiy tajribasiga, madaniy, til va boshqa ma'naviy ehtiyojlarga ega. Shu kabi omillarni ham davlat tuzilishida nazarda tutish lozim bo'ladi.

*Uchinchi sabab* subyektiv va hatto, tasodifiy omillarga bog'liq. Bunday omillar mustamlakachilik ta'siri, siyosiy manfaatlar va ko'pgina boshqa holatlardan iborat bo'lishi mumkin.

Davlatning hududiy tuzilishi ham boshqaruv shakliga o'xshash tarixan qadim zamonlarga borib taqaladi. Qadimgi yakkahokimlik sultanatlari provinsiyalarga, shaharlarga, satraplarga, zabit etilgan hududlarga bo'lingan. Mazkur hududiy mintaqalar o'zining hokimiyat va boshqaruv idoralariga ega bo'lgan. Albatta, davlat uning oddiygina hududiy mintaqalari yig'indisi emas, lekin bunday tarkibsiz davlat o'z vazifalarini uddalay olmaydi.

*Davlat tuzilishi shakli nima?* Davlatshunos olimlar tomonidan mazkur tushunchaga turli ta'riflar berilgan. Bu ta'riflar bir-biridan mohiyatan katta farq qilmaydi.

Davlat tuzilishi davlat shaklining muhim bir turidir. Davlat tuzilishi shu davlat oldida turgan vazifalar va maqsadlar bilan belgilanadi. Davlat tuzilishiga uch narsa ta'sir etadi:

1)muayyan davrda jamiyat va davlat oldida turgan iqtisodiy vazifalar va siyosiy masalalar;

2)davlatdagi millatlarning soni va o'zaro munosabatlari;

3)davlat hududining katta yoki kichikligi.

**Davlat tuzilishi** — davlatning ma'muriy hududiy tuzilishi, uning bo'laklari, markaziy organlari, bu organlarning joylardagi mahalliy organlar bilan o'zaro aloqalarining xususiyatlaridan iborat.

**Milliy davlat tuzilishi** — davlatning tuzilishi, uning ma'muriy-hududiy bo'linishi, davlat bilan uning tarkibiy dismlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlari, davlat va uning tarkibiy qismlarining huquqiy holati, ularning vakolatlaridan iborat.

Davlat tuzilishi yoki milliy-davlat tuzilishi dozirgi davrda quyidagi savollarga javob berishi kerak: Davlatning oldida turgan iqtisodiy vazifalar nimalardan iborat?

- Bu davlat bir millatli davlatmi, bu davlatdagi millatlarning huquqiy holati qanday?

- Bu davlatda yashayotgan har bir millat va elat o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga va ular o'zlarining milliy suverenitetiga egami?

- davlat tuzilishi bo'yicha ma'muriy-hududlarga bo'linadimi?

- davlatning yagona qonun chiqaruvchi organlari bormi?

- Davlatda yagona fuqarolik joriy qilinganmi?

- davlat ittifok, davlatimi, uning tarkibiga kiruvchi davlatlarning huquqiy maqomi qanday?

Davlat tuzilishi *oddiy (unitar)* va *murakkab (federativ, konfederativ)* bo'lishi mumkin. Davlat tuzilishi shakli bevosita oshkora hokimiyat bilangina emas, balki davlatning yana bir muhim xususiyati bo'l mish aholining hududiy uyushishi bilan ham bog'liqlir.

Shunday qilib, *davlat tuzilishi shakli deganda, davlat hokimiyatining ma'muriy-hududiy uyushuvi, davlat va uni tashkil etgan hududlarning, ayrim qismlarning, markaziy va mahalliy idoralar orasidagi munosabatlarning tabiatи tushuniladi*.

### **Davlat tuzilishining unitar shakli**

Unitar (fransuzcha «imitaire» — «yagona» degani) davlat — oddiy va yaxlit davlatdir. Unitar davlatlarning aksariyati muayyan ma'muriy-hududiy bo'linish (tumanlar, viloyatlar, kantonlar va xrakazolar) ga ega. Biroq ushbu hududiy qismlar davlat mustaqilligi alomatlariga ega emas. Bunday davlatda oliy davlat idoralari va qonunchilikning yagona tizimi mavjud bo'ladi.

Barcha unitar davlatlarga xos bo'lgan markazlashtirish turli shakllar va darajalarda namoyon bo'lishi mumkin. Ba'zi mamlakatlarda umuman mahalliy idoralar mavjud bo'lmay,

ma'muriy-hududiy o'lkalar markaziy hokimiyat tayinlaydigan vakillar tomonidan boshqariladi. Boshqa davlatlarda esa mahalliy idoralar tuziladi. Biroq ular markaziy hokimiyat oldida (bevosita yoki bilvosita) hisobot beradilar.

Markaziy hokimiyat mahalliy idoralar ustidan nazoratning qay turini amalga oshirishiga qarab unitar davlatlar *markazlashgan* va *markazlashmagan* turlarga bo'inadi.

Ba'zi unitar davlatlarda bir yoki bir necha ma'muriy-hududiy qismlarga, ulkalarga imtiyozli huquqiy maqom beriladi. Bunday unitar davlat ma'muriy avtonomiya ega bo'ladi. Qayd etilgan davlat tuzilishi shakli hududiy ulkalarning maxsus manfaatlariga e'tibor berish zarur bo'lgan holatlarda qo'l keladi. Mazkur avtonom o'lkalarda o'zini o'zi boshqarish huquqi aholining boshqa qismiga qaraganda birmuncha keng bo'ladi. Lekin ularning mustaqilligi markaziy hokimiyat belglagan doiradagina saqlab qolinadi.

Hozirgi zamonda aksariyat ko'pchilik davlatlar o'z tuzilishi bo'yicha unitar davlatlardir. Masalan, Italiya, Fransiya, Angliya, Ukraina, Belorussiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston.

Unitar davlatlar hududida boshqa mustaqil davlatlar bo'lmaydi. Unitar davlatlar ichidagi ma'muriy-hududiy bo'linmalar faqat mahalliy masalalarni hal etish huquqiga ega, markaziy yagona davlat hokimiyatining kuchi davlatning butun hududiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, **unitar davlat** — *ma'muriy-hududiy qismlar (viloyatlar, tumanlar, rayonlar, grafiklar, gubernalar va shu kabilar) ga bo'linib, yagona tizimdagи hokimiyat va boshqaruv organlariga, Konstitusiyaga, fuqarolikka, muayyan hududga, davlat chegarasiga va o'z qonunchiligiga ega bo'lgan davlatdir.*

#### **Davlat tuzilishining federativ shakli**

Kishilik jamiyatining rivojlanishi, ilmiy-texnik taraqqiyot, yangi iqtisodiy muammolar va boshqa omillarning paydo bo'lishi natijasida yaqinlashuv (integratsiya) jarayonlari boshlanadi. Bular esa murakkab davlatlar va ularning turlari bo'lmish federatsiyalar, konfederatsiyalar hamdo'stliklar kabilarning barpo etilishiga olib keladi.

**Federativ davlat** (lotincha «feodus» — «ittifoq» degani) — murakkab davlat bo'lib, uning subyektlari davlat mustaqilligiga eta bo'ladi. Federatsiyalarning ikki turi ittifoq va avtonomiya (muxtoriyat) mavjud.

Ittifoq federatsiyasining hududi undagi subyektlar hududlari majmuidan iborat. Har bir federatsiya subyektlarinint fuqarolari ayni paytda butun mamlakatning ham fuqarolari hisoblanadilar. Bund ai davlat yagona federal qurolli kuchlar, moliya, soliq va pul tizimlariga ega bo'ladi. Federal idoralar yagona tashqi siyosatni amalga oshiradilar. Federatsiya subyektlari ham o'zlarining qo'shinlariga ega bo'lishi mumkin.

Federal davlatda davlat hokimiyatining umumfederal (qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud) idoralari mavjud bo'lib, ularning qarorlari federatsiya subyektlari uchun uning vakolati doirasida majburiydir. Oliy federal idoralar qatorida federatsiya a'zolarining, subyektlarining ham oliy davlat idoralari mavjud bo'ladi. Federatsiyada davlat apparati ikki darajada bo'ladi: *birinchisi*, federal (ittifoq) davlat organlari: *ikkinchisi*, shtat, kanton, o'lka kabi davlat organlari.

Davlatning federativ mohiyati oliy darajada ikki palatalik ittifok. palatasini tuzishda ifodalanadi. Ushbu palatalarning biri (yuqori palata) federatsiya subyektlari manfaatlarini aks ettiradi. Uni tuzishda axrli sonidan qati nazar teng vakillik prinsipidan foydalilanadi. Ikkinci (quyi) palata esa davlatning barcha aholisi manfaatlarini ifodalash maqsadida tuziladi.

Federatsiyaning o'ziga xos belgilaridan biri ikki fuqarolik bo'lib, u har bir fuqaroning bir vaqtning o'zida ham federativ davlat fuqarosi, ham federatsiya subyekta bo'lgan fuqarosi ekanligini bildiradi.

Federativ davlatda federatsiya subyektlarining o'z huquqiy tizimlarini tuzishlari, o'z Konstitusiyalariga ega bo'lishlaridan qat'iy nazar, yagona federativ huquqiy tizim amal

qiladi. Biroq federatsiya subyektlarining Konstitusiya va qonunlari federal Konstitusiya va qonunlarga tuda muvofiq kelishi, ularga zid bo‘lmasligi lozim.

Federatsiya subyekti Konstitusiyada ko‘rsatilgan o‘z sud idoralari va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi idoralariga ega bo‘lishi kerak. Oliy sud federatsiya subyektlari sudlarining qarorlari ustidan shikoyatlarni kurib chiqmaydi yoki maxsus ko‘rsatilgan holatlardagina qarab chiqishi mumkin.

Federatsiyada soliqlarning ikki pog‘onali tizimidan foydalaniladi. Bular — federal soliqlar va federatsiya subyektlari soliqlaridir. To‘plangan soliqlar umum federal xazinaga tushadi va so‘ngra ular (byudjet orqali) federatsiya subyektlariga jo‘natiladi. Ayni paytda federatsiya subyektlarining daromadlari yetishmasligi, natijada ular subsidiya va dotatsiyalarga ehtiyoj sezish holatlari uchrab turadi.

Federatsiya subyektlari o‘rtasidagi munosabatlar juda murakkab, Ularda xo‘jalik munosabatlarining kooperatsiyami mavjud bo‘lib, federatsiyaning bir subyektdan ikkinchisiga moliyaviy mablag‘larning oqib o‘tishi yuz berib turadi. Shu bois federatsiya subyektlarining biri ushbu ittifoqdan chiqishni ixtiyor etsa, federatsiyaning boshqa a’zolariga bu narsa ma’qul bo‘lmaydi, buning uchun barcha federatsiya subyektlarining qo‘llab-qo‘vvatlashi zarur bo‘ladi. Millatlarning o‘z taqdirlarini o‘zlari belgilash prinsipi davlatning yaxlitligiga putur yetkazmasligi lozim.

Har qanday federatsiyaning bosh masalasi ittifoq va federatsiya subyektlari o‘rtasidagi vakolatlarni belgilashdir. Bu davlat tuzilmalari mavqeい va ular orasidagi munosabatga daxldor. Odatda bu federatsiya Konstitusiyasi yoki federativ shartnoma bilan mustahkamlab qo‘yiladi.

Federativ va federatsiya subyektlari vakolatlari masalasi uch prinsip asosida hal qilinadi:

*birinchisi*, federatsiyaning favqulodda vakolati prinsipi, ya’ni faqat federatsiyaning o‘zi qarorlar qabul qila oladi, normativ hujjatlar chiqara oladi. Boshqa masalalar federatsiya subyektlari vakolatlariga kiradi;

*ikkinchisi*, birgalikda vakolatga egalik prinsipi, ya’ni federatsiya va uning subyektlarining umumiyligi vakolatlari;

*uchinchisi*, vakolatlarning uch sohasi prinsipi federal, federatsiya subyektlari vakolatlarini belgilash, shuningdek, federatsiya subyektlari va federatsiyaning birgalikdagi vakolatiga taalluqli deb topilgan vakolatlarni belgilashni taqozo qiladi.

Ba’zi federativ davlatlar amaliyotida (masalan, Rossiyada) vakolatlarni taqsimlashning vakillik usuli paydo bo‘ldi. Bu federatsiya subyektining markazga qat‘iy tobelligi to‘g‘risidagi masalani bartaraf etadi va vakolatlarni taqsimlashning ixtiyoriylik prinsipidan guvohlik beradi. Bu holat «uyushgan a’zo» tushunchasini keltirib chiqaradi, ya’ni an’anaviy federatsiya subyektlari ko‘proq mustaqillikka ega, vakolatlarni ixtiyoriy vakillikdan foydalanib amalga oshiradilar, markaziy taqsimotdan holi bo‘ladilar.

Federatsiyaning murakkab masalalaridan biri millatlarning o‘z taqdirini o‘zlari belgilash, ya’ni millatlarning federatsiya tarkibidan chikishi masalasidir. Turli federatsiyalar Konstitusiyalarini tahlil etish ushbu Konstitusiyalarning birortasida ham mazkur prinsip mustahkamlaganligini ko‘rsatdi. Bundan faqat sobiq SSSR Konstitusiyasi mustasno. Unda mazkur prinsip faqat e’lon etilgan edi, xolos. Ushbu muammoni xal qilish mexanizmi to‘g‘risida unda hech nima deyilmagan edi.

Hozirgi kunda AQSH, Rossiya, Braziliya, Xindiston federativ davlatlardir. Odatda, federatsiya shartnoma asosida (1922 yilda sobiq SSSR tuzilgan edi) yoki Konstitusiyasi qabul qilish yo‘li bilan (1787 yilda AQShda tuzilgan edi) paydo bo‘ladi.

### **Davlat tuzilishining konfederatsiya shakli**

Konfederatsiya davlatlarning muayyan ittifoqi bo‘lib, siyosiy, harbiy, iqtisodiy maqsadllar uchun shartnoma yoki bitim asosida tuziladi. Konfederatsiya odatda muvakdat bo‘ladi. Keyinchalik konfederatsiyalar yo federatsiyalarga birlashadilar (AQSH, Shveysariya) yoki tarqab ketadilar (AvstroVengriya).

Konfederatsiyani tashkil etgan mustaqil davlatlar xalqaro huquq subyektlari bo‘lib qoladilar, shuningdek, o‘z fuqaroliklari, hokimiyat idoralari, boshqaruv, odil sudlov tizimlariga ega bo‘ladilar.

Konfederatsiya a’zosi bo‘lmish davlatlar hokimiyatni mustaqil amalga oshiradilar, o‘z Konstitusiyalariga ega bo‘ladilar. Shu bois konfederatsiya darajasida qabul qilingan hujjatlar mazkur davlatga kiradigan davlatlarning oliv idoralari tomonidan ma’qullanishi lozim. Konfederatsiya a’zolari daromadning mustaqil manbaiga ega bo‘lib, uning bir qismini konfederatsiya byudjetga ajratishlari mumkin. Konfederatsiya qo’shinlari konfederatsiya a’zolari bo‘lgan davlatlarning harbiy qismlaridan tuziladi, ular ushbu davlatlarning qaroriga ko‘ra konfederatsiya qo‘mondonligi ixtiyoriga yuboriladilar.

Davlat tuzilishining konfederatsiya shakli unga kiruvchi davlatlarning xohishiga ko‘ra tuziladi. Konfederatsiya a’zolari davlat mustaqilligini saqlab qolib, ma’lum bir vazifalarni bajarish maqsadida birlashadilar.

Konfederatsiyaning organlari unga kiruvchi davlatlarning faol ishtiroki asosida tuziladi, ularning qabul qilgan hujjatlari konfederatsiyaga kiruvchi davlatlar orqali amalga oshiriladi. Pekin, konfederatsiyaga kiruvchi davlatlar bunday hujjatlarni tan olmasligi va bajarmasligi mumkin.

Konfederatsiyaning moddiy asoslari unga kiruvchi davlatlarning mablag‘laridan tashkil topadi. Konfederatsiyaning umumiy hududi, yagona fuqaroligi va Konstitusiyasi bo‘lmaydi. Shuning uchun ham konfederatsiya mustaqil davlat hisoblanmaydi, u ma’lum ma’noda vaqtinchalik ittifoqdir. Konfederatsiya asosiy maqsadiga erishganidan so‘ng tarqalib ketishi yoki tuzilgan ittifoqni mustahkamlab federatsiyaga o‘tishi, yoxud qo‘silib unitar davlat bo‘lib ketishi mumkin.

Masalan, tarixda AQSH 1776—1787 (11 yil) yillari, Shveysariya — 1815—1848 (33 yil), Germaniya 1815—1856 (51 yil) konfederativ shakldagi davlat bo‘lgan.

Milliy davlat tuzilishi ma’lum prinsiplar asosida amalga oshiriladi. Bu prinsiplar kuyidagildan iborat:

*birinchidan*, millatlarning suverenligi va teng huquqliligi;

*ikkinchidan*, millat va elatlarning erkin, ozod rivojlanishi;

*uchinchidan*, baynalmilallik, millatlarning hamkorligi, do’stligini ta’minlash.

Bu prinsiplar har bir milliy davlat tuzilishiga asos bo‘lishi kerak, chunki federativ davlatmi yoki yakka millatli unitar shakldagi davlatmi, ularning hududida turli millatlar yashaydi. Davlat tuzilishida, davlat organlarining shakllanishida, uning faoliyatida yuqorida prinsiplar asos bo‘lishi zarur.

Har qanday davlat tuzilishi shaklining asosiy shartlaridan biri markaziy hokimiyat vakolatlarning taqsimoti masalasidir.

### **Davlat tuzilishi shakli: asosiy xulosalar**

Davlat o‘z ichki tuzilishiga, uning ayrim qismlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlariga, markaziy va mahalliy hokimiyat o‘rtasida bo‘lgan munosabatlariga, davlat hududi ayrim qismlarining huquqiy mavqeiga ko‘ra oddiy (unitar) va murakkab (federativ, konfederativ) bo‘lishi mumkin.

Unitar davlat ayrim davlatlardan iborat emas, u yaxlit bo‘lib, ma’muriy-hududiy qismlarga (viloyatlar, gubernalar grafiklar va shu singarilarga) bo‘linadi, xolos.

Federativ davlatlar o‘zlarining qonun chiqaruvchi organlariga, o‘z xukumatlariga va sud organlariga ega bo‘lgan bir necha davlatlardan tarkib topadi. Masalan, AQShda shtatlar, GFRda — o‘lka federatsiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Davlatning bir qadar zaif ittifoqi konfederatsiyadir. U muayyan maqsadlar — mudofaa uchun, umumiy xo‘jalik muammolarini hal qilish va hokazolar uchun tuziladi.

Shunday qilib, davlatning boshqaruv, idora shakllari juda ko‘p va xilma-xil.

### **«Siyosiy rejim» tushunchasi**

Siyosiy rejim tushunchasi yuridik adabiyotlarda XX asrning 60-yillarda paydo bo‘ldi va huquqshunos olimlar o‘rtasida ilmiy munozaralarga sabab bo‘ldi. Aksariyat

olimlar siyosiy rejimni davlat shaklining sinonimi sifatida talqin etadilar. Ayrimlari esa siyosiy rejim davlat shakli tarkibiga umuman kirmaydi, chunki davlatning amal qilishini siyosiy emas, balki davlat idora usuli deb hisoblaydilar.

Mazkur ilmiy munozaralar siyosiy rejimni tor va keng ma'noda tushunishga olib keldi. Bu hozirgi zamonda jamiyatdagi ikki (davlat va ijtimoiysiyo siyosiy soha) da kechayotgan siyosiy jarayonlarni tushunishga mos keladi. Shuningdek, bu siyosiy tizimning hozirgi zamon talqinlariga ham muvofiqdir.

Siyosiy tizimning barcha tarkibiy qismlari: siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, ommaviy harakatlar (shuningdek, «tizimdan tashqari» bo'lgan — diniy tashkilotlar) davlat, uning mohiyati, vazifalari, faoliyat shakli va usullari ta'siri ostidadir.

«Siyosiy rejim» tushunchasini keng ma'noda talqin qilganda, jamiyatning umuman siyosiyhayoti va siyosiy tizimi hodisalari siyosiy rejimga taalluqlilagini bildiradi.

Siyosiy rejimni tor ma'noda tushunish esa uni faqat davlat hayoti va davlat bilan cheklab qo'yadi. Siyosiy rejimni bu ma'noda tushunish davlat shaklining boshqa ikki elementa — boshqarish shakli va davlat tuzilishi bilan uzviy bog'liqidir.

Tor ma'nodagi siyosiy rejim — davlatga rahbarlik qilish usul va yo'llarining majmui bo'lsa, keng ma'nodagi siyosiy rejim — shaxsning demokratik huquqlari va siyosiy erkinliklarining kafolatlanganligi, konstitusiyaviy va huquqiy shakllarining siyosiy voqelikka mosligi, davlat va jamiyat hayoti huquqiy negizlaridir.

Siyosiy rejim quyidagi savollarga javob berishga imkon beradi:

• davlat hokimiyatining aholi bilan munosabati qaysi, qanday vosita va yo'llar yordamida amalga oshiriladi?

- siyosiy sohada turli kuchlarning o'zaro munosabatlari qanday namoyon bo'ladi?
- turli jamoat birlashmalarining siyosiy maqomi qay darajada?
- davlat idoralari aholini boshqarish uchun amalda qanday mavqega ega?

### Siyosiy rejimning turlari

Davlat va huquq nazariyasi fanida siyosiy rejim bir necha turlarga bo'inadi. Siyosiy rejimning turlari ko'p asrlik davlatchilik tajribasi tarixidan kelib chiqqan.

Barcha siyosiy rejimlarni ikki yirik — (**demokratik** va **nodemokratik**) turga bo'lish mumkin.

Nodemokratik siyosiy rejim esa o'z navbatida uch (**totalitar**, **fashistik**, **avtokratik**) turga bo'inadi.

Avtokratik siyosiy rejim jamoaviy avtokratiyani va yagona shaxsiy avtokratiyani taqozo etadi. *Jamoaviy avtokratiya* o'z navbatida aristokratiya va oligarxiya deb ataladigan siyosiy rejim shakllariga bo'inadi.

**Yagona shaxsiy avtokratik** idora usuli despotiya, tiraniya va yakka shaxsning siyosiy rejimi shakllaridan iborat.

**Despotiya** (yunoncha «despoteia» — cheklanmagan hokimiyat) rejimi hokimiyat faqat bir kishi tomonidan boshqariladigan mutlaq monarxiyaga xosdir. Despotiyalar qadim zamonlarda paydo bo'lib, boshqaruvda o'ta o'zboshimchalik, raiyatdagi to'la huquqsizlik, boshqaruvda huquqiy va ahloqiy qadriyatlarning yo'qligi bilan ajralib turadi. Despotiya sharoitida mustaqillik, norozilik mumkin bo'lmay, bunday hodisalar darhol bostirilgan. Bunday holatlarda ishlatiladigan chora-tadbirlar o'ta ayovsiz bo'lib, jazo dahshatli bo'lgan. Buning sababi xalqni qo'rquvda saqlash bo'lgan. Despotiya qo'rquv asosiga qurilgan.

Buyuk fransuz mutafakkiri SH. L. Monteskye despotiyaga ta'rif berib, barcha kishilar har daqiqa xukmdorning «abadiy ko'tarib turilgan bo'lishni xis qilib turishlari lozimligini yozgan: «Basharti hukmdor biror lahma qo'rquv soladigan qulini tushirsa va u zudlik bilan davlatda birinchilavozimlardagi shaxslarni yo'q qilib yubora olmasa, barcha narsa tamom bo'ladi, zero, qo'rquv bunday boshqaruv tarzining ilk ibtidosi bo'lsa, xalqda ham ximoyachi qolmaydi».

Despotiya idora usuli sifatida faqat O'rta Yer dengizi, Yaqin Sharq, Osiyo, Afrika, Janubiy Amerika mamlakatlarida, ya'ni osiyocha taraqqiyot nuli qaror topgan davlatlardaginka tarkdilmagan. Ushbu idora usuli va umuman insoniyat rivojining ilk bosqichlariga xosdir.

Mazkur idora usuli dazlatlar taraqqiyotida tarixiy o‘ziga xoslikka, ulardagi boshliqlarning shaxsiy fazilatlariga bog‘liq ravishda paydo bo‘lgan.

**Tiraniya** rejimi ham yakka shaxs boshqaruviga asoslangan. Buning despotiyadan farqi shundaki, tiranning hokimiyati odatda zo‘ravonlik natijasida, ba’zan qonuniy hokimiyatning o‘rnini egallash natijasida o‘rnataladi. Unda ham huquqiy va axloqiy qadriyatlar hisobga olinmaydi, u o‘zboshimchalik, terror va genotsid asosida qaror topadi. Tiranning hokimiyati ayovsiz bo‘ladi. Tiraniya ham qo‘rquvga asoslangan. Tiran qarshilik ko‘rsatganlarni bostirishga harakat qiladi. Boshqa mamlakat hududi va aholisi davlatlashuvi sodir bo‘ladi. Shaxs siyosiy hayotda deyarli ishtirok etmay qo‘yadi. Odamlarning shaxsiy hayoti ham nazorat ostiga olinadi. Aqidaparastlik mafkuraviy, siyosiy va huquqiy hayot tarziga aylanadi.

Militarizatsiya — totalitar idora usulining o‘ziga xos xususiyatlaridan biridir. Totalitarizmning ko‘rinishlaridan biri yagona shaxs idora usulidir. Uning totalitar idora usuli bilan juda ko‘p umumiy jihatlari bor. Lekin unda «shaxsga sig‘inish», dohiyga sig‘inish kuchayib boradi.

**Fashistik rejim** idora usuli totalitarizmning avj olgan shakllaridan bo‘lib, u milliy mafkura, bir millatning boshqa millat ustidan ustunligini ta’kidlash, o‘ta agressivlik bilan tavsiflanadi. Fashizm milliy, irkchilik safsatasiga asoslanadi va bu davlat siyosati, mafkurasi darajasiga ko‘tariladi. Fashistik davlatning maqsadi milliy mushtaraklikni muhofaza etish, geopolitik, ijtimoiy vazifalarni hal etish, millatning sofligini himoyalashdir deb e’lon qilinadi.

Fashistik mafkuraning bosh shiori odamlarning qonun, hokimiyat, sud oldida tengsizlidigidir. Ular huquq va mas’uliyatlarining kaysi millat, irqqa mansubligiga bog‘liqligini rukach qiladilar. Bir millat yuqori millat deb e’lon qilinib, u barcha ne’matlarga munosib deb topiladi. Boshqalari esa, basharti ular mayjud bo‘lsalar, faqat mukammallikdan yiroqdirlar, deyiladi. Fashistik idora usuli — inson qadr-qimmatini tahqirlovchi agressiv idora usulidir, u barcha xalqlarni, jumladan, o‘z xalqini ham qayg‘u-alamlarga duchor qiladi.

Hozirgi kunda ham fashistik idora usuli endi insoniyatga boshqa xavf tug‘dirmaydi, deb o‘ylash xato. Ma’lumki, mazkur idora usuli muayyan tarixiy sharoitlarda (jamiyatda ijtimoiy tangliklar, ommaning kashshoklashuvi sharoitlarida) paydo bo‘ladi. Bunday holatlar zaminida milliy g‘oyalar, populistik (ommaga xush yoqadigan) shiorlar bo‘lgan harakatlar vujudga keladi.

### Avtoritar siyosiy rejim

**Avtoritar siyosiy rejim** huquqiy va ahloqiy qadriyatlarga asoslangan bo‘lishi mumkin. Lekin uni xalq boshqaruvda katnashib turgan davlat deb atab bo‘lmaydi. Vakillik idoralarining mavjudligi ishning mohiyatini o‘zgartirmaydi. Ular davlat hayotida chinakam mavqega ega bo‘lmaydi. Parlament dohiy yoki shaxslar guruhi, hukmon elita taklif etgan har qanday qarorlarni tasdiqlayveradi. Rahbarlikni amalga oshirayotgan elita, oliy mansabdor shaxslar uchun imtiyozlar mavjud.

Harbiy yoki davlat tuntarishi yordamida hokimiyat qo‘lga olinsa, bunday avtoritar idora usuli to‘da yoki xunta deb ataladi. Xukmron to‘da ichida boshliq ajralib turadi. U aksariyat masalalarini yechish uchun o‘z «komandasiga»ga murojaat qilib, ularning masladatlarini tinglasada, lekin uning ta’siri chegarasizdir.

Avtoritarizm davrida muxolifatga yo‘l qo‘yilmaydi. Bunday idora usuli sharoitida shaxs o‘z konstituyaviy huquqlaridan foydalana olmaydi. U o‘zining hokimiyat bilan bo‘ladigan munosabatlarida xavfezlik kafolatidan mahrumdir. Zero, hokimiyat unga nisbatan majburlov choralarini ham qo‘llashi mumkin. Davlat manfaatlarining shaxsiy manfaatlar ustidan to‘la ustuvorligi e’lon qilinadi.

Avtoritar hokimiyat xalq ishonchi — ulug‘ qudrat ekanligini yaxshi biladi, shu bois u ommada dohiy va uning safdoshlariga nisbatan fidoyilikni singdiradi. Hozirgi kunda avtoritar idora usullari turli mamlakatlarda ko‘plab uchrab turadi.

### Liberal demokratik siyosiy rejim

Hozirgi zamon demokratik idora usullarining eng rivojlangan shakli — **liberal-demokratik** siyosiy rejimdir. Uning ahamiyati va jozibador kuchi shu qadar kattaki, ko‘plab olimlar uni hokimiyatni amalga oshirish idora usuli emas, balki jamiyat rivojlanishining muayyan bosqichida sivilizatsiya mavjudligining sharti, jamiyat siyosiy tizimi taraqqiyotining pirovard maqsadi sifatida baholaydilar.

Davlat va huquq nazariyasi fanida hokimiyatni boshqarishning eng demokratik va insonparvarlik prinsiplariga asoslangan siyosiy rejim ham liberal idora usuli deb ataladi.

Mazkur prinsiplar, eng avvalo, shaxs va davlatning iqtisodiy munosabatlarini belgilaydi. Mazkur idora usulida inson mulk, huquq va erkinliklarga ega, iqtisodiy va siyosiy jihatdan mustaqildir. Shaxs va davlat munosabatlarida ustuvorlik shaxsga tegishli bo‘ladi. Liberal idora usuli bozor munosabatlarini, bozor iqtisodiyotini tashkil etishii taqozo etadi, bozor esa teng huquqli, erkin, mustaqil raqobatchilar mavjudligini taqozo qiladi.

Liberal jamiyatda so‘z, fikr, mulk shakllari erkinligi e’lon qilinadi, shaxsiy tashabbusni amalga oshirishga imkoniyat yaratiladi.

Bunday jamiyatda davlat hokimiyati idoralari saylovlari vositasida shakllanadi. Davlat boshqaruvini amalga oshirish hokimiyat vakolatlarini taqsimlash prinsipiga asoslanadi.

*Siyosiy idora usuli liberaldemokratik bo‘lgan jamiyatni fuqarolik jamiyati deb atasa bo‘ladi.*

Biroq uni ideallashtirish mumkin emas. Mazkur idora usulida axdlining daromadlari, ularning hayot darajalari, fuqarolarning boshlang‘ich imkoniyatlari bir-biridan o‘ta farq kiladi, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilishda dam muammolar mavjud va hokazo. Shunga qaramay, hozirgi kunda aksariyat mamlakatlar liberalizmni eng maqbul idora qilish sifatida qabul qilmokdalar.

### **Demokratik siyosiy rejim**

*Demokratiya* (yunoncha demokratia «demos — xalq kratos — hokimiyag» — «xalq hokimiyati») siyosiy rejimm barcha kishilarning tengligi va erkini tan olixiga, xalqning davlatni boshqarishda ishtirot etishiga asoslangan. Demokratik davlat o‘z fuqarolarining huquq va erkinliklarini elon qiladi, ayni paytda ularni iqtisodiy zaminlar bilan ta’miriaydi, huquq va erkinliklar konstitusiyaviy jihatdan kafolatlanadi.

Demokratik davlatda hokimiyatning manbai xalqdir. Jamiyat va davlat nshlarini boshqarishda xalqning ishtirot etishi chinakamiga ommaviy tue oladi. Referendumlar, plesbissitlar, xalq tashabbuslari, muhokamalari, namoyishlari, yig‘ilishlari ijtimoiy hayotning ajralmas xususiyatlariga aylanib qoladi. Jamoat birlashmalari qarorlar, tavsiyalar ishlab chiqishda qatnashib, ijro etuvchi idoralar ustidan nazoratni amalga oshiradilar.

Markaziy va maxalliy idoralar o‘rtasidagi vakolatlarni belgilash tizimi yangi darajaga ko‘tariladi. Markaziy davlat idorasi faqat ekologiya, jahon hamjamiatidagi mehnat taqsimoti, to‘qnashuvlarning oldini olish va jamiyatning mavjudligiga daxldor boshqa muammolarni yechishni o‘z zimmasiga oladi.

Albatta, demokratik idora usuli ham o‘z muammolariga ega. Bular — jamiyatning tabaqalarga bo‘linishi, ko‘pchilik hokimiyatidir. Ba’zi tarixiy sharoitlarda jamiyatni muddatidan ilgariroq demokratiyalashtirish hokimiyatning kuchsizlashuviga, jamoat tartibining buzilishiga, hatto anarxiyaga ham olib kelishi, ekstremist kuchlarning qayta tug‘ilishi uchun ham sharoit yaratishi mumkin. Lekin, baribir, demokratiyaning ijtimoiy qiymati nihoyatda yuqori.

Demokratik idora usuli aksariyat ijtimoiy kurash o‘z cho‘qqisiga chiqqan va hukmdor elita, davlat hokimiyatini uyuştirish va boshqarishda xalqqa yon bosishga majbur bo‘lgan holatlarda paydo bo‘lishi mumkin. Demokratik idora usuli hozirgi kunda davlat tuzilishida insoniyat erishgan eng yaxshi shakl bo‘lib, u bugungi sivilizatsiya voqeligiga, yangilanishiga va intilishlariga mutanosibdir.

O‘zbekistonda demokratik siyosiy rejamming huquqiy asoslari yaratilmokda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

27. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. -T., 1998.

28. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdur // Xalq so‘zi.-2005.-29 yanv.
29. X.Boboyev., H.Odilqoriyevlar tahriri ostida. Davlat va huquq nazariysi.. -T., 2000.
30. Tadjixanov U., Odilqoriyev X., Saidov A. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyaviy huquqi. –T., 2001.
31. Saidov A., Tadjixanov U., Odilqoriyev X. Davlat va huquq asoslari. -T., 2002.
32. Tadjixanov U., Gulyamov Z. Pravovoye regulirovaniye deyatelnosti militsii. -T., 1995.
33. Dzaporov A.T. Normi prava. Vidi pravovix norm, reguliruyushix deyatelnost organov vnutrennix del. -T., 1993.
34. Saidov A., Tadjixanov U. Davlat va huquq nazariyasi. 2-jild. –T., 2002.
35. Islamov Z.M. Davlat va huquqning umumnazariy muammolari. 2-q. T., 2001.
36. Islamov Z.M. Huquq tushunchasi, mohiyati, ijtimoiy vazifasi. T., 2004.
37. Nersesjans V.S. Huquq falsafasi. T., 2003.
38. Malaxov V.P., Kazakov V.N. Teoriya gosudarstva i prava. –M., 2002.
39. Marchenko M.N. Obshaya teoriya gosudarstva i prava. Tom 1-2. –M., 1998.

## 5-MAVZU: DAVLAT FUNKSIYALARI

**Reja:**

**1.Davlat funksiyasi tushunchasi va uning tasnifi**

**2.Davlatning ichki funksiyalari**

**3.Davlatning tashqi funksiyalari**

**1. Davlat funksiyasi tushunchasi va uning tasnifi**

Davlatning mohiyati uning funksiyalarida namoyon bo‘ladi. Funksiyalar deganda jamiyatni boshqarishning predmeti - siyosiy faoliyat va ijtimoiy jarayonlarning rivojlanishi ta’sir ko‘rsatish mexanizmi tushuniladi.

*Davlatning funksiyasi - bu davlatning hamda u amalga oshiradigan o‘z faoliyatining asosiy yo‘nalishlari bo‘lib, uning mohiyati va vazifalaridan kelib chiqadi.*

Davlat funksiyalari uning davri, siyosati, maqsadi, vazifalari va faoliyati bilan chambarchas bog‘langan.

Davlat funksiyalarining vazifalari, maqsadlari va mazmuni har bir tarixiy davrda o‘zgarib turadi. Masalan, davlat ilk bora paydo bo‘lgan vaqtidagi davrni olib qaraydigan bo‘lsak, u vaqtida tabiat boyliklari va atrof muhitni muhofaza qilish funksiyasi bo‘lmagan, ya’ni o‘sha davr shu vazifani bajarishni talab qilmagan, bunga **ehtiyoj** bo‘lmagan, ya’ni u paytda insonning hayot kechirishi uchun tabiiy sharoit yetarli va zararsiz bo‘lgan. Har qanday funksiyani bajarish uchun avvalambor jamiyat shunga ehtiyoj sezish kerak, agarda jamiyat shunga ehtiyoj sezmasa, bu turdagagi funksiya vujudga kelmaydi.

*Davlatning vazifalari, uning funksiyalaridan farq qilib, hali bajarilmagan reja, ado etilishi lozim bo‘lgan topshiriq, ko‘rsatma, navbatdagi ishlar, tadbirlar hisoblanadi.* Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining muqaddimasidagi «fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta’minlash maqsadi»ni ro‘yobga chiqarib turish uchun O‘zbekiston davlatining tegishli organlari qator tashkiliy-siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirib kelmoqda.

Ba’zan davlatning bosh vazifalari uning bir necha funksiyalari bilan amalga oshiriladi, yoki aksincha, bitta funksiya orqali davlatning bir necha kichik vazifalari ado etilishi mumkin.

Davlatning asosiy funksiyalari tarkibida nisbatan kichikroq yo‘nalishlar ham bo‘lishi tabiiydir. Masalan, davlatning hozirgi zamondagi madaniy-tarbiyaviy funksiyasi tarkibida insonlarning ma’naviyat yutuqlari asosida tarbiyalash bitta kichik yo‘nalish bo‘lsa, fan va texnikani taraqqiy ettirish - ikkinchi yo‘nalishdir, olyi, o‘rtalik maxsus va umumta’lim tizimini rivojlantirish - uchinchi yo‘nalishdir va hokazo.

O‘z navbatida davlat funksiyalari yo‘nalishlari qator qismlardan iborat bo‘ladi. Misol tariqasida mudofaa funksiyasini oladigan bo‘lsak, mazkur funksiya tarkibiga: davlatning tashqi chegaralarini aniq belgilash va uni qo‘riqlash chora tadbirlarini ko‘rish, qurolli kuchlarni

shakllantirish va tarbiyalash, ularni quroq-aslaha, oziq-ovqat, kiyim-kechak bilan ta'minlash, zarur bo'lganda mamlakatni harbiy kuch bilan himoya qilish, mudofaa sohasidagi ishlarga rahbarlik qilish bo'yicha davlat organlarini tashkil qilish, harbiy mudofaa to'g'risidagi qonunlarni yaratish hamda takomillashtirish kabilar kiradi.

Davlat o'z funksiyalarini ado etishi uchun qonun chiqaruvchilik, ijro etuvchilik va sudlov faoliyatini amalga oshiradi.

Davlat funksiyalarini amalga oshirishda *ishontirish*, *rag'barlantirish* va *majbur etish* usullaridan foydalanadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizday, jamiyatda ustuvor manfaatlar almashganda ham davlatning funksiyalari o'zgaradi. Masalan, urush davrida davlatning mudofaa funksiyasi bиринчи о'ringa chiqadi, yoki bozor munosabatlariga o'tishda davlatning iqtisodiy funksiyasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Davlat funksiyalari xar bir tarixiy davrda muayyan funksiyalarga bo'linadi. Yoki hokimiyat tepasiga boshqa siyosiy kuchlarning kelishi bilan davlatning funksiyalari o'zgaradi.

Masalan, (*ichki funksiyalar*) **quldorlik davlati** vujudga kelgan vaqtida quldorlar mulki va manfaatlarini himoya qilish funksiyasi, qullar va boshqa ezligan omma qarshiligini bostirish funksiyasi, (*tashqi funksiyalar*) mamlakatni tashqi dushmanalardan himoya qilish, qo'shni davlatlar bilan ma'lum darajada aloqalar o'rnatish, boshqa mamlakat aholisini bosib olish, talash, ezish, soliq to'latish funksiyasi va boshqalar. Bunday faoliyatning maqsadi boshqa davlatlar xalqlari hisobiga boyish, urushda asir tushganlarni qul qilib ishlatish va boshqalar.

**Feodal davlatlar** (*ichki funksiyalar*): Ijtimoiy (ommaviy) ishlar funksiyasi. Masalan, Amir Temur va Temuriylar hukmronligi davrida davlat tomonidan buniyodkorlik ishlari amalga oshirilgan, sug'orish inshootlari qurilgan, Bu haqda Alisher Navoi o'zinin «Faxod va Shirin» dostonida ta'kidlab o'tgan. Dehqonlarni qaramlikda tutib turish va ularni qarshiligini bostirish funksiyasi, ommani mafkuraviy tomonidan tarbiyalash, ya'ni ularni shunday tarbiyalash lozim edi-ki, ular o'z xo'jayinlariga qarshi chiqish oliy gunoh ekanligi haqida tarbiyalashgan. Dunyoviy bilim egalariga qarshi kurashish funksiyasi mavjud bo'lgan. Bularning qurbanlari, Kopernik, Mirzo Ulug'bek va boshqalar.

*Tashqi funksiyalar* mamlakatni mudofaa qilish, o'z hududini boshqa davlatlar hisobiga kengaytirish va hokazo.

**Kapitalistik davlatlar:** (*ichki funksiyalar*) Xususiy mulkchilikni himoya qilish, ishchilar harakatini bostirish, xalqni hukmron mafkura ruhida tarbiyalash, monopoliyani huquqiy tartibga solish, huquqbazarlikka qarshi kurashish, fuqarolarni huquq va erkinliklarini himoya qilish.

*Tashqi funksiyalar* mamlakatni va kapitalistik tuzumni himoya qilish, buning uchun iqtisodiy va harbiy bloklar tashkil etildi (NATO). Sotsialistik tuzum paydo bo'lgach, ayrim mustamlaka davlatlar milliy ozodlik harakatlarini boshlab yubordi va unga qarshi ozodlik harakatlarni bostirish funksiyasi vujudga keldi.

**SSR ichki funksiyaları:** Ekspluatatorlar sinflar qarshiligini bostirish, xo'jalik tashkilotchilik vazifalarini amalga oshirish, madaniy tarbiyaviy funksiya, mehnat va iste'mol mollari ustidan nazorat qilish, sotsialistik mulkni qo'riqlash, fuqarolarni huquq va erkinliklarini himoya qilish, atrof muhitni va tabiiy boyliklarni muhofaza qilish va boshqa funksiyalar.

*Tashqi funksiyalar* mamlakatni mudofaa qilish, sotsialistik davlatlar bilan har tomonlama hamkorlik olib borish, mustamlakachilik tuzumidan ozod bo'lgan davlatlarga yordam berish va boshqalar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak turli xil davrda, turli xil sharoitlarda davlatning funksiyalari turlicha bo'lar ekan.

#### *Davlatning funksiyalari quyidagicha tasniflanadi:*

**Funksiyalarning qullanilishi muddatga ko'ra:** *doimiy* va *vaqtinchalik funksiyalar*

*Doimiy funksiyalar* - bu davlatga doimo xos bo'lgan xususiyatlar masalan, davlatning iqtisodiy funksiyasi.

*Vaqtinchalik funksiyalar* - bu davlatning ma'lum vaqt mobaynida muayyan maqsadga erishishga yo'naltirilgan vazifalari kiradi. Vaqtinchalik funksiyalar favqulotda xarakterga ega.

YA’ni muayyan vazifa bajarilgach davlatning bu funksiyasi tugatiladi, ya’ni boshqa davom etmaydi. Masalan, favqulotda holat e’lon qilingan davrdagi vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan faoliyat muvaqqat tusga egadir. Masalan: Farg‘ona voqealari misolida qaraydigan bo‘lsak, bunday vaqtida ommaviy tartibsizliklar vaqtida shu hududda komendantlik soati joriy qilinadi va bu tartibsizliklar tugatilgach, normal xayot tartibi o‘rnatilgach komendantlik soati olib tashlanadi, shu bilan davlatning vaqtinchalik funksiyasi tugatiladi, yoki IIV tizimi misolida olib qaraydigan bo‘lsak biror-bir bayram oldi barcha II Olarida kuchaytirilgan xizmat tartibi o‘rnatiladi va bayram tinch o‘tgach bu kuchaytirilgan tartib yechilik kundalik tartibga o‘tiladi.

### **2. Ijtimoiy ahamiyatiga ko‘ra: Asosiy va qo‘shimcha funksiyalar**

*Asosiy funksiyalar* - bu davlatning mohiyatidan kelib chiqib, u asosiy vazifalarni bajarish bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan: Inson huquqlarini himoya qilish.

*Qo‘shimcha funksiyalar* - bu davlatning asosiy funksiyasini kengroq bajarish uchun hamda ijro etish uchun qo‘llaniladi. Masalan: Bayramlar o‘tkazish.

### **3. Ijtimoiy hayotning qaysi sohasida qo‘llanishi bo‘yicha: ichki va tashqi funksiyalar**

*Ichki funksiyalar* - bu davlatning ichki siyosiy vazifalarini hal qilish bo‘yicha asosiy faoliyat yo‘nalishidir. Masalan: Tartibga solish va muhofaza qilish.

*Tashqi funksiyalar* - bu davlatning tashqi siyosiy vazifalarini hal qilish bo‘yicha asosiy faoliyati yo‘nalishi. Masalan: Mamlakatni mudofa qilish, dunyoda tinchlikni qo‘llab-quvvatlash, tashqi siyosiy faoliyat va xalqaro hamkorlik funksiyalari.

### **4. Amalga oshishning huquqiy shakllariga ko‘ra : Huquq ijodkorlik shakli, huquqni qo‘llash shakli, huquqni muhofaza qilish shakli.**

*Huquq ijodkorlik shakli* - bu normativ aktlarni tayyorlash, qabul qilish va e’lon qilish bilan bog‘liq faoliyatdir.

*Huquqni qo‘llash shakli* - bu qabul qilingan normativ aktlarni huquqni qo‘llash aktlari yordamida amalga oshirishga qaratilgan faoliyatdir.

*Huquqni qo‘llash* - bu har kunlik faoliyat bo‘lib, ikki yo‘nalishda, ya’ni birinchisi qonun talablarini bajarish, ikkinchisi boshqaruv ishlarini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘ladi.

*Huquqni muhofaza qilish* - bu inson va fuqaroni asosiy huquq manfaatlarini himoya qilish, huquqbazarliklarni oldini olish hamda aybdor shaxslarni yuridik javobgarlikka tortishga qaratilgan faoliyatdir.

### **Davlatning ichki funksiyalari**

*Davlatning ichki funksiyalari* - bu davlatning ichki siyosiy vazifalarini hal qilish bo‘yicha asosiy faoliyat yo‘nalishi.

#### **Davlatning ichki funksiyalarining tasnifi:**

- moliyaviy-iqtisodiy;
- ijtimoiy himoya;
- madaniy;
- siyosiy-huquqiy;
- tabiatni muhofaza qilish;
- soliq funksiyasi;
- ilmiy-texnikaviy va boshqa funksiyalar;

Davlatning ichki funksiyalari - huquqning asosiy ikki funksiyasi bilan amalga oshiriladi, ya’ni tartibga solish funksiyasi va muxofaza qilish funksiyasi.

**Qo‘riqlash funksiyasi** - bu davlat qonunga tayangan holda maxsus organlar yordamida huquq-tartibotni amalga oshiradi.

### **Fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish:**

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirish;  
qonunlar ijrosini ta’minalash va ular ustidan qat’iy nazorat o‘rnatish;  
huquqni muhofaza qilish organlari tizimini shakllantirish;  
qonunchilik va huquq tartibotni mustahkamlash;

**Moliyaviy-iqtisodiy funksiyasi.** Har bir davlat iqtisodiyot sohasida muayyan vazifalarini bajaradi:

barqaror va rivojlanayotgan iqtisodni yaratish;  
byudjetni qabul qilish; davlat tomonidan iqtisod sohasidagi normativ aktlarni qabul qilish;  
mehnat zahiralarini oqilona joylashtirish, mehnatning yangi texnologiyalar, xalqning tarixiy an'analir va malakalariga mos keladigan sohalarini yaratish;  
samarali tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish.  
Shu iqtisodiy vazifalarga mos ravishda iqtisodiy funksiyalar ham mavjud:  
iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish;  
iqtisodiyotni eng ustuvor tarmoqlarini rag'barlantirish;  
tadbirkorlikni rivojlantirish;  
aholini ish bilan ta'minlash va hokazolar.

### **Ijtimoiy himoya funksiyalari:**

- ✚ sifatlari tibbiy xizmatni ta'minlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish;
- ✚ maorif, o'rta, o'rta maxsus va oliv ta'limni rivojlantirish;
- ✚ kam ta'minlangan oilalarini muhofazalar;
- ✚ ijodni barcha turlari rivoji uchun sharoitlar yaratish, aqliy mulkni himoya qilish;
- ✚ madaniy meros va barcha boyliklarni saqlash;
- ✚ moliyaviy nazorat funksiyasi.

### **Soliq funksiyasi:**

1.Davlat o'z hududidagi jismoniy va yuridik shaxslarga soliq joriy etadi va yig'adi;  
2.Soliq davlat apparatini bir xil meyorda ishlab turishi uchun ishlataladi va bu davlat byudjetiga tushadi hamda kerakli tartibda tarqatiladi. DSQ soliqni yig'adi Oliy Majlis joriy etadi.

**Madaniy funksiyasi** - bu davlat tomonidan muzey, biblioteka, teatr, kino, musiqa, adabiyot va san'at, ommaviy axborot vositalari, ta'llim faoliyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash. OAV 1998 yil qabul qilindi.

**Ekologik funksiya** - bu davlat tomonidan atrof muhitni muhofaza qilish va atrof muhitga keltiradigan chiqindilarni chegarasini belgilash va nazorat qilish, tabiatni muhofaza qilish qoidalariga rioya qilmagan shaxslarga nisbatan davlatning majburlov chorasini qo'llash.

**Ilmiy-texnikaviy funksiya** - bu davlatning ilmiy salohiyatini rivojlantirish, olimlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, texnik rivojni ta'minlash, ilm va amaliyot bog'liqligini ta'minlash.

### **Davlatning tashqi funksiyalari**

**Davlatning tashqi funksiyalari** - bu davlatning tashqi siyosiy vazifalarini hal qilish bo'yicha asosiy faoliyat yo'nalishi.

#### *Davlatning tashqi funksiyalari:*

- Jahonda tinchlikni qo'llab-kuvvatlash va mamlakat mudofasi funksiyasi;
- Tashqi iqtisodiy va siyosiy faoliyat hamda xalqaro hamkorlik.

**Jahonda tinchlikni qo'llab quvvatlash:** *xalqaro tashkilotlar faoliyatida ishtiroy etishi*, ya'ni O'zbekiston Hozir O'zbekiston dunyodagi 130 tadan ortiq davlat tan oldi. Ulardan 60 dan ortig'i bilan diplomatik munosabatlari o'rnatildi.

O'zbekiston Respublikasi ko'p tomonlama xalqaro iqtisodiy hamkorlik tashkilotlari faoliyatida qatnashmoqda.

Birlashgan millatlar Tashkilotining iqtisodiy muassasalari, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, xalkaro Valyuta Fondi, Xalkaro moliya korporatsiyasi, xalkaro mehnat tashkiloti, jahon sog'likni saqlash tashkiloti, Yevropa Ittifoqi Komissiyasi va boshqa tashkilotlar respublikada o'zlarining mintakaviy vakolatxonalarini ochdi va O'zbekistonlik sheriklar bilan faol hamkorlik qilmoqda.

**-Xalqaro tinchlik tashabbusi bilan chiqish** (*masalan:O'zbekiston Respublikasi Prezidenti O'zbekiston Respublikasi nomidan quyidagi tashabbuslar bilan chiqqan*):

- 1.BMT tizimini isloq qilish;
- 2.Afg'on-tojik nizolarini hal etish;
- 3.Markaziy osiyoda iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirish;
- 4.Qurol savdosi, narkotik tranziti hamda xalqaro terrorizmga qarshi kurashish;
- 5.Markaziy Osiyoda yadroviy quroldan holi zona tuzish;
- 6.Orol muammolarini hal etishga qaratilgan tashabbuslar.

**Jahonda tinchlikni saqlash bo'yicha xalqaro shartnomalar va konvensiyalarini imzolash:**

Shu o'rinda O'zbekiston 1994 yilning iyulida NATO ning kollektiv xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan "Tinchilik uchun hamkorlik" dasturiga qo'shilgan, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston bilan hamkorlikda «SENTRAZBAT» tuzildi va bu xalqaro maydonda harbiy hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha muhim qadam bo'ldi. Shu bilan bir qatorda bir qancha *xalqaro tashkilotlar* «Atom energiyasi bo'yicha Xalqaro agentlik» 23.01.1993. Jeneva, «Yevropada Xavfsizlik va Xamkorlik bo'yicha tashkilot», 30.01.1992. Praga, «Qo'shilmaslik harakati», 01.09.1992, Jakarta, «Jinoyat politsiyasi xalqaro tashkiloti», 28.09.1994. Rim, «Yadro sinovlarini yalpi taqiqlash bo'yicha Sharhnomalar tashkiloti», 03.10.1996, Vena, «Kimyo qurollarini taqiqlash bo'yicha tashkiloti», 24.11.1995, Gaga.

*O'zbekiston Respublikasi Ratifikatsiya qilgan yoki qo'shilgan xalqaro ko'ptomonlamam konvensiyalar va shartnomalar ro'yxati:* «Yadro qurolini tarqatmaslik to'g'risidagi Sharhnomalar», 09.12.1992., «Harakatdagagi armiyalardagi yaradorlar va bemorlarning qismatlarini yengillashtirish to'g'risidagi Jeneva Konvensiyasi», 03.09.93., «Harbiy asrlar bilan qilinadigan muomala to'g'risida Jeneva Konvensiyasi», 03.09.93., «Urush vaqtida tinch aholini himoya qilish to'g'risida Jeneva Konvensiyasi», 03.09.93., «Yadro sinovlarini yalpi taqiqlash to'g'risidagi Sharhnomalar», 25.04.1997., «Bombali terrorizmga qarshi kurash to'g'risidaig xalqaro Konvensiya», 29.08.98., «Genotsid jinoyatini oldini olish va bunday jinoyat uchun jazo to'g'risidagi Konvensiya», 20.08.99.

Prezidentimiz I. A. Karimov o'z asarlarida "O'zbekistonning styosiy-iqtisodiy va ijtimoiy istiqbolini asosiy tamoyillarida shunday ta'kidlaydi:"O'zbekiston qo'shilmaslik xarakatiga a'zo bulgani sababli xech qaysi blokka qo'shilmaydi. Biz buni milliy xavfsizlikning muxim kafolati deb bilamiz. Shu bilan birgalikda harbiy bloklar bilan hamkorlik ishimiz tinchlik ishiga mamlakatlar va xalqlarning maqsadlariga xizmiat qilsa, biz xamisha muloqotga tayyormiz.

"Kollektiv xavsizlik tizimini barno etishda harbiy xavf bilan bir qatorda boshqa xavflar ham mavjudligini hisobga olishimiz zarur. Orol dengizi qurib borayotgani, ekologik vaziyat yomanlashgayotgani, uyushgan jinoyatchilik, narkobiznes, mineral resurslarning cheklangani va kamayib borayotgani shular jumlamdandir. Mazkur muammolarni hal etish iyrim davlatlarning imqoniylari doirasidan chetga chiqadi va sa'iy - xarakatlarni birlashtirishni taqazo etadi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasining 125 moddasida: "O'zbekiston Respublikasi qurolli Kuchlari O'zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini ximoya kilish uchun tuziladi.

Qurolli Kuchlarning tuzilishi va ularni tashkil etish qonun bilan belgilanadi.

126 moddasasi: "O'zbekiston Respublikasi o'z xavfsizligini ta'minlash uchun yetarli darajada qurolli kuchlariga ega" deb belgilangan.

Qurolli Kuchlarimiz, harbiy doktrinamiz davlatimiz xavfsizligining muhim kafolatidir.

O'zbekiston 1995 yilda muddati o'zaytirilishi lozim bulgan yadro qurolini tarqatmaslik tuo'risidagi shartnomani yadro qurolini yo'q kilib tanlash to'g'risidagi shartnomaga aylantirish tarafdirdir.

O'zbekiston suveren davlat sifatida ochiq iqtisodiyotni vujudga keltirish sohasida faol ish olib bormoqda. Mamlakatning jahon xo'jalik aloqalarida, xalqaro mehnat taqsimotida keng miqiyosda ishtiroq etishi ochiq turdag'i iqtisodiyotni barpo etishning asosidir.

O'zbekiston Markaziy Osyo davlatlari bilan birgalikda Turkiya, Eron va Pokiston tomonidan tuzilgan. «Iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga» a'zo bo'lib kirdi. Mazkur tashkilot doirasida respublika halqaro transport yo'llarini birgalikda qurish loyihibalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda faol qatnashmokda. Bu yo'llar O'zbekistonga dengiz portlariga,

mamlakatlararo transport tarmoqlariga, jahon tovar va kapital bozorlariga chiqish ishkonini beradi.

Islohat amalga oshirila boshlangan paytdan buyon tashqi iqtisodiy aloqalar qaytnashchilarining tarkibi va tuzilishi uzungardi. Respublikasining ikki mingtadan ko‘prok xo‘jalik subyekti, shu jumladan uyushmalar, konsernlar, kichik va xususiy korxonalar tashqi bozorga chiqish huquqini oldi. Xozirgi vaqtida respublika hududida ro‘yxatdan o‘tkazilgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar 1 450 tadan ortdi, faqat xorijiy sarmoya bilan ishlovchi korxonalar 110 taga yetdi. 1995 yilning boshida O‘zbekistonda dunyoning 25 mamlakatiga qarashli xorijiy firma, bank va kompaniyalarning 166 ta vakolatxonasi ishlab turdi. Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki dunyoning 80 ta yirik bankida vakillik hisobini ochgan. Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasini jahoning 50 ortiq nufuzli tashkilotlariga a’zo.

Tashqi iqtisodiy alohalari amalga oshirish, tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida xalqaro shartnomalar tuzish va ularni bajarish uchun asosiy shart - sharoitni yaratish imkoniyatini O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida, Prezident Farmonlarida va Xukumat karorlarida o‘z aksini topgan.

Bular, *tashqi siyosiy sohada*: 1992 yil qabul qilingan «Diplomatik vakolatxonalar boshliqlarini tayinlash va chaqirib olish to‘g‘risidagi»gi qonun, 1992 yilad qabul qilingan «Diplomatik xodimlarni darajalarini o‘rnatish to‘g‘risida»gi qonun, 1996 yilgi «O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to‘g‘risida»gi qonuni.

*Tashqi iqtisodiy sohada*: 1992 yilda qabul qilingan «Xorijiy sarmoyalar to‘g‘risida»gi, 1994 yilda qabul qilingan "Xorijiy sarmoyadorlarning faoliyati kafolatlash to‘g‘risida"gi, 2000 yilda yangi tahrirda qabul qilingan "Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida"gi qonun qonunlar kiradi..

O‘zbekiston Konstitusiyasida mamlakatimiz xalqaro munosabatlarning mustakil subyekti tarzida tashqi siyosatini o‘z manfashlarini ko‘zlab belgilashi, xalqaro tashkilotlariga, yalti xavfsizlik tizimlariga, davlatlararo tuzilmalarga kirish huquqiga ega ekanligi mustahkamlab qo‘yligan.

Bu respublikamiz haqiqiy suverenitetini huquqiy jigatdan ta’minalash yo‘lidagi muhim qadamlardan biri bo‘lganligi tasodifiy hol emas.

Bularning bari, o‘z navbatida, erishilgan yutuqlarni amaliy tarzda mustahkamlab keldi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

40. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. -T., 1998.
41. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdur // Xalq so‘zi.-2005.-29 yanv.
42. X.Boboyev., H.Odilqoriyevlarning tahriri ostida. Davlat va huquq nazariyasi.. -T., 2000.
43. Tadjixanov U., Odilqoriyev X., Saidov A. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyaviy huquqi. –T., 2001.
44. Saidov A., Tadjixanov U., Odilqoriyev X. Davlat va huquq asoslari. -T., 2002.
45. Tadjixanov U., Gulyamov Z. Pravovoye regulirovaniye deyatelnosti miliitsii. -T., 1995.
46. Dzaporov A.T. Normi prava. Vidi pravovix norm, reguliruyushix deyatelnost organov vnutrennix del. -T., 1993.
47. Saidov A., Tadjixanov U. Davlat va huquq nazariyasi. 2-jild. –T., 2002.
48. Islamov Z.M. Davlat va huquqning umumnazariy muammolari. 2-q. T., 2001.
49. Islamov Z.M. Huquq tushunchasi, mohiyati, ijtimoiy vazifasi. T., 2004.
50. Nersesjans V.S. Huquq falsafasi. T., 2003.
51. Malaxov V.P., Kazakov V.N. Teoriya gosudarstva i prava. –M., 2002.
52. Marchenko M.N. Obshaya teoriya gosudarstva i prava. Tom 1-2. –M., 1998.

### **6-MAVZU: DAVLAT MEXANIZMI**

#### **RE J A**

##### **1. Davlat mexanizmi tushunchasi va xususiyatlari**

## **2. Xokimiyat vakolatlarini taksimlash tamoyili**

### **3. Davlat apparati, davlat idorasi tushunchasi va turlari**

#### **4. Davlat apparati va davlat mexanizmi**

Mustaqillik yillari mobaynida yurtimizda demokratik huquqiy davlat va bozor iqtisodiyotini qaror toptirish yo‘lida huquqiy jihatdan ko‘pgina ishlar qilindi. Respublikada davlat idoralarining, shu jumladan, huquq muassasalarning izchil tizimi shakllantirildi.

Davlatga o‘z hokimiyatini amalga oshirish imkonini beruvchi tashkiliy-moddiy kuch davlat mexanizmidir. Mexanizm davlatning nimadan tashkil topganini ko‘rsatuvchi tarkibiy va predmetli ifodasidir .

Davlat mexanizmini qurish muayyan obyektiv prinsiplar asosida amalga oshadi. Bu esa jamiyatni davlat tomonidan idora etishning samaradorligini ta’minlaydi.

Davlat apparati davlatning mohiyati bilan uzviy bog‘liq. Davlat apparatining shakllanishiga, uning faoliyatiga shu jamiyat tarixiy tarqqiyotining xususiyati, iqtisodiy tuzumi, ijtimoiy muhiti va milliy an‘analar ta’sir ko‘rsatadi. Har bir jamiyatda davlat apparati davlatning vazifalarini bajarish uchun tashkil etiladi va shu davlat hokimiyatini amalga oshiradi.

#### **Davlat mexanizmi tushunchasi va xususiyatlari**

Xar kanday davlatda jamiyat va davlat oldiga kuyilgan vazifalarni bajarish, kuzlangan maksadlarga erishish uchun turli davlat idoralari faoliyat kursatadi.

**Davlat mexanizmi** - *bu davlat xokimiyatini amalga oshirishga, jamiyatga davlat raxbarligini ta’minalashga yordam beradigan davlat idoralari tizimidir.*

Davlat xokimiyati mexanizmi ma’lum elementlardan tashkil topdi. Ular davlat xokimiyati mexanizmini yaxlitligini va yagonaligini ta’minalashi lozim. Shu bilan birga bu elementlarni davlat xokimiyati mexanizmi doirasida kurmok va ularga baxo bermok lozim.

Sovet davrida davlat umumiylarini vazifalarni ta’minalash mexanizmi emas, balki fakat uyushgan zuravonlikni amalga oshiruvchi apparat kabi ta’riflanardi. Bugun davlatni taxlil etishda fakat sinfiy yondashuvning tugri emasligi ayon bulib koldi.

Xozirgi kunda davlatshunos olimlar davlat, eng avvalo, fukarolar va ular uyushmalarining turli extiyoj va manfaatlarini mutanosiblashtirish mexanizmi deb xisoblaydilar.

Bunday fikrning tugriligi davlat xokimiyati mexanizmining uziga xos umumiylarini taxlil etganda yakkol kuzga tashlanadi.

Davlat mexanizmini uziga xos xususiyatlari kuyidagilardan iborat:

Birinchidan, davlat mexanizmi boshkaruv ( konun ijodkorligi, konunlarni ijro etish, ularga rioya kilishni muxofaza etish, odil sudlovnii amalga oshirish) bilan maxsus shugullanadigan davlat xizmatchilaridan iborat. Davlat xokimiyatining mavjudligi mansabdar shaxslar , armiya , ma’muriyati , sudyalarda, ya’ni davlat xizmatchilarida uz ifodasini topadi.

Ikkinchidan, davlat mexanizmi idoralar va muassasalarning muayyan tizimidir, ular uzelarining bevosita xokimiyatga daxldor funksiyalarini aialga oshira borib, uzaro uzviy boglikdirlar.

Uchinchidan, davlat mexanizmi elementlarining faoliyati tashkiliy va moliyaviy vositalar, ma’lum xolatlarda esa, majburlov ta’siri bilan ta’minalanadi.

Turtinchidan, davlat mexanizmi uz fukarolarining xukuk va konuniy manfaatlarini kafolatlash va muxofaza etishi lozim.

Inson xukuklari va erkinliklari davlat xokimiyati mexanizmiga nisbatan birlamchidir. Shuning uchun demokratik xukukiylar davlat fakat amaldagi konunchilikni emas, ayni paytda ijtimoiy adolatni inson va davlat urtasidagi munosabatlarda inson manfaatlari ustuvor bulishi kerakligini tan oladi.

Kishilik jamiyatni rivojlanishining turli boskichlarida davlat mexanizmi uz xususiyatlari va uziga xos tarkibiga ega bulgan. Buning bir kator iqtisodiy , ijtimoiy, etnografik, jugrofik, xududiy, tarixiy sabablari bor. Kadimgi Shark, Antik Yevropa mamlakatlarida davlat mexanizmi ancha mukammal tizimga ega bulgan. Davlat mexanizmi davlat boshligi (monarx yoki kollegial organ), markaziy idoralar, mansabdar shaxslar, maxalliy idoralar, mansabdar shaxslar, armiya, sud, politsiya va xokazolardan iborat bulgan. Masalan, Rim respublikasi davlat xokimiyati

mexanizmi tarkibiga senat, xalk majlislari, magistratlar kirgan. Boshkaruvning muayyan vazifalariga kura magistratlar konsullar, pretorlar, senzorlar, kvestorlar va xokazolarga bulingan.

Urta asrlarda davlat mexanizmi xam uz rivojlanishidagi asosiy boskichlarga karab ilk feodal, tabaka-vakillik va mutlok monarxiyaga bulingan. Urta asr davlatining markazlashuvi bilan birga uning mexanizmi murakkablashib, turli vazirliliklar, markaziy tarmoklar, maxsus sud muassasalari va boshkalar paydo bulgan.

### **Xokimiyat vakolatlarini taksimlash tamoyili**

Davlat mexanizmini kurish muayyan obyektiv tamoyillar asosida amalga oshadi, bu esa jamiyatni davlat tomonidan idora etishning samaradorligini ta'minlash imkonini beradi.

Eng asosiy tamoyillardan biri, shubxasiz, xokimiyat vakolatlarining taksimlash tamoyilidir, zero davlat xokimiyati tuzilmalari xokimiyatning bulinish negizida shakllanadi. Mazkur tamoyil uzok tarixga ega. 1748 yildayok fransuz ma'rifikatparvari, xukukshunos SH.L.Monteskye uni shunday ta'riflagan edi: "Obyektning siyosiy erkinligi xar bir shaxsning uz xavfsizligi tugrisidagi tushunchasidan paydo buladigan aklning poydorligidir. Ushbu erkinlikka ega bulish uchun xukumat odamlarning bir-biridan kurkmasligiga yordam beradigan tarzda uyushgan bulishi talab etiladi.

Konun chikaruvchi va ijro etuvchi kuchlar ayni bir odamning kulida yoki ayni bir magistura idorasida jamlangan bulsa, erkinlik mavjud bulmaydi, zero shu monarch yoki senat tiranik konunlar kabul kilishi va ulardan tiranlarcha foydalanishi mumkin.

Sud xokimiyati konun chikaruvchi va ijro etuvchi xokimiyatdan ajratilmaganda xam erkinlik bulmaydi. Basharti u konun chikaruvchi xokimiyat bilan kushilib ketganda, subyektning xayoti va erkinligi uzboshimchalik nazorati ostida kolishi mumkin. Basharti u ijro kiluvchi xokimiyat bilan birlashgan bulsa, sudyalar ezuvchining uta ayovsizligidek xukmlar chikarishlari mumkin". Mazkur ta'rif xokimiyat vakolatlarini bulish davlat idoralarini bulishdan kura kuprok axamiyat kasb etadi.

Xokimiyat vakolatlarini bulinishining bosh ma'nesi - ijtimoiy-siyosiy kuchlar orasidagi xokimiyat vakolatlarini bulishidir. Bundan maksad - xokimiyatni suiiste'mol kilishning imkoniyati bulmasligi, xokimiyatlar bir-birlarini muayyan muvozanatda ushlab va cheklab turishidir.

AKSH Konstitusiyasining "otalaridan", asosiy ijodkorlaridan biri Djeyms Medison shunday degan edi: "Davlat xokimiyati idoralari bir -biri ustidan konstitusiyaviy nazorat kilish darajasigacha boglanmasa va uygunlashmasa, erkin xukumatning moxiyati bulgan eng kup talab kliniadigan bulinishning darajasi amalda xech kachon tegishlicha tashkil etilmaydi.

Shunday kilib, xokimiyatlarni bulish vakolatlarini cheklab kuyish, uzaro nazorat, muvozanatda saklab turishlikda ifodalanib, kelib chikishi mumkin bulgan suistemolchiliklarga tuskinlik kiladi.

Xokimiyat vakolatlarini taksimlash tamoyili dunyodagi aksariyat davlatlarning Konstitusiyalarida mustaxkamlangan.

### **Davlat apparati va davlat idorasi tushunchasi va xususiyatlari**

**Davlat apparati** - davlat mexanizmining bir kismi bulib, davlat xokimiyatini amalga oshirish uchun muayyan vakolatlariga ega davlat idoralarining majmuasidir.

Davlat mexanizmi davlat apparatidan tashkari davlat muassasalari va davlat korxonalarini xam uz ichiga oladi.

Davlat apparati tarkibi kuyidagi uch asosiy xokimiyat idoralaridan tashkil topadi:  
*birinchidan*, konun chikaruvchi;  
*ikkinchidan*, ijro etuvchi;  
*uchinchidan*, sud xokimiyati;

**Davlat apparatinining uziga xos xususiyatlari kuyidagilardan iborat:**

1. u tegishli xodimlarning majburiy ijrosiga oid xukukiy xujjatlarni chikara oladi;
2. ushbu xujjatlarni bajarishni ta'minlash uchun ishontirish, majbur etish, tarbiyalash, ragbarlantirish tadbirlarini kullay oladi;
3. ularni joriy etish ustidan nazoratni amalga oshiradi.

## *Davlat idorasi tushunchasi va turlari*

**Davlat idorasi** - bu davlat apparatining tarkibiy bugini, nisbatan mustakil kismidir.

Uning kuyidagi belgilari mavjud:

*birinchidan*, davlat nomidan muayyan soxada uning vazifa va funksiyalarini amalga oshiradi;

*ikkinchidan*, muayyan xokimiyat vakolatlariga ega bulib, bu uni davlat muassasalari va korxonalaridan fark kildiradi;

*uchinchidan*, muayyan vakolatga, ya’ni muayyan vazifalar, funksiyalar, xukuk va majburiyatlar doirasiga ega;

*turtinchidan*, xizmat turlari va tarkib mikdoriga kura muayyan tarkibga (tuzilishga ega);

*beshinchidan*, xududiy faoliyat mikyosiga ega;

*oltinchidan*, konunda belgilangan tarkibda tashkil etiladi;

*yettinchidan*, shaxsiy tarkibning xukukiy alokalarini belgilaydi;

Davlat idoralari xilma-xildir. Ularni turli mezonzarga asoslanib bir kancha turlarga bulib chikishi mumkin.

### **Davlat idorasi:**

1. paydo bulish manbaalariga kura birlamchi va ikkilamchi idoralari;
2. xududiy faoliyat doirasiga kura respublika, viloyat, maxalliy uzini uzi boshkarish idoralari;
3. vakolatlar tabiatiga kura umumiy vakolat idoralari va maxsus vakolatlar idoralari;
4. xokimiyatni amalga oshirish tartibiga kura kollegial va yakka tartibdag'i idorlarga bulinadi.

Faoliyatning tashkiliy-xukukiy shakllariga kura davlat idoralari konun chikaruvchi, ijro etuvchi, xukukni muxofaza kiluvchi, nazorat va farmoyish beruvchi idoralari bulinadi.

Davlat idoralari faoliyatining tabiatni siyosiy va ma’muriy xususiyatlarga ega. Ba’zi davlatlarda (masalan, sobik ittifokda) butun davlat apparati oliy darajada siyosiylashganligi bilan ajralib turadi, zero u yukoridagilarning irodasini amalga oshiruvchi edi.

Demokratik davlatda siyosat bilan fakat davlat apparatini shakllantiradigan va amalga oshiradigan buginlari shugullanadi. Parlament yoxud prezidentlik boshkaruvi shular jumlasidandir. Ularning faoliyati davlat xukuki tomonidan nazarda tutiladi va mutanosiblashtiradi.

Demokratik davlat apparatida siyosiy konyuktura bilan boglik bulmagan davlat idoralari xam katnashadi. Davlat apparatining siyosatlashmagan kismi (ma’muriyat) jamiyatning kundalik boshkaruv ishlari bilan shugullanishi va jamiyatning maromli xayotiy faoliyati manfaatlari yulida xokimiyat vakolatlarini amalga oshirilishi lozim. Mazkur idoralari faoliyati (tashkil etilishi, tarkibi, vazifasi, maksadlari va xakozolar) asosan Konstitusiyaviy asosda olib boriladi. Ularning faoliyatini mutanosiblashtirish ma’muriy xukukiy normalar bilan amalga oshiriladi. Bu esa davlatning uz vazifalarini amalga oshirish kat’iy va barkarorligini, jamiyatda konunchilik va xukukiy tartibotni, xukukiy davlat tamoyillariga ergashishni ta’minlaydi. Masalan, Ichki ishlar organlari siyosatga aralashmasliklari kerak. Ular inson xukuklari va erkinliklarini davlat ximoyasidagi xar kanday jismoniy shaxsning konuniy manfaatlarini ximoya kilishlari lozim.

### **Davlat apparati va davlat mexanizmi**

**Davlat apparati** - bir - biri bilan uzaro boglik bulgan, muayyan tuzilmaga birlashgan davlat xokimiyatini amalga oshiruvchi davlat organlarining yigindisidir.

Yuridik adabiyotlarda “davlat apparati” va “davlat mexanizmi” degan tushunchalar keng uchraydi. Bu tushunchalar asosan bir xil mazmunga ega. Lekin “davlat mexanizmi” kengrok tushuncha bulib, unga davlat organlaridan tashkari davlat apparati ishini tashkil kiladigan, unga yordam beruvchi bulimlar, muassasalar xam kiradi. Ularga tayanib va ularning davlat apparati uz faoliyatini, davlat funksiyalarini amalga oshiradi. Masalan, O’zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligini davlat organlari, deb olsak, Ichki ishlar vazirligining ichki kushinlari, oliy ukuv yurtlari, tibbiyot, moliya-iktisod boshkarmalari va shunga uxshash vazirlikning faoliyatini tashkil kilishga yordam beradigan tashkilotlar uning muassasalari, bulimlari xisoblanadi.

Davlat apparati kuyidagi belgilari bilan boshka tashkilotlardan ajralib turadi:  
*birinchidan*, davlat apparati boshkarish bilan shugullanuvchi aloxida fukarolar guruxidir;  
*ikkinchidan*, davlat apparati davlat funksiyachlarini bajarishda vakolatli bulgan va uzaro buysinish yoki kelishish asosida boglangan davlat organlari va muassasalari tizimidir;  
*uchinchidan*, davlat apparati xalk irodasini amalga oshirish, uz vazifasini bajarishi uchun zarur vositalar va majburlash kurollariga ega bulgan organdir.

Davlat apparati davlatning moxiyati bilan uzviy boglikdir. Davlat apparatining shakllanishiga, uning faoliyatiga shu jamiyat tarixiy tarakkiyotining xususiyati, iktisodiy tuzumi, ijtimoiy muxiti va milliy an'analar ta'sir kursatadi.

Xar bir jamiyatda davlat apparati davlatning oldiga kuygan vazifalarini bajarish uchun tashkil etiladi va shu davlat xokimiyatini amalga oshiradi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, hozirgi paytda barcha sohalarda tub islohatlarning amalga oshirilishi, davlat aparatida ham o'z ifodasini namoyon etmoqda. Bunga yaqqol misol qilib, yurtboshimiz Islom Karimovning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi «Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir» nomli ma'ruzasida Parlamentning roli va ta'sirini kuchaytirish ustuvor vazifa qilib ko'rsatilgan.

Shuningdek, sud-huquq tizimini isloh qilish va liberallashtirish to'g'risida ham alohida to'xtalib o'tdilar. Sud-huquq tizimida islohatlarni amalga oshirishda 2001 yilda qabul qilingan jinoiy jazolarni liberallashtirish to'g'risidagi qonun katta rol o'ynadi. U huquqni muhofaza qilish va sud idoralari faoliyatining tubdan o'zgarishiga olib keldi.

Bundan tashqari, mamlakatimiz Prezidentining 2005 yil 1avgustdagagi «O'zbekistonda o'lim jazosini bekor qilish to'g'risida»gi, 2005 yil 8 avgustdagagi «Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o'tkazish to'g'risida»gi Farmoni amalga oshirilayotgan ishlarning mantiqiy davomi bo'ldi.

### **Davlat mexanizmi**

**Davlat mexanizmi** – jamiyatni boshqarish va xalq manfaatlarini himoya qilishni amalga oshiradigan davlat idoralari va muassasalari tizimi.

*Davlat mexanizmining asosiy belgilari* quyidagilar:

- 1) tarkibi – boshqaruv faoliyati bilan shug'ullanadigan odamlar yig'indisi;
- 2) bir-birlari bilan o'zaro aloqadorlikda va munosabatda bo'lgan idoralar va muassasalarning murakkab tizimi;
- 3) davlat apparati barcha bo'g'imlarining funksiyalari tashkiliy va moliyaviy vositalar bilan, zarur bo'lganda esa – davlatning majburlov choralari bilan ta'minlanadi;
- 4) maqsadi – fuqarolar huquqlari va qonuniy manfaatlarini kafolatlash va muhofaza qilish.

**Davlat idorasi** (organi) – davlat mexanizmining qonunga muvofiq ravishda o'z tuzilishiga, ijtimoiy hayotning muayyan sohasini boshqarish bo'yicha aniq belgilangan vakolatiga ega bo'lgan hamda davlat mexanizmining boshqa qismlari bilan uzviy aloqadorlikda bo'lgan va yaxlit birlik hosil qiladigan tarkibiy qismidir.

*Davlat idorasining belgilari:*

- 1) qonun chiqarish yo'li bilan tashkil topishi;
- 2) vakolati – ushbu idora mustaqil hal eta oladigan masalalar doirasi;
- 3) huquqiy asosda funksional faoliyat ko'rsatishi;
- 4) davlat apparatida mustaqil o'rinn tutishi;
- 5) boshqa idoralar bilan aloqada bo'lishi;
- 6) tuzilishi (ichki tuzilishi)

**Davlat idoralari quyidagi turlarga bo'linadi.**

**1. Vakillik idoralari:**

qonun chiqaruvchi;  
mahalliy hokimiyat va o'zini o'zi boshqarish idoralari.

**2. Ijroiya idoralari:**

markaziy idoralar:

davlat boshlig'i (monarx, prezident);  
hukumat;  
vazirlik va davlat qo'mitalari;  
huquqni muxofaza qiluvchi idoralar (prokuratura; ichki ishlar vazirligi va uning organlari; adliya vazirligi; milliy xavfsizlik xizmati);  
mahaliy idoralar;  
O'zbekistonda viloyat, tuman va shahar hokimlari.  
**3. Sud, va konstitusiyaviy nazorat idoralari:**  
Konstitusiyaviy sud;  
Oliy sud;  
Oliy xo'jalik sudi va umumiy yurisdiksiya sudlari.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

53. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. -T., 1998.
54. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdur // Xalq so'zi.-2005.-29 yanv.
55. X.Boboyev., H.Odilqoriyevlar tahriri ostida. Davlat va huquq nazariyasi.. -T., 2000.
56. Tadjixanov U., Odilqoriyev X., Saidov A. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyaviy huquqi. –T., 2001.
57. Saidov A., Tadjixanov U., Odilqoriyev X. Davlat va huquq asoslari. -T., 2002.
58. Tadjixanov U., Gulyamov Z. Pravovoye regulirovaniye deyatelnosti militsii. -T., 1995.
59. Dzaporov A.T. Normi prava. Vidi pravovix norm, reguliruyushix deyatelnost organov vnutrennix del. -T., 1993.
60. Saidov A., Tadjixanov U. Davlat va huquq nazariyasi. 2-jild. –T., 2002.
61. Islamov Z.M. Davlat va huquqning umumnazariy muammolar. 2-q. T., 2001.
62. Islamov Z.M. Huquq tushunchasi, mohiyati, ijtimoiy vazifasi. T., 2004.
63. Nersesyans V.S. Huquq falsafasi. T., 2003.
64. Malaxov V.P., Kazakov V.N. Teoriya gosudarstva i prava. –M., 2002.
65. Marchenko M.N. Obshaya teoriya gosudarstva i prava. Tom 1-2. –M., 1998.

### **7-MAVZU: Ijtimoiy normalar tushunchasi va ularning tasnifi**

#### **Reja:**

- 1. Ijtimoiy normalar tushunchasi va ularning tasnifi**
- 2. Huquq tushunchasi, belgilari va turlari.**
- 3. Huquqning prinsiplari va funksiyalari.**

**Ijtimoiy normalar** - bu jamiatda insonlarning umumiy xulk-atvori qoidalari yigindisi bulib, ijtimoiy-iktisodiy tuzumga asoslangan, ongli iroda foaliyatining natijasidir.

Jamiat xayotidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda ijtimoiy normalar katta urin uynaydi. Ijtimoiy normalar deganda, kishilarning, jamoalar va ijtimoiy guruxlarning o'zar munosabatlarini, yurish-turishi va xatti-xarakatlarini tartibga soluvchi barcha qoidalari yig'indisi tushuniladi.

**Ijtimoiy normalar** – odamlar va ularning birlashmalari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi umumiy xulq-atvor qoidalari bo'lib, ular «inson – inson» munosabatlarini tartibga soladi.

Ijtimoiy normalarning turlariga quyidagilar kiradi: axloq normalari, jamoat birlashmalari normalari, milliy urf-odatlar, xalqlarning odatlari, an'analarning normalari, siyosiy hayot normalari, huquq normalari, diniy normalar.

*Axloq normalari* – ezgulik va yovuzlik, sha'n, qadr-qimmat, adolat va nohaqlik, burch va mas'uliyat haqidagi axloqiy tushunchalarga muvofiq ravishda jamiyatda o'rnatilgan xulq-atvor qoidalari.

*Jamoat birlashmalarining normalari* – jamoat birlashmalarining o'z faoliyatini tartibga solish uchun va tashkilotlarning a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash uchun o'rnatgan xulq-atvor qoidalari.

*Odat normalari* – kishilarning ko'p marta takrorlanganligi uchun odatga aylangan va shu tariqa avloddan-avlodga o'tib kelayotgan xulq-atvor qoidalari.

*An'ana normalari* – ilg'or an'analarni asrash munosabati bilan yuzaga kelgan umumlashgan va barqaror xulq-atvor qoidalari.

*Marosim normalari* – kishilarning ma'lum rasm-rusumlarni bajarishdagi xulq-avtor qoidalari.

*Diniy normalar* – dindorlarning xudoga, machitga, cherkovga, bir-biriga munosabatini, diniy birlashmalarni tashkil qilish va ularning amal qilishini tartibga soluvchi xulq-atvor qoidalari.

*Siyosiy normalar* – alohida shaxslar va siyosiy birlashmalarining hokimiyatga munosabati masalalarini tartibga soluvchi xulq-atvor qoidalari.

*Huquq normalari* – davlat tomonidan belgilanadigan umummajburiy xulq-atvor qoidalari.

Ijtimoiy normalarning umumiyligi belgilari quyidagilardan iborat:

a) insonlarning jamiyatdagi xulk-atvor qoidalari, ya'ni fukarolarning o'rtasidagi munosabatlar qanday bo'lishini belgilaydi;

b) umumiy xulk-atvor qoidalari sifatida muayyan xayot vaziyatlarida xarakatlarni belgilaydi;

v) insonlarning ongli-xoxish foaliyati natijasida vujudga keladi;

g) jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy tuzum bilan chambarchas bog'likligi, uning iqtisodiy bazisini /ustkurmasini/ belgilaydi.

Muxtasar qilib aytganda, inson yashar, faoliyat ko'rsatar ekan, xoxlaydimi, yo'qmi muayyan qoidalarga asoslanib yashaydi. Uning hayotini tartibga solib turuvchi qoidalari ijtimoiy normalar deyiladi.

### **Huquq tushunchasi, belgilari va turlari.**

Huquq – ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi, adolat va erkinlikka asoslangan yurish-turish qoidalaringiz tizimidir.

Har bir inson o'z hayotida huquq bilan aloqada bo'lib, huquq haqida o'z shaxsiy tasavvuriga ega bo'ladi. «Umrida tabiatshunoslik va tarix masalalariga qiziqmagan insonni topish mumkindir, - deb ta'kidlagan edi rus huquqshunosi N.M.Korkunov, - lekin hayoti davomida huquq masalasiga duch kelmay yashash hech aql bovar qilmaydigan ishdir. Qanchalik odamovi bo'lmanq, qanchalik odamlardan qochmang, siz huquqiy masalalarni chetlab o'tlmaysiz. Hech bo'lmaqanda bitta huquq, shaxsiy erkinlik huquqi sizni qiziqtirmsandan qolmaydi. Odamlardan qochib bo'lsa-da siz ularga: bu yer mening shaxsiy mulkim, bu yerga bostirib kirishga haqqingiz yo'q, - deb aytishingiz kerak-ku»<sup>5</sup>.

Qadimgi mashhur Rim huquqshunosi Ulpianning so'zlariga qaraganda, "huquqni o'rganayotgan kishi, avvalo, "huquq" so'zining qanday kelib chiqqanini bilishi kerak. Huquq adliya, adolat so'zidan olingan. «Huquq bu ezgulik va adolat haqidagi fandir»<sup>6</sup>. Biror bir qadimgi faylasuf, huquq haqidagi masalani chetlab o'tmagan. Falsafada ham huquq masalalari muhim o'rinni egallagan. Huquqshunoslikda esa huquq muammolari markaziy o'rinni egallagan. Asriy ilmiy izlanishlar insoniyatni huquqni to'g'ri tushunishga va uning mohiyatiga goh yaqinlashtirgan, goh uzoqlashtirgan. "Huquqshunos uchun, - degan edi nemis faylasufi I. Kant, - qonunlar talab qilgan narsa huquq bo'la oladimi, qanday umumiy mezon asosida huquqiylikni nohuquqiylikdan ajrata olishi sir bo'lib qoladi".

<sup>5</sup> Коркунов Н.М. Лекция по общей теории права. Изд. 9-е. Спб., 1909. -С.7.

<sup>6</sup> Перетерский И.С. Дигесты юстиниоана. М., 1956. -С. 101.

Nemis klassik falsafasi asoschisining bu so‘zlari hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Amerika huquqshunosi Fridmanning so‘zlariga qaraganda, «huquq» tushunchasi «ko‘p ma’nolarga ega bo‘lib, oynadek nozik,sovun ko‘pigiday tutiriqsiz, vaqtdek tutqich bermas» jihatlarga ega.

«Huquq» iborasi kundalik hayotimizda ko‘p qo‘llaniladigan tushuncha bo‘lib, «haq», «haqiqat» so‘zlaridan olingan. Bugungi kunda huquqning bir necha ta’rifi mavjud. Jumladan, Farobiyning fikricha, huquq mamlakatdagi tinchlik va xavfsizlikni ta’minalash, taraqqiyotga shart-sharoit yaratish, ijodiy mehnatga imkom yaratish vositasidir. Huquq-ehtiroslarni jilovlash vositasi va insonni asrash, avaylash qurolidir.

«Huquq – bu rasman tenglik prinsiplariga muvofiq bo‘lgan, davlat tomonidan o‘rnatilgan yoki ruxsat berilgan hamda davlat tomonidan majbur qilish imkoniyati bilan ta’milangan normalar tizimi»<sup>7</sup>.

«Huquq insonning umumiyligini qonun bilan aniqlanadigan zoxiriy erkinligidir. Axloqiylikdan farq qilgan holda, huquq majbur kilishga asoslanadi»<sup>8</sup>.

«Huquq – bu davlat tomonidan o‘rnatiladigan yoki ma’qullanadigan va qo‘riqlanadigan, hamma uchun majburiy bo‘lgan yashash qoidalari idir. Huquq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi regulayatoridir»<sup>9</sup>.

«Huquq davlat tomonidan belgilangan yoki ruxsat etilgan va uning kuchi bilan himoya qilinadigan umummajburiy xulq-atvor qoidalari ning tizimi»<sup>10</sup>.

Kelzenning yondoshuviga ko‘ra, huquq faqat buyruq, norma sifatida qimmatlidir. Ushbu ma’noda (buyruq, norma sifatidagi) huquqni muqarrarlik shakli sifatida tavsiflanadi. «Ko‘pincha bo‘lganidek,-deb ta’kidlagan Kelzen,- huquq o‘zida normani (yoki buyruqni) ifodalab qolmay, balki u shuningdek qandaydir qadriyatni tashkil etadi yoki ifodalaydi (mutlaq qadriyatga yo‘l qo‘yish mumkin bo‘lgandagina bunday deyish ma’no kasb etadi). Chunki huquq aynan norma bo‘lganligi uchun qadriyatni tashkil etadi...»<sup>11</sup>.

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning fikricha, «Huquq ijtimoiy hamjixatlik va kelishuvga asoslangan ijtimoiy tartib-intizomga erishish, erkinlik, adolatparvarlik va tenglikni vujudga keltirish vositasi»dir*<sup>12</sup>.

Bizning fikrimizcha, huquq – jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi, fuqarolarning hayotiy faoliyatini belgilab beruvchi yashash qoidalari ning tizimidir.

**Huquq** – davlat tomonidan belgilangan yoki ruxsat etilgan va uning kuchi bilan himoya qilinadigan umummajburiy xulq-atvor qoidalari ning tizimi.

**“Huquq” iborasi ikki ma’noda qo‘llaniladi:**

**Obyektiv huquq** – umummajburiy xulq-avtor qoidalari ning yig‘indisi. Bu normalar u yoki bu insonning, subyektning irodasi hamda xohish-istagidan qat’i nazar mavjud bo‘ladi.

<sup>7</sup> Нерсесянц В.С. Хукук фалсафаси / Масъул мухаррир А.Х.Саидов, Т.: «Адолат», 2003, 64-бет.

<sup>8</sup> Чичерин Б.Н. Философия права. М.: 1900. С.1.

<sup>9</sup> Каранг: Давлат ва хукук назарияси. А.Аъзамхўжаев ва Ш.Ўразаев таҳрири остида, -Т., 1982, 255-бет.

<sup>10</sup> Саидов А., Тожихонов У. Давлат ва хукук назарияси: Икки жилдли 2-жилд. Хукук назарияси –Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2001 йил. 9-бет.

<sup>11</sup> Чистое учение о праве Ганса Кельзена. Вып.1. С.93.

<sup>12</sup> Каримов И.А. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иктисадий истикболларининг асосий тамойиллари. –Т.: «Ўзбекистон» 26-бет.

**Subyektiv huquq** – muayyan jismoniy yoki yuridik shaxsga tegishli bo‘lgan huquq. Masalan, fuqaro Jo‘rayevning ma’lum narsaga, aytaylik avtomobilga nisbatan mulk huquqi.

Subyektiv huquq yuridik jihatdan shaxs erkinligini ta’minlaydi, unga mustaqillik beradi va tashabbus ko‘rsatishiga imkon yaratadi. Subyektiv huquq obyektiv huquqqa asoslanadi, obyektiv huquq bo‘lmasa, subyektiv huquq ham bo‘lmaydi. Subyektiv huquq insondan (yoki tashkilotdan), ya’ni huquqdor shaxsdan ajralmagan holda mavjud bo‘ladi.

Huquq davlat bilan chambarchas bog‘langan. Davlatsiz huquq bo‘lishi mumkin emas, chunki aynan davlat huquqni keltirib chiqaradi va huquqiy normalarning amalga oshirilishini kafolatlaydi, huquqni muhofaza qiladi.

**O‘z navbatida, davlat ham huquqsiz mavjud bo‘lishi mumkin emas. Aks holda u ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib turuvchi vositadan mahrum bo‘ladi.**

**Huquqning asosiy belgilari** quyidagilardir:

- 1) davlat yo‘li bilan o‘rnatalishi;
- 2) barcha uchun majburiyligi;

- 3) huquq normalarining qonunlar va boshqa muayyan manbalarda ifodalanishi;
- 4) subyektiv huquqlar orqali harakat qilish;
- 5) davlat tomonidan ta’minlanganligi.

Huquq adolatdan ajralmasdir. Rim huquqida huquqning halol yashash, o‘zgalarni xafa qilmaslik, har kimga keraklisini berish kabi qoidalari yozib qo‘yilgan edi. Huquq ezgulik va adolatlilik san’ati-dir. Huquqda adolat mezoni ifodalanadi.

Huquqni tushunishda uch xil yondashuvni ko‘rsatish mumkin:

**birinchidan**, hukuqni normativ tushunish. Mazkur yondashuvda huquq – huquqiy normalar yig‘indisi yoki tizimi sifatida ta’riflanadi. Huquqiy adabiyotlarda bu yondashuv huquqni tor ma’noda tushunish deyiladi;

**ikkinchidan**, huquqni sotsiologik tushunish. Bu yondashuvda huquq ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish bilan tenglashtiriladi;

**uchinchidan**, huquqni falsafiy tushunish. Bu yondashuvda «huquq» tushunchasi erk va adolat o‘lchovlari bilan ta’riflanadi.

Yuridik adabiyotlarda so‘nggi ikki yondashuv asosida huquqni keng ma’noda tushunish shakllangan. Huquqni keng ma’noda tushunish tarafdorlari bo‘lgan huquqshunos olimlar huquqni ta’riflashda huquq normalaridan tashqari huquq tushunchasiga huquqiy ong, huquqiy munosabat va boshqa bir qator huquqiy hodisalarini ham qo‘shadilar.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, huquqni tushunishda turlicha yondashuvlarning bo‘lishi tabiiy. Sababi huquq – o‘ta murakkab va serqirra ijtimoiy hodisadir. Har bir huquqshunos olim huquqning u yoki bu xususiyatiga, jihatiga alohida e’tibor berishi mumkin. Ammo huquqni tushunishdagi turli xil yondashuvlarni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish noto‘g‘ri bo‘ladi. Chunki, fikrimizcha, huquqqa turlicha yondashuvlar bir-birlarini to‘ldiradi, huquqning mohiyatini ochib berishiga yordam beradi, xolos.

Haqiqat - doimo keskin qarama-qarshi fikrlarda emas, balki ular o‘rtasidadir. Qarama-qarshi tushunchalarni yaqinlashtirish mumkin, murosa asosida esa ma’qul keladigan «huquq» tushunchasini berish mumkin.

Huquq davlat bilan mustahkam bog‘langan. Davlatsiz pozitiv huquq bo‘lishi mumkin emas, chunki aynan davlat pozitiv huquqni keltirib chiqaradi va huquqiy normalarning amalga oshirilishini kafolatlaydi, huquqni muhofaza qiladi.

**O‘z navbatida, davlat ham huquqsiz mavjud bo‘lishi mumkin emas. Aks holda u ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib turuvchi vositadan mahrum bo‘ladi.**

**Tabiiy huquq va pozitiv huquq.**

Qadimda vujudga kelgan tabiiy huquq g‘oyasi golland huquqshunosi Gugo Grotsiyning “Urush va tinchlik huquqi haqida” nomli asarida (1625 y.) puxta ishlangan.

Tabiiy huquq - bu insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan huquq va erkinliklari majmuidir. Tabiiy huquq nazariyasi namoyondalari - tabiiy huquqlar qatoriga: insonning erkinlik

huquqi, insonlar bilan muloqatda bo‘lish, nasl qoldirish, hayotga va oddiy turmush sharoitiga, xususiy mulkka ega bo‘lish, hayotini va sog‘lig‘ini himoya qilish kiradi.

Shu asosda tabiiy huquqlardan kelib chiqadigan asosiy vazifalar - bu qonuniy - boshqa odamlarga, jamiyatga va davlatga zarar yetkazmaslik, boshqa insonlarning huquqlarini amalga oshishiga halal bermaslikdir. Shunday ekan, tabiiy huquq, huquq haqidagi eng yuksak, chuqr axloqiy va oliv darajadaadolatli tushunchalarning majmuasini ifodalaydi.

Pozitiv (ijobiy) huquq - bu davlat tomonidan qabul qilingan qoidalar, ya’ni qonunchilik va uning boshqa manbalarida ifodalangan huquqdir. Ijobiy huquq qonunchiliksiz, huquq qoidalarisiz, pretsendentsiz, normativ shartnomasiz bo‘lmaydi. Shuning uchun ham qonunchilik va huquq ko‘pincha aynan bir narsa deb hisoblanadi.

Huquqning tabiiy va pozitiv turlarga bo‘linishi huquqshunoslik fanining bir qator bahsli masalalarini hal qiladi.

Birinchidan, huquqni "keng" va "tor" ma’noda tushunish o‘z mazmunini yo‘qotadi. Chunki tabiiy va pozitiv huquq g‘oyasi nazariy jihatdan aniq va ishonchli, amaliy jihatdan maqsadga muvofikdir.

Ikkinchidan, huquqning paydo bo‘lishi davlat bilan bog‘lanmagan, chunki tabiiy huquq davlatdan oldin paydo bo‘lib, usiz mavjud bo‘lishi mumkin. Pozitiv huquqni esa davlatsiz tasavvur qilish mumkin emas va u davlat huquqni yaratishining natijasida bo‘ladi. Pozitiv huquq, Gegel ta‘biri bilan aytganda, umuman davlatda amal qiladigan huquqdir va u oqilona kuchga ega bo‘lgani uchun emas, chunki u mavjuddir<sup>13</sup>.

Uchinchidan, huquq va qonunchilik o‘rtasidagi o‘zaro munosabat aniqlashadi.

Qonunchilik tabiiy huquqning ma’lum bir qismini ifodalab beradi. Huquqning qolgan qismi esa prinsip, huquqiy ong va boshqa huquqiy ko‘rinishlarda mavjud bo‘ladi. Qonunchilik tabiiy huquqni to‘g‘ri tasvirlashi mumkin.

Jamiyatda uyushqoqlik va tartib ongda va undan tashqari mavjud bo‘lgan aniq ijtimoiy yo‘nalishlar asosida insonning yashash sharoitlari quvvatlanadi. Huquq bu yo‘nalishlar ichida katta rol o‘ynaydi. Ijtimoiy hodisa bo‘lmish huquqqa umumiyy va o‘ziga xos alomatlar xosdir.

Huquq – muhim ijtimoiy qimmatga ega bo‘lgan voqelikdir. U mavjud ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda katta rol o‘ynaydi. Huquq uni boshqa sotsial normalardan ajratib turadigan bir qator o‘ziga xos belgilarga ega. Bu belgililar qatoriga quyidagilar kiradi.

Birinchidan, huquq normativ xususiyatga ega. Normativlik faqat huquqqa xos belgi emas. U inson tabiatiga asoslangan bo‘lib, har bir ijtimoiy mavjudotga xosdir. Normativlik insoniyat taraqqiyotining ma’lum bir bosqichida paydo bo‘lib, har narsani o‘z ichiga oladigan harakaterga ega bo‘ladi, odamlar faoliyatining universal vositasi bo‘ladi. Normativlik ma’lum bir qoidalarga asoslanganda jamiyat hayotidagi muayyan tartibning mavjudligini bildiradi.

Fikrlash jarayoni va uning qonuniyligining o‘zi normativdir, til va uning grammatikasi normativdir va, nihoyat, ijtimoiy voqelik va inson axloqi ham normativdir. Insoniyat, odatda bilimni va ma’lum qoidalar ichidagi harakatining kerakligini jamlab, erishilgan bilim va tajribalarni mustahkamlaydi, doimo rivojlantiradi, ijtimoiy hayotni meyorga soladi.

Ikkinchidan, huquq adolat va erkinlikni ifodalaydi. Adolat va erkinlik insoniyat doimo intilib kelgan abadiy idealdir. Ezgulikka xizmat qilish, boshqa odamlarning manfaatlarini kamsitmaslik, jamiyatga zarar keltirmaslik - adolatdan hisoblanadi. Agar insonning tashqi ko‘rinishi, uning axloqini olsak, jamiyatdagiladolat mezoniga javob beradigan axloq adolatli bo‘ladi. Bunday mezonlarning aniqlanishiga va ma’nosiga insoniyatning eng aqli daholari murojaat qilganlar. Ular haqida Aflatun va Arastu, Forobiy va Alisher Navoiy gapirganlar, deyarli barcha mashhur faylasuflar fikr yuritganlar.

Adolat mezoni ko‘p omillarga - iqtisodiy, sinfiy, milliy, demografik va boshqa omillarga bog‘liq. Ular turli xalqlarda ma’lum tarixiy sharoit va sivilizatsiya taraqqiyoti darajasiga bog‘langan holda o‘zgarishi mumkin.

<sup>13</sup> Гегель. Философия права. – М., 1990. – С. 385-386.

Ma'lum bo'lishicha, qadimda davlatlar va xalqlar bir-birlari bilan uzoq va shafqatsiz urushlar olib borganlar, bunday haddan ziyod vahshiylik (asir olinganlarni, ayollarni, bolalarni o'ldirish, qul qilib olish)adolatli ish deb e'tirof etilgan.

Adolat mezonlari negizida, adolat va erkinlik g'oyalarining mohiyatini ifodalaydigan umuminsoniy asos bo'lishi kerak. Bunday mezonlar tabiiy huquq nazariyasida ta'riflangan. Insonning tabiiy huquqlarga munosabati, ularning davlat tomonidan qo'riqlanishi jamiyatda adolatning ahvoli, hokimiyat va davlatning tabiatini ko'rsatadi.

Qonunchilikda mustahkamlangan umuminsoniy negiz faqat iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va boshqa qulay sharoitlarda amalga oshadi. Ijtimoiy adolat prinsiplari huquqnинг turli sohalarida har xil namoyon bo'ladi. Ijtimoiy adolat mehnat qilish huquqida mehnatning hajmi va sifati ish haqiga baravarligida, tadbirkorlik sohasida ijod va tashabbuskorlik qobiliyatiga yarasha mukofot olinishida, fuqarolik huquqida - yetkazilgan mulkiy zarar va qo'ldan ketgan foydani qoplashga mos kelishida, ma'muriy va jinoiy huquqda sodir etilgan qonunbuzarlikka to'g'ri keluvchi jazoda namoyon bo'ladi.

Taniqli rim notig'i Sitseron "Qonunlar haqida" asarida huquqdagi xaqqoniylid to'g'risida so'z yuritib: "Jazo jinoyatga loyiq bo'lishi kerak, har kim qilgan gunohiga yarasha jazo olishi darkor: beboslik - fuqarolik huquqidan mahrum qilish bilan jazolansin; ochko'zlik - jarima bilan; obro', mansab ishtiyobi - yomon nom chiqarish bilan", - deb yozgan edi.

Erkinlik - insonning ajralmas xususiyatidir. U faqat bor bo'lganda shaxsning to'g'ri yashashi, uning ijodiy imkoniyatlari yechilishi mumkin. Tarixda ozodlikni cheklab qo'yan qonunlar ham ma'lum bo'lgan. Masalan, qullikni ruxsat etgan qonun.

Adolat va ozodlik g'oyalariga mos kelmagan normativ yo'nalishlar huquq bo'la olmaydi. Bu qonunshunoslikda rasmiylashtirilgan xaqsizlik va zo'ravonlikdir.

Uchinchidan, huquq o'z predmetiga ega. Bu hokimiyat, davlat, jamiyatdagi tartibdir. Aynan shu jamiyat tartiblari adolat va erkinlik g'oyasini hayotiy mazmun bilan to'ldiradi va aynan ular insonning ozod va adolatli hayot kechirishini ta'minlaydi.

Adolat va ozodlik g'oyalari ongning boshqa shakllarida va axloq namunalarida o'z aksini topadi. Ammo huquqda ular inson, davlat, jamiyatning ozodligi, huquqlari va burchlarida, ularning o'zaro javobgarligi o'lchamlari, turlari va shakllarida bo'ladi. Bunda huquqlar, ozodlik va burchlar yo'qonunchilik hujjalari mustahkamlanadi, yo ong, g'oya va aniq munosabatlarda normativ yo'nalishlar shaklida bo'ladi. O'z predmetiga ega bo'lgan huquq o'zgacha ong shakli va ijtimoiy hayot muhitidan: din, axloq, iqtisodiyot, san'at va boshqalardan farq qiladi.

To'rtinchidan, huquq inson axloqini yo'naltiradi, uning fikri va idrokiga ta'sir qiladi. Ijtimoiy buzilmagan adolat va ozodlikka intiladi, boshqa odamlarning xulqini shunday bo'lishini istaydi, davlatni ozodlik va adolat garovi deb qaraydi. Huquqda bu g'oyalarning aksini ko'rib, inson normativ yo'nalishlarga bo'ysunishi zarur, deb hisoblaydi. Inson huquq talablariga o'z ixtiyor, ichki maslagi bilan bo'ysunadi, normativ huquqiy yo'nalishlar esa bu ma'noda uning ongiga va ruhiyatiga ta'sir qiladi. Huquqning tashqi majburiyligi insonga tashqi (jismongan yoki psixik) jihatdan majburlashni ifoda etadi va u faqat ichki majburiylikdagi ongga emas, faqat xulqqa tegishlidir.

Ichki va tashqi majburiylikka ega bo'lgan huquq, insonga faol ta'sir etadi va shu bilan jamiyatda kerakli tartibni o'rnata oladi.

Beshinchidan, huquq muayyan shakllarda o'z aksini topadi. Tabiiy huquq negizini ifoda etgan adolat va ozodlik g'oyalari turli shaklda - huquqiy ong, huquqiy munosabat, huquqiy tushunchalar va boshqa huquqiy hodisalarda bo'ladi. Bularning talay qismi qonun ijodkorlik shaklida bo'ladi va pozitiv (ijobiy) huquqqa aylanadi. Shunday qilib, qonun – huquqning talay qismining ifoda shaklidir. Boshqa qismi esa boshqa shakllarga ega. Aynan shuning uchun huquq qonunchilik bilan mos kelmaydi. U hajm jihatdan qonunchilikdan keng hamda mazmun va shakl jihatdan mutanosibdir.

Huquq – insoniyat taraqqiyotining mahsuli va sivilizatsiyaning yutug'idir. Huquq muayyan xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar jumlasiga quyidagilar kiradi.

Birinchidan, huquq qonun darajasiga ko'tarilgan irodadir. Iroda insonning ongli psixofiziologik holatiga sabab bo'lgan va maqsadga muvofiq bo'lgan xulqning ifodasidir. Miya ishi sifatida iroda o'rav turgan dunyoni, ijtimoiy va boshqa talablarni, insoning manfaatini aks ettiradi. Aynan shular iordaning yo'nalishi va mazmunini belgilaydi. Iroda insonning butun faoliyatiga, hayotning turli sohalaridagi, shu jumladan huquqiy muhitdagi maqsadga muvofiq xulqiga singadi.

Qonun darajasiga ko'tarilgan iroda ma'lum darajada rasmiylashtirishdan iborat bo'lib, bunda qonun ijodkorlik idoralari umummajburiy normativ aktlar qabul qiladi. Huquq normalari davlat tomonidan chiqariladi. Bu holda huquq davlat tomonidan kelib chiqadi degan tushuncha paydo bo'lishi mumkin. Aslida davlat qonun chiqaruvchi idoralar tomonidan davlatdan tashqari mavjud bo'lgan adolat va ozodlik, ya'ni tabiiy huquq g'oyalarini qonun darajasiga ko'taradi.

Agar iroda umumiy bo'lmaganda edi, - deb to'g'ri yozgan edi Gegel, - hech qanday mavjud qonun bo'lmaganda edi. Har kim o'z xohishicha ish tutar edi va boshqalarning o'zboshimchalogiga e'tibor bermas edi.

I. Kant: "qonun hokimiyyati faqat xalqning birlashgan irodasiga taalluqlidir", - degan edi.

Umumxalq muhokamasidan o'tib, qabul qilingan qonunlar, shubhasiz, xalq irodasini ifodalaydi. Vazirliklar va davlat idoralari tomonidan qonun osti hujjatlar tor idoraviy manfaatni ifodalashi mumkin.

Huquqning mohiyatini ikki ma'naviy manfaatning – shaxsiy ozodlik va umumezgulikning baravarligi tashkil etadi. Iordaning mazmunini tahlil qilib hamda uni adolat va ozodlik g'oyalari bilan solishtirib, huquqning mohiyati, uning progressiv yoki reaksiyon xususiyati haqida xulosa qilish mumkin.

Huquqning ikkinchi xususiyati uning formal aniqligidadir. Qonunlarda mustahkamlangan normativ qoidalar alohida xususiyatga - formal aniqlikka ega bo'ladi. U qonunchilik farmoyishlarining aniqligi, bir ma'nodaligi va lo'ndaligida namoyon bo'ladi. Bunga huquqiy tushunchalar, ularning yuz yillar davomida ishlab chiqilgan qonun texnikasining ilg'or yutuqlari orqali erishiladi. Shuning uchun huquq subyektlari qonuniy va noqonuniylilikning chegarasini, o'zining huquqlari, irodasi va burchlari hamda qonunbuzarlik uchun javobgarligini biladi.

Huquqning uchinchi xususiyati uning muayyan tarzda tizimlashganligidir. Qonun ijodkorligida ifodalangan huquq normalari, ya'ni sistemalilik - bog'liqlik, muvofiqlikka ega bo'ladi. Ongdagi va axloqdagi normativ huquqiy yo'nalishlar bu xususiyatga ega emas. Qonunchilik yangi huquqiy normalarni mustahkamlab, ularni albatta amaldagi qonunlarga muvofiqlashtiradi. Faqat muayyan tizimli amaldagi rasmiy huquq o'z oldidagi vazifalarni bajara oladi.

Huquqning to'rtinchi xususiyati uning muntazam ekanlidir. Huquqning rivojlanishi huquqiy normalarining tez o'zgarishida ko'rindi. Huquqning bu xususiyati ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlar davrida yaqqol ko'rindi. Aynan shunday davrlarda eskirgan normativ hujjatlar bekor qilinadi hamda yangisi ishlab chiqilib, qabul qilinadi. Xuddi shu holat bizning O'zbekistonda ham huquqiy islohotlar natijasida sodir bo'lmoqda.

Huquqning beshinchi xususiyati uning turli xil odamlarga nisbatan teng miqyosli ekanlidir. Huquq qonun hujjatlari orqali axloqni "meyorlaydi", uning miqyosini aniqlaydi. Bu, bir xil meyorlar, turli xil bo'lgan odamlarga ularning qobiliyati, jismoniy imkoniyati, oilaviy sharoiti va boshqalar boshqa bo'lganlarga nisbatan qo'llaniladi. Bu ishlab chiqarishda mehnatning teng miqdori va teng vazifasi uchun baravar haq to'lash (bir xil mehnatga - teng ish haqi), savdosotiqa molning narxi hamma xaridorlar uchun bir xil bo'lishi, oliy o'quv yurtiga kirilayotganda - har bir abituriyent uchun kirish sharoitining teng bo'lishida ifodalanadi.

Turli odamlarga nisbatan teng bo'lgan huquq haqiqiy tenglikni ta'minlamaydi va ta'minlashi ham kerak emas. Aks holda ijod va mehnat raqobatiga putur yetkazadi va jamiyatni turg'unlikka olib keladi. Yaqin o'tmishtagi «soviet»chasiga tenglashtirilgan taqsimlash - bunga yaqqol misol bo'la oladi. Huquqning bu xususiyatining ifodalanishini yengillashtirish uchun, rivojlangan davlatlarda differensial soliq undiriladi, jamoat fondlari taqsimlanadi, fuqarolarning moddiy va

boshqa xolatiga qarab nafaqa to‘lanadi. Adolatli bo‘linish shunda namoyon bo‘ladi. Bunday hayotga tatbiq qilish, davlatning o‘z xalqiga g‘amxo‘rlik qilishining namunasidir.

Huquqnining oltinchi xususiyati uning davlat tomonidan qo‘riqlanishidir. Pozitiv huquqning normalari fuqarolar tomonidan o‘z ixtiyori (ichki e’tiqod kuchi) bilan har doimo ham bajarilmaydi. Aholining ko‘pchilik qismi, huquqning ortida davlat turgani uchun ham, huquqiy farmoyishlarga bo‘ysunadi.

Davlat qonun normalarini ta’sis etadi. Bunday huquq himoyasiz bo‘lmaydi. Qonuniy normalarning davlat tomonidan himoyasi davlat organlarining majburiyati, turli xil tashkiliy, tashkiliy-texnik, tarbiyaviy va ogohlantiruvchi choralarning fuqarolar tomonidan huquqiy normalarning bajarilishini o‘z ichiga oladi.

Bu choralarga huquqiy davlatda katta ahamiyat beriladi, chunki ular jamiyatda davlatning repressiv apparatini ishlatmay huquqiy tartibni barqarorlashtirish imkoniyatini yaratadi. Shu sababdan davlatimizda qonun loyihamarining umumxalq muhokamasini yo‘lga qo‘yish, ular haqida bildirilgan muloxazalarni to‘laroga hisobga olish, normativ-huquqiy hujjatlarni yetarli darajada nashr qilish, yaxshi ishlaydigan huquqiy tarbiya tizimini tuzish zarur. Davlat majburlov chorasi huquqiy himoya choralari orasida alohida o‘rin tutadi.

### **Huquq prinsiplari va funksiyalari.**

Huquqiy prinsiplari (tamoyillar) – bu rahbarlik qiluvchi dastlabki g‘oya bo‘lib, insonlarni o‘z oldilariga qo‘ygan maqsadlariga erishish uchun xizmat qiladigan, asosiy yo‘nalishlarni ko‘rsatib beruvchi faoliyatidir<sup>14</sup>. Huquqiy tizimni shakllantirishda huquqiy tamoyillar (rahbariy g‘oyalar) ning faol harakatini ta’minalash muxim ahamiyat kasb etadi.

**Mohiyat-mazmuniga ko‘ra huquq prinsiplari huquqiy tizimning tarkibiy qismi hisoblanadi. Huquqiy tizim prinsiplari, uning butun ichki tuzilishini, mohiyatini qamrab oladi va boshqa ijtimoiy tizimlar bilan bo‘ladigan aloqasi va o‘zaro harakatiga hal etuvchi ta’sir ko‘rsatadi. Ular huquqqa ma’no va mazmun baxsh etadi, uni muayyan yo‘nalishga yo‘naltiradi. Bu shunday rahbariy holatlarki, ular jamiyat taraqqiyotining eng muhim qonuniyatlarini, huquqiy tizim tiplarini ifodalaydi, uning bosh mazmunini tashkil etadi, oliy imperativlik va umum ahamiyat kasb etadi. «Huquq prinsiplari huquqning shakllanish jarayoni, rivojlanishi va harakatlanishining rahbariy g‘oyasi, ibtido qoidasi, yetakchi mezon sifatida maydonga chiqadi»<sup>15</sup>.**

Yuridik adabiyotlarda huquq prinsiplari turli nuqtai nazardan talqin etiladi. Jumladan, rus olimi S.S.Alekseyev huquq prinsiplarini – huquq mazmunining yaxlit holda ifodasi, eng oliy darajadagi normativ umumlashuvi deb hisoblaydi<sup>16</sup>. Prof. Islamov Z.M. huquqning mazmuni, uning mohiyati va jamiyatda tutgan o‘rnini belgilab beruvchi g‘oyalarni – huquq prinsiplari deb biladi. Uning fikricha, huquq prinsiplari bir tomonidan, huquqning qonuniyatlarini ifodalaydi, ikkinchi tomonidan, huquqiy tartibga solishning barcha sohalariga ta’sir etuvchi va huquqiy munosabatlarning hamma ishtirokchilariga tarqaladigan eng umumiylar normalardan iboratdir<sup>17</sup>. Huquq prinsiplarini umumiylar huquqiy prinsiplar, maxsus-yuridik, tarmoqlararo va sohaviy prinsiplarga bo‘lish qabul qilingan.

Ba‘zi mualliflar huquq prinsiplari qonun yoki boshqa ko‘rsatmalarda aniq ravishda o‘z ifodasini topishini ta‘kidlaydi. Huquqiy adabiyotlarda ko‘rsatilganidek, prinsiplar «qonuniyatlar», yoki «mohiyat» kabi kategoriyalar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, huquqiy

<sup>14</sup> Қонун ижодкорлиги ва қонунчилик техникаси: назария ва амалиёт муаммолари. Семинар материаллари/Масъул мұхаррир Ф.Х.Отахонов. –Т.: ТДЮИ нашриёти, 2005 йил. 156-бет.

<sup>15</sup> Бобоев Х.Б., Исломов З.М., Чориёров У. Давлат ва ҳуқуқ назарияси: Олий ўқув юртларининг ҳуқуқшунослик мутахassisligi бўйича таълим олаётган талабалар учун. 215-бет.

<sup>16</sup> Алексеев С.С. Право: азбука – теория – философия: Опыт комплексного исследования. 293-бет.

<sup>17</sup> Исламов З.М. Общество. Государство.Право. (Вопросы теории) 354-бет.

normalarda so‘z orqali ifodalanmasligi mumkin. Lekin huquq ijodkorligi va huquqni tatbiq etish faoliyatini umuman butun huquqiy tizim taraqqiyoti yo‘nalishini belgilaydi. Demak, umumiy huquqiy prinsiplar mamlakat huquqiy tizimining mazmun mohiyatini, uni rivojlanish yo‘nalishini belgilaydi.

Nazariyotchi huquqshunos olimlar umumiy huquqiy prinsiplar sifatida quydagilarni ajratib ko‘rsatadilar: huquqni shakllantirish va amalga oshirishda demokratizm prinsipi; qonuniylik prinsipi; insonparvarlik prinsipi; fuqarolarning qonun oldida tengligi prinsipi; davlat va shaxsnинг o‘zaro mas’ulligi prinsipi; ijtimoiy erkinlik prinsipi; fuqarolik majburiyati prinsipi; obyektiv haqiqat; ayb uchun javobgarlik prinsiplari; huquq va majburiyatlarning yagonaligi prinsipi; ishontirish va majburlashning uyg‘unligi prinsipi; adolat prinsipi; milliy teng huquqlilik prinsiplari.<sup>18</sup>

Huquqiy tizimni shakllantirishda huquqiy prinsiplar (rahbariy g‘oyalalar) ning faol harakatini ta’minalash muxim rol o‘ynaydi. Rahbariy g‘oyalarga:

Qonuniylik;

Davlat va shaxsnинг o‘zaro mas’ulligi;

Fuqarolarning qonun oldida tengligi;

Insonparvarlik;

Demokratizm;

Ijtimoiy adolat va boshqalarni kiritishimiz mumkin.

Mamlakatimizda istiqomat qilayotgan barcha fuqarolar yuqoridagi prinsiplar asosida o‘z faoliyatini amalga oshiradigan bo‘lsa, nafaqat huquqiy tizimning faol harakati ta’minaladi balki, undanda yuqoriroq natijalarni qo‘lga kiritishimiz mumkin.

Huquq jamiyat hayotida muayyan funksiyalarni bajaradi.

**Huquqning funksiyasi deganda** ijtimoiy munosabatlarga ta’sir etish, ularni tartibga solishning asosiy yo‘nalishlari tushuniladi.

**Huquqning asosiy funksiyalari** quydagilar - tartibga soluvchi, qo‘riqlovchi va tarbiyaviy.

**Tartibga soluvchi funksiya** - tegishli ijtimoiy aloqalar hamda tartibni va u yoki bu subyektlarning faol xulq-atvorini ta’minalash orqali ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

**Qo‘riqlovchi funksiya** - huquqiy muhofaza va yuridik javobgarlik choralarini belgilash, ularni qo‘llash va javobgarlikni o‘tash tartibini o‘rnatishdan iborat.

**Tarbiyaviy funksiya** - turmushda nimalarni qilish mumkin, nimalar esa taqilanganadi, u yoki bu vaziyatda qanday harakat qilish lozimligini belgilashdan iborat. Bunda huquq ishontirish metodiga tayanadi, zarur bo‘lganda majburlash metodini, xatto jazolashni nazarda tutadi.

Ilmiy va o‘quv adabiyotlarda «funksiya» tushunchasi turli xil ma’nolarda ishlataladi. Yuridik fanda «funksiya» termini XIX asr oxiri – XX asr boshlarida davlat va huquqning ijtimoiy ahamiyatiga tavsif berish uchun ishlatala boshlangan.

«Huquq funksiyasi» tushunchasi to‘g‘risida yagona fikr yo‘q. Agar, shu masala bo‘yicha bildirilgan ko‘pdan-ko‘p fikrlarni umumlashtirganda, huquq funksiyasi orqali huquqning sotsial maqsadi yoki ijtimoiy munosabatlarga huquqiy ta’sir etishining yo‘nalishini tushunish mumkin.

Huquq funksiyasi iborasida, uning sotsial maqsadi yoki huquqiy ta’sir etish yo‘nalishi kabi bir-biriga chambarchas bog‘liq bo‘lgan, lekin shu bilan birga, bir-biriga to‘g‘ri kelmagan kategoriylar tushuniladi. Ularning har biri o‘z ma’nosiga ega va «huquq funksiyasi» tushunchasini belgilashda ma’lum metodologiya vazifani bajaradi.

Gap shundaki, xuddi sotsial maqsad kabi, ijtimoiy munosabatlarga ta’sir etish yo‘nalishi ham, alohida olinganda, huquq funksiyasi tushunchasini ma’nosini kamaytirmaydi. Agar huquq funksiyasi orqali faqat uning sotsial maqsadini tushungan taqdirimizda, bu tushuncha juda ham umumiy xarakterga ega bo‘lib qoladi. Agar huquq funksiyasini faqatgina ijtimoiy munosabatlarga ta’sir etish yo‘nalishi singari tushunsak, bunday sharoitda uning keng ma’nodagi yo‘naltiruvchi ta’siri e’tibordan chetda qoladi.

<sup>18</sup> Исламов З.М. Общество. Государство.Право. (Вопросы теории) 354-361-бетлар.

Yuqorida aytilganga bog‘liq holda, biz o‘z diqqatimizni huquqiy ta’sir yo‘nalishi va sotsial maqsadga taqqoslashni fikran noto‘g‘ri ekanligiga qaratishimiz kerak, yoki aqsinchaligini tenglashtirish kerak. Huquq funksiyasi tushunchasi bir vaqtda ham huquq yo‘nalishini ham uning shu yo‘nalishdan kelib chiqadigan ijtimoiy munosabatlarga ta’sirini kamrab olishi kerak. Huquq funksiyalaridan birontasining ma’nosini ochayotgan paytda, huquqning maqsadi bilan uning ta’sir etish yo‘nalishining bog‘liqligi va shu bilan birga, keyingisining huquqning maqsadiga tobe ekaligini doimo nazarda tutish shart. Huquq funksiyasi – bu uning sotsial maqsadining amalga oshishidir.

Huquqning sotsial maqsadi va huquqiy ta’sir etish deganda nimani tushunish kerak? Huquqning sotsial maqsadi ijtimoiy taraqqiyot ehtiyojlaridan shakllanadi, tashkil topadi; u huquqni nazorat qiluvchi akt singari o‘z aksini topgan shu ehtiyojlarning «davomi» demakdir. Jamiyatning ehtiyojlari bilan muvofiq holda ma’lum munosabatlarni qo‘riqlashga qaratilgan huquqlar yaratiladi. O‘zining ijtimoiy o‘rniga muvofiq – mustahkamlash, himoya kilish yoki ma’lum ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishini tartibga solish kabi zarur ehtiyojlarda huquqning yuqorida aytilgan maqsadi yaqqol namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy munosabatlarning tartibga solinishida ularning bir tizimliligi va dinamizmi jamiyatning rivojlanishi va ishlab turishi uchun zarur shart-sharoitdir. Shuning uchun huquqning sotsial maqsadi ijtimoiy munosabatlarning to‘g‘ri yo‘lga solib turishdan, unga kerakli darajada mustahkamlik, yaxdillik va dinamizim berishidan, sodda qilib aytganda, jamiyatning bir meyorda rivojlanishi uchun kerak bo‘lgan sharoitlarning yaratishdan tashkil topgan.

«Huquq funksiyasi» tushunchasini ochish jarayonida «huquqiy ta’sir etish» va «huquqiy tartibga solish» kategoriyalarining o‘zaro munosabatlariga ahamiyat berishi kerak. ***Huquqiy tartibga solish*** – bu huquq vositalari tizimlari (yuridik normalar, individual yozmalar va boshqalar) yordamida ijtimoiy munosabatlarga ta’sir etishdir. Huquqiy tartibga solish bilan bir qatorda turgan huquqiy ta’sir etish shakllari ham unga qiritiladi. Huquqiy ta’sir etish turli xil shakllarining mavjudligi yuridik bo‘lmagan va yuridik bo‘lgan huquqiy ta’sir etishning orasidagi farqni yaqqol ajratishga yordam beradi. Huquq funksiyasi tushunchasiga, albatta, yuqorida aytilgan ta’sir etish turlarining ikkisi ham kiradi. Bu o‘rinda huquq funksiyasini uning o‘ziga xos holatlarining namoyon bo‘lishi deyin mumkin.

### **Ichki ishlar organlari faoliyatini tartibga solib turuvchi xukukiy normalarning xususiyatlari.**

O‘zbekiston Respublikasida Ichki Ishlar Organlarining faoliyati O‘zbekiston Respublikasi IIV to‘g‘risidagi №18-soni Nizom va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining “O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari to‘g‘risida” gi qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi IIVning 1993 yil 30 iyunida №285 - buyrug‘i bilan tartibga solinadi.

Yuqorida nomlari zikr etilgan xujjatlar qonun osti xujjatlar xisoblanadi. Ular Konstitusiya va mavjud qonunlar asosida ishlab chiqilgan. Lekin, qonun maqomiga ega emas.

Afsuski, bugungi kungacha mamlakatimizda “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida” yoki “Militsiya to‘g‘risida” va “Operativ qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi qonunlar qabul qilinmadи.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan so‘ng o‘z oldiga demokratik-huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatni barpo etishni oliy maqsad qilib qo‘yanligi barchamizga ma’lum. Haqiqiy demokratik davlatda barcha ijtimoiy munosabatlar qonun bilan tartibga solinishi lozim. Masalani to‘g‘ri tushunishimiz kerakki, ushbu qonunni qabul qilish va uni amalga tadbiq etish uchun katta moddiy mablag‘ zarur bo‘ladi. Davlatimiz mustaqillikni qo‘lga kiritganiga ko‘p bo‘lgani yo‘q. Albatta yangi dunyoga kelgan davlatning ilk hayotida muayyan qiyinchiliklar, yetishmovchiliklar bo‘lishi tabiiy. Asta sekin bu kamchiliklar bartaraf etiladi.

“Militsiya to‘g‘risida”gi qonun loyixasi (30 moddadan iborat) ishlab chiqilgan(Loyixa O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi professor-o‘qituvchilarini tomonidan yaratilgan) va uch marotaba Oliy Majlisga taqdimi etilgan. Lekin qonunni qabul qilish va amalga joriy etish katta mablag‘ zarur bo‘lganligi uchun qonunni qabul qilish orqaga surilib kelmoqda.

Ikki palatali saylovlardan oldin bo‘lib o‘tgan saylov oldi targ‘ibot-tashviqot ishlarida Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga o‘z nomzodini qo‘yanan sobiq Oliy Majlis Raisi E.X.Xalilov o‘zining saylov oldi dasturida aynan “Militsiya to‘g‘risida”gi qonun xaqida aloxida to‘xtalar ekan: “Huquq himoyachisi birinchi navbatda o‘zi muayyan huquqqa ega bo‘lishi lozim, ya’ni militsiya xodimi o‘z qonuniga ega bo‘lishi kerak. Huquqbuzarga tanbex berish uchun huquqiy asosi bo‘lishi lozim. Afsuski, mamlakatimizda ayrim sabablarga ko‘ra bu qonunning qabul qilinishi orqaga surilmoqda. Albatta, buning asosiy sababi, davlatimizdagi isloxitlarning bosqichma bosqich amalga oshirilayotganlidir” – deya, ta’kidlagan edi.

Bundan tashqari sobiq deputat kelgusida Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga deputat bo‘lish uchun xalqning ishonchini qozonsa, ya’ni xalq tomonidan unga ovoz berib, saylansa, o‘z faoliyati davomida “Militsiya to‘g‘risida”gi qonunga aloxida e’tibor berishini aytib o‘tgan.

Saylov komissiyasi yakunlariga asosan E.X.Xalilov xalq tomonidan Qonunchilik palatasiga, so‘ngira palata deputatlari tomonidan Qonunchilik palatasi Spikerligiga saylandi. Umid qilamizki, Spiker o‘z faoliyatida ushbu masalaga aloxida e’tibor bilan yondoshadi.

Bundan tashqari 2005 yilning 13 oktabrida O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining “Mudofaa va xavfsizlik ishlari bo‘yicha qo‘mitasi” tashabbusi bilan Ichki ishlar, Prokuratura va Milliy xavfsizlik xizmati va boshqa yurtimiz xavfsizligiga oid faoliyat bilan shug‘ullanuvchi idoralarning mutasaddi xodimlari, nazariyotchilar, amaliyotchilar ishtirokida “Ichki Ishlar Idoralarining normativ xujjatlarini takomillashtirish” mavzusida davra suxbati tashkil etildi. Seminar davomida “Militsiya to‘g‘risida”, “Operativ qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi qonunlar loyixalari atroficha muxokama qilindi va ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar berildi.

Albatta, ichki ishlar faoliyatini huquqiy asosini yaratish nafaqat militsiya xodimlari manfaati ximoyalash, balki fuqarolarimizning huquq va erkinliklarini ta’minalash borasidagi yana bir olg‘a qadam bo‘lar edi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

66. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. -T., 1998.
67. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdur // Xalq so‘zi.-2005.-29 yanv.
68. X.Boboyev., H.Odilqoriyevlar tahriri ostida. Davlat va huquq nazariyasi.. -T., 2000.
69. Tadjixanov U., Odilqoriyev X., Saidov A. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyaviy huquqi. –T., 2001.
70. Saidov A., Tadjixanov U., Odilqoriyev X. Davlat va huquq asoslari. -T., 2002.
71. Tadjixanov U., Gulyamov Z. Pravovoye regulirovaniye deyatelnosti militsii. -T., 1995.
72. Dzaporov A.T. Normi prava. Vidi pravovix norm, reguliruyushix deyatelnost organov vnutrennix del. -T., 1993.
73. Saidov A., Tadjixanov U. Davlat va huquq nazariyasi. 2-jild. –T., 2002.
74. Islamov Z.M. Davlat va huquqning umumnazariy muammolari. 2-q. T., 2001.
75. Islamov Z.M. Huquq tushunchasi, mohiyati, ijtimoiy vazifasi. T., 2004.
76. Nersesyans V.S. Huquq falsafasi. T., 2003.
77. Malaxov V.P., Kazakov V.N. Teoriya gosudarstva i prava. –M., 2002.
78. Marchenko M.N. Obshaya teoriya gosudarstva i prava. Tom 1-2. –M., 1998.

### **8-MAVZU: HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYAT**

#### **REJA:**

##### **6.Huquqiy ong tushunchasi va tarkibi**

##### **7.Huquqiy ongning vazifalari, funksiyalari, turlari va tuzilishi**

##### **8.Huquqiy tarbiya tushunchasi va vazifalari**

##### **9.Huquqiy madaniyat tushunchasi va tarkibiy tuzilishi**

##### **10. Shaxsnинг huquqiy madaniyati, huquqiy madaniyatning funksiyalari**

«Jamiyat va davlat taraqqiyotining hozirgi holati huquqiy munosabatlar barcha ishtirokchilarining huquqiy madaniyatini, huquqiy savodxonligini har tomonlama oshirishni

talab qilmoqda. Huquqiy madaniyat huquqiy bilim, huquqiy e'tiqod va izchil amaliy faoliyat majmui sifatida jamiyat va davlat oldida turgan vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishini ta'minlaydi»<sup>19</sup>, - deyiladi Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturida.

1997 yilning 20 mayida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning huquqshunos olimlar, huquqni muhofaza qilish organlari rahbarlari va ommaviy axborot vositalari vakillari bilan shu kunning dolzarb huquqiy muammolari xususida o'tkazgan uchrashuvi mazkur yo'nalishdagi ishlarning jonlanishiga turtki bo'lib xizmat qildi. Bu uchrashuvning asosiy g'oyasini "*Demokratik jamiyatga - yuksak huquqiy madaniyat*" shiori bilan ifodalash mumkin.

Qonunlar, farmonlar va hukumat qarorlarining mohiyatini chuqur anglab yetish, barcha harakatni xalqning yangi huquqiy ongini shakllantirishga qaratish shu jihatdan ahamiyatli, uning vositasida jamiyatning huquqiy madaniyatini ko'tarishga erishiladi. Adolatli demokratik jamiyat faqatgina inson, jamiyat va davlat manfaatlarining birligi va mutanosibligi negizida barpo etilishi mumkin. Ular o'rtasidagi munosabatlarning asosini qonuniylik tashkil etmog'i lozim.

### **Huquqiy ong tushunchasi**

Huquqshunoslik fanida hozirga kelib huquqiy ong va huquqiy tarbiya nazariyasining ilmiy asoslari yaratildi. Mazkur muammolar bo'yicha sotsiologik tadqiqotlar o'tkazildi, huquqiy ong ijtimoiy ong turlaridan biri ekanligi, u haqdagi tushuncha, uning tuzilishi, vazifalari va shu kabi masalalar umumiylar tarzda yetarlicha o'rganildi.

Huquqiy ong ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, ayni paytda nisbatan mustaqildir. U ijtimoiy turmushda mavjud bo'lgan, jamiyatimizga xos turli-tuman holatlar yig'indisini o'zida mujassamlashtiradi.

*Huquqiy ong – huquqiy hissiyotlar, tuyg'ular, g'oyalar, qarashlar, baholar, yo'l-yo'riqlar, tasavvurlar va fuqarolarning O'zbekiston Respublikasiga munosabatini ko'rsatuvchi, bu munosabat esa harakatdagi huquqqa, huquqiy amaliyatga, fuqarolar huquqlari va burchlariga nisbatan, shuningdek, boshqa orzu qilingan huquqlarga nisbatan bo'lishi, xolatlar tizimidir.*

Huquqiy ong tarkibini o'rganishning asosiy jihatlari, ijtimoiy ong tarkibini o'rganishda bo'lganidek, gnoseologik va sotsiologik tomonlaridir, chunki, ular o'zaro farqlansalar-da, har holda bir-birlarini inkor etmaydi, aksincha to'ldiradi. Gnoseologik yondashilganda huquqiy ong, in'ikos, jamiyatni bilish shakllaridan biri sifatida, sotsiologik yondashilganda esa ijtimoiy hodisalar orasida uning o'rni va umuman, ijtimoiy taraqqiyot nuqtai nazaridan o'rganiladi.

### **Huquqiy ongning tarkibi**

Gnoseologik tomonidan qaralgan huquqiy ong tarkibi, mavjud huquqiy holat in'ikosining ikki darajasidan tashkil topadi: huquqiy mafkura va huquqiy psixologiya. *Huquqiy psixologiya* atrofimizdagi mavjud huquqiy holatning bevosita ta'sirida shakllanadi va huquqiy ongning dastlabki empirik bosqichi hisoblanadi. Huquqiy ongning xuddi shu bosqichidan huquqiy borliqni idrok etish, uning bilan birlamchi tanishish boshlanadi.

Huquqiy psixologiyadan farkli, *huquqiy mafkura*, huquqiy ongning ancha yuqori, ilmiy-nazariy konsepsiyalashgan va odamlar tomonidan ijtimoiy hayotning huquqiy hodisalarni ancha chuqur idrok etish bosqichini tashkil qiladi.

Huquqiy ongning g'oyaviy tashkillanish jarayoni to'plangan, muayyan xis-tuyg'ular bilan yo'g'rilgan material asosida g'oyaning uzil-kesil namoyon bo'lishi, huquqiy borliq haqidagi tasavvurning sayqallanish holatlari kechadi va bu odamlar irodasining shakllanishida katta o'rin tutadi.

Huquqiy mafkura va huquqiy psixologiya, huquqiy ongning turli elementlari sifatida o'zaro bog'liq va bir-biridan kelib chiquvchi hodisalardir. Shu bilan birga, ular ancha farqlanadilar. Ular orasidagi asosiy farq ijtimoiy borliq va obyektiv huquqiy muhitni turlicha ijtimoiy vositalar: birinchisi – g'oyalar, nazariyalar yordamida, ikkinchisi – ruhiy his tuyg'ular yordamida aks ettirishidagina emas, mazkur aks etishning turlicha darjasasi va usulidadir. Agar, ijtimoiy

<sup>19</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиснинг ахборотномаси. 1997. № 9.

borliqning huquqiy mafkurada aks etishi ilmiy-nazariy idrok, nazariy bilimlar va qonunchilik, huquq-tartibot, qonuniylik va boshqa huquqiy holatlarni baholash darajasida kechsa, u holda bunday in'ikos huquqiy psixologiyada, dastavval oddiy, kundalik turmush idroki darajasida kechadi. Shuning uchun ham huquqiy ong tuzilishidagi boshqaruvchi element huquqiy g'oyalar majmuasi hisoblanadi.

Biz ko'rayotgan yo'nalishda, huquqiy mafkura huquqiy tizim rivojini tavsiflovchi, ichki birlikka ega bo'lган ilmiy qarashlar, g'oyalar, nazariya va ta'limotlar sifatida qaraladi.

Huquqiy psixologiya esa his, tuyg'u, kayfiyat va boshqa huquq psixologiyasi tarkibiy qismining yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi. Ular ijtimoiy hayotning turli huquqiy jihatlarini aks ettiradi. Huquqiy ongning bu ikki tarkibiy qismi o'zaro bog'liq va bir-birini doimo to'ldiradi.

Huquqiy ong tuzilmasini sotsiologik taxlil qilish undagi uch tarkibiy qismni ajratib ko'rsatish imkoniyatini beradi – **bilish, baholash va amaliy huquqiy ong**.

### **Huquqiy ongning vazifalari, funksiyalari, turlari va tuzilishi**

Huquqshunos-olimlar huquqiy ong funksiyalari masalasini ham qarab chiqadilar va huquqiy ongning quyidagi funksiyalarini ko'rsatadilar: gnoseologik, boshqaruv va huquqiy shakllantirish funksiyalari.

**Gnoseologik funksiya** obyektiv borliqdagi mavjud huquqiy holatlarni bilishni tavsif etadi. Boshqaruv – o'z fe'l-atvorini huquq talablari bilan qiyoslash vositasida o'z xatti-harakatlarini o'zgartirishdir. **Shakllantirish funksiyasi** – o'z xulqini, hatti-harakatlarini shakllantirishdan iborat bo'lib, u juda zarur. Ayrim mualliflar huquqiy harakatlar orasidan huquqiy ongning bilish, baholash va boshqaruv funksiyalarini ajratib ko'rsatadilar.

Huquqiy ongning bilish vazifasi ketma-ket paydo bo'luvchi ruhiy hodisalardan tuzilgan: birinchidan, u asosan sezish, eshitish va ko'rishdan tug'iladi; ikkinchidan, qabul qilish, xotira, esda saqlash, xotiradagilarni qayta tiklash, tanish jarayonlari vositasida huquqqa oid bilimlarni to'playdi va ularni har hil huquqiy tasavvurlar ko'rinishida ifoda etadi; uchinchidan, tafakkur, oliy darajadagi bilish jarayoni hisoblanib, huquqiy g'oyalar, tushuncha va e'tiqodlar shuning mahsulidir.

Huquqiy ongning o'zini boshqarish funksiyasi inson mo'ljallarini oqilona ro'yobga chiqarish huquqiy ongning amaliy tomoni hisoblanib, u iroda orqali amalga oshiriladi. U huquqiy bilimlarni aniqlash, ichki tuyg'ular bilan mavjud huquqiy e'tiqodlar, mavjud obyektiv borliq, jamiyatda amal qilinayotgan huquqiy normalarni muvofiqlashtirish, maqsadni aniqlash, qaror qabul qilish va qarorni ijro etish kabilarni o'z ichiga oladi.

Huquqiy onga tushayotgan huquqiy axborotlarni "qayta ishslash" va o'zlashtirishda inson fe'l-atvorini boshqaruvchi murakkab mexanizmlar muhim o'rinni egallaydi, u o'ziga manfaatni anglash, maqsadni aniqlash, asoslar tizimi va xohishni namoyon etish kabi holatlarni oladi.

### **Huquqiy ongning turlari**

Huquqiy ong o'rab turgan huquqiy muhitni oynadagidek, to'g'ridan-to'g'ri aks ettirmaydi, uni o'ziga xos "ijtimoiy-biologik filtr" - inson shaxsiyatining murakkabliklari vositasida namoyon etadi. U uch tarkibiy qismdan tashkil topgan: birinchisi, shaxsning butun ruhiy katlamlarining o'ziga xosligi; ikkinchisi, insonning hayotiy tajribalari; uchinchisi, odamning bevosita aloqa muhiti.

Xuquqiy ong - murakkab ijtimoiy hodisadir. Subyektlar nazarda tutilganda (ya'ni, uning ifodachilari) huquqiy ong **ijtimoiy** (ommaviy, umumijtimoiy), **guruhiy** va **shaxsiy** turlarga bo'linadi. Ijtimoiy darajasi tomonidan qaralganda, huquqiy ong, odatda **kundalik oddiy**, **ilmiy** va **kasbiy** turlarga bo'linadi.

Kundalik oddiy huquqiy ong, asosan odamlarning bevosita hayotiy sharoitlari, ularning shaxsiy tajribalari ta'sirida shakllanadi. Bunda ruhiy elementlar (his-tuyg'ular) asosiyl o'rinni egallaydi. Ilmiy huquqiy ong keng va chuqur huquqiy umumlashmalar asosida shakllanadi. Kasbiy huquqiy ong - bu yuristlar huquqiy ongidir, ya'ni maxsus umumta'lim yoki amaliy tayyorgarlikka ega bo'lган odamlar uyushmasiga oid. Huquqiy ongning bunday xilma-xilliklari shu bilan farqlanadiki, uning ichki ruhiy elementlari huquqiy normalarni amalda bilish va uni qo'llay olish qobiliyati, malakasi bilan chambarchas bog'likdir.

Yuridik soha xodimlari huquqiy ongning xilma-xilliklaridan biri sifatida, ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy huquqiy ongini ko'rsatadilar. Bu huquqiy bilimlar, qarashlar, tasavvur, ko'rsatmalar, hissiyotlar va boshqa ichki kechinmalar tizimi bo'lib, ular jamoat tartibini saqlash, jinoyat va boshqa huquqbazarliklarning oldini olish, ochish, fuqarolar, korxonalar va tashkilotlar mulkini, huquq, erkinliklari va boshqa qonuniy manfaatlarini, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash, yong'in xavfidan saqlash, hukm qilinganlarni tuzatish va qayta tarbiyalash orqali himoya qilish vazifasi bilan shug'ullanadigan kasb egalariga xosdir.

**Huquqiy ongning tuzilishi.** Ma'lumki, huquqiy ong ikki tarkibiy qismidan, ya'ni huquqiy mafkura va huquqiy psixologiyadan iborat. Huquqiy mafkura huquqning mohiyati, ahamiyati va talablari to'g'risidagi g'oyalar, qadriyatlarni o'z ichiga olsa, huquqiy ruhiyat hissiyotlar, kayfiyatlar, kechinmalar, ya'ni huquqning emotsiyonal qabul qilinishi bilan bog'liq.

Ijtimoiy huquqiy ongdagi ushbu ikki tarkibiy qismning holatini tahlil qilsak, ularning rivojlanganlik darajasi bir xil emasligini ko'ramiz. Agar huquqiy mafkura jamiyatda demokratik davlatga xos bo'lgan g'oyalar va qadriyatlar muayyan darajada shakllanganligi bilan belgilansa, huquqiy ruhiyat infantillikka mutballo bo'lib, unda huquqqa nisbatan befarqliq va mensimaslik saqlanib qolgan.

Kriminologiya sohasidagi tadqiqotlar jamiyatning huquqiy ruhiyatida jiddiy kamchiliklar borligidan dalolat bermoqda. Masalan, jinoyatlarning ayrim turlari bo'yicha yuqori darajadagi latentlik (yashirinlik) saqlanib qolmoqda. Mutaxassislarning ma'lumotlariga qaraganda, sodir etilgan har bir jinoyatdan o'rtacha 5 - 7 kishi xabardor bo'ladi. Agar ushbu raqamni jinoyatlar miqdoriga ko'paytirsak, kishini quvontirmaydigan manzaraga duch kelamiz: **minglab kishilar jinoyatga tayyorgarlik ko'rileyotganligini va ular sodir etileyotganligini bilganlari holda ularni befarq tomosha qilganlar.**

Jamiyat rivojidagi yangi ijtimoiy-iqtisodiy voqealar kundalik huquqiy ongning buzilishi sabablari va shart-sharoitlarini (huquqqa nisbatan salbiy va iste'molchilik munosabatlari, shaxsning huquqqa xilof yo'naliishlarining motivlari, jamiyatga qarshi xatti-harakat stereotiplarining shakllanishini) aniqlashning zarurligini taqozo etadi. Mazkur vazifani bajarish fanning, birinchi navbatda, huquqshunoslikning eng muhim maqsadidir. Bizningcha, ushbu hodisalarning hammasini totalitar tuzum merosiga taalluqli deb hisoblash mumkin emas, buzilgan huquqiy ong manbalarini obyektiv voqelikdan qidirish zarur.

Bayon etilganlarga qisqacha xulosa qilib aytish mumkinki, aholining huquqiy ongi huquqiy psixologiyaning davlat tashviq qilayotgan huquqiy mafkuradan keskin orqada qolayotganligi, huquqiy davlatga xos bo'lgan huquqiy g'oyalar va prinsiplarning kundalik ong huquqiy nigelizmidan keskin farq qilishi bilan ajralib turadi. Huquqiy ongdagi bunday ahvolning sabablari huquqiy tizim doirasi bilan cheklanib qolmaydi, balki iqtisodiy, ijtimoiy hamda boshqa obyektiv va subyektiv omillar bilan belgilanadi. Biroq huquqiy ong o'zgarmay qolmaydi, u huquq va davlatning o'zgarishi bilan takomillashib boradi.

Huquqiy davlatdagagi jamiyat va shaxs huquqiy ongining muhim jihatni, bizningcha, qonunga hurmat, uning qadrini shaxs qadriyatlarining eng yuqori darajasiga ko'tarishdan iborat. Huquqqa, qonunga hurmatni oddiy qonunga itoatkorlik deb tasavvur etib bo'lmaydi, u yuqori darajadagi huquqiy faollikni talab etadi.

Aynan huquqiy faollik, ya'ni shaxsning ijtimoiy faol ijobiy xatti-harakati uning huquqiy ongining, qonunga hurmatining darajasini bildiruvchi muhim ko'rsatkichdir.

Qonunga hurmat qonundan, uning odilligidan qoniqish hissiga, shuningdek, o'z xatti-harakatlarini huquq prinsiplari va normalariga ixtiyoriy ravishda bo'ysundirishga asoslangan axloqiy-huquqiy kategoriyadir. Boshqacha aytganda, shaxs huquqiy majburiyatlarni anglangan burch sifatida, huquq va majburiyatlarini birligi prinsipining timsoli sifatida qabul qiladi.

Kriminologiyadagi tadqiqotlar huquqbazarlik sodir etilishi uchun muayyan huquqiy normalarini bilish yoki bilmaslikning hal qiluvchi ahamiyati yo'qligidan dalolat bermoqda.

Jamiyat huquqiy ongini baholashda jamoatchilik fikrini o'rganish katta yordam beradi. Afsuski, respublikamizda huquq masalalari bo'yicha jamoatchilik fikrining monitoringi amalda o'tkazilmaydi, holbuki sotsiologik tadqiqotlarning ma'lumotlari butun jamiyatdagisi hamda ayrim

ijtimoiy guruhlardagi huquqiy ongning manzarasini aniqlashtirishga yordam bergan bo‘lardi. Shaxs huquqiy ongidagi ijobiy motivlar va manfaatlarga alohida e’tibor berish kerak.

### **3. Huquqiy tarbiya tushunchasi va vazifalari**

Fuqarolar tarbiyasi hamma tomonlarni qamrab oluvchi yagona tizim doirasida olib boriladi. Agar ularni alohida tarkibiy qismlarga ajratilsa, turli xil, nisbiy mustaqil tarbiya ko‘rinishlarini aniqlash mumkin: siyosiy, huquqiy, ma’naviy, axloqiy, mehnat, estetik va shu kabilar. Bu alohida tarbiyaviy jarayonlardan har biri tarbiyaning shakllari, vositalari, uslub va prinsiplari qo‘llanishining o‘ziga xosligidan kelib chiqadigan bir qator xususiyatlariga ega. Barcha tarbiya ko‘rinishlari uchun umumiylig –tarbiyaning markazida inson turganligi bo‘lsa, ularning har biri uchun o‘ziga xos xususiyat-tarbiya usullarining turlichaligidir. Tarbiya jarayonlarining turlichaligini farqlashda qo‘llaniladigan boshqa muhim mezonlardan biri - ong shakllarining turlicha ekanligi. Chunki alohida olingan tarbiya jarayonlarining har qaysisi, inson ongining hamma tomonlarini emas, faqat uning ayrim ko‘rinishlarini qamrab oladi. Masalan, siyosiy tarbiya siyosiy ongni; ma’naviy tarbiya ma’naviy ongni; estetik tarbiya estetik ongni va h.k. Xuquqiy tarbiya, ongning o‘ziga xos ko‘rinishi bo‘lgan huquqiy ong bilan bog‘liq.

Huquqiy tarbiya – fuqarolarga huquqiy bilimni singdiruvchi muhim ijtimoiy vositadir. Ammo bu bilimlarni hosil qilish, ko‘p hollarda, maxsus uyushtirilgan ongli tarbiyaviy jarayonlardan tashqari, ijtimoiy borliqning turli obyektiv omillari ta’sirida yuz beradi. Shu sababli shaxsni "huquqiy tarbiya"lash va uni "huquqiy shakllantirish" tushunchalari orasidagi farqni ko‘rish kerak.

*Huquqiy tarbiya – shaxslar va ijtimoiy guruxlarning huquqiy ongiga ko‘rsatiladigan, aniq maqsadga yo‘naltirilgan, tashkillashtirilgan, boshqariladigan, oldindan rejalashtirilgan va maxsus ishlab chiqilgan huquqiy tarbiya usullari vositasida amalga oshiriladigan pedagogik ta’sir jarayonidir.*

Huquqiy shakllantirish tushunchasi ancha keng va qamrovlidir. Unga huquqiy tarbiya jarayonining o‘zi va shu bilan birga, obyektiv hayotda mavjud bo‘lgan, jamiyat hayotining hamma sohalariga kirib boruvchi ko‘p hollarda boshqarib bo‘lmaydigan, uyushtirilmagan, mo‘ljallanmagan ommaviy jarayonlarning odamlar huquqiy tarbiyasiga ta’sirlari ham kiradi.

Bizningcha, huquqning tarbiyaviy rolini ajratib ko‘rsatadigan, uni huquqiy tartibga solishdan ajratib qaraydigan mualliflar haqdirlar, chunki huquqiy tartibga solishning obyekti – asosan, odamlar fe’l-atvorining iroda safarbarligi vositasida qilingan xatti-harakatlari hisoblanadi. Huquqning tarbiyaviy funksiyasi obyekti – birinchi navbatda odam fe’l-atvori emas, uning ongi-fikrlari, tasavvurlari, his-tuyg‘ulari hisoblanadi.

Bu huquqiy tartibga solish inson ongiga hech qanday ta’sir o‘tkazmaydi, degani emas, albatta. Bunday tarbiyaviy ta’sir huquqiy tartibga solish jarayonida o‘tkaziladi, ammo u inson fe’l-atvori, uning qilmishlariga nisbatan ikkinchi darajalidir.

Demak, huquqiy tarbiya – fuqarolarning ongi va ruhiyatiga ta’sir qilishga qaratilgan, rejalashtirilgan, boshqariladigan, uyuştirilgan, tizimli, maqsadga yo‘naltirilgan, hozirgi zamon huquqshunosligi tasarrufida mavjud bo‘lgan turli xil huquqiy tarbiya shakllari, vositalari va uslublaridan foydalanib, fuqarolar ongida chuqur va barqaror huquqiy bilimlar, e’tiqodlar, ehtiyojlar, qadriyatlar, qonunga mos fe’l-atvor, odatlarni shakllantirish jarayonidir.

### **Huquqiy tarbiyaning vazifalari**

Huquqiy tarbiya, ikki asosiy vazifani bajaradi. **Birinchisi** – tarbiyalanuvchilarga (shaxslar, ijtimoiy guruhlar) ma’lum miqdordagi huquqiy bilimlar, ko‘nikmalar va malakalarining berilishi; **ikkinchisi** – tarbiyalanuvchilarda huquqiy g‘oyalar, hissiyotlar, e’tiqodlarni shakllantirishdir.

Fuqarolar huquqiy tarbiyasida, bizningcha, mana shu funksional xarakteristikadan kelib chiqmoq, "mohiyat" va "mazmun" tushunchalarini farqlab, ish yuritmoq lozim. "Mohiyat" tushunchasi tarbiyalanuvchilarda muhim huquqiy g‘oyalar va prinsiplarning barpo etilish jarayoni, "mazmun" tushunchasi esa fuqarolar (guruhlar) huquqiy ongiga jamiyat tasarrufida bo‘lgan barcha huquqiy vositalar kompleksini safarbar etib maqsadga yo‘naltirilgan va tizimli ta’sirni o‘z ichiga oladi.

Huquqiy tarbiyaning mazmuniy tomonini e'tiborga olib, huquqiy tarbiya – tarbiyalanuvchilar huquqiy ongiga sistemali, maqsadga yo'naltirilgan ta'sir jarayoni ekanligi; tarbiyachining tarbiyalanuvchilarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni kerakli darajada hosil qilish uchun maqsadga yo'naltirilgan xatti-hatakatlari tizimi ekanligi o'rtasidagi farqni ajrata bilish lozim.

Mana shu asosiy vazifalardan kelib chiqib, fikrimizcha, huquqiy tarbiyada fuqarolar huquqiy ongini shakllantirishga yo'naltirilgan quyidagilarni e'tiborga olish kerak:

**birinchidan**, asosiy huquqiy ko'rsatmalar tizimini bilish, ularning mazmuni va mohiyatini ilg'ab olish, to'g'ri tushunish;

**ikkinchidan**, huquqni, qonunlarni, qonuniylik va huquq tartibotni chuqur hurmat qilish;

**uchinchidan**, huquqiy bilimlarni amalda mustaqil qo'llay olish, muayyan borliqqa nisbatan shaxsiy munosabat va kundalik fe'l-atvorni hamda o'z amaliy faoliyatini jamg'arilgan va olinayotgan huquqiy bilimlar bilan mos-lashtirish;

**to'rtinchidan**, o'z odatlarini olingan huquqiy bilimlar bilan aniq moslashtirish;

**beshinchidan**, huquqiy normalarni har qanday buzilishlarga nisbatan mustahkam va barqaror ma'naviy huquqiy ko'nikma hosil qilish.

Bu yig'indiga kiruvchi huquqiy ongning tarkibiy qismlari shaxsga nisbatan kerakli psixologik va mafkuraviy yo'l-yo'riqlarni tashkil qiladi, uning o'z huquqiy bilimlarini turmushda faol tatbiq qila olishga imkoniyat yaratadi. Mana shu tayyorgarlik darajasi huquqiy tarbiya ishlarining samarali jarayoni vositasida fuqarolar huquqiy ongiga majburiy xususiyatga ega bo'lgan g'oyalar olib kiradi. Shundan kelib chiqib, huquqiy tarbiya jarayonining quyidagi bosh xususiyatlarini belgilash mumkin:

**birinchisi**, hamma uchun majburiy huquqiy normalar tizimi uning boshlang'ich asosi hisoblanadi;

**ikkinchisi**, u amalga oshirilayotganda tarbiyalanuvchilar huquqiy ongiga davlat tomonidan o'rnatilgan, ularning fe'l-atvoriga taalluqli huquqiy yo'l-yo'riqlar, ruxsatlar, man qilishlar singidiriladi;

**uchinchisi**, huquqiy tarbiya zarur hollarda davlat tomonidan huquqbazarlarga nisbatan kuch ishlatalish kafolatiga tayanadi;

**to'rtinchisi**, uning ta'sir doirasasi nafaqat huquq normalariga rioya qiluvchi odamlarni, shuningdek, huquqbazarlikka moyil yoki huquqbazarlik sodir etgan shaxslarni ham kamrab oladi va bu ma'lum darajada huquqbazarlikning oldini olish masalasini yechishga xizmat qiladi;

**beshinchisi**, u maxsus huquqiy tarbiyaviy shakllarda, maxsus huquqiy vosita va uslublar yordamida amalga oshiriladi;

**oltinchisi**, uni amalga oshiruvchi shaxslar, odatda, yuridik ma'lumotga ega yoki maxsus yuridik tayyorgarlikni o'tagan bo'lishadi.

### **Huquqiy madaniyat tushunchasi va tarkibiy tuzilishi**

Madaniyatning umumiyligi ta'rifiga nazar tashlasak, bugungi kunda ijtimoiy fanlar doirasida "madaniyat" tushunchasi kabi turli-tuman, qarama-qarshi talqin va fikrlarga boy bo'lgan boshqa ijtimoiy hodisani topish qiyin.

Misol tariqasida shuni keltirish mumkinki, chet ellik olimlarning hisob-kitoblariga qaraganda, 1919 yilga qadar "madaniyat" tushunchasiga yettita ta'rif berilgan, 1950 yilga kelib bu son 164 taga, 1970 yillarda esa - 250 taga yetgan<sup>20</sup>. Amerikalik olimlar A. Kreber va K.Klakxonlar esa 1950 yillarning boshida "madaniyat" tushunchasining 257 ta ta'rifi mavjudligini ta'kidlaganlar<sup>21</sup>.

Ijtimoiy fanlar miqyosida madaniyatga oid yondashuvlarni uch guruhga bo'lish mumkin:

- 1) antropologik yondashuv;
- 2) sotsiologik yondashuv;

<sup>20</sup> Карапанг: **Fischer Hugo**. Theori der Kultur. Das kulturelle Kraftsteld. Stuttgart, 1965; **Боль А.** Социология культуры. М., 1973.

<sup>21</sup> **Kroeber A, Kluchonu C.** Culture // Anaeitical Review of Concepts and Debinifions. Cambridge. Mass., 1952.

3) falsafiy yondashuv<sup>22</sup>.

*Antropologik yondashuvda* madaniyat tabiat yaratgan narsalardan farqli ravishda, inson tomonidan yaratilgan ne'matlarning yig'indisi deb tushuniladi. *Sotsiologik yondashuv* esa madaniyatni ma'naviy qadriyat deb talqin etadi. Bu yerda madaniyat ijtimoiy hayotning tarkibiy qismi sifatida qatnashadi. *Falsafiy yondashishda* madaniy hodisalar ijtimoiy rivojlanishga bog'liq bo'lмаган, sof tahliliy holda ajratilib ko'rsatiladi.

Antropologik yondashishning ijobiy tomoni uning keng ko'lamliligi hisoblanadi. Chunki madaniyat ijtimoiy hayotning hilma-xil tomonlari va doiralarining namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Uning afzalligi hozir juda keng tarqalgan tor amaliyat va ko'p hollarda «madaniy» va «huquqiy madaniyat» ni vaziyatga qarab ishlatish hollari bilan taqqoslaganda yanada ravshanroq ko'rindi. Biroq, keng ko'lamli yondashish jiddiy kamchiliklardan ham xoli emas.

U inson faoliyati natijalarining obyektiv holatini yuzaki, umumiy aniqlashga mo'ljallangan. Bundan tashqari, ushbu natijalarni qadriyatlar sifatida tavsiflaganda, antropologik yondashuv qadriyatlarga nimalar kirishini belgilaydigan mezonlarni aniqlab bermaydi. Bu fikrlar bilan huquqiy qadriyatlarni ajratish mumkin emas, chunki huquqiy qadriyatlarsiz huquqiy madaniyatni tushunib bo'lmaydi.

Madaniyat haqidagi tasavvurlarning rivojlanish jarayonida ijobiy rol o'ynaydigan, ushbu ijtimoiy hodisaning tahlili ikkita boshqa usul bilan to'ldirilishi lozim. Ulardan birinchisi, madaniyatning ijobiy faoliyat jarayonini anglashda namoyon bo'lsa, ikkinchisi, inson faoliyatining o'ziga xos usulidir.

Birinchi usulda, madaniyat insonning takomillashish, amal qilish va ma'naviy ishlab chiqarish jarayoni orqali tahlil qilinadi. Ikkinci fikr vakillari madaniyatning umumiy modelini ijtimoiy hayotning universal xususiyati sifatida qarashni taklif etadilar.

Madaniyatni shaxs rejasi sifatida qarash, nazarimizda, zamonaviy huquqiy madaniyatshunoslikning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi va shaxsning huquqiy madaniyati muammolarini tadqiq etishni rag'batlantiradi.

Huquqiy madaniyat nazariyasini o'rganishda umummilliyl boshlang'ich talablarni tahlil qilib, huquqiy madaniyatni aksiologik tahlilsiz tasavvur etish, huquqiy madaniyatni to'g'ri anglash mumkin emas. Huquqiy madaniyat sohasiga tegishli voqealarini ajratib, tanlab olingandan keyin, ushbu voqealarga amal qilish va takomillashtirish qonuniyatlarini bilishda, albatta aksiologik tahlil kerak. Faqat uning yordamida huquqiy madaniyatning har bir voqeasiga xolis baho berish, uning ijtimoiy-tarixiy ahamiyatini aniqlash mumkin. Huquqiy madaniyat nazariyasini shakllantirish tamoyillarini hisobga olish zarur.

*Shuni alohida ta'kidlash joizki, davlat va huquq nazariyasi doirasida mustaqil ilmiy yo'nalish bo'lgan huquqiy madaniyatshunoslik yoki, boshqacha so'z bilan aytganda, huquqiy madaniyat nazariyasi shakllandit.*

Huquqiy madaniyat nazariyasining hayotiyligi va kuchi shundaki, u inson huquqiy tafakkurini shakllantirishning muhim vositasi va natijasi sifatida namoyon bo'ladi.

*Huquqiy madaniyat jamiyat va shaxsning huquqiy holati timsolda qabul qilinishi mumkin bo'lgan alohida ijtimoiy hodisadir.* Huquqiy madaniyat nazariyasiga oid barcha muammolar atroflicha o'rganilishi zarur. Shu bilan birga, har bir muayyan holatlarda madaniyatning turlichayko'rinishlarini tushunishda qat'iy belgilanadigan u yoki bu jihatni ustun bo'ladi. Chunonchi, huquqiy hayotda, ma'rifatparvarlikning shakllanishini ta'minlashda, inson omilini oshirish nuqtai nazaridan yondashilganda, avvalambor, huquqiy madaniyatning mazmuniga e'tibor qaratish zarurligi namoyon bo'ladi.

### **Huquqiy madaniyatning tarkibiy tuzilishi**

Huquqiy madaniyatning tuzilishini, mohiyatini o'rganish uchun, uning adolatli fuqarolik jamiyatni va demokratik huquqiy davlat qurishda tutgan o'rni va vazifasini aniqlab olish kerak. Bunda uning elementlarini sanab o'tish va umumiyl tavsifi bilan cheklanib qolmasdan, ushbu

<sup>22</sup> Карапнг: Сальников В.П. Социалистическая правовая культура. Саратов, 1989. С.5-12.

elementlarning o‘zaro munosabatlarini, ularning yaxlitligini, uzbeki birligini ko‘rsatish lozim. Ular orasidan asosiy elementlar va ikkinchi darajali elementlarni ajratib ko‘rsatish talab qilinadi.

Huquqiy voqelikning turli jihatlari huquqiy madaniyatning tarkibiy qismlari hisoblanadi.

birinchidan, yuridik normalar tizimi bo‘lmish huquq;

ikkinchidan, huquqiy munosabatlar, ya’ni qonun bilan tartibga solingan ijtimoiy munosabatlar tizimi;

uchinchidan, huquqni muhofaza qilish va ta’minalash faoliyati bilan shug‘ullanuvchi davlat va jamiyat institutlari tizimi bo‘lmish yuridik muassasalar;

to‘rtinchidan, huquqiy ong, ya’ni huquqiy voqelikni ma’naviy jihatdan aks ettiruvchi tizim; beshinchidan, huquqiy xatti-harakat (ham qonuniy, ham qonunga xilof).

Ko‘rib turganimizdek, huquqiy madaniyat ijtimoiy ong va ijtimoiy amaliyotning ko‘p qirrali holatidir. U jamiyatni tavsiylovchi barcha huquqiy jihatlarning sintezidir.

Jamiyatning huquqiy madaniyatini tashkil etuvchi elementlar bir vaqtning o‘zida boshqa xil tuzilmalarga ham kiradi. Bundan tashqari, huquqiy madaniyat elementlari bir necha tizimlarning tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Huquqiy madaniyatning tuzilishini tahlil etganda, asosiy e’tiborni uning tabiatiga qaratish kerak. Agar kishilik faoliyati shakllarining huquqiy madaniyatda tutgan o‘rnini aniqlashga harakat qilinsa, avvalambor, ikkita sohani nazarda tutish kerak: *birinchidan*, bevosita huquqiy sohadagi faoliyat; *ikkinchidan*, huquqiy bo‘lmagan, lekin huquq amal qiladigan soha bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat. Birinchisini tushunishda g‘oyatda an’anaviy bo‘lmagan yo‘nalishlar namoyon bo‘lsa-da, alohida qiyinchiliklar uchramaydi. Ikkinchisining mazmunini ishlov berish, ya’ni badiiy shaklda bo‘lgan huquqiy g‘oyalarni, qarashlarni, baholarni, hissiyotlarini va hokazolarni aks ettiradigan qandaydir asarlar tashkil etadi. Bu faoliyat bevosita huquqiy madaniyatga kirmaydi, lekin o‘z g‘oyaviy mazmuni jihatidan unga singib ketadi. Shunday qilib, radio, televide niye, adabiyot, tasviriy san’at, kino, jurnalistika o‘zicha huquqiy madaniyatga kirmaydi, lekin doimiy ravishda uni to‘ldirib boradi.

Huquqiy madaniyatning yuqorida ta’kidlangan elementlari uning mazmuniga to‘la mos kelmaydi. Ammo ular jamiyatning huquqiy madaniyati darajasini ifodalaydi. Uning mazmuni esa faqat huquqiy ong, huquq, qonuniylik kabilarnigina emas, balki uning rivojlanish darajasini, miqdorini, ya’ni sivilizatsiyaning, ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi bosqichi nimalarni bersa, hammasini qamrab oladi.

### Shaxsning huquqiy madaniyati

Shaxs huquqiy madaniyatining tuzilishi juda xilma-xildir. Bu yerda huquq madaniyatining yo‘nalishi uning ijtimoiylashuvi darjasasi, mazmuni va boshqalar nazarda tutilmoxda.

Shaxs huquqiy madaniyati uch xil holatda namoyon bo‘ladi: 1) huquq madaniyatini tushunishda; 2) ijodiy faoliyati amalga oshirishda; 3) bu tushunchaning amalga oshirish natijalarida shaxs huquqiy madaniyati individning maxsus rivojlanish darjasasi sifatida avvalo uning tayyorgarligi.

Huquqiy madaniyatning kasb bilan bog‘liq darjasasi maxsus huquqiy faoliyat bilan shug‘ullanadigan shaxslarda, jumladan yuristlarda vujudga keladi. Kundalik hayotda huquqiy voqealarga uzlusiz ravishda duch kelish ularda huquqiy madaniyatning kasbiy xususiyatlarini vujudga keltiradi.

Huquqiy tushunchalar va kategoriylar shaxs huquqiy madaniyatining muhim tomonini tashkil qiladi, erishilgan bilimlar darjasasi va huquqiy holatlarini tushunishni aks ettiradi. Shu nuqtai nazardan, huquqiy madaniyat mazmunan bilimning xolis, muayyan to‘plamidan iborat. Huquqiy tushuncha, shaxs huquqiy madaniyati baholovchi tomonining shakllanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Baholovchi tomoni, huquqiy madaniyatning uzbeki tomoni bo‘lib, progressiv huquqiy normalar qo‘llanishini ta’minalaydigan, huquqiy boshqarishdagi o‘rnini tushunishga yordam beribgina qolmasdan, balki eskirib qolgan regulyatorlarni almashtirishga yordam beradi, yangi g‘oyaviy – nazariy darjasasi va yuqori yuridik – texnik darjasasi o‘zaro muvofiq bo‘lgan huquqiy madaniyatning shakllanishiga imkoniyat yaratadi.

Shaxs huquqiy madaniyatining mazmunidan kelib chiqib, yaxlit ko'rib chiqilishi lozim bo'lgan elementlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Huquqiy doirada uch guruh g'oyaviy-nazariy, huquqiy, tasavvur, ijobji-huquqiy tuyg'u va shaxsning ijodiy faoliyati. Yuqoridagilardan birinchisi harakatdagi yoki istalgan huquq va bilim, huquqiy holatga, huquqiy hayotga nisbatan qarashlar to'plamini tashkil qiladi. Nazariy, tizimli aks ettirishda huquqiy tasavvur, huquqiy madaniyatning yetakchi tomonini ifodalovchi, huquqiy nazariyani tashkil qiladi.

Huquqiy madaniyatning mazmuni shaxs huquqiy madaniyati modelini belgilaydi. Bunday model quyidagicha tavsiflanadi:

*birinchidan*, shaxsning haqiqatan huquqiy yoki huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan xulqi;

*ikkinchidan*, uning huquqqa va boshqa huquqiy holatlarga munosabati, huquq va inson huquqini hurmat bilan tan olish;

*uchinchidan*, huquqiy xatti-harakatga odatlanish;

*to'rtinchidan*, fuqarolik-huquqiy faollik.

*Shaxsning huquqiy madaniyati jamiyat huquqiy madaniyatining uzviy tarkibiy qismidir.*

Bu faoliyat huquq sohasida jamiyat taraqqiyotiga va uning madaniyatiga mos keladi, natijada shaxsning va jamiyatning doimiy huquqiy boyishi sodir bo'ladi. Shubhasiz, shaxsning yuksak huquqiy madaniyati jamiyat taraqqiyotini ta'minlaydi. U insonning bilimdonligi bilan yaqindan uyg'unlashib ketadi. Shaxs huquqiy ongingin shuningdek, huquqiy tarbiyaning ham umumiy va o'ziga xos jihatlari mavjud.

*Shaxsning huquqiy madaniyati - jamiyat huquqiy madaniyatining zaruriy shart-sharoiti va tarkibiy qismidir.* Shu bilan birga, huquqiy madaniyat shaxsning huquqiy rivojlanishiga xizmat qiladi. U jamiyat huquqiy holatining muayyan darajasiga bog'liq. Shaxsning huquqiy madaniyati jamiyatning progressiv yutuqlariga mos keluvchi ijodiy faoliyatni tashkil etadi. Natijada shaxsning doimiy huquqiy boyishi ro'y beradi.

Shunday qilib, shaxsning va jamiyatning huquqiy madaniyati umuminsoniy qadriyatlar tushunchalarining va insoniyat umumdemokratik yutuqlarining muhim natijasidir. *Huquqiy madaniyat - huquqiy davlatning ajralmas qismidir.*

### **Huquqiy madaniyatning funksiyalari**

Huquqiy madaniyat bir necha maxsus funksiyalarni bajaradi. Bu funksiyalar quyidagilardan iborat:

- regulativ (tartibga soluvchi) funksiya;
- normativ funksiya;
- sotsiologik (ijtimoiy) huquqiy funksiya;
- kommunikativ (aloqlar o'rnatish) funksiya;
- prognoz (bashoratlash) funksiysi.

*Huquqiy madaniyatning regulativ funksiyasi* demokratik huquqiy davlatni shakllantirishni va adolatli fuqarolik jamiyatini vujudga keltirishni ta'minlovchi nazariy va tashkiliy faoliyat bilan bog'liq. Bu funksiya umumiy va shaxsiy manfaatlarni, insoniyat ijtimoiy rivojlanishining markaziga qo'yish, shaxsning har tomonlama kamol topishi uchun muhit yaratish, unga ziar mehnat va hayot sharoitini yaratish, siyosiy erkinligini ta'minlashga yordam beradi. Bu funksiya umuminsoniy ahamiyatga ega bo'lgan huquqiy va ma'naviy kafolatlarni, ya'ni rostgo'ylik, insof, diyonat, ezgulik, shafqat, vijdon, insoniy qadr-qimmat va tanlov erkinligini qamrab oladi.

Huquqiy madaniyatning regulativ funksiyasi huquqiy tizimning barcha elementlari barqaror va batartib harakatlanishini ta'minlaydi.

Huquqiy madaniyat yaxlit huquqiy ong va borliqning tarkibiy qismi. U butun insoniy borliqni aks ettiradi, unga faol qayta ta'sirni shakllantiradi. Unga xos qadriyatlar, huquqiy normalar, tamoyillar va hulq-atvor namunalari fuqarolar, ijtimoiy qatlamlar va guruhlar birdamligiga, ular kuchini huquqiy davlatni vujudga keltirishga yo'naltirishga, to'plashga yordam beradi.

Huquqiy madaniyat odamlarning ijtimoiy birlashuvini ta'minlashi mumkin. U fuqarolarga o'zaro huquqiy muloqotga kirishishga imkoniyat yaratib beradi, ularning o'zaro munosabatlarini boshqaradi. *Huquqiy madaniyatning regulativ funksiyasi huquqiy va boshqa sotsial normalar orqali amalga oshadi.* Ushbu funksiya sharofati bilan, huquqiy madaniyat odamlarni faoliyatda

belgilangan qoidalarga, sotsial intilish va ideallari, ehtiyojlari va manfaatlarining huquqiy munosabatlarda o‘zaro huquq va majburiyatlarining amalga oshuvini ta’minlaydi, bu munosabatlarni yo‘lga qo‘yishga yordam beradi.

**Huquqiy madaniyatning normativ funksiyasi** aksiologik (baholovchi) tavsiflar tizimi yordamida aks ettiriladi. U turli hodisa va faktlarda, ma’lum bir ahamiyat kasb etgan ongli shaxslar harakatida o‘z aksini topadi. Shundan kelib chiqqan holda, huquqiy normalar boshqa jamiyatning huquqiy madaniyatini tashkil qiluvchi elementlarni baholovchi obyekt sifatida maydonga keladi.

**Huquqiy madaniyatning normativ funksiyasi huquq normalarida nazarda tutilgan harakat namunalariga mos holda atrof huquqiy voqelikni o‘zgartirishga erishilgan natijaga nisbatan munosabatda o‘z aksini topadi.** Huquqiy madaniyatdagи baholovchi faoliyat shaxs, huquq xizmatchilari jamiyatni, qonunchilik, huquqiy tartib-intizom, huquqiy munosabatlar, huquqiy boshqaruv mexanizmi (tegishli huquqiy ahamiyatga ega bo‘lgan) «o‘lchovidan» tashkil topadi. Huquqiy reallik aniq yuridik holatdan huquqiy tizimgacha keng ko‘lamda baholanadi. Huquqni, aniq huquqiy normalarni, fuqarolar hulq-atvori, huquqni buzishga qarshi kurash olib boruvchi huquqni himoya qiluvchi organlar faoliyatini o‘z ichiga oladi.

**Huquqiy madaniyatning sotsiologik funksiyasi** shaxsning huquqiy sifatlari shakllanishi tizimi orqali o‘rganib chiqilishi mumkin. So‘zsiz, bunday jarayonga huquqiy voqelik ma’lum bir ta’sir o‘tkazadi. Shu bilan birga, maqsadli huquqiy tarbiyaviy ishlarni olib borish, aholining huquqiy ta’limini tashkil qilish chorasini ko‘rish, ularga yuridik yordam ko‘rsatish, shaxsning o‘zini-o‘zi tarbiyalash jarayonini faollashtirish zarur.

**Huquqiy madaniyat kommunikativ funksiyani ham bajaradi.** U fuqarolarning huquqiy doiradagi muloqotini ta’minlar ekan, shu muloqat orqali mavjud bo‘ladi va ta’sir etadi. Bu yerda fuqarolarning faqat huquqiy harakat doirasidagi bevosita muloqoti, shuningdek, bizga shaxsan notanish bo‘lgan, bizdan makon va zamonda ajralib turgan tengdoshlarimiz, o‘tmish avlodlarimiz bilan bevosita «muloqoti» nazarda tutilmoqda. Bunday muloqot yozma yuridik asarlar vositasi bilan ta’minlanadi. Bugungi kunda u ommaviy axborot vositalarining takomillashuvi bilan yanada rivojlanadi. Huquqiy muloqot subyektlararo o‘zaro ta’sir formulasi bo‘lib, huquq doirasida erkin va kamyob mohiyat sifatida maydonga chiqadi.

Bu funksiyani o‘zlashtirish huquqiy madaniy merosga, zamonaviy huquqiy madaniyatning boshqa ko‘rinishlariga nisbatan huquqiy madaniyatni o‘zlashtirishga yordam beradi.

Har bir jamiyatning huquqiy madaniyati boshqa jamiyat huquqiy madaniyatning o‘zaro tasvirisiz muvaffaqiyatlari rivojiana olmaydi. Mamlakatimizning sovetlar davrida madaniyatni cheklashga urinish, jumladan boy tarixiy, huquqiy merosimizdan uzishga intilish va zamonaviy davlatlar madaniy-huquqiy hayoti bilan har qanday aloqani cheklashga urinish qanday achinarli oqibatlarga olib kelgani ma’lum.

Huquqiy madaniyat o‘zida hozirgi va o‘tmish davr huquqiy madaniyatining ilg‘or yutuqlarini to‘plashi lozim.

Huquqiy madaniyatning kommunikativ funksiyasi faqat «bugungi» huquqiy boshqaruv doirasidagina tashkil topib qolmaydi. U huquqiy madaniyatning rivojlanishini rejalashtirish va bashorat qilish, huquqiy madaniyat qurish va uni rivojlantirish uchun zaruriy element sifatida yuzaga keladi.

**Huquqiy madaniyatning prognostik funksiyasi** o‘z ichiga huquq ijodkorligi va huquqni qo‘llashni qamrab oladi, qonunlar va huquq tartibotni mustahkamlashni, fuqarolarning huquqqa mos xatti-harakati, faolligini, butun huquqiy tizim uchun xos bo‘lgan an’analarni o‘z ichiga oladi. Hozirgi vaqtida ilmiy prognozlash va rejalashtirishning elementlari, masalan, qonunchilik faoliyatida kuchayib bormoqda. Chunki qonun hujjatlarini ishlab chiqish va qabul qilishni rejali ravishda amalga oshirish zarur.

Huquqiy madaniyat bashoratlar ehtimoli bo‘lgan o‘ziga xos qadriyatlardan iborat. Bunday hollarda hatto ma’lum darajadagi noaniqlik yetarli asoslangan bashorat qilish imkoniyatini cheklab qo‘yadi.

Huquqiy madaniyatga bevosita aloqador bo‘lgan juda ko‘p qarama-qarshiliklarga duch kelish mumkin. Bularning hammasi, albatta, huquqiy madaniyatga ta’sir qiladi. Shuning uchun huquqiy madaniyatni rivojlantirish bo‘yicha qonunchilik va huquqiy tizimdagagi mavjud ziddiyatlarni bartaraf qilmasdan, shaxsni har tomonlama huquqiy kamol toptirish mumkin emas.

Huquqiy madaniyat sivilizatsiyaning rivojlanishiga, tartibga solinishiga, yaxshilanishiga turki bo‘ladi. ***Huquqiy madaniyat – dinamik holat***. Unda ma’naviy boyliklar nihoyatda muhim o‘rin tutadi. Shaxsniki kabi, jamiyatning huquqiy madaniyati ham ma’naviyiksiz bo‘lishi mumkin emas. Jamiyatimizda umumbashariy qadriyatlarni tiklash yuqori umuminsoniy madaniyatning ajralmas elementini, mamlakatimiz huquqiy madaniyati elementini ham tashkil qiladi.

Huquqiy madaniyat mamlakatimiz ideallariga xizmat qilganligi uchun muhim ahamiyatga ega va unda umuminsoniy ideallar o‘z aksini topgani uchun qadrlidir.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti 1993 yilda Venada o‘tkazgan Inson huquqlari bo‘yicha ikkinchi umumjahon anjumanining qarorlarini bajarish borasida O‘zbekistonda inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar tizimi yaratildi. Bu tizimga inson huquqlari bo‘yicha Oliy Majlis vakili (ombudsmen), Inson huquqlari bo‘yicha milliy markaz, Amaldagi qonunchilik monitoringi instituti, "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik markazi va boshqa o‘quv-ma’rifiy, nodavlat tashkilotlar kiradi. Bu o‘rinda Ichki ishlar vazirligi akademiyasining inson huquqlari nazariyasi va amaliyoti kafedrasi, Toshkent yuridik instituti qoshidagi Inson huquqlari va gumanitar huquqni o‘rganish markazi, Advokatlar va sudyalar uyushmalarini ko‘rsatish mumkin.

Mazkur demokratik institutlar demokratlashtirish jarayonlariga barqarorlik tusini berish va islohotlarning bir zum ham to‘xtab turishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida barpo etilgan. Jamiyatda siyosiy plyuralizm va ko‘ppartiyaviylik qaror topdi. Inson huquqlarini ta’minalash borasida O‘zbekistonning hech bir davlatdan qolishmasligi uchun barcha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Sovet imperiyasi davrida davlat doimo o‘z huquq va manfaatlarini inson va jamiyat manfaatlaridan ustun qo‘yardi. Inson bor-yo‘g‘i ma’muriy-boshqaruv tizimining bir "murvatii" edi, xolos. Eski huquqiy mafkuradan ozod bo‘lish zarur. Bu gap huquqni muhofaza qilish organlarining xodimlariga ham taalluqlidir. Chunki ularning ma’lum qismi o‘scha davr yuridik o‘quv yurtlarida ta’lim olganlar va sovet huquqiy mafkurasi sharoitida tarbiya topganlar. Albatta, ularni bunda ayblab bo‘lmaydi. Biroq ularning yangi huquqiy tafakkur va dunyoqarashining shakllanishidagi sustkashlikka yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi.

Shu boisdan, mamlakatda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minalash, ijtimoiy hayotning barcha sohalarini demokratlashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish va huquqiy davlat asoslarini shakllantirish zaruriyatlaridan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasi "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi"ni qabul qildi. U huquqiy madaniyatni yuksaltirish mexanizmining, aholining huquqiy tarbiyasi va ta’limi tizimini takomillashtirish orqali kishilar huquqiy ongini yuksaltirishning asosiy jihatlarini nazarda tutadi.

Dasturda hozirgi zamon ruhiga mos keluvchi malakali mutaxassis yuristlarni, yuridik fanlar bo‘yicha yangi darslik, o‘quv qo‘llanmalari va dasturlarini tayyorlash ishlariga katta ahamiyat berildi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

79. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. -T., 1998.
80. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdur // Xalq so‘zi.-2005.-29 yanv.
81. X.Boboyev., H.Odilqoriyevlar tahriri ostida. Davlat va huquq nazariyasi.. -T., 2000.
82. Tadjixanov U., Odilqoriyev X., Saidov A. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyaviy huquqi. -T., 2001.
83. Saidov A., Tadjixanov U., Odilqoriyev X. Davlat va huquq asoslari. -T., 2002.
84. Tadjixanov U., Gulyamov Z. Pravovoye regulirovaniye deyatelnosti miliitsii. -T., 1995.

85. Dzaparov A.T. Normi prava. Vidi pravovix norm, reguliruyushix deyatelnost organov vnutrennix del. -T., 1993.
86. Saidov A., Tadixanov U. Davlat va huquq nazariyasi. 2-jild. –T., 2002.
87. Islamov Z.M. Davlat va huquqning umumnazariy muammolari. 2-q. T., 2001.
88. Islamov Z.M. Huquq tushunchasi, mohiyati, ijtimoiy vazifasi. T., 2004.
89. Nersesjans V.S. Huquq falsafasi. T., 2003.
90. Malaxov V.P., Kazakov V.N. Teoriya gosudarstva i prava. –M., 2002.
91. Marchenko M.N. Obshaya teoriya gosudarstva i prava. Tom 1-2. –M., 1998.

## 9-MAVZU: Huquq normalari tushunchasi, belgilari va o‘ziga xos xususiyatlari.

**Reja:**

**1. Huquq normalari tushunchasi, belgilari va o‘ziga xos xususiyatlari.**

**2. Huquq normalarining turlari.**

**3. Huquq normalarining tuzilishi.**

«Norma» so‘zi, lotinchadan tarjima qilinganda, «qoida», «namuna» ma’nosini anglatadi.

*Huquq normasi - davlat tomonidan belgilanadigan, kafolatlanadigan va muhofaza qilinadigan barcha uchun majburiy xulq-atvor qoidalaridir.*

Huquq normasi umumiyl xulq-atvor qoidasi sifatida:

*birinchidan*, hayotiy munosabatlardagi tipik, takrorlanib turadigan narsalarni umumlashtirish zarurati natijasida shakllanadi;

*ikkinchidan*, ko‘p marta qo‘llashga mo‘ljallangan bo‘ladi;

*uchinchidan*, hamisha qandaydir umumiyl belgilarga ega bo‘lgan shaxslar (harbiy xizmatchilar, vrachlar va sh.k)ga qaratilgan bo‘ladi.

Huquq normasi davlat bilan uzviy aloqadordir.

Huquq normasi:

davlatning (xalqning) irodasini aks ettiradi;

davlat tomonidan normativ hujjalarda shakllantiriladi;

davlatning irodasi sifatida namoyon bo‘ladi;

davlat tomonidan muhofaza qilinadi;

davlat nuqtai-nazaridan eng muhim bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlaydi.

Huquqning asosiy vazifasi - ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish. Huquq normasi umummajburiy tusga ega. Huquq normasi huquq tizimidagi ilk hujayra hisoblanadi.

Huquq alohida normalar, xulq-atvor qoidalaridan tashkil topgan. Ular birgalikda u yoki bu davlatning huquqiy tizimini tashkil etadi.

Yuridik norma - huquqning birlamchi bosh elementi bo‘lib, butun huquqiy tizimning o‘zagini tashkil qiluvchi tushunchadir.

Huquqni shakllantirish va uni amalga oshirish, qonun chiqarish, barcha yuridik tushuncha va nazariyalar bevosita yohud bilvosita yuridik normalarga tayanadi.

Yuridik norma (huquqiy norma) – davlat xokimiyat ko‘rsatmasi ko‘rinishida ifodalangan va ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi umummajburiy qoida.

Huquqiy norma – bu ham meyoriy qoida, lekin belgilangan tarzda shakllantirilgan, ya’ni qonunchilikda ifodalanganligi bilan ajralib turadi. Meyoriy huquqiy qoida huquqning elementidir.

Ijtimoiy meyorlarning bircha sifatlariga ega bo‘lgan holda yuridik normalar – ularning davlat bilan bevosita aloqadorligiga ham egadir.

O‘zida odamlarning xulq-atvoriga umumijtimoiy va davlat ta’siri xususiyatlarini jamlagan holda, alohida ifodalananish va huquqbazarliklarda muxofaza etish shakliga ega bo‘lgan yuridik normalar tartibga soluvchi imkoniyatlarga egadir.

Huquq normasi qo‘yidagi o‘ziga xos belgilarga ega;

*Birinchidan*, jamiyat, shaxs yoki ijtimoiy guruh uchun kadr qimmatli bo‘lgan eng muhim ijtimoiy munosabatlarni o‘zida aks ettiradi. Bunda adolat va erkinlik g‘oyalari bilan

belgilanadigan normadagi ijtimoiy munosabatlar – birinchi galda idrok etish va qonuniy mustahkamlash predmeti bo‘ladilar.

Zararli, noxush ijtimoiy xulq atvor ham normalarda aks etadi, lekin o‘z o‘zidan emas, balki nizoli vaziyatlarni tartibga solish vositasi bilan aks etadi. Yuridik normalarda ijtimoiy vokelik, uning yo‘nalishlari va rivojlanish istiqbollarini aks ettirishning murakkabligi, xatto nobop normalar qabul qilishga olib kelishi mumkin. Huquqda ijtimoiy vogelikni aks ettirish subyekti bo‘lib davlat huquq ijodkor organlarining faoliyatini ilmiylik prinsiplariga har doim ham asoslanavermasligi hato normalar paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Huquqiy normalarda aks ettiriladigan ijtimoiy munosabatlarning muhimligi darajasi normaning qonunchilik iyerarxik pogonasida egallagan o‘rnini belgilaydi. Eng muhim ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalar yuridik jihatdan katta ahamiyatga ega bo‘lgan normativ huquqiy hujjatlar bo‘lgan konstitusiyalarda, konstitusiyaviy qonunlarda ifodalanadi.

**Ikkinchidan**, huquq normasi tartibga soluvchi ijtimoiy munosabatlarning modeli sifatida namoyon bo‘ladi.

Modellashtirish – bu ongda ijtimoiy reallikning analogini tiklash yo‘li bilan tabiiy va ijtimoiy hodisalarni idroq etish jarayonidir. Qonun chiqaruvchi ongida shakllantirilgan xudq-atvorning namunaviy variantlari, ijtimoiy hodisalar haqidagi tasavvurlar modeli shaklida ifodalanadi.

Modelni ifodalash vositalari turli-tuman: tabiiy tillar, formulalar, konstruksiyalar, raqamlar va hokozalar.

Huquqiy norma faqat xulk-atvor emas, balki ijtimoiy munosabatlarning holati, ularning xususiyatlari, obyekti va subyekti tarkiblarini ham muvofiqlashtiradi. Bu holda u huquqiy holat va tushunchalar, huquqiy tartibga solish chegaralari, metodlari, prinsiplari haqida, huquqiy muvofiqlash va huquqiy zidlik, huquqiylik va nohuquqiylik haqida ma’lumot beradi. Ijtimoiy munosabatlar sifatida normativ-huquqiy hujjatda mustahkamlangan yuridik normalar ijtimoiy voqealikning huquqiy vositachilikdagi to‘laroq ifodasini aks ettiradi. Aynan shuning uchun ham har qanday davlat va davrning qonunchilik yodgorliklarini o‘rganish – davlat, jamiyat va davr hayoti, turmushi va huquqi haqida ko‘pgina ishonchli axborotlar beradi. O‘zidagi mavjud axborot va ijtimoiy munosabatlarni modellashtirishda alohida xarakter kasb etishi tufayli huquq normasi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish xossasiga egadir. Ijtimoiy munosabatlarni aks ettirar ekan, huquq normasi shu sababdan mazmunga ega bo‘ladi va uning ifodalanishi o‘ziga xos shaklga egadir.

**Uchinchidan**, huquq normasi ijtimoiy jarayonlar, holatlar va aloqalarning taqrorlanishi oqibatida odatiyligini aks ettiradi va mustahkamlaydi.

Qoida tariqasida odatiylik mavjud munosabatlarga taalluqlidir, lekin u kelajakda takrorlanib turishi extimol utilgan yangi ijtimoiy aloqalarga ham tallukli bo‘lishi mumkin.

**Tipiklashtirish** - murakkab fikriy jarayon bo‘lib, umumlashtirish, holatlarining muhim belgilarini e’tiborga olib, ahamiyatsiz belgilarni bo‘rttirmaslikni nazarda tutadi. Huquqiy normaga nisbatan olsak, tipiklashtirish ma’lum sharoitlardagi huquqiy holat yoki inson xatti-harakatidagi xarakterliroq narsalarni ajratib ko‘rsatishda ifodalanadi. Bu huquqiy xolatlarda (shaxsning individual belgilaridan uning ayrim fe’l atvorigacha) muayyanlikdan abstraksiyalashishga o‘tish jarayonidir. Shu tufayli aniq va umumiylar sifatida konunlarda erkinlik alohida shaxs o‘zboshimchaligiga bog‘liq bo‘lmagan, nomuayan, nazariy mavjudlik kasb etadi.

Tipiklashtirish tufayli huquqiy tushuncha o‘ziga xos ma’lum belgilariga ega bo‘ladi, xulq-atvor huquqi esa ijtimoiy munosabatlar bilan aloqani uzgan holda o‘zligiga tartibga solish ta’siri bilan nomuayyan miqdordagi shaxslarni kamrab olish xususiyatiga ega. Shu ma’noda yuridik norma uchun mazmunining anqligi va adresatning mavjudligi, mavhumligini tipiklashtirish shunga olib keladiki, bunda ular «turli shaxslar uchun bir xil miqyos kasb etadi». Bu huquqning barqarorlik xususiyatini ham belgilab beradi. Ijtimoiy munosabatlar ancha uzoq muddat o‘tgandan keyingina, ularga xos bo‘lgan umumiylar va barqaror belgilar shakllanib bo‘lgandagina

tipiklashadi. Bu barqarorlik huquq normasida mustahkamlanib, ularga barqarorlik xususiyatini beradi. Huquq norma faqat shunday holdagina o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin.

**To'rtinchidan**, huquq normalari umummajburiy xarakterga ega.

Huquq normasining bu xususiyati unga og'ishmay rioya qilish va ijro etish hamda inson xulq atvoriga davlat, jamiyat aks ta'sirini berishini ko'zda tutadi. Agar xulq atvor yuridik meyor talabalarga muvofiq kelsa aks ta'siri ijobiy bo'lishi mumkin yoki norma talablari buziladigan bo'lsa, salbiy aks ta'sir yuz berishi mumkin. Huquqiy normaga rioya qilish va uni ijro etish (umuman huquqqa) ichki va tashqi tartib omillari bilan ta'minlanadi.

Huquq normasi majburiyligining tashqi tabiatini inson ruhiyatiga tashqi ta'sirlar – ishontirish va majburlov kabi tashqi omillar bilan belgilanadi. Bu holda talablarning majburiyligini ta'minlaydigan vositalar o'zga shaxs, ijtimoiy guruh va tashqilotdan chiqadi. Bunda ular bir guruh ijtimoiy normalarga ko'proq darajada taalluqli bo'lsa, boshqalariga kamroq taalluqli bo'ladi.

Tartibga solinadigan boshqa ijtimoiy normadan farqli ravishda xuquqiy normalarda modellashtiriladigan ijtimoiy munosabatlarning majburiyligi davlatning ta'sir kuchi bilan, shu jumladan, davlat majburlovi bilan ta'minlanadi.

Huquq normalarining asosiy belgilarini aniqlar ekanmiz ularning mazmunini ochib berish zarur. Huquq normasining mazmuni uni tashkil qiluvchi barcha usullari xususiyatlari birligidir, ularning o'zaro harakati va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdir. Normaning mazmuni ko'p jihatlarga ega bo'lib, shu nuqtai nazardan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

**birinchidan**, normaning mantiqiy mazmuni ya'nini obyektiv voqelik predmetlari yoki holatlari haqida nimanidir tasdiqlaydigan fikrdan kelib chiqadi;

**ikkinchidan**, obyekt va subyekt birligida norma bilan tartibga solinadigan u yoki bu ijtimoiy munosabat sifatida tushuniladigan – huquqiy norma mazmunidir;

**uchinchidan**, davlat ijtimoiy munosabatlarni ma'lum bir tarzda tartibga solishga intilishida aks etadigan huquqiy norma-larining amr mazmuni kasb etishi, bunda davlat ixtiyoridagi imkoniyatlardan foydalaniлади.

Agar huquqiy normani mavjudligini zaruriyat nuqtai nazardan ko'rib chiqadigan bo'lsak, unda amr qilish zaruriyatga erishish vositasi bo'lib chiqadi. U majburiylik subyektlarining xulk-atvoriga davlat ta'sirini o'tkazish imkonining timsoli bo'lib chiqadi.

***Huquq normasining mazmuni ma'lum bir shaklda beriladigan eng ko'p uchraydigan shakllardan biri bu qonunchilikning normativ qoidalaridir.***

Huquqiy norma va uni mazmuni asosiy belgilarini aniqlar ekanmiz, huquqning barcha qoidalari ham norma hisoblanadimi yoki ularga faqat xulq-atvor qoidalari tegishlimi – degan savol tug'iladi.

Har qanday huquq tizimi qoidalari shunchalik boyki, ularning hammasini ham xulq-atvor qoidalari, ya'nii kishilar o'z faoliyatlarida rioya kilishlari kerak bo'lgan etalon deb bo'lmasa kerak. Bularga ma'lum bir yuridik tushunchalarini, huquq prinsiplarini, huquqni tartibga solishning vazifa va maqsadlarini, yuridik texnika qoidalari kiradi. Qonunchilikning yanada rivojlanma borishi manbai xarakteriga ega bo'lgan qoidalarning soni oshishiga sabab bo'ladi. Ular huquq tizimining barkamolligini ko'rsatib, unga mantiqiy izchillik bag'ishlaydi va huquqni qullash faoliyatida bir hillikni ta'minlaydi.

Xulq-atvor qoidalari bo'lмаган qonunchilik normalari turlichadir. Ular haqiqatan ham subyektga xulq-atvorning u yoki bu variantini tavsiya etavermaydi, yuridik ish yechimi asosiga har kim va har vaqt ham kuyilavermaydi. Ammo uning hammasi normativdir va hukm etish xarakteriga ega.

Bitim, majburiyat, jinoyatga doir aktlarini kuchga kiritish tartibi, belgilangan mulkchilik shakllari va hokazo tushunchalar tom ma'nodagi huquqiy normalardir. Bunga ishonch hosil qilish uchun ularni yuqorida kursatilgan yuridik normalarning belgilari bilan taqqoslash kifoya qiladi. Shunday qilib, huquq normalari, faqat xulq-atvor qoidalari bilangina cheklanib qolmasdan yuridik normalarning faqat keng tarqalgan turini tashkil etadi.

**Huquq normalarining turlari.**

Yuridik normalar nazariyasi va amaliyotida ularni tasniflash muhim o‘rin egallaydi. **Tasniflash deganda mantiqan o‘rganilayotgan obyektlarni turlar bo‘yicha ma’lum bir umumiyl belgilar asosida tasdiqlanishi tushiniladi.** Yuridik normalarni ilmiy asosda tasniflash quyidagi imkoniyatlarni beradi:

**birinchidan**, huquq tizimida yuridik normalardan har birining o‘rnini belgilash;

**ikkinchidan**, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda huquqiy normaning funksiyalari va rolini yaxshiroq aniqlash;

**uchinchidan**, huquqning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish ta’siri imkoniyatlari chegarasini aniqroq belgilash;

**to‘rtinchidan**, huquq ijodkorlik va huquqni qullash faoliyatini ko‘proq takomillashtirish.

Tasniflashning to‘g‘ri va to‘laroq bo‘lishi, avvalo, unga asos qilib olingan tasnif holatining boshqa barcha belgilarini belgilovchi uning eng ahamiyatli jihatiga bog‘liqdir. Biz yuridik normalarni tasniflashning to‘rtta asosini taklif etamiz:

- 1) ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish funksiyalari;
- 2) huquqiy tartibga solish predmeti;
- 3) huquqiy tartibga solish metodi;
- 4) normani ifodalash shakli.

Vazifalari bo‘yicha huquqiy tartibga solish mexanizmida quyidagi huquq normalari ajralib turadi: birlamchi huquqiy normalar, xulk-atvor normalari qoidalari, umumiy va maxsus normalar.

Birlamchi, ta’sischi normalar qonunchilikda yuqori pogonani egallaydi, ko‘proq umumiy xarakterga ega (ko‘proq abstraktlashgan shakl kasb etadi) va ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish mexanizmida alohida rol o‘ynaydi. Bu normalar ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish asoslarining bosh yo‘nalishini belgilab beradi. Mana shunda ularning asosiy vazifasi mujassamlashgandir. Ko‘rsatib o‘tilgan normalar vositasida huquqiy tartibga solishning maqsadi, vazifasi, prinsiplari, chegaralari, yo‘nalishlari metodlari belgilanadi, huquqiy kategoriya va tushunchalar mustahkamlanadi.

Birlamchi huquqiy normalar boshqa norma va xulq-atvor qoidalarda mantikiy rivojlanishi va muayyanlashishi mumkin, bu hol o‘z navbatida ularning bevosa harakat qilishini inkor qilmaydi.

Agar huquqni qo‘llash aktini u yoki bu huquqiy prinsiplar bilan asoslashga ehtiyoj tug‘iladigan bo‘lsa va ayniqsa bu prinsip qonunchilikda to‘g‘ridan to‘g‘ri ifodalangan bo‘lmasa yoki qandaydir qonunchilik qoidasining mustahkamligini tasdiqlash talab etilsa, yohud qabul qilinayotgan qarorning obru-e’tiborini ko‘chaytirish zarur bo‘lsa, ularga muayyan yuridik ishni hal qilishda ham murojaat qilish mumkin.

Birlamchi huquqiy normalar o‘z xarakteri va mazmuniga ko‘ra turlicha bo‘lishi mumkin. Ularning tarkibiga quyidagilar kirishi mumkin: boshlang‘ich normalar, norma-prinsiplar, maqsad normalar. Boshlang‘ich normalar - bu mavjud tuzum asoslarini mustahkamlovchi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va davlat hayoti asoslarini, mulk shakllarini va xokazalarini mustahkamlovchi qoidadir. Boshlang‘ich normalar davlatning Asosiy qonunida - Konstitusiyasida jamlanadi. Ular boshqa axloq normalarida va avvalo, norma-prinsiplarda rivojlanadi va mantiqiy ifodasini topadi. Norma-prinsiplar huquqiy prinsiplarni ifrodalovchi va mustahkamlovchi qonunchilik qoidalaridir. Huquqiy prinsiplarning tartibga solish yo‘li ularni qonun yo‘li bilan mustahkamlanishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Huquq prinsiplari qonunchilikda to‘laroq va kuchliroq ifodalansa ular shunchalik ahamiyatliroq bo‘ladi. Qonunchilikda qoidalar mustahkamlangan huquq prinsiplari norma-prinsiplar bo‘ladi.

Maqsad normalar – bu ayrim huquq sohalarining maksad va vazifalarini aniqlovchi hamda huquqiy tartibga solishning predmet shakli va huquqiy institutlarini aniqlaydi. Bunday normalarga Konstitusiyaviy Sudning maqsadlari va vazifalarini belgilovchi O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyaviy sudi to‘g‘risidagi Qonun misol bo‘lib xizmat qiladi.

Definitsiya – normalar huquqiy kategoriya va tushunchalarning tavslifini o‘zida mujassamlashtiradi. Bulardan masalan, jinoyat qonunida, jinoyat ta’rifi, ma’muriy qonunda -

ma'muriy huquqbuzarlik harakati ta'rifi, fuqarolik qonunida bitimlarning ayrim turlari ta'rifi va xokazolarni ko'rsatish mumkin. Definitiv normalar, asosan evristik, yo'nalish beruvchi funksiyalarni huquqiy tartibga solish mexanizmini bajaradi. Agar bu turdagи normalar huquq tizimida bo'limganida edi – qonunchilik mavhumlashib ketar, uni qo'llash jarayoni esa yo'qqa chiqar yoki juda qiyinlashtirib qo'yari edi.

Aynan shuning uchun ham O'zbekiston qonunchiligidagi so'nggi yillarda va ayniqsa, ijtimoiy munosabatlarning yangi xillarini tartibga solishda asosiy tushunchalar kengroq mustahkamlanmoqda. Masalan, iste'molchilarining manifatlarini himoya qilish haqidagi qonunda qo'llanilgan tushunchalarning ta'rifini mustahkmlagan, xususan «iste'molchi», «tayyorlovchi», «ijrochi», «sotuvchi», «standart» va xakozo tushunchalar, shular jumlasidandir.

Xulk-atvor normalari qoidalari, birlamchilardan farq qilib ular kishilarning xulq-atvori, ijtimoiy munosabatlarni bevosita tartibga soladi. Ular subyektlarining o'zaro huquq va burchlarining ko'rsatadi. Bu huquq va burchlarini amaldagi tatbiq qilish shartlarini, huquqbuzarlarga nisbatan davlat aks ta'sirini turlari va chorasi ko'rsatadi.

Regulyativ (tartibga soluvchi) huquqiy normaning o'ziga xos xususiyati shundaki, u ijozat beruvchi va majburlovchi xarakterlarga ega, shunga muvofiq u ijtimoiy munosabatlarning ishtirokchilari uchun davlat tomonidan qo'riqlanadigan va kafolatlanadigan o'zaro subyektiv huquqlar hamda yuridik majburiyatlar o'rnatadi. U yoki bu ijtimoiy munosabatga norma qoidalarining maqsadli tartibga solish ta'siri ostida huquqiy xarakter kasb etadi, uning ishtirokchilari esa mazkur huquqiy munosabatlarni subyektlariga aylantiradi.

Yuridik fanda xulq-atvor norma-qoidalari ancha mukammal o'rganilgan. Yuridik normaning ta'rifi va uning nazariysi yaqin vaqt largacha umuman olganda butunlay xulk atvor normalari qoidalari qaratilgan edi, birlamchi axloqiy normalarga daxldor normativ qoidalarning boshqa ko'pgina turlari nazardan chetda qolgan edi.

Yuridik adabiyotlarda huquq normalari, ularning maqsadidan kelib chiqib tartibga solinuvchi va qo'riqlanuvchi turlarga bo'linadi. Yuqoridagi normalarning vazifasi yo'nalishini ko'rsatib beruvchi bunday bo'linishga qarshi chiqmagan holda ayrim boshqa mualliflar singari bunday tasniflash shartlidir, zero qo'riqlash tartibga solish usullaridan biridir, oqibatda ayni bir normani ham regulyativ, ham quriklovchi deb atash mumkin.

Umumiy va maxsus huquq normalari. Ular bir biridan umumiylig darajasi va harakat doirasi bilan fark qiladi. Umumiy normalar qoida tariqasida u yoki bu huquq sohasining barcha huquqiy institutlarini (jinoyat huquqining shartli hukm qilish haqidagi, hukm ijrosini kechiktirish haqidagi, fuqorolik huquqining da'vo muddati haqidagi va xakozolarni qamrab oladi. Bu normalar huquq sohasining umumiy qismiga jamlanadi va tarmoq obyektlarini tartibga soladi. Ulardan farq qilib maxsus normalar u yoki bu huquq sohasining manbalari institutlariga tegishli bo'lib, ijtimoiy munosabatlarning xususiyatlarni hisobga olgan holda ularning ma'lum bir turini tartibga soladi. Maxsus normalar umumiy ko'rsatmalarni detallashtiradi, ularni amalda tadbiq etishning vaqt va makondagi shartlarini muayyanlashtiradi, shaxsnинг xulq-atvoriga huquqiy ta'sir etishga qaratilgan bo'ladi. Shu tufayli, ular huquqning umumiy normalarni beto'xtov va izchil tatbiq etilishini ta'minlaydi. Maxsus normalar yig'indisi u yoki bu huquqiy sohaning maxsus qismini tashkil etadi.

Maxsus normalarga quyidagilar misol buladi: oldi-sotdi, xadya, pudrat, kapital qurilish va fuqorolik huquqining boshqa bitimlari haqidagi normalar; jinoyat huquqida bezorilik, bosqinchilik, o'g'rilik va hokazolar, jinoyat tarkiblari uchun belgilangan javobgarlik haqidagi normalar va hokazolar.

Huquq normalarining huquqiy tartibga solish predmeti bo'yicha (huquq sohalari bo'yicha): konstitusiyaviy, ma'muriy, molivaviy, yer, fuqarolik, mehnat, jinoyat huquqi va boshqa soha normalariga bo'lish mumkin. Ma'lum bir ijtimoiy munosabatlarning sifat jihatidan bir xilligi va nisbiy mustaqilligi ularni tartibga soluvchi huquqiy normalarning masusligi va ma'lum darajada o'ziga xosligining shartidir, bular jamlangan holda huquq soxasini tashkil etadi.

Huquq sohasi normalari moddiy va protsessual turlarga bo'linadi. Moddiy huquqiy normalar huquq subyektlarning huquq va burchlarini, ularning huquqiy holatini, huquqiy tartibga

solist doirasini mustahkamlaydi. Boshqacha aytganda, ular huquq subyektiga unga nima huquq berishini va undan nima talab qilinishini ko'rsatib beradi.

Protsessual huquqiy normalar tashkiliy munosabatlarni tartibga soladi va hamda sof tashkiliy, rasmiyatichilik, boshqaruv xarakteriga ega. Ular doimo moddiy huquq normalari tartibini, shakllarini va tatbiq qilish usullarini tartibga soladi. Protsessual normalar ikkilamchi xarakter kasb etadi. Protsessual huquqiy normalar hamma vaqt ham alohida sohalarga jamlanavermaydi. Bu hol sodir bo'lgan taqdirda ham, u huquq sohasining ma'lum bir rivojlanish bosqichida bo'ladi. Protsessual normalar o'ziga xos huquqiy kompleksni hosil qilib, huquq sohasining ma'lum bir bo'linishi tashkil etilishidan vujudga keladi.

Huquqiy tartibga solish usuli bo'yicha huquq normalari imperativ, dispozitiv, rag'batlantiruvchi, tavsiya beruvchi normalarga bo'linadi.

Huquqning tartibga solishning mazmuni – asosan subyektlarning xulq-atvoriga ta'sir qilishning to'rt usulidan iborat:

- 1) amr etuvchi-undovchi (imperativ) – davlat tomonidan ko'rsatilgan, qat'iy majburiy subyektlarning xulq atvoriga nisbatan;
- 2) avtonom-dispozitiv, ular uchun o'z irodasini erkin tarzda ifodalashga keng imkon beradi;
- 3) rag'barlantiruvchi, davlat va jamiyat uchun zarur bo'lgan huquqiy va ijtimoiy faol xulq-atvordir;
- 4) tavsiya etuvchi davlat nuqtai nazaridan eng maqbul xulq-atvor variantini taklif etadi. Shularga muvofiq yuridik normalar tasniflashtiriladi. O'z navbatida, ularning har biri ma'lum bir uslubning normativ asosini tashqil etadi, uning o'ziga xosligini belgilaydi, uning moddiy tavsifnomasining muhim elementi bo'ladi.

Imperativ normalar qat'iy-majburiy qoidalardir. Huquqning turli sohalariga qarashli ko'pchilik normalar imperativ hisoblanadi.

Dispozitiv normalar – xulq-atvor varianti haqida ko'rsatma bo'lgani bilan birga subyektlarga qonuniy vositalar doirasidagi munosabatlarni o'z xoxshicha tartibga solish imkonini beradi. Bunday keng huquqiy avtonomiyaning (munosabat qatnashchilariga beriladigan), dispozitiv norma bilan tartibga solinishining mohiyati shundaki, – bunda tomonlarga o'zaro huquq va majburiyatlar haqida kelishib olish imkonini beradi, u holat yuz bermagan taqdirda ma'lum bir majburiy xulq-atvor qoidasi qo'llaniladi. Bu dispozitiv normalar bayon qilinishining o'ziga xosligini ham shart qilib qo'yadi. Bu turdag'i ma'lum bir xulq-atvor qoidasining bayoni odatda, quyidagi so'zlar bilan «agar boshqa qonunda yo shartnomada ko'zda tutilmagan, belgilanmagan bo'lsa» ifodalanadi.

Shunday qilib, huquq subyektlarining mustaqilligi o'z xoxishiga ko'ra ish ko'rishga oid ularga berilgan imkoniyatda ko'rinadi.

Dispozitiv normalar huquqining ko'p sohalarida mavjud. Masalan, mehnat huquqida o'rnatilgan normaga ko'ra: agar mehnat shartnomasi tugagandan keyin ham mehnat munosabatlari davom etayotgan bo'lsa va tomonlardan birortasi uni to'xtatishni talab qilmagan bo'lsa, bu holda shartnomaga harakati noma'lum muddatga o'zaytirilgan hisoblanadi. Dispozitiv normalar ko'proq fuqarolik huquqiga hosdir, chunki bu sohani huquqiy tartibga solish uslubi subyektlarning tengligi holatiga asoslanadi.

**Rag'batlantiruvchi normalar** – bu ma'lum bir davlat organlari tomonidan subyektlarning xulq-atvori davlat va jamiyat tomonidan qo'llab quvvatlanadigan varianti uchun beriladigan rag'barlantirish choralar haqidagi qoidalar bo'lib, o'z yuridik va ijtimoiy majburiyatlarini vijdoran bajarganlik yoki oddiy talab darajasidan yuqori natijalar uchun beriladi.

Rag'barlantiruvchi normalar kishilarning sermaxsul mehnatini, ularning ijodiy va ijtimoiy faolligini quvvatlaydi. Masalan mukofatlar haqidagi normalar.

**Tavsiya beruvchi normalar** – davlat nuqtai nazaridan maqg'bulroq bo'lgan ijtimoiy munosabatlarning tartibga solish variantini o'rnatadi.

Tavsiya normalari asosan davlat korxonalari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmali uchun chiqariladi. Bozor munosabatlari rivojlanishi bilan tavsiya beruvchi normalarni 2 xil taqdir

kutmoqda: hozirda mavjud bo‘lgan bunday ko‘pchilik normalar o‘z mohiyatini yo‘qotganligi sababli bekor qilinadi, chunki davlat korxona, qishloq xo‘jaligi birlashmalari o‘zining mayda-chuya xomiyligidan ozod qiladi. Ularga tula xo‘jalik va tashkiliy erkinlik beradi. Lekin ayni paytda imperativ normalar o‘rniga kelayotgan tavsiya beruvchi normalar yanada rivojlanadi.

Bunday o‘rin almashish bozor munosabatlari sharoitida huquqiy tartibga solish uslubining yengillashtirilganligini isbotlaydi.

**Ifodalash shakliga ko‘ra normalar qo‘yidagicha:** vakolat beruvchi, majburlovchi, taqilovchi normalarga bo‘linadi.

Vakolat beruvchi huquqni belgilovchi normalar subyektlariga o‘zlarida ko‘zda tutilgan ijobiy xarakatlar qilish huquqini beradi. Masalan, «har bir shaxs erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega».

**Majburlovchi normalar** - ma’lum bir ijobiy xarakatlarni bajarish majburiyatini belgilaydi. Bunday norma uchun «majbur», «shart» degan so‘zlar xosdir.

**Taqilovchi normalar** - o‘zlarida ko‘rsatilgan xulq-atvorni, agar u qonunan yo‘li bilan huquqbuzarlik deb topilgan bo‘lsa, taqiqlaydilar.

Taqiqlar - bular davlat-xokimiyat amri bo‘lib, ularning asosiy maqsadi shaxs va jamiyat uchun nomaqbul xatti-harakatlarning oldini olishdir.

Taqiqlangan xulq-atvor varianti bunda «taqiqlanadi», «haqli emas», «bo‘lishi mumkin emas», «yo‘l qo‘yilmaydi» so‘zleri bilan ifodalanadi. Masalan, «O‘zbekiston Prezidenti xalq deputati bo‘lishi mumkin emas».

**Huquqiy normalarning xususiyati.** Huquq normasi davlat-hokimiyat xususiyatiga ega. Huquq normalari qonunlar va qonun kuchiga ega bo‘lgan hujjatlarda bayon etilgan. Bu normalar barcha kishilarga taalluqli, ya’ni ular umumiyligida xususiyatga ega.

Mavjud talablarning xususiyatidan kelib chiqib, huquq normalarini quyidagi turlarga bo‘lish mumkin:

1) qonuniy kuch beruvchi, ya’ni nima qilish mumkin? - degan savolga javob beradigan ruxsat beruvchi normalar;

2) majburiyat yuklovchi, ya’ni nima qilish kerak?-degan savolga javob beradigan ko‘rsatma beruvchi normalar;

3) man qiluvchi, ya’ni nima qilish mumkin emas? - degan savolga javob beradigan man qiluvchi normalar.

### **Huquq normalarning tuzilishi**

Har qanday yuridik normalarning tizimini uni tashqil etuvchi elementlarning birligi hosil qiladi. Lekin bu elementlarning xarakteri, ularning miqdori, joylashishi, aloqa usuli huquq normalarining turiga bog‘liqdir.

**Boshlangich huquq normalarining tuzilishi.** Bu normalar moddiy yoki protsessual xarakterdagи biror-bir huquqiy holatni qonun vositasi bilan mustahkamlaydi (ta’sis etadi). Bu esa uni so‘z orqali ifodalash yoki uning ahamiyatli belgilariga qarab qilinadi. Huquqiy tushuncha, holat, prinsip, ijtimoiy-siyosiy sharoitning bu belgilari boshlangich yuridik normaning tarkibi bo‘lib chiqadi. Masalan, «Davlat soliq xizmati haqidagi» Qonuniga ko‘ra bu xizmat soliq qonuni ustidan nazoratni amalga oshiruvchi yagona tizim sifatida (birinchi belgi), hisob-kitob qilishning to‘g‘riliği (ikkinci belgi) ustidan, byudjetga ma’lum bir soliq va boshqa majburiy to‘lovlarning qonun tomonidan belgilangan miqdorda o‘z vaqtida va to‘liq o‘tkazilishi ustidan (uchinchchi belgi) nazoratni amalga oshiradi. Ko‘rsatib o‘tilgan belgilarning majmui shu yuridik normaning tizimini tashkil etadi. Shuning uchun ham boshlangich (ta’sischi) normalarda gipoteza, dispozitsiya, yohud sanksiyani izlashdan hech qanday ma’no kelib chiqmaydi.

**Xulq-atvor normalarining tizimi.** Xulq-atvor norma qoidalari tarkibi haqidagi masalanchadan beri huquqshunos-larning diqqatini jalb qilib kelmoqda.

Huquqiy normaning uch elementdan iboratligi haqidagi fikrlar huquqshunoslikda keng e’tibor tarqalgan (gipoteza, dispozitsiya, sanksiya). Huquqiy normada, avvalambor, norma qo‘llaniladigan sharoitga nisbatan qoida bor, so‘ngra xulq-atvor qoidasining o‘zi bayon qilinadi, oxirida esa ushbu qoidani bajarmaganlik uchun kelib chiqadigan oqibat ko‘zda tutiladi.

Ijtimoiy munosabatlarning ayrim turlarini tartibga soluvchi huquq normalarining «ixtisoslashganligini» hisobga olgan holda, ko‘pchilik mualliflar yuridik norma tarkibidan ikki elementni ajratib ko‘rsatadilar: regulativ normalarda - gipoteza va dispozitsiya; qo‘riqlovchi normalarda - gipoteza (dispozitsiya) va sanksiY. So‘zma-so‘z ifodalashda bu ko‘pincha shunday bo‘ladi. Bu masala haqidagi bahslarning mohiyatini chuqurlashtirib o‘tirmay, ta’kidlash joizki, yuridik normanining uch elementli shakli – uning mantiqiy-yuridik qismidir. U fikrlash vositasida shakllantiriladi va o‘zining timsolida ushbu formulani ifodalaydi: «Agar... unda... aks holda esa...». Mantiqiy yuridik tizimni qayta tiklash uchun, mantiq talab va qoidalardan tashqari yana qonunchilikni hamda yuridik texnikani, huquqiy aloqalarni yaxshi bilish zarur.

U yoki bu vaziyatda xatti-harakatning ma’lum bir qolipini belgilovchi huquq normalari, ya’ni xulk-atvor qoidalari, o‘zlarining mantikiy yuridik tarkibida gipoteza, dispozitsiya va sanksiyaga egadir.

Huquqiy norma gipotezasi - hayotiy sharoitlarni ko‘rsatuvchi yuridik norma qismi bo‘lib, ular mavjud bo‘lgan yohud, bo‘lmagan holda norma amalga tatbiq etiladi (dispozitsiya).

Gipoteza yordamida xatti-harakatning mavhum varianti muayyan hayotiy hodisaga, yoki ma’lum bir kishiga, vaqtga va joyga bog‘lanadi. Normada mavhum ifodalangan tarzda, gipotezada mustahkamlangan har bir vaziyat xulq-atvor qoidasiga «hayotbaxsh» ta’sir etib, uni alohida xol darajasiga ko‘taradi. Boshqacha aytganda, gipoteza yuridik normani harakatga keltiradi. Masalan, Oila kodeksiga muvofiq nikohga kirayotganlarning o‘zaro roziligi talab qilinadi va ular nikoh yoshiga yetishi lozim. Faqatgina ta’kidlangan holatlar mavjud bo‘lgan taqdirdagina (ijobiy gipoteza) norma harakat qiladi. Shu bilan birga ko‘rilayotgan norma harakati bir vaqtning o‘zida Oila kodeksida aytilgan ayrim holatlar bilan ham bog‘lanadi: qayd qilingan nikohning bo‘lmasligi, nikohga kirayotgan shaxslarning yaqin qarindosh bo‘lmasligi hamda ruhiy kasalligi, yohud aqliy zaifligi oqibatida (salbiy gipoteza) sud tomonidan muommalaga layoqatsiz deb topilishi va hokazo.

Agar gipotezada biron-bir xolatning mavjudligi yoki yo‘qligi ko‘rsatilishi yuridik normanining harakati bilan bog‘liq bo‘lsa, unda bunday gipoteza oddiy gipoteza deb ataladi.

Masalan, «Fuqarolik to‘g‘risidagi» Qonunda bayon etilganidek, «Bola, agar uning ota-onasi u tug‘ilishi paytida O‘zbekiston fuqarolari bo‘lgan bo‘lsalar (gipoteza) bola qayerda tug‘ilishidan qat’i nazar O‘zbekiston fuqarosi bo‘ladi».

Agar gipoteza normasining harakatini bir vaqtning o‘zida ikki yoki undan ko‘proq holatlarning bor-yo‘qligiga bog‘liq qilib qo‘ysa, u murakkab gipoteza deb ataladi.

Yuqorida fuqarolik to‘g‘risidagi Qonunda bayon qilingan gipoteza aynan shundaydir: «O‘zbekiston hududida tug‘ilgan bola (bir xolat), fuqarolikka ega bo‘lgan (ikkinchi holat) shaxslardan tug‘ilgan bo‘lsa, u O‘zbekiston fuqarosi bo‘ladi».

Yuridik normanining harakati qonunda sanab o‘tilgan bir necha holatlardan biriga bog‘liq bo‘lsa, unda gipoteza alternativ deyiladi.

Yuridik normanining dispozitsiyasi – yuridik normanining bir qismi bo‘lib, xulq-atvor qoidalariiga ega, huquqiy munosabat ishtirokchilari bu qoidalarga rioya qilishlari shart.

Dispozitsiya – bu yuridik normanining o‘zagi, mag‘zidir. Ammo yuridik norma faqat birgina dispozitsiyaning o‘zidan iborat bo‘la olmaydi. Faqat gipoteza va sanksiya bilan birlikda, bular dispozitsiya atrofida jamlangandagina dispozitsiya hayotiy kuchga ega bo‘ladi, o‘zining tartibga soluvchi xususiyatlarini namoyon qiladi. Dispozitsiya – bu huquqiy xatti-harakat modelidir.

Huquqiy norma sanksiyasi – yuridik normanining tarkibiy qismi bo‘lib, huquqiy normanining diyepozitsiyasi buzilishi natijasida yuzaga keladigan yomon oqibatlarni ko‘rsatadi.

Sanksiyaning bunday ta’rifini odatda yuridik fan beradi. Faylasuflar, ko‘pincha sotsiologlar sanksiya deganda, faqatgina salbiy (tambex, jazo) oqibatlarnigina emas, balki ijobji (rag‘batlantirish, quvvatlash) oqibatlarini ham tushunadilar (shuningdek insonning ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan xulq-atvoridan kelib chiqadigan ijobjiy oqibatlarni) ushbu ishda sanksiya tushunchasiga huquqiy nuqtai-nazaridan qaraladi.

Sanksiya – yuridik normanining mantiqiy yaqunlovchi tarkibiy qismidir. Unda jamiyat, davlat, shaxsning huquqiy normani buzuvchilarga nisbatan salbiy munosabati ifodalanadi.

Huquq normalariga hozircha ongli ravishda ixtiyoriy rioya qilinmas ekan, hozircha huquqbuzarlik mayjud ekan – sanksiya yuridik normalarga amal qilish va uni ijro etishni ta'minlovchi qonuniylik va huquqiy tartibni mustahkamlashning zo'r vositasi bo'lib qoladi.

Huquqiy norma sanksiyasi – umumlashma tushunchadir. Huquqbuzar uchun bo'ladigan nojo'ya oqibatlarning xarakteriga bog'liq ravishda u qo'yidagilarni ko'zda tutishi mumkin:

a) javobgarlik choralari (ozodlikdan mahrum qilish, jarima, moddiy zararni undirish) bu turdagи sanksiyalar javobgarlikka tortuvchi yoxud jazovlovchi sanksiyalar deb ataladi;

b) ogohlantirish ta'sir choralari (ushlab keltirish, mulkini hisobga olish, jinoyatni sodir qilishda gumon qilib ushslash, davlat xokimiyatining akti yohud ma'muriy aklarni bekor qilish, majburiy davolash, o'zboshimchalik bilan qurilgan qurilmalarni buzib tashlash va xokazo);

v) muhofaza choralari (ishchi va xizmatchilarni agar ular ilgari qonunsiz ishdan bo'shatilgan bo'lsalar avvalgi ish joyiga qayta tiklash, aliment undirish va xokazo); ko'rsatilgan choralarni tayinlash – odamga yetkazilgan zararni yo'qotish va uning buzilgan huquqlarini tiklashdir (bu choralar javobgarlik choralaridan farq qilib, huquqbuzar tomonidan unga mansub bo'lgan va ilgari ijro qilinmagan majburiyatlarning bajarilishini ko'zda tutadi);

g) subyektning o'zini xulq-atvori oqibatida kelib chiqadigan nohush oqibatlar (kasalxonada rejimini buzish natijasida bemorning vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasini yo'qotishi yohud bu xol uzrli sababsiz yuz berishi va xokazo).

Huquqiy normalarning sanksiyalarini huquqbuzar uchun nohush bo'lgan oqibatlarning hamji va miqdoridan kelib chiqib tasniflash maqsadga muvofiqli, bunda uch guruhga ajratiladi:

1) mutloq-muayyan sanksiyalar, ularda nohush oqibatlarning miqdori aniq ko'rsatilgan (xodimni xizmat burchini bajarishdan ozod etish, ishdan bo'shatish, jarimaning aniq miqdori va xokazo);

2) nisbiy-muayyan sanksiyalar, bularda nohush oqibatlar chegarasining eng ozidan eng ko'pigacha yohud faqat eng ko'pigacha ko'rsatiladi.

Avvalo bo'lar ko'pchilik jinoyat-protsessual normalarning «ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi falon muddatgina .... gacha yilga» yoki «... gacha yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi» shaklidagi sanksiyalaradir;

3) alternativ sanksiyalar, ularda «yoki», «yoxud» birlashtiruvchi-ayriruvchi bog'lovchilar orqali bir-necha nohush oqibatlar ko'rsatilib sanab o'tiladi va huquqni qo'llovchi ularidan faqat bittasini – hal etilayotgan holat uchun eng maqsadga muvofiqli bo'ladiganini tanlaydi. Bunday sanksiya quyidagicha ifodalanishi mumkin: «... qamoq yoki ikki yilgacha axlok tuzatish ishlari, yoki olti oygacha qamoq bilan jazolanadi».

Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotning demokratlashishi xulk-atvorning huquqiyligini ijobiy, rag'batlantiruvchi roli oshishini shart qilib qo'ysi. Ammo ular dialektik tarzda sanksiyalar bilan uyg'unlashadilar. Sanksiya yuridik normanining bir qismi sifatida jamiyat va davlat turmushi sharoitlarining o'zgarishiga sezilarli darajada aks-sado beradi. Shuning uchun ham nisbatan u anchasida muddat davomida huquq normalarini to'la uzgartirmasdan, faqat ularning sanksiyalarini uzgartirish yo'li bilan mavjud normativ ko'rsatmalarni jamiyat rivojlanishi ehtiyojlarini ochishga moslashtirishi mumkin.

Yuridik normanining uch elementli tarkibi muayyan xulq-atvor variantini aniq belgilaydi, huquqiy ko'rsatmaning tatbiq etilishini ta'minlovchi uning harakat (harakatsizlik) vaziyati, unga undaydigan vositalarini aniq belgilaydi. Yuridik normanining qandaydir tarkibiy qismining – xulk-atvor qoidalarining bo'imasligi, uning nosozligini bildiradi va huquqiy tartibga solishda «qoqilishlarga» olib keladi: norma bu muayyan hayotiy vaziyatlar bilan aloqani yo'qotadi, yohud xulk-atvor variantini taklif etmaydi, yoki o'zining undovchi xususiyatlarini yo'qotadi.

Huquq normasi tuzilishga ko'ra uch tarkibiy qism: gipoteza, dispozitsiya va sanksiyadan tashkil topgan.

*Gipoteza* - huquq normasining tarkibiy qismi bo'lib, unda norma amal qila boshlaydigan, ijro etiladigan sharoitlar bayon etiladi. Pensiya haqidagi qonunlarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida erkaklarga umumiyl mehnat stoji 25 yil bo'lgandan boshlab, 60 yoshdan,

ayollarga esa 20 yillik staj bilan 55 yoshdan boshlab ta'minot bo'limlari tomonidan pensiya to'lanadi.

*Dispozitsiya* - huquq normasining shunday tarkibiy qismiki, unda xulq-atvor qoidalarining o'zi shakllantiriladi, huquq subyektlarining huquq va majburiyatlar belgilab beriladi. Masalan, Jinoyat kodeksida belgilangan tartibni buzib chet elga chiqish yoki O'zbekiston respublikasiga kirish yohud chegaradan o'tish uchun javobgarlik belgilangan. Bu huquq normasining dispozitsiyasi - hukumatning ruxsatisiz yoki qalbaki hujjatlardan foydalanib yoiki buning uchun belgilangan chegara punkti orqali o'tmay, davlat chegarasidan noqonuniy o'tishning taqiqlanganligidir.

*Dispozitsiya* - shu xulq-atvor qoidasining o'zi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga muvofiq, ota-onalar o'z farzandlarining sog'lig'i, ruhiy, ma'naviy va axloqiy komoloti haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar.

Huquq normasining huquqbuzarga nisbatan qo'llash lozim bo'lgan davlat majburlov choralarini belgilaydigan tarkibiy qismi *sanksiya* deyiladi.

*Sanksiya* - huquq normasini bajarmaganlik uchun davlat organlari qo'llaydigan majburlov chorasi. Sansiyaning turlari xayfsan, jarima, ozodlikdan mahrum etish va boshqalar bo'lishi mumkin.

Huquq normalarining mazkur tarkibiy qismlari barcha huquq normalarida ham mavjud emas. Masalan, konstitusiyaviy huquq normalarida, odatda hech qanday shartlarsiz amal qiladigan va majburlov choralari ko'zda tutilmagan qoidalar bayon etiladi. Fuqarolik huquqining ko'pchilik qoidalarida sanksiyani ajratib ko'rsatish mumkin emas. Jinoyat huquqi normalari dispozitsiya va sanksiyadan tashkil topgan. Lekin ularda normaning matnida ajratib ko'rsatish mumkin bo'lgan gipotezalar yo'q.

Shunday qilib, huquq normasi quyidagilarni belgilab beradi:

- 1) kim, nimani va qachon qilishi kerak - dispozitsiya;
- 2) bu harakatni qaysi sharoitlarda amalga oshirish kerak - gipoteza;
- 3) huquq normasi bajarilmasligining oqibatlari qanday - sanksiY.

Ta'kidlash kerakki, barcha huquq normalari ham uch tarkibiy qismga ega emas. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining normalari faqat gipoteza va dispozitsiyaga ega. Sanksiyalar esa Konstitusiya normalarini muayyanlashtiruvchi qonunlar, kodekslar va shu kabilarda ifodalangan.

Bajarilishi shart bo'lgan yoki aksincha, man etilgan xulq-atvor qoidalarini bayon qilishning to'laligi bo'yicha dispozitsiyalar oddiy, tavsif etuvchi, blanket va havola etuvchi dispozitsiyalarga bo'linadi. Oddiy dispozitsiyada qilmish tavsiflab berilmaydi, balki barchaga ma'lum termin (masalan, qasddan odam o'ldirish) yordamida ta'riflanadi. Tavsiflovchi dispozitsiya - huquqbazarlik belgilarining to'liq bayonini o'z ichiga oladi (masalan, o'g'rilik - o'zgalar mulkini yashirin ravishda talon-toroj qilish).

Blanket dispozitsiya huquqbazarlikning belgilarini aniqlash uchun huquqning boshqa sohalari normalarida belgilangan maxsus qoidalarga havola qiladi. Masalan, Jinoyat kodeksida texnika xavfsizligi, sanoat sanitariyasi yoki mehnatni muhofaza qilishning boshqa qoidalarini buzganlik uchvun jinoiy javobgarlik belgilangan. Bu qoidalarning mazmuni Jinoyat kodeksida emas, balki JKning moddalarini qo'llashda murojaat qilish zarur bo'lgan boshqa normativ hujjatlarda ochib beriladi. Havola etuvchi dispozitsiya deganda, huquqbazarlik belgilariga ega bo'lman, balki o'sha qonunning boshqa normasiga yoki boshqa huquqiy hujjatga havola etuvchi dispozitsiya tushuniladi.

Muayyanlik darajasi bo'yicha sanksiyalarini mutlaq muayyan, nisbiy muayyan va muqobil sanksiyalarga ajratish mumkin.

Mutlaq muayyan sanksiya huquqbuzarga nisbatan qo'llaniladigan jazoning hajmini aniq belgilaydi. Masalan, Fuqarolik kodeksiga ko'ra, davlat organlari yoki mansabdar shaxslarning noqonuniy harakatlari natijasida fuqaroga yetkazilgan zarar to'laligicha qoplanishi shart.

Nisbiy muayyan sanksiya huquqbuzarga nisbatan qo'llaniladigan jazoning eng kam va eng ko'p chegarasini belgilaydi. Jinoyat huquqida bunday sanksiyalar ko'p. Masalan, bosqinchilik

jinoyati uchun mol-mulk musodara qilinib, o‘n besh yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

**Muqobil sanksiya sudga qonunda ko‘rsatilgan bir necha jazodan birini tayinlash imkonini beradi. Masalan, firibgarlik, agar u og‘ir oqibatlarga olib kelmagan bo‘lsa, eng kam oylik ish haqining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki mol-mulk musodara qilinib yoki qilinmay olti oygacha qamoq bilan jazolanadi.**

Ko‘pincha huquq normalari muqobil va nisbiy muayyan sanksiyalarning belgilarini o‘zida mujassamlashtiradi, ya’ni bir necha jazo turlarini nazarda tutadi. Bunda ularning har biri uchun eng ko‘p va eng kam chegara belgilanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

92. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. -T., 1998.
93. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishduri // Xalq so‘zi.-2005.-29 yanv.
94. X.Boboyev., H.Odilqoriyevlar tahriri ostida. Davlat va huquq nazariysi.. -T., 2000.
95. Tadjixanov U., Odilqoriyev X., Saidov A. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyaviy huquqi. –T., 2001.
96. Saidov A., Tadjixanov U., Odilqoriyev X. Davlat va huquq asoslari. -T., 2002.
97. Tadjixanov U., Gulyamov Z. Pravovoye regulirovaniye deyatelnosti militsii. -T., 1995.
98. Dzaporov A.T. Normi prava. Vidi pravovix norm, reguliruyushix deyatelnost organov vnutrennix del. -T., 1993.
99. Saidov A., Tadjixanov U. Davlat va huquq nazariysi. 2-jild. –T., 2002.
100. Islamov Z.M. Davlat va huquqning umumnazariy muammolari. 2-q. T., 2001.
101. Islamov Z.M. Huquq tushunchasi, mohiyati, ijtimoiy vazifasi. T., 2004.
102. Nersesyans V.S. Huquq falsafasi. T., 2003.
103. Malaxov V.P., Kazakov V.N. Teoriya gosudarstva i prava. –M., 2002.
104. Marchenko M.N. Obshaya teoriya gosudarstva i prava. Tom 1-2. –M., 1998.

#### **10-MAVZU: Huquq shakli (manbai) tushunchasining mazmuni.**

**Rej a:**

- 1. Huquq shakli (manbai) tushunchasining mazmuni.**
- 2. Huquq shakllari (manbaalari)ning turlari.**
- 3. O‘zbekiston Respublikasining huquq manbaalari.**

**Huquq manbai** - tushunchasini bilish uchun falsafada asosiy o‘rin egallagan va murakkab hisoblangan «shakl» kategoriysi xususida qisman tuxtalish lozim. Uning egizak kategoriysi sifatida boshqa falsafiy kategoriya, ya’ni obyektning umumiyl tarkibiy qismi birligi sifatida namoyon bo‘luvchi yaxlitlik, uning xususiyatlari, aloqalari, holati, rivojlanish jarayonlarini belgilovchi tomoni «mazmun» yuzaga chiqadi. Shakl tushunchasi bu yerda mazmunning mavjudligi, ifodalanishi va qayta tuzilishini bildiradi. Odatda, hodisani ichki va tashqi shakllarga ajratadilar. «Shakl» atamasining mazmunini ichki tuzilishi sifatida ishlatsa, u tuzilish tushunchasi bilan bog‘lanadi.

Mazmun va shaklning nisbiy birligida, mazmun yaxlitlikning harakatchan, dinamik tomonini ifoda etsa, shakl predmetning muhim aloqalar tizimini kamrab oladi. Ba’zi hollarda, shakl bilan mazmun o‘rtasidagi nomuvofiqlikning rivojlanishi eski shaklning barham topib, mazmun rivojlanishiga mos keluvchi yangi shaklning vujudga kelishi bilan tushuntiriladi.

Huquqda shakl kategoriysi ikki ma’noni bildiradi: ya’ni bir tomonidan, huquqiy shaklni; ikkinchi tomonidan, huquqning o‘z shaklini qamrab oladi.

**1. Huquqiy shakl** – barcha huquqiy voqelikdir. Bu yerda iqtisodiy, siyosiy tur mush va boshqa faktik munosabatlar bilan bilvosita bog‘liq bo‘lgan huquqiy hodisalar haqida so‘z yuritiladi. Shaklning huquqiy (yuridik) tushunchasi, huquqning (yoki har qanday huquqiy

hodisaning) barcha ijtimoiy tuzilma, jarayon va munosabatlar bilan aloqasi ochilgandagina qo'llanadi.

**2. Huquqning shakli** bu huquqning alohida hodisa sifatidagi shakli bo'lib, u faqat huquqning mazmuni bilangina o'zaro bog'lanadi. Uning vazifasi huquq mazmunini tartibga solishdan iborat.

Bundan tashqari huquq ijodkorlari huquqiy nazariyalar (doktrinalar) ta'siridan xoli emas: ularning u yoki bu darajada u yoki bu huquqiy (yuridik) ta'limotni yoqlab chiqishlariga to'g'ri keladi; ular ushbu ta'limotga oid taklif va tavsiyalarni qabul qiladilar. Normativ shartnomaga huquqiy ijodkor organlarning irodasini ifodalovchi ularning har biri uchun huquqiy majburiyat hisoblangan qo'shma huquqiy aktlardir. Ularda tomonlarning huquq va majburiyatlarini yuzasidan xoxishlari ifodalanib, o'z zimmalariga olingan majburiyatlarni bajarishga oid ixtiyoriy roziligi mustahkamlanadi. Ular konstitusiyaviy, fuqarolik, mehnat, ekologik huquqida keng tarqalgan.

«Bitim» tushunchasi «shartnomaga» tushunchasidan kengdir. Bitim bir shaxsning erkini ifodalaydi. Bitim deb, shaxslarning fuqarolik huquqi va majburiyatlarini belgilash, o'zgartirish yoki to'xtatishga qaratilgan harakatlari tan olinadi.

«Kontrakt», «bitim», «ahdlashuv» atamalari xususida to'xtalsak, ularga «shartnomaga» tushunchasining sinonimi sifatida karalishi mumkin. Shartnomani huquq manbai deb tan olish uchun, u yuridik normalarga ega bo'lishi kerak.

Mehnat huquqi sohasida muhim o'rinni kollektiv (jamoa) shartnomalari egallab kelmoqda. Mehnat kodeksiga muvofiq, jamoa shartnomasi deganda korxona, muassasa tashkilotlarida rahbar bilan xizmatchi o'rtasidagi mehnat, ijtimoiy-iqtisodiy va kasbiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy aktlar tan olinadi.

Shuni qayd etish kerakki, shartnomaga huquqi xarakatchan va kengayib borayotgan erkin tadbirkorlik tizimining huquqiy poydevoridir.

Huquqning asosiy shaklidan biri sifatida xalqaro huquqda shartnomaga yuzaga chiqadi. Xalqaro shartnomalar va xalqaro huquqning boshqa subyektlari o'rtasida ular uchun umumiy manfaatga ega bo'lgan masalalar yuzasidan tuzilgan hamda ularning o'zaro huquq va majburiyatlarasi asosida tartibga solinadigan bitimdir. Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena Konvensiyasining 2-moddasida bu manbaning normativ ta'rifi berilgan. Unda qayd etilishicha: «Shartnomalar deganda, davlatlar o'rtasida yozma ravishda tuzilgan bir, ikki yoki bir-biri bilan o'zaro bog'liq hujjatlarda shunday ahdlashuv mazmunidagi hamda uning aniq nomlanishidan qat'i nazar xalqaro huquq bilan tartibga solinadigan xalqaro bitim tushuniladi».

Xalqaro huquqiy shartnomaning yangi tipi sifatida 1990 yil 12 sentabrida qabul qilingan Germaniyaga oid munosabatlarni uzil-kesil hal qilish to'g'risidagi shartnomaga muvofiq, birlashgan Germaniya Demokratik Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi va butun Berlin hududini o'z ichiga oladi. O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatida shartnomalar keng joriy etilmokda. MDHga kiruvchi suveren respublikalar o'rtasida endilikda shartnomalar muhim o'rin egallab kelmoqda. Shu bilan bir qatorda shartnomalarning jiddiy huquqiy asoslari, ularni tuzish tartibi yuzaga keladigan nizolarni hal qilish hamda ularning xo'jalik va boshqa shartnomalar o'rtasidagi nisbatini aniqlash lozim.

Normativ-huquqiy shartnomalar birlamchi huquqiy manbalarning rivojlanishi, ularga qonuniy kuch berish uchun ular normativ-huquqiy hujjat bo'lishi kerak. Masalan, Fuqarolik kodeksi shartnomalarning shakli va umumiy sharoitlarini mustahkamlaydi, 1998 yildagi «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi qonun ommaviy axborot vositalarini ta'sis etuvchilar o'rtasidagi shartnomaning mazmunini qayd etadi.

Tabiatdan to'liq foydalanish shartnomasi muhim huquqiy o'ziga xoslikka ega. Bu shartnomaning mzamunini «Atrof muhitni himoya qilish to'g'risida»gi qonun belgilaydi.

Huquqning shartnomaga shakli istiqboldir. Agar, huquqning manbalarini o'zaro ijtimoiy ta'sir sifatida tasavvur qilinsa, u holda, avvalambor, ular formal-majburiy bo'lmay, balki ixtiyoriy murosali bo'lish lozimdir. Shuni hisobga olish kerakki, O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti, yuksak texnologiyalar rivojlanishi sharoitida davlat (shu paytgacha bo'lgani kabi), yangi tartibni ta'minlashga mas'ul, asosiy islohotchi sifatida harakat qilmoqda. Sanoat, qishloq xo'jaligi,

savdo, bank firmalari, korporatsiyalar, konsernlarning roli beqiyos ortib bormoqda. Ular jamiyatdagi tadbirkorlik munosabatlarini asosan, eng qulay, oddiy, tez vosita hisoblangan shartnoma yo‘li bilan tartibga solmoqdalar.

Normativ huquqiy akt huquq tashqi shaklining eng asosiysi, mukammali hisoblanadi. Bu normativ turdag'i davlat aktidir. Normativ aktlar (hujjatlar)dan farqli ularoq muayyan shaxsiy ishlar hal qiladigan davlat aktlari yakka tartibdagi (individual) aktlar deb yuritiladi. Normativ aktlar shaxsiy ishlarni hal etish uchun yuridik asoslarga (huquq norma) ega bo‘ladi. Normativ-huquqiy aktlar faqat yuridik manba sifatida emas. balki faktik manba sifatida ham namoyon bo‘ladi. Chunki undan kishilar yuridik normalar haqida ma’lumot oladilar.

Xulosa qilib, normativ aktni huquqiy mazmundagi huquqiy ijod mahsuli deb ta’riflash mumkin. Normativ huquqiy aktlarga davlatimiz Konstitusiyasi, boshqa qonunlar hamda qonun osti hujjatlarining tizimi (huqumatning farmoyishlari, davlat qo‘mitalari, vazirliklarning buyruqlari va yo‘riqnomalari, mahalliy xokimiyat organlarining qarorlari) kiradi.

Normativ huquqiy akt hozirgi zamon davlatimizda huquqning asosiy, yetakchi shakli deb tan olinishining sababi shundaki, bunda birinchidan, uning yordamida huquqiy normalarning aniq va to‘liq ifodalaniishi, uning real faoliyati va rivojlanishining istiqboli xakkoni aks ettiriladi; ikkinchidan, normativ-huquqiy aktlar (huquqning boshqa tashqi shakllari emas) amaldagi huquqning doimiy yangilanishiga ko‘proq moslashgan.

G‘arbiy demokratiyalar va Sharqda ijtimoiy hayotning murakkablashuvi hozirgi ijtimoiy rivojlanishning jadallahishi, fuqarolar siyosiy faolligining ortishi, huquqning yuridik manbalari tizimida normativ aktlar rolining muqarrar oshishiga olib keladi. Bozor iqtisodiyotini shakllantirish xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi, yirik firmalar, kichik korxonalarning paydo bo‘lishi, chet el firmalari ishtirokida qo‘shma korxonalarning faoliyat kursata boshlashi hozirgacha ma’lum bo‘lmagan huquqning yangi shakllarining paydo bo‘lishini kutish mumkin. Bunda esa, ertami yoki kechmi xususiy tashkilotlarning normativ aktlarini tan olishga to‘g‘ri keladi hamda ular tomonidan ishlab chiqiladigan namunali shartnomalarning normativ-yuridik kuchini inkor etib bo‘lmaydi.

So‘nggi yillarda huquqiy ijodkorlik tajribasida normativ-huquqiy aktlarning individual shakllarini ishlab chiqish, ularning ta’sir chegara-larini belgilashga alohida e’tibor berilmoqda.

Huquqni yangicha anglash muqarrar ravishda huquq manbalarini boshqacha talqin qilishga olib keladi. O‘zini o‘zi tartibga solish huquqning barcha ma’lum shakllariga hosdir. Bular huquq shakllarining shunday shakliki, ular bevosita demokratiya institutlaridan (referendum qarorlari, xalq yig‘inlari, mehnat jamoalari majlislari) foydalanish orqali qabul qilinadi.

**Referendum** – davlat va jamiyat hayotining har qanday muhim masalalari bo‘yicha umumxalq ovoz berishidir. Faqat uni umumxalq muhokamasi bilan almashtirish kerak emas. Umumxalq muhokamasi referendumdan farq qiladi. Ma’lum ma’noda, «plebissit» tushunchasini referendumning sinonimi sifatida keltirish mumkin. Referendum akti huquqning demokratik shakli hisoblanadi. Ammo uni turli sharoitlarda ham optimal yechim ishlab chiqishning eng yaxshi uslubi deyishga asos bo‘lmaydi.

Referendumlar umumdavlat va maxalliy miqyosida bo‘ladi. Referendumga chiqarilgan masalalar bo‘yicha qarorlar, referendumda ishtirok etgan fuqarolarning yarmidan ko‘pi ovoz bergen taqdirda qabul qilingan deb hisoblanadi: referendumda qabul qilingan qarorni o‘zgartirish yoki bekor qilish faqatgina referendum yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Sobiq Ittifoq xududida ilgarigi qonunda referendum deganda bevosita demokratiya shakli nazarda tutilgan bo‘lsa-da, biroq amalda so‘nggi yillarda o‘tkaziladigan bo‘ldi. Masalan, 1991 yilning 29 dekabrda referendum yo‘li bilan O‘zbekistonda davlat mustaqilligi tasdiqlandi.

Hozirgi kunda jahon amaliyoti ko‘proq referendumlardan mahalliy masalalarni, ya’ni soliq ishlarida, atom stansiyalari qurish, maktab dasturlarining mazmuni, transport xizmati va hokazolarni hal etish uchun foydalanish maqsadga muvofiq ekanligidan dalolat bermoqda.

Nisbatan katta bo‘lmagan mamlakatlarda, masalan Shveysariyada yoki tarkibiy jihatdan o‘xshash bo‘lgan Fransiyada oson bo‘lgan narsa hajm jihatidan haddan tashqari katta hamda turlicha bo‘lgan AQSH yoki Rossiyada juda mushkul. Amerikalik fuqarolarning umummilliy

miqyosidagi bevosita demokratiyaga shubha bilan qarashlarining tub sababi shundaki, birinchi galadagi muhim masalalarni yechishning bu shakli mukammal, aniq, salmoqli, beg'araz va adolatli hal kilishning uslubi emasligi deb hisoblashlaridir. Bu asoslangan hadiksirash hisoblanadi. Ammo, referendumlarni favqulodda holatlarda davlat va jamiyat hayotining muhim masalalari bo'yicha o'tkazish maqsadga muvofiqli.

Huquqiy davlat qonuniylikni mustahkamlash uchun huquq manbalariga katta ahamiyat beradi. Yuqorida qayd etilgan shakllar (manbalar)ning mukammalligi ular haqidagi nazariy tasavvurlarning darajasi va yuridik amaliyot barcha turlarining sifati bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Yuridik fan huquq shaklini yaxshilash bo'yicha zarur tavsiyalarni o'z vaqtida ishlab chiqishga xizmat qiladi, amaliyot esa olimlarning huquq manbalarining egiluvchan, harakatchan va samarali faoliyat ko'rsatuvchi tizimini vujudga keltirish maqsadini ko'zda tutuvchi takliflarni tatbiq etilishi kerak. Davlatdagi qonunchilikning mustahkamligi huquq tizimining sifatiga bog'liq bo'ladi.

Ma'lumki, huquqning formal aniqligi uning normativ ifodalaniishi usulidir. Turli huquqiy tizimlar turli formal aniqlik darajasiga ega. U musulmon huquqiga xos emas, umumiy huquqda esa u kuchsiz ifodalangan. O'zining tabiatiga ko'ra, normativ-huquqiy aktga, agar shunday deyish mumkin bo'lsa, normativligining «ko'nikmasi» deb qaralishi mumkin.

Huquq shaklining ahamiyati, davlatdagi huquqiy tartibning darajasi va sifatiga bog'liq, faqat ularni o'ziga «tortib turadi», aksincha, u «kerak bo'limganda» harakatsiz qoldiradi. Ko'pincha, huquq tartibotni oyoqqa turishi va mustahkamlanishida faqat normativ-huquqiy aktlar emas, balki huquqning boshqa shakllari ham ishtiroq etadi.

XXI asr bo'sag'asida O'zbekistonda huquq (manbalari) shakllarini takomillashtirishning qanday asosiy yo'llari mavjud? Birinchidan, huquq shaklini yaxshilashda milliy yuridik an'analarini to'liqroq hisobga olish, mustamlakichilik istilosiga qadar bo'lgan huquqiy tizimning eng yaxshi tomonlarini olish kerak bo'ladi. Ikkinchidan, huquqning asosiy shakllari to'g'risidagi maxsus qonunni tayyorlash va e'lon qilish ehtiyoji yetildi.

U ko'pdan beri taqdim qilinayotgan huquqiy ijod to'g'risidagi qonunga o'ziga xos umumiy qism qilib olinishi mumkin. Bu hujjatda huquq shakllarini faqat normativ-huquqiy aktlar darajasiga tushirish oqlanmaganligini ta'qidlamoq lozim bo'ladi. Qonunda imkonim boricha to'liq davlatning pretsedent, odat va shartnoma huquqiga bo'lgan munosabatini ifodalash maqsadga muvofiq. Bu yerda gap huquqning barcha shakllari (manbalari)ni kengaytirilgan yangi «ijtimoiy rollari»ni qonun yo'li bilan mustahkamlash haqida borayapti.

Ma'lum davlatda, nomlari yuqorida qayd etilgan huquq manbalarining nisbati, mazkur vaqt chegarasida ko'pgina ijtimoiy-siyosiy, milliy, demokratik sabab (ular turlicha bo'lishi mumkin) larga bog'liq bo'ladi. Huquqning tashqi shakli, qonunchilikning tashqi shakli muammosi faqatgina ilmiy ahamiyati bo'lmay, balki amaliy jihatni ham hisoblanadi. Davlat irodasiga aylanuvchi tashqi shaklning normativ ko'rsatmasi, ta'sirchanligi, uning yuridik ko'chiga emas, balki normativ tizimdagisi o'rniq bog'liq bo'ladi.

Hukumatning ta'sir sohasida bo'shliq bo'lmasligi lozim. Agar tartibga solinadigan faoliyatga mos keladigan huquq shakli vujudga kelmasa, boshqa shakllar yuzaga keladi. Masalan, qonun bo'lmasa, uning o'rnini davlat tomonidan tan olinmagan boshqa huquq shakllari va boshqa vositalar bilan moslanadigan soha bilan to'ldiriladi.

Huquqning mazmuni ko'pqirrali va ular turli shakllarga «quyulishi» mumkin. Ustalik bilan topilgan shakl huquq mazmunining harakatchanligi samarasini orttiradi. Aksincha, huquq mazmunga mos kelmaydigan shakl, yuridik normani «o'lik» xolatga olib kelishi mumkin. Amaldagi huquq shakllari tizimiga harakatchanlik hosdir. Huquq shakllarining yangi manbalari o'ziga yo'l ochmoqda, eskilari barham topmoqda. Bularning barchasi-O'zbekiston milliy huquq tizimining vujudga kelishi va rivojlanishi jarayonining bir qismi hisoblanadi.

### **Huquq shakllari (manbalari)ning turlari.**

Huquq manbalarini quyidagi uch asosiy turga bo'lish qabul qilingan:

- 1) huquqiy odat;
- 2) yuridik pretsedent;

3) normativ huquqiy hujjat.

**Huquqiy odat** deb doimiy takrorlanishi natijasida barqaror xulq-atvor normasiga aylangan va keyinchalik davlat tomonidan tasdiq-langan xulq-atvor qoidasiga aytildi.

Odat insoniyat jamiyatni rivojlanishining ilk bosqichlaridagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy huquq manbai bo‘lgan. Odat asta-sekin normativ hujjat bilan siqb chiqarilgan va almashtirilgan. Shundan keyin u huquqning yuridik manbai bo‘lmay qolgan.

Hozirga vaqtida odatning ahamiyati katta emas. U faqat qonun yetarli bo‘lmagan yoki qonunning o‘zi odatga havola qiladigan hollardagina saqlanib qolmoqda.

**Yuridik pretsedent** – huquqning shunday manbaiki, bunda muayyan ish bo‘yicha chiqarilgan sud qarori kelgusida shunday ishlarni hal etishda qoidaga aylanishi mumkin.

Yuridik pretsedent ish bo‘yicha sud yoki ma’muriy organning qaroriga muayyan normativ (umummajburiy) kuch berishni bildiradi. Bunday qaror kelgusida shunday ishlarni ko‘rib chiqishda majburiy bo‘ladi va shu bilan huquqiy tus oladi.

Huquqiy odat va yuridik pretsedent bir qator xorijiy mamlakat-larning huquq tizimida katta ahamiyata ega, lekin O‘zbekiston Res-publikasining huquq tizimida qo‘llanilmaydi.

Sud pretsedenti Buyuk Britaniya, AQSH, Kanada, Avstriyada huquq manbai hisoblanadi. Bu mamlakatlarning hammasida sud hisobotlari chop etiladi. Ulardan pretsedentlar haqida ma’lumot olish mumkin. Albatta, bu mamlakatlarning har birida sud pretsedenti turlicha qo‘llaniladi. Pretsedentni huquq manbai sifatida tan olish, qonun bo‘lmagan yoki bo‘lgan sharoitlarda ham sudga qonun ijodkorligi vazifasini bajarish imkonini beradi.

**Normativ huquqiy akt** – vakolatli davlat organining belgilangan tartibda qabul qilgan yuridik hujjati bo‘lib, umummajburiy xulq-atvor qoidalari o‘z ichiga oladi. Barcha normativ huquqiy hujjat-larga quyidagi belgilar xosdir:

ular huquqiy normalarni belgilab beradilar, o‘zgartiradilar yoki bekor qiladilar;

ularda belgilangan qoidalarning mazmuni bayon etiladi;

belgilangan normalarga umummajburiy tus beradi yoki ilgari bel-gilangan normalarning amalda bo‘lishini bekor qiladi.

### **Normativ-huquqiy xujjatlarning turlari**

Normativ-huquqiy hujjatlarning turlari davlatning qaysi organ-lari tomonidan qabul qilinganligiga hamda ularning yuridik kuchi katta yoki kichikligiga qarab farqlanadi. Ushbu belgilarga asosan, normativ-huquq hujjatlarni quyidagi turlarga bo‘lish mumkin:

**1. Qonun** – umumxalq ovoz berishi (referendum) orqali yoki mamla-katning oliy vakillik organi (Oliy Majlis) tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjat.

Qonunlar orasida Konstitusiya – O‘zbekistonning Asosiy qonuni – alohida mavqega ega bo‘lib, oliy yuridik kuchga egadir. Konstitusiya va konstitusiyaviy qonunlarni faqat Oliy Majlis qabul qilishi mumkin, chunki ularda konstitusiyaviy tuzum asoslari, insonlar va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari hamda Konstitusiyaga o‘zgartishlar kiritish tartib-qoidalari belgilab qo‘yiladi.

Konstitusiyaviy qonunlar alohida tartibda qabul qilinadi.

**2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni** O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi 94-moddasiga asosan Prezident to-monidan chiqariladigan normativ-huquqiy hujjatdir. Ushbu hujjat Konstitusiya va qonunlarga hamda O‘zbekistonning xalqaro shartnomalariga zid kelmasligi kerak.

**3. Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari** O‘zbe-kiston Respublikasi ijro etuvchi hokimiyat organining o‘z vakolati doirasida chiqaradigan normativ-huquqiy hujjatlaridir. Ushbu hujjatlar Konstitusiya asosida qabul qilinib, O‘zbekiston qonunlari va Prezidentning normativ farmonlarini amalga oshirishga qaratilgan.

**4. O‘zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo‘mitalari va idoralarining buyruq va yo‘riqnomalari** davlat boshqaruvi organlari-ning normativ-huquqiy hujjatlaridir. Ular Konstitusiyamiz asosida qabul qilinib, O‘zbekiston qonunlari, Prezidentning farmonlari hamda hukumat qarorlarini bajarishga qaratilgan.

**5. Qoraqlapog‘iston Respublikasining normativ-huquqiy hujjat-lari.**

## **6. Davlat hokimiyati mahalliy ijroiya organlarining *qarorlari*.**

Normativ-huquqiy hujjatlar iyerarxiysi shuni talab qiladiki, davlat hokimiyatning quyi vakillik organlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlar yuqori turuvchi organlarning normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq kelishi kerak. Davlat hokimiyati ijroiya organlarining normativ-huquqiy hujjatlari esa vakillik organlari hamda yuqori turuvchi ijroiya organlarning normativ-huquqiy hujjat-lariga muvofiq kelishi zarur.

Huquq normalari talablarning O'zbekiston Respublikasi fuqaro-lari, xorijliklar va fuqaroligi bo'limgan shaxslar uchun maj-buriyligi huquqning umumiy prinsipi hisoblanadi. Lekin istisnolar ham mavjud. Masalan, «Harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risidagi qonun»ning talablari faqat O'zbekiston fuqarolariga tegishlidir. «Referendum to'g'risidagi qonun»ga binoan referendumda faqat O'zbekiston Respublikasining fuqarolari qatnashishi mumkin.

Bundan tashqari, amaldagi qonunlar va O'zbekistonning xalqaro shartnomalariga muvofiq, diplomatik daxlsizlik huquqidan foyda-lanuvchi xorijiy fuqarolar ham bundan mustasno. Elchilar, huquq-buzarliklar sodir etgan hollarda, ularga nisbatan Jinoyat kodeksi va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks amal qilmaydi.

**Qonunosti hujjatlari** – qonunlar asosida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlardir. Ularga quyidagilar kiradi:

- 1) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari;
- 2) O'zbekiston hukumatining qarorlari;
- 3) boshqa ijroiya hokimiyat organlarining hujjatlari;
- 4) joylardagi ijroiya organlarning normativ hujjatlari.

Ushbu qonunosti hujjatlari tizimida **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari** alohida o'rinn tutadi, chunki ularni davlat boshlig'i chiqaradi. Ushbu farmonlar normativ xususiyatga ega bo'lishi mumkin. Prezident farmonlari O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va qonunlariga zid kelishi mumkin emas.

**O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining qarorlari** xo'jalik va madaniy qurilishning eng muhim masalalari bo'yicha qabul qilinadi. Ular odatda umumiy xususiyatga va huquq normalariaga ega bo'lib, huquq manbalari hisoblanadi.

Ayrim hollarda ijroiya hokimiyat organlarining hujjatlari ushbu organlar tizimidan tashqarida vujudga keluvchi ijtimoiy munosabat-larni tartibga soladi. Bunday vakolatlar Moliya vazirligi, Adliya vazirligi, Markaziy bank va boshqa tashkilotlarda ayniqsa kattadir.

O'zbekistonda vazirliklar hamda tashkilotlarning fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor normativ hujjatlarni qayd etish davlat tizimi joriy etilgan. Ushbu vazifa O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi zimmasiga yuklatilgan.

Hozirgi davrning asosiy huquqiy tizimlari, qisman, muayyan davlatning milliy huquqiy tizimida qaysi huquq manbalari ustunlik qilishi bilan bir-biridan farq qiladi. Anglosakson huquqi mamlakatlari bo'lgan Angliya, AQSH, Kanada, Avstriya Ittifoqi va boshqalarda huquqiy tizimning asosiy xususiyati bu davlatlarda keyingi qarorlar uchun «namuna» ahamiyatiga ega bo'luvchi va shu bilan huquq normalarini o'rnatuvchi sud prsidentlari, ya'ni sud qarorlarini tan olish va keng qo'llashdan iborat. Yevropa qit'asidagi mamlakatlarda (Fransiya, Ispaniya, Avstriya, GFR va boshqalarda), shu jumladan O'zbekistonda ham qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar: parlament qonunlari, farmonlar yoki davlat rahbarining boshqa hujjatlari va hukumatning hamda alohida vazirlarning tartibga soluvchi hujjatlari huquqning asosiy manbalari hisoblanadi.

Osiyo qit'asidagi mamlakatlarda qonunlar va davlat organlarining boshqa hujjatlari bilan bir qatorda diniy manbalarga asoslangan musulmon, hindu, yahudiy huquqlari, shuningdek, jamoa hayoti an'analari huquqning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

An'anaviy huquq davlat hujjatlari bilan bir qatorda Afrika, Lotin Amerikasining ko'plab mamlakatlari uchun ham xosdir.

Odatlar yoki siyosiy hayotning savdo munosabatlari; oiladagi yoki boshqa kundalik turmush munosabatlaridagi an'analar taraqqiy etgan ko'pgina davlatlarda ham ma'lum ma'noda bo'lsa-

da, yuridik ahamiyatga ega. Jumladan, bir qator Yevropa davlatlarida parlament bilan bir qatorda ma'muriy amaliyatda qirolik hokimiyatining ko'plab huquqiy instituti hukumat tuzishda, an'anaviy boshqaruv organlarining faoliyati qat'iy amal qiladi. Biroq ayni paytda o'tmishdagiga qaraganda ular birmuncha zamonaviylashgan, yozilmagan urf-odatlarga asoslangan (masalan Buyuk Britaniya vazirlar mahkamasini tuzish va uning tarkibi).

Nihoyat, ba'zi mamlakatlarda an'anaviy ahloqiy normalarning huquqiy munosabatlarga bevosita ta'siri saqlanib qolgan. Bu musulmon, hindu, yahudiy huquqlarining diniy va an'anaviy huquq tizimlariga taalluqli. Lekin ahloqiy normalarning huquqiy munosabatlarga ta'siri Yaponiya va Xitoyda alohida ahamiyatga ega. Bu yerda mulkchilik, mulkiy majburiyatlar, sud huquqining asosiy munosabatlarga konfusiylidir va boshqa ahloqiy ta'limotlarning ta'siri katta. Nizolarni hal qilish va javobgarlikni belgilashda davlat qonunlaridan, ayniqsa, sudga murojaat qilishdan oldin tomonlarning kelishib olishlariga urg'u beriladi, ya'ni ahloqiy normalar afzal ko'rildi. Shu bilan birga, Yaponiya va Xitoyning hozirgi huquq tizimi g'arbiy huquq tizimlari va xitoycha sotsializm ta'siri ostida anchagina zamonaviylashgan.

Hozirgi zamon hamjamiyatida davlatlar o'rtasidagi tinchlik va hamkorlik munosabatlari mustahkamlanmoqda va rivojlanmoqda. Bu esa davlatlar o'rtasidagi nizolar va mojarolarni hal qilishga, shuningdek, BMT Nizomi, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga hamda ular asosida ishlab chiqilgan paktlar, konvensiyalar, davlatlar o'rtasidagi shartnomalar va xalqaro huquqning umume'tirof etgan prinsiplari, normalariga asoslangan huquqiy normalarni barcha davlatlar uchun bir xilda qo'llashga imkon bermoqda.

XX asrdagi ikki jahon urushidan so'ng bosqinchilik urushlarining xalqlar uchun halokatli ekanligini tan olgan, BMT a'zosi bo'lgan davlatlar xalqaro huquq normalariga faqat davlatlar o'rtasidagi tashqi siyosiy munosabatlarda emas, balki har bir davlatning ichki hayotida, ularning ijtimoiy va iqtisodiy manusabatlarda ham amal qilinishini ta'minlovchi xalqaro hamkorlik tizimini yaratdilar. Shuning uchun xalqaro huquqning umume'tirof etgan prinsiplari, normalari va davlatlar o'rtasidagi shartnomalar (ikki tomonlama va ko'p tomonlama), jahon hamjamiyati a'zolari bo'lgan davlatlarning konstitusiyalari, qonunlari va odatlari tomonidan ushbu davlatlar huquqiy tizimning tarkibiy qismi, ya'ni davlat ichki huquqlarining manbai sifatida tan olinadi.

Masalan, Fransiya Konstitusiyasining 55-moddasida ratifikatsiya qilingan yoki tasdiqlangan shartnomalar har bir shartnoma yoki bitim ikkinchi tomon e'lon qilinishi bilanoq qo'llay boshlaganda ichki qonunlardan ustun kuchga ega bo'lishi belgilab qo'yilgan. Italiya Konstitusiyasining 10-moddasiga muvofiq, Italiya huquqiy tartibi xalqaro huquqning umume'tirof etgan normalariga muvofiqlashtiriladi. 11-modda esa «urush boshqa xalqlarning erkiga tajovuz qilish vositasi sifatida tan olinmaydi va xalqlar tinchligi va adolatini ta'minlovchi tartib uchun zarur bo'lgan suverenitetini cheklashga boshqa davlatlar bilan o'zaro kelishilgan hollarda yo'l qo'yilishi nazarda tutiladi.

GFR Asosiy qonunining 25-moddasiga muvofiq, xalqaro huquqning umumiyligi normalari Federatsiya huquqining umumiyligi normalari Federatsiya huquqining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular qonunlardan ustunlikka ega va federal hudud aholisining bevosita huquq va majburiyatlarini keltirib chiqaradi.

Shunga o'xshash normalar Ispaniya (93-96-moddalari), Gretsiya (28-moddasi), Yaponiya (98-moddasi) va boshqa davlatlarning konstitusiyalarida mustahkamlab qo'yilgan. Tegishli holat Rossiya Federatsiyasi Konstitusiyasining 15-moddasida ham mavjud (bu haqda quyida so'z yuritiladi).

Shunday qilib, taraqqiy etgan davlatlarda quyidagilar rasmiy bayon qilish va ijobjiy milliy huquqning normalarini mustahkamlashning asosiy manbalari yoki shakllari hisoblanadi:

**birinchidan**, vakolatli davlat organlari yoki umumxalq ovoz berishi orqali qabul qilinadigan qonunlar va boshqa normativ hujjalr;

**ikkinchidan**, sud pretsedentlari yoki sud amaliyatining boshqa huquq ijodkorligi yo'li;

**uchinchidan**, diniy manbalar (muqaddas yozuvlar, kitoblar, sharhlar);

**to'rtinchidan**, iqtisodiy nodavlat hayotidagi shakllangan urflar va odatlar;

**beshinchidan**, xalqaro huquqning umum'tirof etgan prinsiplari va har bir davlat tomonidan belgilangan tartibda ratifikatsiya qilingan shartnomalar, paktlar, konvensiyalar.

### **Hozirgi zamon milliy huquq tizimlari huquq manbalarining asosiy xususiyatlari**

Milliy huquq tizimlari ko'pincha muayyan davlatda qo'llaniladigan o'ziga xos umumiyligida bilan birga huquq oilasidagi «qarindosh» kontinental, umumiyligida bilan birga huquq kabi huquq manbalarini bilan bir-biridan farq qiladi.

Masalan, roman-german huquqi mamlakati bo'lган Fransiyaga qonunlarning ma'muriy huquq sohasidagi yetakchiligi xosdir. Bu yerda rivojlangan ma'muriy adliya tizimining (ya'ni ma'muriy ishlarni ko'rib chiqishning maxsus sud tizimi) mavjudligi tufayli o'ziga xos sud pretsendenti - ma'muriy adliya sudlari qarorlarining katta ta'siri sezilib turadi. Bunday pretsendentlarning yuzaga kelishida ma'muriy adliyaning oliy bosqichi hisoblangan Fransiya Davlat Kengashi asosiy rol o'ynaydi. Aynan sud amaliyoti normativ hujjatlarni yozishga murojaat qilmay turib, ma'muriy huquqning asosiy normalarini shakllantirdi. Bundan farqli ravishda, Fransiya fuqarolik huquqi qonun normalariga avvalo, Fransiya Fuqarolik Kodeksiga, shuningdek, tartibga soluvchi hukumat normalariga asoslanadi. Ushbu doiradagina fuqarolik nizolarini hal qilishda sud amaliyoti normativ ahamiyatga ega. Biroq unda ham sud tomonidan Fuqarolik Kodeksi va qonunlarni sharhlash fransuz fuqarolik huquqini tushuntirish va qo'llashning majburiy tarkibiy qismi hisoblanadi.

Shunga qaramay, «pretsendentli» umumiyligida huquq (common law)ning an'analari va ahamiyati juda katta bo'lган AQShda ham, , qonun huquq manbalarini tizimida yetakchi o'rinni tutadi. Aynan qonun oliy yuridik kuchga ega. Parlament, sud va ma'muriy amaliyot esa qonunni sharhlash, qo'llash va rivojlantirish, hokimiyat tarmoqlari tegishli organlarining faoliyatini tashkil qilish va xususiy huquq masalalarini yechishda muhim ahamiyatga ega. XX asrda sud va ma'muriy amaliyotning ta'siri mintaqaviy huquq tizimidagi boshqa mamlakatlarda sezilarli o'sdi.

Ilgari mustamlaka ostida bo'lган (dominionlar bo'lган) Osiyo va Afrikaning hozirgi bir qancha davlatlarida ularga xos bo'lган huquq manbalarini bilan bir qatorda turli huquq manbalarini va huquq tizimlari uyg'unlashib ketgan. Masalan, Hindistonda qonunlarni pretsendentlar bilan uyg'unlashтирувчи Yevropa anglosakson tipidagi qonunlarga tayanuvchi davlat, ma'muriy, savdo huquqi bilan bir qatorda asosi musulmon va hindu huquqi bo'lган diniy huquq manbalarini ham amal qiladi.

Afrika mamlakatlarida ham an'anaviy manbalar, turli ijtimoiy guruhlarning urf-odatlari sobiq metropoliyalar huquqlari va maxsus mustamlaka qonunlari uni o'zlashtirgan markaziylari va sud hokimiyat qonunlari bilan qo'shib ketgan. Odat huquqi (huquqiy odatlar) asosan yer, oila va meros huquqini qamrab oladi.

Hozirgi sharoitda Rossiya huquqining boshqa xorijiy davlatlar bilan aloqasi sezilarli o'sdi. Shuning uchun malakali yuristlarni tayyorlashda xorijiy davlatlardagi huquq normalarini ifodalash va mustahkamlash manbalarini (shakllari)ni o'rganish zarur. Bu faqat yuristlar dunyoqarashini kengaytirish uchungina emas, mazkur bilimlarni bo'lajak mutaxassislarining faoliyatida amaliy qo'llash uchun ham zarur.

Hozirgi dunyoda xalqaro huquq, xalqaro tashkilotlar (birinchi navbatda BMT)ning paktlari, deklaratsiyalari, rezolyusiyalari orqali namoyon qilingan. Ular milliy huquq tizimlari - shaxs huquqlari va erkinliklarining aniq muammolarini o'z ichiga oladi. Shaxs xalqaro huquq subyekti hisoblanadi. Bu soha, o'z-o'zidan, faqat xalqaro munosabatlarnigina emas, balki mamlakat ichidagi munosabatlarni tartibga solishga ham faol aralashadi. U butun huquq tizimiga, uning ko'pgina tarmoqlariga, avvalambor, konstitusiyaviy huquqqa bevosita ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonda xalqaro huquqning umume'tirof etgan normalari va amaldagi Konstitusiyaga muvofiq, tan olinadi va kafolatlanadi.

O'z-o'zidan ma'lumki, milliy huquq tizimiga «kirib kelish»ning yo'naliishlari turlicha. U xalqaro ommaviy va xalqaro xususiy huquq tomonidan ham amalgalashadi.

Nizolar va mojarolarni hal qilish tartibini boshqarib turuvchi xalqaro protsessual huquqning vazifalari ham sezilarli darajada kengaymoqda.

Xalqaro huquq hozirgi zamon taraqqiyotida o'sib borayotgan umumjahon huquqiga aylanmoqda. Bu insoniyatning global muammolarini hal qilishdagi manfaatlari javob beradi.

### **O'zbekistonda huquq manbalari**

#### **O'zbekistonda huquq manbalari quyidagilardan iborat:**

- 1) xalqaro huquqning umum e'tirof etgan prinsiplari va norma-lari hamda O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari;
- 2) qonunlar;
- 3) qonunosti hujjatlari.

**Xalqaro huquqning umum e'tirof etgan prinsiplari va normalari** – xalqaro huquqning asosiy qoidalari bo'lib, xalqaro hu-quqning barcha subyektlari tamonidan tan olingan va ularni bajarmaslikka yo'l qo'yilmaydi. Ular ichida davlat suverenitetini hurmat qilish, zo'rlik ishlatmaslik yoki zo'rlik ishlatish bilan tahdid qilmaslik, davlatning hududiy yaxlitligi, chegaralarining buzilmasligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, ichki ishlarga aralash-maslik, xalqlarning teng huquqliligi va o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi, insonning huquq va erkinliklarini hurmat qilish, davlatlar o'rtasidagi hamkorlik, xalqaro huquq bo'yicha majburiyatlarni vijdonan bajarish kabilar bo'lishi mumkin.

**Xalqaro shartnoma** – xalqaro huquqning ikki yoki bir necha subyekti tomonidan qabul qilingan bitim bo'lib, huquq va maj-buriyatlarni belgilovchi, o'zgartiruvchi yoki bekor qiluvchi hujjatdir. O'zbekiston Respublikasi siyosiy, iqtisodiy, huquqiy va maxsus masalalar bo'yicha bir necha ming shartnoma tuzgan. 1995 yilda «O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risidagi qonun» qabul qilingan. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, xalqaro shartnomalarning qoidalari O'zbekiston qonunlariga nisbatan ustun-likka ega.

#### **O'zbekiston Respublikasi qonunları** quyidagi guruhlarga bo'linishi mumkin:

- 1) Asosiy qonun – Konstitusiya;
- 2) konstitusiyaviy qonun;
- 3) qonun.

4) Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitusiyasi va qonunlar.

Qonunlar va boshqa normativ hujjatlar orasida **O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi asosiy o'rinni tutadi**. Ushbu hujjat davlat hokimiyatining tashkil etilishini belgilaydi, Konstitusiyaviy tuzum asoslarini, insonlar va fuqarolarning huquq va erkinliklarini mustahkamlaydi. Konstitusiya amaldagi qonunlar uchun yuridik asosdir. Konstitusiya qoidalari boshqa normativ hujjatlarda rivojlantiri-ladi va aniqlashtiriladi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, Qoraqal-pog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tarkibida o'z Konsti-tusiyasiga ega bo'lib, uning qoidalari O'zbekiston Konstitusiyasiga zid kelishi mumkin emas.

**Konstitusiyaviy qonunlar** Konstitusiyaga o'zgartish va qo'shimchalar kirituvchi qonunlardir. Ushbu hujjat uchun Oliy Majlisda oddiy qonunlarga nisbatan ularni qabul qilishning murakkabroq tartib-qoidalari belgilangan.

**Qonunlar**, o'z navbatida, kodifikatsiyalangan va joriy qonunlarga bo'linadi. *Kodifikatsiyalangan qonunlarga* kodekslar kiradi. *Kodeks* – kodifikatsiya xususiyatiga ega bo'lgan qonun bo'lib, o'zida ijtimoiy munosabatlarning ma'lum bir sohasini batafsil tartibga soluvchi normalarni birlashtiradi. Masalan, Fuqarolik kodeksi, Jinoyat kodeksi, Mehnat kodeksi, Soliq kodeksi, Bojxona kodeksi va h.k.

**Qoraqalpog'iston Respublikasining qonunları** qonun chiqaruvchi (vakillik) organ tomonidan qabul qilinadi va bunday qonunlar Qoraqalpog'istonning hududida ijro etilishi shart.

### **Qonunning vaqt bo'yicha amal qilishi**

#### **Qonunlar quyidagi hollarda kuchga kiradi:**

- 1) rasmiy e'lon qilinganidan o'n kun o'tgach;
- 2) qonunda yoki uni amalga kiritish to'g'risida maxsus hujjatda ko'rsatilgan vaqtidan boshlab.

#### **Qonunlar quyidagi hollarda o'z kuchini yo'qotadi:**

- 1) qonunning o'zida ko'rsatilgan muddat tugagan bo'lsa;

2) ushbu qonun bekor qilinishi natijasida (ijtimoiy munosabat-larning shu sohasini tartibga soluvchi yangi qonun qabul qilinishi munosabati bilan).

### **Qonunning zamonda amal qilishi**

#### **Qonunning orqaga qaytish kuchi**

Umumiy qoidaga ko'ra, qonunlar orqaga qaytish kuchiga ega emas. O'zbekistonda jinoyat yoki ma'muriy javobgarlikni yengillashtiruvchi qonunlar orqaga qaytish kuchiga ega.

### **Qonunning makonda amal qilishi**

Qonunlar O'zbekistonning barcha hududlarida amal qiladi. O'zbekistonning davlat hududiga uning suvereniteti ostida bo'lgan hudud kiradi. Ushbu hududga quruqlik, ichki suvlar va hududiy dengiz havzalari, ushbu hududlar ustidagi xavo bo'shlig'i va davlat chegarasi doirasidagi yer osti boyliklari kiradi.

Qoraqlopg'iston qonunlari uning hududida amal qiladi.

### **Qonunning shaxslar orasida amal qilishi**

Odatda qonunlar ushbu hududdagi barcha subyektlar, ya'ni fuqarolar, yuridik shaxslar, davlat organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar uchun majburiydir.

Bundan tashqari, amaldagi qonunlar va O'zbekistonning xalqaro shartnomalariga muvofiq, diplomatik daxlsizlik huquqidan foyda-lanuvchi xorijiy fuqarolar ham bundan mustasno.

Elchilar, huquq-buzarliklar sodir etgan hollarda, ularga nisbatan Jinoyat kodeksi va

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks amal qilmaydi.

**Qonunosti hujjatlari** – qonunlar asosida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlardir.

Ularga quyidagilar kiradi:

- 1) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari;
- 2) O'zbekiston hukumatining qarorlari;
- 3) boshqa ijroiya hokimiyat organlarining hujjatlari;
- 4) joylardagi ijroiya organlarning normativ hujjatlari.

Ushbu qonunosti hujjatlari tizimida **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari** alohida o'rinn tutadi, chunki ularni davlat boshlig'i chiqaradi. Ushbu farmonlar normativ xususiyatga ega bo'lishi mumkin. Prezident farmonlari O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va qonunlariga zid kelishi mumkin emas.

**O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining qarorlari** xo'jalik va madaniy qurilishning eng muhim masalalari bo'yicha qabul qilinadi. Ular odatda umumiy xususiyatga va huquq normalariiga ega bo'lib, huquq manbalari hisoblanadi.

Ayrim hollarda ijroiya hokimiyat organlarining hujjatlari ushbu organlar tizimidan tashqarida vujudga keluvchi ijtimoiy munosabat-larni tartibga soladi. Bunday vakolatlar Moliya vazirligi, Adliya vazirligi, Markaziy bank va boshqa tashkilotlarda ayniqsa kattadir.

O'zbekistonda vazirliklar hamda tashkilotlarning fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor normativ hujjatlarni qayd etish davlat tizimi joriy etilgan. Ushbu vazifa O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi zimmasiga yuklatilgan.

### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. -T.,2009.
- 2.Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. 2-tom, T., 1996.
- 3.Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdur// Xalq so'zi.-2005.-29 yanv.
- 4.X.Boboyev., H.Odilqoriyevlar tahriri ostida. Davlat va huquq nazariysi.. -T., 2000.
- 5.Odilqoriyev H. O'zbekiston Respublikasida qonun chiqarish jarayoni. -T., 1995.
- 6.Adilkariyev X.T. Sudebnaya praktika kak istochnik normotvorchestva // Sovetskaya yustitsiya. 1991. №4. S. 14-15.
- 7.Tadjixanov U., Odilqoriyev X., Saidov A. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyaviy huquqi. –T., 2001.
- 8.Saidov A., Tadjixanov U., Odilqoriyev H. Davlat va huquq asoslari. -T., 2002.
- 9.Saidov A., Tadjixanov U. Davlat va huquq nazariyasi. 2-jild. –T., 2002.
10. Islamov Z.M. Davlat va huquqning umumnazariy muammolari. T. 2 . T., 2001.

11. Qur'oni karim.
12. Istochniki (formi) prava: voprosi teorii i istorii. Materiali Vserossiyskoy nauchnoy konferensii. Sochi, 2002.
13. Kross R. Pretsident v Angliykom prave. M., 1985.

## 11-MAVZU: Huquq ijodkorligi: tushunchasi, prinsiplari va turlari

Reja:

- 1. Huquq ijodkorligi: tushunchasi, prinsiplari va turlari**
- 2. Qonun ijodkorligi tushunchasi va bosqichlari.**
- 3. Normativ huquqiy aktlarning zamon, makon va shaxslar doirasida amal qilishi.**

### Huquq ijodkorligi tushunchasi

Huquq manbalari orasida normativ huquqiy hujjatlar yetakchi o'rinni egallaydi. Normativ aktlar – davlat organi aktlari bo'lib, ularda yuridik normalar bo'lib, huquq ijodkorligi natijasidir. Huquq ijodkorligining o'zi esa undan ham kengroq jarayon bo'lgan huquq shakllanishining tarkibiy qismidir.

Huquq shakllanishi yuridik normani vujudga keltirish va rasmiylashtirishni o'z ichiga olgan nisbatan uzoq jarayondir.

U ijtimoiy sharoitni tahlil qilishdan, uni huquqiy tartibga solish zarurligini anglashdan, yuridik holat haqidagi umumiy tasavvurdan boshlanadi hamda yuridik normani ishlab chiqish va qabul qilish bilan yaqunlanadi. Huquq shakllanishining so'nggi bosqichi huquq ijodkorligidan iborat.

Huquq ijodkorligi – bu normativ huquqiy aktlarni qabul qilish, qayta ishslash va bekor qilish bo'yicha davlat organlarining (referendumda – butun xalqning) va uning mansabdor shaxslarining faoliyatidir.

Huquq ijodkorligi faoliyatiga, yangi yuridik normalarni qabul qilish bilan birga, eskirib qolgan huquqiy normalarning qoidalarini bekor qilish va o'zgartirish ham kiradi.

Huquq ijodkorligi xarakteri jihatdan davlat ahamiyatiga molik bo'lgan faoliyatdir. U jamiatni boshqarishning juda muhim vositasi bo'lib, davlat turi, shakli, mexanizmi va funksiyalari bilan bevosita bog'liq.

Huquqijodkorlikning madaniy saviyasi va darajasi, shunga muvofiq qabul qilinayotgan huquqiy normativ aktlarning sifati – bu jamiatning madaniy va demokratik ko'rsatkichidir. Huquq ijod etish vositasida tabiiy huquq normalari huquqiy normativ aktlar shakliga aylantiriladi va qonunchilik shaklidagi ijobiy huquq sifatida amalga kiritiladi.

### Huquq ijodkorligi prinsiplari

Tabiiy huquq normalari va prinsiplari, fuqarolarning ijtimoiy ehtiyojlari va manfaatlarini qonun darajasiga ko'tarish huquqiy ijodning mazmunini tashkil qiladi. Huquq ijod etish jarayoni ma'lum prinsiplarga tatbiq etilganda uning sifati va samaradorligini ta'minlab beradigan asosiy g'oyalarga asoslanadi. Huquqijodkorlikning asosiy prinsiplari qo'yidagilardan iborat.

**Birinchi prinsip**, huquqiy ijodkorlikning halqchil xarakterga egaligi. Huquqiylikka intilayotgan davlat qonunchilik faoliyatida o'z halqining keng qatlamlari bilan yaqindan aloqada bo'lishi zarur. XVIII asrning o'rtalarida yashagan fransuz huquqshunos-faylasufi SH. Monteskye «Qonun chiqarish xokimiysi halqqa tegishli bo'lishi kerak degan qoida demokratianing asosiy qonunlariga tegishlidir»<sup>23</sup> – degan edi.

Huquq ijodkorligining halqchil xarakteri shunda ko'rindiki, birinchidan, qonun chiqaruvchi organlar xalq deputatlaridan tashkil topadi, ular xalq vakillaridir; ikkinchidan, huquqiy ijodkorlikning barcha subyektlari o'zlarining huquqiy normativ aktlarida fuqarolarining manfaatlarini aks ettiradilar.

**Ikkinci prinsip**, huquq ijodligining demokratizmi. Bu vakillik organining o'zi tomonidan hujjatni tayyorlash va qabul qilishning demokratik jarayonida, shuningdek, huquqiy ijod

<sup>23</sup> Монтескье Ш. Л. О духе законов. - СПб. 1900. 17-6.

faoliyatiga fuqarolarni keng jalg qilishda ko‘rinadi. Qonun loyihalari ishlab chiqish va qabul qilish jarayoni ham o‘zgardi: endi u ancha izchil va oshkoraroq bo‘ldi.

Qonunlarning umumxalq muhokamasi amaliyoti ham keng tatbiq qilina boshladи. Ular mehnat jamoalarida, seminarlarda muhokama qilinayapti. Bunga matbuot, televideniye, radio keng jalg etilmoqda. Ko‘pchilik fuqarolar, shu jumladan huquqshunos-olimlar va amaliyotchilar qonun loyihalari bo‘yicha o‘zlarining shaxsiy mulohazalarini bildirayaptilar va ularni qonun ijod qiluvchi organlarga jo‘natayaptilar. Qonun loyihalari markaziy va mahalliy nashrlarda e’lon qilinmoqda. Muhokama chog‘ida kelib tushgan taklif va mulohazalar huquq ijod qiluvchi organ tomonidan tahlil qilinadi va tayyorlanayotgan qonun hujjatlariga zarur o‘zgartishlar kiritiladi.

To‘g‘rilangan va to‘ldirilgan qonun loyihasi huquq ijod qiluvchi organ muhokamasiga kiritiladi.

Eng muhim qonun loyihalari umumxalq ovoz berishiga (referendumga) chiqarilishi mumkin, bu huquq ijodkorligida demokratizmning yorqin ifodasidir.

***Uchinchi prinsip***, huquq ijodkorligining ilmiy xarakteri va uning huquqni qo‘llash amaliyoti bilan uzviy aloqadorligi. Yuridik normalarni ishlab chiqish va qabul qilish chog‘ida huquq ijod etuvchi organlar ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa sharoitlarni, rivojlanishning obyektiv ehtiyojlarini, ijtimoiy munosabatlarni yuridik tartibga solishning zarurligi va maqsadga muvofaqligini o‘rganadilar. Faqat shu holdagina huquqiy normalar ilmiy asoslangan va samarali bo‘ladi.

Bozor, milliy, davlat, ijtimoiy-maishiy munosabatlarning rivojlanish istiqbollari aniq belgilanmagan hozirgi kunlarda huquqiy ijodga ilmiy tarzda yondoshish talabi ayniqsa o‘sib borayapti. Shuning uchun ham huquqiy normalarni tartibga solishga ehtiyyotlik bilan yondoshilmoqda. Bunday sharoitlarda qonun ijod qilish faoliyatining rejalashtirilishi va ijtimoiy-huquqiy eksperiment alohida ahamyat kasb etadi.

Ijtimoiy-huquqiy eksperiment – bu torroq doirada ma’lum ijtimoiy vaziyatni vujudga keltirish bo‘lib, bunda uning uchun maxsus ishlab chiqilgan huquqiy-normativ akt (yoki ularning majmui) tadqiq etiladi. Uning maqsadi – muayyan sharoitlar uchun qanday yuridik normalarning talab qilinishi va ular qanday amalda bo‘lishlarini tekshirishdir.

Ijtimoiy-huquqiy eksperiment yuridik normalarning kamchiliklarini o‘z vaqtida aniqlashga imkon beradi, ularni yo‘naltiradi va shu bilan birga ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishda xato qilmaslikka ko‘maklashadi.

Qonun chiqarish faoliyatini rejalashtirish ham huquqiy ijodning ilmiy xarakterini ancha oshiradi. Qaror qilish paytida (masalan, vakillik organining kun tartibini tasdiqlash paytida) shoshqaloqlik bilan qabul qilingan qonun hujjatini ilmiy asoslangan va yo‘llangan deb bo‘lmaydi.

Huquq ijodkorligi huquqni qo‘llash amaliyoti bilan yaqin aloqada bo‘lishi kerak. Ana shundagina qabul qilingan huquqiy normativ - qonun hujjatlarining sifati va samaradorligi haqida fikr yuritish imkonи tug‘iladi; ularni o‘zgartirish yoki bekor qilish mumkin bo‘ladi. Shu bilan huquq ijod qiluvchi organlarning ishi takomillashtiriladi va ma’lum bir tarzda yo‘naltiriladi.

***To‘rtinchи prinsip***, huquq ijodkorligining qonuniyligi. Huquq ijodkorik subyektlarining barcha harakatlari, huquqiy normativ aktlarni tayyorlash, qabul qilish va chop etish bo‘yicha qonunga va avvalambor, ularning Konstitusiyaga asoslanishida namoyon bo‘ladi. Huquq ijodkorligining qonuniyligi qonun chiqaruvchi organlarning reglamentga (belgilangan tartibga), muxokama rasmiyatiga, huquqiy normativ aktlarning e’lon qilinishi tartibiga rioya qilishini talab etadi.

### **Huquq ijodkorligining turlari va funksiyalari**

Huquqiy ijodkorlik subyektlari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi: xalq, davlat organlari (hokimiyat va boshqaruв organlari), mansabdor shaxslar. Shunga ko‘ra huquqiy ijodkorlikning quyidagi turlarini ko‘rsatish mumkin:

***Birinchi turi – xalqning bevosita huquqiy ijodkorligi***. Uning eng yorqin ko‘rinishi referendum – davlat va jamiyat hayotining eng muhim masalalari bo‘yicha umumxalq ovoz berishidan iborat. Huquqiy ijod turi sifatida referendum huquqiy normalarni o‘rnatish bo‘yicha

xalq irodasining bevosita aks etishi sifatida ko‘rinadi. Shunga ko‘ra, referendum natijalari davlatning qaysidir organi tomonidan tasdiqlanishga muhtoj emas, agarda referendum qarorining o‘zida boshqacha muddat o‘rnatilmagan bo‘lsa, u e’lon qilingan kundanoq kuchga kiradi. Referendum yo‘li bilan qabul qilinadigan normativ hujjatlar xuddi qonunlar kabi oliy yuridik kuchga egadir.

Referendum huquqiy ijodkorlikning samarali turi bo‘lishi mumkin. U ortiqcha pog‘onalarsiz va bo‘lishi mumkin bo‘lgan tuzatishlarsiz bevosita mamlakat fuqarolarining referendumga chiqarilgan u yoki bu masalani huquqiy tartibga solish va shu bo‘yicha darhol yakuniy qaror chiqarishga imkon beradi. Shu bilan birga referendum ancha qimmatga tushadigan jarayon bo‘lib, kattagina tashkiliy-texnik chiqimni talab qiladi.

**Ikkinci turi – davlat organlarining huquqiy ijodkorligi.** Bu – huquqiy ijodning asosiy shaklidir. Davlat organlarining deyarli hammasi o‘z vakolati darajasida mazkur ish bilan shug‘ullanadilar. Davlat organlari vakolat darajasining hajmi va ko‘lami ular qabul qilgan normativ huquqiy hujjatlarning yuridik kuchini belgilaydi.

**Uchinchi turi – mansabdor shaxslarning huquqiy ijodkorligi.** Hozirgi O‘zbekiston qonunchilikida davlat va nodavlat muassasalarining rahbar hodimlari va mansabdor shaxslarning huquqiy maqomini to‘laroq hajmda aks ettira oladigan, universal tushuncha yo‘q. Amaldagi jinoyat qonunlarida mansabdor shaxs tushunchasining ta’rifi ancha eskirib qolgan, shu bilan birga tor doiradagi maqsadga qaratilgan – ya’ni mansabdorlik jinoyatlari uchun jinoiy javobgarlikka tortiluvchi shaxslar doirasini belgilashdangina iborat.

Mansabdor shaxs – bu davlat hokimiyyati, boshqaruvi yoki nodavlat tashkilotda ma’lum bir mansabni egallagan, o‘ziga yuksatilgan funksiyalarni bajarish uchun huquqiy hujjatlar qabul qilish va unga amal qilishni ta’minalash huquqi berilgan shaxsdir.

Huquqiy hujjatlar qabul qilish va amal kilishini ta’minalash bo‘yicha nodavlat tashkilotlari rahbarlarining (xo‘jalik, tijorat, ijodiy va h. k.) vakolatlari mehnat, fuqarolik, moliya va qonunchilikning boshqa sohalaridan kelib chiqadi.

Mansabdor shaxslarning huquqiy ijod faoliyati faqatgina huquqiy normativ hujjatlar tayyorlash va qabul qilishdangina iborat. Ularning huquqni qo’llash haqidagi hujjatlari huquqiy ijodkorlikka tabiiyki, aloqasi yo‘q.

Quyidagilar mansabdor shaxslar hisoblanadi: vazirlar, boshqarma rahbarlari, bo‘lim, korxona, tashkilot, nodavlat tashkilotlarning rahbarlari, deputatlar va hokazolar.

Huquqiy ijodkorlik jarayonida quyidagi funksiyalar amalga oshiriladi: yangi huquqiy normativ hujjatlarning qabul qilinishi, ya’ni qonunchilikning yangilanishi; eskirib qolgan yuridik normalarning bekor qilinishi; huquqiy bo‘shliklarni to‘ldirish. Bu funksiyalarning amalga oshirilishi qonunlarni rivojlantirish vazifasini hal qilishga imkon beradi.

### **Qonun ijodkorligi tushunchasi va bosqichlari.**

Qonunlar boshqa normativ huquqiy hujjatlar singari huquqiy ijodkorlik natijasidir. Ammo ularni ishlab chiqish va qabul qilish qonunning jamiyat huquqiy tizimida tutgan o‘rnini va roliga bog‘liq bo‘lgan o‘z xususiyatlariga ega. Qonun ijodkorlik faoliyatining eng muhim tarkibiy qismi bo‘lgan qonun ijodkorligi jarayonida yaratiladi.

Qonun ijodkorlik (qonun chiqarish) jarayoni bir necha bosqichlarni o‘z ichiga oladi.

1. **Qonun chiqarish tashabbusi** – ma’lum davlat tashkilotlari va mansabdor shaxslarning qonunlar chiqarish va ularning loyihasini ko‘rib chiqish uchun qonun chiqaruvchi organga kiritish huquqidir. Konstitusiya qonun chiqarish tashabbusi subyektlarini belgilab bergan.

Qonun tashabbuskorlik huquqining bu sohadagi majburiyatlar ham mavjud, bular shu organning alohida muddat ichida qonunni e’lon qilish yoki qonun loyihasiga o‘zgartishlar kiritishini ham ko‘zda tutadi.

Qonunlar loyihasini har xil organlar va alohida mansabdor shaxslar tayyorlaydi. Ko‘pincha, qonun ijodkorlik amaliyotida sohaviy va idoraviy prinsiplar qo’llaniladi. Bunda asosan, qonun loyihalari shu organlar sohasiga to‘g‘ri kelgan organlar tomonidan tayyorlanadi. Shunday qilib Ichki ishlar vazirligi «Militsiya to‘g‘risida»gi qonunni, Mudofaa vazirligi «Mudofaa to‘g‘risida»gi qonunning loyihalarini ishlab chiqdi. Qonun loyihalarini bunday ishlab chiqish

tartibi hali mukammal emas, chunki bu yerda idoraviy manfaatlarni kengaytirish aniq ko‘rinadi. Masalalarga xonaki ovoz berish, ayrim hollarda bunga vakolatli bo‘lman davlat tuzilmalari, mansabdor shaxslarning aralashishi ham uchrab turadi. Tabiiyki, Oliy Majlisning qonun chiqaruvchi organiga aylantirilishi uning qo‘mitalarda, muqobil asosda bir qancha qonunlarni ishlab chiqilishiga olib keldi. Lekin vazirliklar va idoralarni ular faoliyatini tartibga soluvchi qonun loyihasini ishlab chiqishdan to‘liq chetlashtirish ham noto‘g‘ri bo‘lur edi.

2. ***Qonun loyihasini muhokama qilish*** - bu qonun chiqaruvchi organ majlisida qonun loyihasini kiritgan idora vakilining ma’ruzasidan keyin bo‘ladi. Qonun chiqaruvchi organ ishida ishtirok etayotgan deputatlar qonun loyihasiga baho bergenlaridan keyin unga o‘zlarining qo‘shimchalarini kiritadilar.

3. ***Qonun qabul qilish*** deputatlarning bevosita ovoz berish yo‘li orqali amalga oshiriladi. Parlamentning ko‘pchilik a’zolari ovoz bersa qonunlari qabul qilingan deb hisoblanadi. Konstitusiyaviy qonun oliy vakillik organi deputatlarining kamida uchdan ikki qismi ovoz bergen takdirda qabul qilinadi. Ba’zi hollarda qonun loyihalari bo‘yicha nomma-nom ovoz berish ham o‘tkaziladi.

4. ***Qonunning e’lon qilinishi***. Qonunning rasmiy ravishda e’lon qilinishi – har qanday qonunning kuchga kirishi asosidir. Qonunlar qabul qilingandan so‘ng Oliy Majlis axborotnomasida, «Xalq so‘zi» va «Narodnoye slovo» gazetalarida e’lon qilinadi.

**Hozirgi ikki palatali parlament sharoitda qonunlarni qabul qilish quyidagi besh bosqichda amalga oshiriladi:**

Qonunchilik tashabbusi;  
Qonun loyihasini muhokama qilish;  
Qonunchilik palatasida qonunni qabul qilish;  
Senatda qonunni ma’qullash;  
Prezident tomonidan imzolanishi va e’lon qilishini.

**Normativ huquqiy aktlarning zamon, makon va shaxslar doirasida amal qilishi.**

#### **Qonunning vaqt bo‘yicha amal qilishi**

Qonunlar quyidagi hollarda kuchga kiradi:

1) rasmiy e’lon qilinganidan o‘n kun o‘tgach;

2) qonunda yoki uni amalga kiritish to‘g‘risida maxsus hujjatda ko‘rsatilgan vaqtdan boshlab  
Qonunlar quyidagi hollarda o‘z kuchini yo‘qotadi:

1) qonunning o‘zida ko‘rsatilgan muddat tugagan bo‘lsa;

2) ushbu qonun bekor qilinishi natijasida (ijtimoiy munosabatlarning shu sohasini tartibga soluvchi yangi qonun qabul qilinishi munosabati bilan)

#### **Qonunning xudud bo‘yicha amal qilishi**

Qonunning orqaga qaytish kuchi umumiy qoidasiga ko‘ra qonunlar orqaga qaytish kuchiga ega emas. O‘zbekiston hududida jinoiy yoki ma’muriy javobgarlikni bekor qiladigan yoki yumshatadigan qonunlar orqaga qaytish kuchiga ega bo‘ladi.

Qonunlar O‘zbekistonning barcha hududlarida amal qiladi. O‘zbekistonning davlat hududiga uning suvereniteti ostida bo‘lgan xudud kiradi. Ushbu xududga quruqlik, ichki suvlar va hududi dengiz havzalari, ushbu xududlar ustidagi xavo bo‘shlig‘i va davlat chegarasi doirasidagi yer osti boyliklari kiradi.

Davlat xududiga O‘zbekiston bayrog‘i tikilgan dengiz va havo kemalari, suv osti kemalari, truboprovodlar va O‘zbekistonga tegishli bo‘lgan boshqa obyektlar ham tenglashtirilgan.

Qoraqlapog‘iston qonunlari uning hududida amal qiladi.

#### **Qonunning shaxslarga nisbatan amal qilishi**

Odatda qonunlar ushbu hududdagi barcha subyektlar, ya’ni fuqarolar, yuridik shaxslar, davlat organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar uchun majburiydir.

Huquq normalari talablarining O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, xorijliklar va fuqaroligi bo‘lman shaxslar uchun majburiyligi huquqning umumiy prinsipi hisoblanadi. Lekin istisnolar ham mavjud. Masalan, «Harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida»gi qonunning talablari

faqat O'zbekiston fuqarolariga tegishlidir. «Referendum to'g'risida»gi qonunga binoan referendumda faqat O'zbekiston Respublikasining fuqarolarini qatnashishi mumkin.

Bundan tashqari, amaldagi qonunlar va O'zbekistonning xalqaro shartnomalariga muvofiq, diplomatik daxlsizlik huquqidан foydalanuvchi xorijiy fuqarolar ham bundan mustasno. Elchilar, ishonchli vakillar huquqburzaliklar sodir etgan hollarda, ularga nisbatan Jinoyat kodeksi va Ma'muriy jjavobgarlik to'g'risidagi kodeks amal qilmaydi.

#### **Oliy majlis qo'shma majlisdag'i Prezident nutiqidan:**

Yerishilgan yutuqlarni qayd etar ekanmiz, shu bilan birga, avvalgi parlamentimiz faoliyatidagi kamchilik va nuqsonlar, foydalanilmasdan qolgan imkoniyatlar haqida ham aytib o'tishni zarur, deb bilaman. Bugun, Oliy Majlisning kelgusi besh yildagi faoliyatining asosiy vazifalari va ustuvor yo'nalishlari belgilab olinayotgan bir paytda bu ayniqsa muhimdir.

Birinchidan, shuni tan olish kerakki, Qonunchilik palatasi faoliyatidagi eng katta kamchiliklardan biri uning qonun ijodkorligi ishlari bo'yicha churqar va har tomonlama puxta ishlab chiqilgan, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sotsial-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy islohotlar jarayonining talablari bilan uzviy bog'liq bo'lgan, uzoq istiqbolga mo'ljallangan o'z dasturiga ega emasligida ko'rindi.

Bu ko'pincha qonunlarning aniq bir tizimga riosa qilmagan holda, ularning qonunchilik tashabbusi huquqiga ega bo'lgan subektlar tomonidan kiritilishiga qarab qabul qilinishiga olib kelayotgan sabablardan biridir.

Ikkinchidan, iqtisodiy, siyosiy, gumanitar sohalarda jadal rivojlanayotgan islohotlarni amalga oshirish uchun hayotiy zarur bo'lgan qonunlarni kiritish tashabbusi bilan chiqishda va ularning qabul qilinishini tezlashtirishda deputatlar korpusining sustkashligi, bu borada yetarlicha faollik ko'rsatmayotgani jiddiy kamchilik hisoblanadi. Keyingi besh yil mobaynida Qonunchilik palatasiga taqdim etilgan 297 ta qonun loyihasidan atigi 44 tasi deputatlar tashabbusi bilan kiritilgan.

Ayni paytda, 42 ta qonun loyihasi bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan taqdim etilgan, 160 tadan ziyod qonun loyihasi esa mamlakatimiz hukumati tomonidan kiritilgan bo'lib, ularning aksariyat qismi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlarining ijrosini ta'minlash munosabati bilan taqdim etilgan.

Uchinchidan, qabul qilinayotgan qonunlarning sifatini tubdan yaxshilash talab etiladi. Ularning ko'pchiligi amaldagi qonun hujjalari o'zgartish, tuzatish va qo'shimchalar kiritishga qaratilgan bo'lib, kodifikatsiyalashish xarakteriga, ya'ni, muayyan darajada tizimlashuv mazmuniga ega emas.

Qabul qilinadigan qonun loyihamida amaldagi qonun hujjalardan farq qiladigan tafovutlarga, takrorlarga yo'l qo'yilganini, boshqa hujjalarga havola qilish holatlari ko'pligini qayd etish lozim.

Va eng asosiy kamchilik qabul qilinadigan qonunlarda aksariyat o'rnlarda ana shu qonun hujjalaring hayotga tatbiq etilishini ta'minlaydigan protsessual mexanizmlarning mavjud emasligida ko'zga tashlanadi. Bu esa o'z-o'zidan ushbu hujjalarning qo'llanishini sezilarli darajada qiyinlashtiradi, qonunlarning ijro etilmasligiga, huquqiy nigelizmga, ya'ni har qanday huquqiy normaning inkor qilinishiga, huquqni qo'llash amaliyoti samaradorligining pasayishiga olib keladi.

**To'rtinchidan, qonunda ko'zda tutilgan deputatlik nazorati va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishga ta'sir ko'rsatish shakllaridan sust foydalanilmoqda.**

Quyi palata faoliyat yuritgan butun davr mobaynida atigi bir nechta, xususan, innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish, kimyo sanoati korxonalari qurilishini jadallashtirish va yangi turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan bog'liq masalalar bo'yicha parlament so'rovi amalga oshirilganini albatta yetarli deb bo'lmaydi.

**Beshinchidan, parlament deputatlarining o'z saylov okrugidagi tizimli faoliyatini sezilarli darajada yaxshilash talab etiladi.**

Aynan ana shunday faoliyat qabul qilingan qonunlar qanday ishlayotganini, xo'jalik yuritish amaliyoti bugungi kunda qanday qonunlarga muhtoj ekanini, saylovchilar qanday

muammolarga duch kelayotgani va ularni hal etish bo'yicha nimalar qilish zarurligini aniqlash uchun deputatga imkon bergan bo'lardi.

Bu haqda ko'p gapirmasdan, birgina misolni keltirish mumkin. "o'zbekistonRespublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining saylov okrugidagi faoliyatini tashkil etish tartibi" palata tomonidan 2008 yilning may oyiga kelib, ya'ni parlament faoliyatining to'rtinchisligidagina ishlab chiqilgani va qabul qilinganini aytib o'tishning o'zi kifoya, deb o'ylayman.

Afsuski, deputatlarning saylov okrugidagi faoliyati asosan shunchaki uchrashuvlar tashkil qilishdan iborat bo'lib qolgan, tahlillarning ko'rsatishicha, ular ham ko'pincha nomigagina o'tkazilib, faqat shikoyat va savollarga javob qaytarish bilan cheklanilgan.

Oltinchidan, quyi va yuqori palatalar amaliy faoliyatining ayniqsa dastlabki davrida aksariyat hollarda har ikki tomonning o'z ambitsiyalarini namoyon etishi bilan bog'liq bo'lgan jiddiy muammolar ham kuzatildi, bunday ziddiyatlar qonun hujjatlarini qabul qilish muddati va sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

105. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. -T., 1998.
106. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdur // Xalq so'zi.-2005.-29 yanv.
107. X.Boboyev., H.Odilqoriyevlar tahriri ostida. Davlat va huquq nazariyasi.. -T., 2000.
108. Tadjixanov U., Odilqoriyev X., Saidov A. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyaviy huquqi. -T., 2001.
109. Saidov A., Tadjixanov U., Odilqoriyev X. Davlat va huquq asoslari. -T., 2002.
110. Tadjixanov U., Gulyamov Z. Pravovoye regulirovaniye deyatelnosti militsii. -T., 1995.
111. Dzaparov A.T. Normi prava. Vidi pravovix norm, reguliruyushix deyatelnost organov vnutrennix del. -T., 1993.
112. Saidov A., Tadjixanov U. Davlat va huquq nazariyasi. 2-jild. -T., 2002.
113. Islamov Z.M. Davlat va huquqning umumnazariy muammolari. 2-q. T., 2001.
114. Islamov Z.M. Huquq tushunchasi, mohiyati, ijtimoiy vazifasi. T., 2004.
115. Nersesyans V.S. Huquq falsafasi. T., 2003.
116. Malaxov V.P., Kazakov V.N. Teoriya gosudarstva i prava. -M., 2002.
117. Marchenko M.N. Obshaya teoriya gosudarstva i prava. Tom 1-2. -M., 1998.

### **12-MAVZU: HUQUQ TIZIMI**

**Reja:**

#### **4.Huquq tizimi tushunchasi va tavsifi**

#### **5.Huquq tizimining tarkibiy tuzilishi**

#### **6.Huquqiy tartibga solish predmeti va usuli**

Tizim iborasi muhim tushuncha bo'lib, undan insoniyat bilimining turli sohalarida foydalilanadi. Falsafiy nuqtai nazardan bu turkum (kategoriya) atrof-muhitdan o'ziga xos tarzda ajratilgan bo'lib, ichki izchillik, o'zaro aloqadorlik yoki munosabatlarning bir butunligini qamrab oladi.

Binobarin, huquq tizimi to'g'risidagi masala – bu huquqning tarkibiy qismlari, ularning o'zaro aloqadorligi, rivojlanish jarayonini tashkil etish usullari to'g'risidagi masaladir. Boshqacha aytganda, huquq tizimini ilmiy o'rganish, uning tashkiliy tuzilishini ochib berish, tuzilishi va rivojlanishi tamoyillarini ko'rsatib berish demakdir.

**Huquq tizimi to'g'risidagi olimlar fikriga e'tibor qarataylik, "Huquq tizimi, - deya qayd etadi, rus olimasi Morozova, - huquqning tashkiliy tizimi bo'lib, uning mavjud bo'lishi obyektiv shart-sharoitlari (milliy, madaniy, tarhiy va sh.k.) bog'liq va huquqning ichki tuzilishining yagonaligi bilan ta'minlanadi"**<sup>24</sup>. Huquq tizimi – huquqning ichki

<sup>24</sup> Морозова Л.А. Основы государства и права: Учебник. –М.: HOPMA. 2004. С.97.

**tuzilishi, ichki qurilishi – tarkibi bo‘lib, u huquqning qanday qismlardan iborat ekanligini va qismlar o‘rtasidagi munosabat hamda nisbatni ko‘rsatadi.<sup>25</sup> Yoki, huquq tizimi – ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqning ichki tuzilishi bilan obyektiv bog‘langan, huquqiy normalarni izchil tarzda joylashtirilishining ifodasidir.<sup>26</sup> Yuqoridaagi fikrlardan ma’lumki, huquq tizimi huquqning strukturaviy tuzilishidir. Uning tarkibiga: huquq normasi, huquq instituti va huquq sohasi (tarmog‘i) kiradi.**

Davlat huquqining, umuman, barcha huquqlarning tuzilishi va rivojlanishi, oqibatda ijtimoiy munosabatlarning tizimi bilan belgilangan bo‘lib, jamiyatning rivojlanish bosqichlariga muvofiq tashkil etiladi. Huquq tizimi erkin, o‘zicha tashkil bo‘lmay, balki obyektiv voqelik sifatida qonuniy (aniq) tarixiy-ijtimoiy munosabatlar tizimi holati bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Hozirgi zamon davlatchiligiga muvofiq ichki jihatdan uyg‘unlashtirilgan barcha jamiyat ifodasi bo‘lishi, ayni vaqtida, ichki qarama-qarshiliklar tufayli o‘zini-o‘zi inkor etmasligi kerak.

Xatto agar huquqning ichki o‘zaro aloqadorligi, huquqiy tartibga solish tizimining o‘zaro bog‘liqligi mavjud bo‘lsa, u holda qonun chiqaruvchilar o‘zлari istagancha huquqiy qoidalarni chiqara olmaydilar.

Huquq tizimining real mazmunini huquq instituti va huquq tarmog‘iga birlashgan huquqiy qoidalari tashkil etadi. Shunday qilib, huquq normasi, huquq instituti va huquq tarmoqlari huquq tizimining asosiy elementlari hisoblanadi. Natijada, huquqiy tizim asosan ikki omil ta’siri ostida yashaydi, rivojlanadi va takomillashadi. U, **birinchidan**, ijtimoiy munosabatlarning turli qirralarini, eng avvalo, iqtisodiy munosabatlarni ifodalovchi jamiyat ijtimoiy ehtiyoji bo‘lsa, **ikkinchidan**, qonun chiqaruvchilarning faoliyati, ya’ni ijtimoiy turmush talablari bilan muvofiq keladigan huquqiy (normalarni) qoidalarni yaratadigan idoralarning huquqiy ijodkorlik faoliyatidir.

Binobarin, huquq normasi instituti va sohasida o‘zgarish bo‘lishi huquq tizimi rivojlanishining real ko‘rinishi bo‘lib hisoblanadi.

Huquq tizimining tushunchasini qonunchilik tizimining tushunchasi bilan aralashtirib yubormaslik kerak. Qonunchilik tizimi yuridik qoidasi, norma shaklining ifodasi hisoblangan qonunlar va qonunga muvofiq chiqarilgan huquqiy hujjatlarning yig‘indisini o‘zida ifoda etadi.

Bundan tashqari, qonunchilik huquqiy qoidalari o‘zida chaqiriqlar, deklaratsiyalar, ta’riflar, huquqiy hujjatni chiqarishning maqsadi va sababini ham ifoda etadi.

Huquq tizimi, uning huquq tarmoqlari va institutlarga joylashgan ichki tuzilishi bilan tavsiflansa, qonunchilik tizimi huquqning tashqi shakli ifodasi sifatida, uning manba holatiga taalluqli bo‘ladi.

Bu farq obyektiv ta’rifga ega bo‘lib, qonunlarning tarmog‘i, birinchidan, huquq tarmog‘i bilan bir-biriga to‘g‘ri kelmaydi, ikkinchidan, huquq tizimining tashkil bo‘lish tamoyillaridan farqlanib, u o‘zining asosiy tamoyillariga muvofiq tizimni ifoda etadi.

Qonunchilik tarmog‘i tuzilishining asosi sifatida huquqning ijtimoiy munosabatlarga ta’sir etish tamoyillarining ko‘proq samaradorligi olinadi. Shunga muvofiq amaliy mezon sifatida qonunlarni tizimga solish amalgalashiriladi.

Shunday qilib, **huquq tizimi – bu ijtimoiy munosabatlarning tizimi huquqning ichki tuzilishi bilan obyektiv bog‘langan, huquqiy materialarning izchil tarzda joylashtirilishining ifodasidir.**

Huquq tizimining obyektiv xususiyatiga nisbatan tasavvur, ishlab chiqarish munosabatlarining huquqdagi ifodasi sifatida, insoniyat ongiga, faoliyatiga bog‘liq bo‘lmay, huquq fanida 1940 yildan boshlab vujudga keldi va deyarli 1980 yillargacha hukmronlik qildi.

<sup>25</sup> Давлат ва хукуқ назарияси: Олий ўқув юртларининг хукуқшунослик мутахассислиги бўйича таълим олаётган талабалар учун (Бобоев Х.Б., Исломов З.М., Чориёров У. //Масъул мухаррирлар: Х.Б.Бобоев, Х.Т.Одилқориев.) – Т.: 2000 йил. 312-бет.

<sup>26</sup> Сайдов А., Таджиханов У. Давлат ва хукуқ назарияси: Икки жилдли, 2-жилд. Хукуқ назарияси – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2001 йил.156-бет.

Huquq tizimi bilan qonunchilik tizimi tushunchalarini ko'rib chiqishda, huquqiy jamiyatdagi voqelik va yuridik fan tushunchalarida ularning birini ikkinchisiga qarama-qarshi qo'yish, qonun ishlab chiqaruvchilarining huquq tizimini shakillantirishdagi rolini kamsitish aslo ko'zda tutilmagan. Biroq, ularning har ikkalasini bir xil, o'xshash deb hisoblash ham maqsadga muvofiq emas. Bayon qilingan asoslardan tashqari bu tushunchalarni farqlashning foydasi qonunchilik tizimini tashkiliy boshqarishda, qonun chiqaruvchilarining faolligiga qaraganda, huquq tizimining tashkil bo'lish omillari hiyla ko'p sonli va ko'p qirrali ekanligini esga olishni taqozo etadi.

Huquq tizimi tushunchasini, huquqiy tizim tushunchasidan farqlash zarur, bu haqda boshqa adabiyotlarda ham gap borgan edi. Bu yerda faqat shuni eslab o'tish kifoyaki, huquq tizimiga qaraganda huquqiy tizim - xiyla kengroq tushunchadir.

### **Huquq tizimining tuzilishi**

Huquq tizimi tuzilishning ichki elementlari sifatida, yuqorida aytib o'tilganidek, alohida huquq normalari, institutlari va tarmoqlari qatnashadi. Huquq sohasi – bu ijtimoiy munosabatlarning bir hil guruhini batafsil tartibga solib turuvchi o'ziga xos yuridik qoidalar majmuidir.

Boshqacha aytganda, bu obyektiv ravishda yagona huquq tizimida tashkil topgan, o'xshash ijtimoiy munosabatlarni aniq tamoyillar va maxsus usullar asosida batafsil, sifatli tartibga solib turuvchi huquqiy qoidalar va institutlarning alohida ajratilgan ichki guruhi sifatidagi qismidir. Shu bois, u mustaqillikka va barqarorlikka ega bo'ladi.

Odatda, huquq sohasiga aniq yuridik bir butunlik majmuini ifodalovchi huquqiy qoidalar qiradi, ya'ni mazkur huquqiy qoidalar guruhi boshqa barcha huquq sohalari oldida xuddi «ajralmaydigan», yagonadek harakat qiladi.

Huquq sohasining maxsus belgisi bo'lib shunday holatlar hisoblanadiki, mazkur huquqiy qoidalar guruhi huquqning boshqa sohalari bilan yagona tizimning elementi sifatida o'zaro harakatda bo'ladi.

Bunday turdag'i o'zaro harakat masalan, jinoyat va jinoyat protsessi huquqning o'zaro qoidalarida kuzatiladi, chunki, jinoyat protsessi qoidalari moddiy huquqning yashash shakli hisoblanib, jinoyat huquqining tatbiq etilish jarayoniga hizmat qiladi.

Huquq sohasining bir butunligi va uning boshqa tarmoqlar bilan o'zaro hamkorlikda bo'lish layoqati uning muhim tashkiliy funksiyasiga oid belgisidir. Shu bilan bir vaqtida ko'rsatilgan belgi yana bir tarmoqni ikkinchisidan ajratishga olib keladigan asosiy mezon bo'lib hisoblanmaydi. Huquq tizimi tuzilishining tamoyillari yoki asosiy mezoni huquq sohalarini chegaralovchi sifatida huquqiy boshqarishning uslubi va predmeti hisoblanadi.

Huquqiy boshqarish predmeti, huquqiy qoidalar guruhining boshqariladigan obyekti sifatida ishtirok etadigan, ijtimoiy munosabatlarning sifati o'xshash jihatidan guruhini tushunish lozim. Xuddi shunday, ma'muriy huquqni huquqiy tartibga solishning maxsus predmeti bo'lib, boshqarish faoliyatining amalga oshirilishi jarayonidan kelib chiqadigan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Huquqning har bir tarmog'i o'zining maxsus huquqiy tartibga solish predmetiga ega.

Huquq tizimining alohida tarmog'i o'z navbatida huquq institutlari deb ataladigan birmuncha kichik bo'limlarga bo'linadi. Huquq instituti - bu o'xshash munosabatlarni batafsil tartibga soluvchi alohida huquqiy qoidalar guruhidir. Huquq institutiga fuqarolik huquqining bir guruh qoidalari, mulk egasining huquq va majburiyatlarini tartibga soluvchi yoki mualliflik huquqi, vorislik, davlat huquqi sohasida saylov huquqi instituti va hokazolar misol bo'lib xizmat qiladi.

Huquq institutlari sohalar va sohalararo (kompleks) bo'lishi mumkin. Sohalar bo'yicha institut o'zida bir soha ichidagi huquqiy qoidalar guruhini mujassamlashtiradi, bunga misol sifatida fuqarolik huquqi institutini keltirish mumkin.

Biroq ayrim huquqiy institutlar o'ziga bir necha huquq sohalariga tegishli bo'lgan huquqiy qoidalarni birlashtiradi. Masalan, saylov huquqi instituti o'ziga jinoyat, ma'muriy va davlat huquqiga oid qoidalarni mujassamlashtirgan. Shu munosabat bilan huquqning umumiy

tizimida alohida institutlarning rivojlanishi ahamiyati jihatidan ularning imkoniyatiga qarab ozmi ko'pmi mustaqil sohalari kengayishidan kelib chiqadi. Bunday holatlarga hozir, masalan, mualliflik huquqi, oila huquqi va boshqalar ega.

Huquqning tizimini tasavvur etishda juda muhim bo'lgan bir necha tarixiy ilmiy munozalarni eslab o'tish lozim. Ana shunday ilmiy munozaralardan biri 1938-1940 yillarda o'tkazilgan bo'lib, ilmiy fikrlarni asosan, huquq tizimining sohalarga bo'linishining eng muhim (munozara ishtiroqchilaridan ba'zilarining fikricha - yagona) me'zoni deb uning predmetiga qaratdilar. Natijada, yuridik adabiyotlarda huquqiy tartibga solish predmeti o'zicha huquq sohasining ayrimlarini tavsiflashda yetarli emas, degan fikr bildirildi. Shunga ko'ra, basharti aytilgan fikrlar nuqtai nazaridan, huquq sohasini tartibga solish predmetining o'ziga xos yagona belgisi deb hisoblasak, unda sanoqsiz ko'p sonli huquq sohasi vujudga keladi. Har bir huquqiy qoida guruhi ozmi, ko'pmi alohida ajratilgan bo'lib, mustaqil soha sifatida harakat qilishga majbur bo'ladi.

Asta-sekin shunday ishonch shakllandiki, huquq sohasini tartibga solishda uning predmetidan tashqari yana ijtimoiy munosabatlarga ta'sir etadigan, o'ziga xos ajralib turadigan vositalarini, ya'ni huquqiy boshqarish usulini, huquqning ijtimoiy munosabatlarning alohida sohasiga ta'sir etish usullari majmuini ham tushuna boshladik. Hozir yuridik adabiyotlarda shunday nuqtai nazar ustunlik qiladiki, unga muvofiq huquq tizimini sohalarga ajratishda ikki asosiy tomojil: huquqiy boshqarishning predmeti va usuli (metodi) asos bo'lib hisoblanadi.

1982 yilda «Sovet huquqiy tizimi va uning istiqbollari» mavzusi bo'yicha navbatdagi ilmiy munozara «Sovet davlati va huquqi» jurnalining tashabusi bilan uyushtirilgan va uning sohifalarida ifodalangan edi (1982 yil 6, 7, 8-sonlari). Ana shu ilmiy munozara ishtirokchilarining chiqishlarida diqqat e'tibor yangidan yana huquq sohalarini ajratishning bosh mezoni sifatida huquqiy boshqarishning usuli va predmetiga, shuningdek, maxsus huquqiy tartibni tashkil etish (P. B. Yefgrafov), sohalarni boshqarish mexanizmiga (V. F. Yakovlev) qaratildi.

Munozaraning qisman ilmiy yangiligi shundan iborat ediki, bunda ko'pchilik olimlar o'zlarining ilmiy ma'ruzalarida, chiqishlarida qonunchilik tizimi va huquq tizimining o'zaro nisbati to'g'risida mavjud bo'lgan tushunchalarni bir qadar qayta ko'rib chiqishga chaqirdilar. Munozara ishtiroqchilarining fikriga ko'ra qonunchilik tizimi va huquq tizimini bir-biriga qarshi qo'yish va ajratib tashlash mumkin emas.

Ular garchi, tashqi bo'lish usullari va ichki tuzilishlari bilan farq qilganlarida ham, teng miqdorda qonun chiqaruvchilarning faoliyatidan hosil bo'lgan (A. V. Mitskevich, S. N. Bratus va boshqalar).

Huquqiy boshqarishning usuli uchta asosiy holat bilan tavsiflanadi:

**birinchidan**, subyektiv huquq va yuridik burchlarning o'matilish tartibi;

**ikkinchidan**, subyektlar xarakatining «avtonomiysi» va ular darajasining aniqligi;

**uchinchidan**, subyektiv huquq va yuridik burchlarni ta'minlash vositasi va yo'llaridir.

Huquqiy boshqarish usulining xususiyati, huquq tarmog'ini tahlil qilishda yaqqol ko'zga tashlanadi. Jinoyat huquqi uchun ko'p hollarda «qattiqqo'llik» uslubi huquqiy boshqarish xususiyatining mezoni hisoblanadi. Masalan, bezorilik, o'g'rilik, shifokorning kasalga yordam ko'rsatmaslik oqibatidagi harakatsizligi, harbiy xizmatdan bo'yin tov lash va xokazo. Fuqarolik huquqida aksincha, ko'pgina hollarda subyektlarning shaxsiy xohishlariga ko'ra erkin bo'lishiga, ularning xatti-harakatida avtonomiya yo'l qo'yiladi.

Huquqiy tartibga solish usulining asosan ikki turi mavjud: buyruqqa asoslangan yoki avtoritar usul va dispozitiv usul yoki avtonomiY.

Avtoritar usulning mohiyati huquqiy munosabat ishtiroqchilarining hatti-harakati «qattiq» tartibga solinganda, ularning teng bo'lмаган munosabatlarda hukumron va itoat etish, subyektiv huquq va yuridik burchlarga ega bo'lgan shaxslarning o'zaro aloqalari bilan tavsiflanadi. Bunday boshqarish usuli ko'p hollarda, ma'muriy, jinoyat, davlat huquqi uchun xarakterlidir.

Avtonomiya (dispozitiv) usuli taraflarning o'z irodasini ifodalash erkinligini, ular holatlarining tengligi, erkin ravishda u yoki bu hatti-harakatni tanlashda mustaqilligini

ifodalaydi. Masalan, bu usul fuqarolik, oila huquqida yaqqol ko‘rinadi. Yuridik adabiyotlarda shunday fikrlar ham aytulganki, har bir huquq sohasini huquqiy tartibga solishning umumiy usuli sifatida ajratish taqozo etildi.

Shunday qilib, huquq tizimini sohalarga bo‘lish, huquq tizimini bir butun tarkibiy qism sifatida to‘ldiradigan, yuqorida ko‘rsatilgan huquq sohasining tuzilish xususiyati, huquqiy tartibga solish usuli va predmetiga asoslanadi.

### **Asosiy huquq sohalarining tavsifi**

Huquqshunoslik fanida huquq tizimda *umumiy huquq* va *xususiy huquq* deb ataladigan iboralar qabul qilingan. Huquqshunos olimlarning fikricha huquq tizimining bunday bo‘linishi tabiiy hol bo‘lib, davlat va shaxs-larning o‘zaro munosabatlari tabiatidan kelib chiqadi. Bunday nazariya o‘zining tub ildizlari bilan asrlar qariga borib taqaladi. Jumladan, qadimgi Rimda huquq ikki sohaga – umumiy va xususiyga ajratilgandi.

Qadimgi Rim huquqshunosi Ulpian fikricha, umumiy huquq davlat faoliyatiga doir bo‘ladi, xususiy huquq esa, ayrim shaxslarning foydasi uchun xizmat qiladi.

Xuddi shuningdek, huquqning bunday bo‘linishining ahamiyati hozirgi zamon huquq nazariyasida ham saqlanib turibdi. Uning mohiyati jamiyatidagi ijtimoiy munosabatlar xususiy mulkchilikka asoslanganligining ifodasidir.

Umumiy huquqqa - davlat, jinoyat, ma’muriy huquq sohalari, xususiy huquqqa fuqarolik, oila, mehnat huquqi kabilar sohalar kiradi.

Sobiq sovet davlati huquqning umumiy va xususiy bo‘linishiga nisbatan salbiy munosabatda bo‘lib kelgan.

20-yillarda RSFSR Fuqarolik kodeksini ishlab chiqishda V. I. Leninning siyosiy byuro a’zosi adliya xalq komissari D. I. Kurskiyga yozgan xatida hususiy-huquqiy munosabatlarga davlat hokimiyatining aralashuvini ta’minlash va kengaytirish lozim ekanligi haqida aytib «biz hech qanday «xususiy» narsani tan olmaymiz, xo‘jalik sohasidagi hamma narsalar biz uchun xususiy emas, balki xalq huquqiga tegishli narsalardir», degan edi.

Bunday yo‘l tutish barcha huquqiy tizimni yoppasiga davlatlashtirishning mafkuraviy asosi bo‘lib xizmat qildi. Totalitar tartib ta’siri ostida umumiy-huquqiy qoidalar yoppasiga hukmronlik qilgan paytda, huquqqa barcha qonunlar faqat davlat tomonidan yaratiladi, ularning hammasiga «ruxsatnama», «rozilik» berilishi shart degan fikr qon-qonimizga singib ketadigan edi.

Barcha mulk shakllarining, shu jumladan xususiy mulkning tengligiga va fikr erkinligiga asoslangan, bozor iqtisodiyotiga o‘tish, O‘zbekiston huquqiy tizimini umumiy va xususiy huquqqa bo‘lish, o‘ziga xos «qaytishni» bildiradi.

Tabiiyki, bunday sharoitda xususiy xuquq sohalarini tartibga solish uchun har bir huquqiy normani aniqlash va tanlab olish, huquq institutlari va huquq sohalarini yana bir ko‘rib, nazaridan o‘tkazish taqozo etiladi.

Huquq shakllanishining boshqa yo‘li - bu mulk, tadbirkorlik, xususiy lashtirish va boshqa qonunlar tayyorlash va ularni amalga kiritishdir. Shuni ham aytish kerakki, umumiy-huquqiy qoidani tartibga solish tajribasi bizda shakllangan. Eng muhimmi, shaxs manfaatini davlat bilan bo‘ladigan o‘zaro munosabatlarda birlamchi qilib qo‘yishini unutmaslik kerak.

Aytib o‘tilganidek, huquq tizimi qoidalarning obyektiv ravishda tashkil topgan sohalar va institutlar bo‘yicha taqsimlanishi, iqtisodiy va siyosiy holat bilan aloqadorlikda namoyon bo‘ladi. Har bir huquq sohasi huquqiy tartibga solishning avvaldan aniqlangan usuli va predmeti, o‘ziga xos sifatlari bilan tavsiflanadi.

Huquq tizimida moddiy huquq va protsessual huquq sohalari farqlanadi. Moddiy huquq jumlasiga jinoyat huquqi, fuqarolik huquqi, ma’muriy huquq kiradi. Jinoyat jarayoni, fuqarolik jarayoni, xo‘jalik jarayoni huquqlari protsessual huquq sohasi guruhini tashkil etadi.

Protsess qonunning faqat hayot shakli, binobarin, uning ichki hayotining namoyon bo‘lishidir. Boshqacha aytganda, huquqning protsessual sohasi moddiy huquqqa «xizmat qilishga», moddiy huquqni «hayotda» tatbiq etish tartibini ta’minlashga qaratilgan. Shunday

qilib, «moddiy» huquq atamasi «protsessual» huquq bilan aloqada bo‘lmasa, o‘z mazmunini yo‘qotadi.

Bu tushunchalar o‘rtasidagi aniq aloqa shundan iboratki, masalan, fuqarolik huquqi moddiy huquq bo‘lib, tatbiq etilish sohasida alohida bajaraladigan qoidalari, fuqarolik protsessual qonunchiligi bilan o‘rnataladi. Ana shunday o‘xshashlik jinoyat va jinoyat-protsessual huquqida ham kuzatiladi.

Davlat va huquq nazariyasi huquqni **asosiy** va **kompleks** huquq sohalariga ajratadi. Asosiy huquq sohasi tizimiga: konstitusiyaviy, ma’muriy, moliya, yer, fuqarolik protsessual, jinoyat protsessual huquqlari taalluqlidir. Shu bilan birga asosiy sohalar ichidan **ixtisoslashganlarini** ajratish mumkin. Davlat, jinoyat va fuqarolik huquqlari ana shunday ahamiyatga molikdir.

Dengiz, havo, tog‘, suv, o‘rmon, turar joy va boshqalarga oid huquqlar huquqning kompleks sohalari hisoblanadi.

Mazkur holat huquq institutlari doirasida rivojlanib jamiyat hayotida ozmi-ko‘pmi mustaqil sohalarga aylanishidan dalolat beradi.

Barcha huquq tizimi sohalarini ichida yetakchi o‘rinni **konstitusiyaviy huquq** egallaydi. Mazkur soha huquqni tartibga solish predmetini tashkil etuvchi ijtimoiy munosabatlarning xususiyatlaridan kelib chiqadi. Xalq hokimiyatining asosini tashkil etuvchi ijtimoiy munosabatlar ana shulardan iborat.

Konstitusiyaviy huquq qoidalari jamiyat va davlat tuzilishini, qurilishini, davlat organlarining o‘zaro munosabatlarni va funksiyasini, saylov tizimini, fuqarolarning asosiy huquq va burchlarini mustahkamlaydi. Bu qoidalari boshqa barcha qoidalarga nisbatan birlamchi hisoblanadi. Ular huquq tizimining boshqa sohalari uchun normativ material bo‘lib xizmat qiladi va bu ma’mura yetakchi o‘rinni egallaydi.

O‘z ahamiyati bo‘yicha ma’muriy huquq sohasi konstitusiyaviy huquqqa yaqin turadi. Ma’muriy huquqning tartibga solish predmetini davlat idora organlarining ijro etish va boshqarish jarayonidan kelib chiqadigan ijtimoiy munosabatlar tashkil qiladi.

Bunday ijtimoiy munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, bu jarayonda taraflardan biri sifatida davlat organi yoki mansabdor shaxs qatnashadi. Ma’muriy huquqni tortibga solish borasida hokimiyatning farmoyish berish uslubi muhim ahamiyat kasb etadi.

**Moliya huquqi** – davlatning moliya faoliyatini tartibga soluvchi, ya’ni xalq xo‘jaligi e’tiyojlariga pul mablag‘larini to‘plash va taqsimlash faoliyatiga doir huquqiy qoidalari tizimini o‘zida mujassamlashtiradi.

Tartibga solish predmeti sifatida davlatning oliy organi bilan boshqa xo‘jalik organlari o‘rtasidagi, davlat byudjeti, uni tashkil etish, tasdiqlash, ijro etish, shuningdek. soliq yig‘ish, davlat sug‘urtasi bilan bog‘liq munosabatlar ishtiroy etadi. Moliya huquqi qoidalari davlat va ma’muriy huquq bilan uzviy bog‘langan.

**Yer huquqi** – huquq sohasi sifatida davlat yer fondini turli subyektlar o‘rtasida xo‘jalik ehtiyojlariga muvofiq taqsimlashni tartibga soluvchi huquqiy normalarni o‘zida mujassamlashtiradi.

**Mehnat huquqi** – ishchi va xizmatchilarining mehnat faoliyati jarayonidagi munosabatlarini tartibga soluvchi yuridik normalarni birlashtiradi. Bu normalar mehnat faoliyatining vujudga kelishi, o‘zgarishi va bekor bo‘lishi shartlarini belgilaydi, shuningdek, o‘zi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy ta’milot, pensiya, xizmat ko‘rsatishga doir munosabatlarni tartibga soladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

118. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. -T., 1998.
119. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishduri // Xalq so‘zi.-2005.-29 yanv.
120. X.Boboyev., H.Odilqoriyevlar tahriri ostida. Davlat va huquq nazariyasi.. -T., 2000.

121. Tadjixanov U., Odilqoriyev X., Saidov A. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyaviy huquqi. -T., 2001.
122. Saidov A., Tadjixanov U., Odilqoriyev X. Davlat va huquq asoslari. -T., 2002.
123. Tadjixanov U., Gulyamov Z. Pravovoye regulirovaniye deyatelnosti militsii. -T., 1995.
124. Dzaparov A.T. Normi prava. Vidi pravovix norm, reguliruyushix deyatelnost organov vnutrennix del. -T., 1993.
125. Saidov A., Tadjixanov U. Davlat va huquq nazariyasi. 2-jild. –T., 2002.
126. Islamov Z.M. Davlat va huquqning umumnazariy muammolari. 2-q. T., 2001.
127. Islamov Z.M. Huquq tushunchasi, mohiyati, ijtimoiy vazifasi. T., 2004.
128. Nersesyans V.S. Huquq falsafasi. T., 2003.
129. Malaxov V.P., Kazakov V.N. Teoriya gosudarstva i prava. –M., 2002.
130. Marchenko M.N. Obshaya teoriya gosudarstva i prava. Tom 1-2. –M., 1998.

**Davlat va huquq nazaryazsi fanidan**

**Amaliy mashg'ulotllari**

### Reja:

1. Davlat va huquq nazariyasi -umumnazariy fan sifatida.
2. Davlat va huquq nazariyasi fanining o‘ziga xos xususiyatlari va predmeti.
3. Hozirgi zamonda davlat va huquq nazariyasi fani.
4. Davlat huquq nazariyasi fani predmetini o‘rganish metodlari.
5. Davlat va huquq nazariyasi fanining ijtimoiy fanlar tizimidagi o‘rni.
6. Davlat va huquq nazariyasi fanining yuridik fanlar tizimidagi o‘rni.
7. Davlat va huquq nazariyasi fanining funksiyalari.
8. Davlat huquq nazariyasi fanining o‘quv fani sifatidagi tuzilishi.
9. Insonparvarlik va umuminsoniy tamoyillar davlar va huquqnazariyasi fanining asosiy sifatlari.

10.O‘zbekiston demokratik huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo‘lida.

Davlat va huquq nazariyasining fanining predmeti va uning o‘ziga xos vazifalari. Davlat va huquq nazariyasi fanining yuridik fanlar tizimidagi o‘rni va ahamiyati. Davlat va huquq nazariyasi fanini o‘rganish prinsiplari. Davlat va huquq nazariyasi fanini o‘rganishning talabalarning huquqiy tarbiyasi va madaniyatini yuksalishdagi ahamiyati.

*Davlat – butun mamalakat miqyosidagi hokimiyatning maxsus boshqaruv va majburlov apparatiga ega bo‘lgan, barcha uchun majburiy qonunlar chiqaradigan va o‘z suverenitetligiga ega bo‘lgan tashkilot tushuniladi.*

*Davlat – bu butun jamiyatni birlashtirib turuvchi, boshqaruvning hamda fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning maxsus apparatiga ega bo‘lgan, shuningdek huquq normalarini yaratishga qodir bo‘lgan hokimiyatning hududiy tashkilotdir.*

*Davlat – bu butun jamiyatni birlashtirib turuvchi, uning bir me’yorda ishlashini ta’minlaydigan, jamiyat nomidan ish ko’radigan maxsus boshqaruv, majburlov apparatiga ega bo‘lgan tashkilotdir.*

*Davlat — insoniyat hayotining muhim obyektiv tashkiliy shaklidir. U ma’lum iqtisodiy, ijtimoiy va ma’naviy muhitdan kelib chiqqan, siyosiy hayotda katta o‘rin va sotsial qimmatga ega.*

*“Davlat va huquq nazariyasi” fani ham boshqa fanlar singari nafaqat o‘z predmeti doirasiga, balki o‘z o‘rganilish uslub(metod)lariga ham egadir. Ma’lumki, “Metodologiya” so’zi yunoncha “metodos” so’zidan olingan bo‘lib, aynan ma’nosi “biron narsani o‘rganish yo‘li” demakdir. Metod bu – umumiylar ma’noda maqsadga erishish usuli, muayyon tarzida izga solingen faoliyatdir. Maxsus ma’noda esa-bilish vositasi, o‘rganiladigan mavzuni tafakkurda xosil qilish yo‘lidir.<sup>1</sup>*

*Davlat va huquq nazariyasi ham boshqa fanlar singari o‘z oldiga qo’ygan quyidagi:*

- *Fanning nazariy qismi jamiyat uchun, huquqiy madaniyatni shakllantirish uchun, davlatchilikning huquqiy asoslarini mustahkamlash, inson huquqlarini va*

<sup>1</sup> Filosofiya lug’ati T., O‘zbekiston 305-bet.

*erkinliklarini barqarorlashtirish, haqiqatni toptirish, aniqlash uchun evristik vazifani;*

- *Davlat hokimiyatini amalga oshirish va saqlab qolishga yo'naltirilgan ijtimoiy faoliyatni, mamlakat ichkarisidagi va xorijiy davlatlar bilan munosabatlaridagi davlat faoliyatining muayyan yo'nalishi va tarzini anglatadigan siyosiy vazifani;*
- *Tashkilotchilik va amaliy tashkilotchilik vazifani;*
- *Muaommolarning paydo bo'lishini aytib beruvchi prognoz-bashorat qiluvchilik vazifani;*
- *Siyosatning dunyoqarashi bilan bog'liq jihatlarini aks ettiruvchi mavkuraviy vazifalarini bajaradi.*

### **DAVLAT VA HUQUQNING KELIB CHIQISH NAZARIYALARI**



#### **ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. T. 2014.
2. I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T. 1997.
3. I.A.Karimov. Adolat - qonun ustuvorlida. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T-10. T. 2002. 26-52 betlar
4. I.A.Karimov. Bizning bosh maqsadimiz -jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya isloh etishdir. T-13.T. 2005.
5. I.A.Karimov. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. T.2007.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 1-mayda qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 60 yilligiga bag'ishlangan tadbirlar dasturi to'g'risidagi Farmoni. Xalq so'zi. 2008 yil 2-may.
7. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. T. 2000.
8. A.Saidov, UTojixonov, X.Odilqoriyev. Davlat va huquq asoslari. Darslik. T. 2002.

## **2 - Mavzu:** Davlat va huquqning kelib chiqishi. 2 (soat).

### **Reja:**

1. Jamiyat boshqaruv tushunchasi.
2. Jamiyatda Davlat va huquqni o‘rnvi va o‘zaro munosabati.
3. Davlat tizimi kelib chiqishiga doir nazariyasi.
4. Huquqiy davlatni shakllantirish -hozirgi zamon taraqqiyotining obektiv tindensiyasi.
5. Huquqiy davlatning tarixiy -nazariy ildizlari.
6. Davlat huquq va shaxs.
7. Huquqiy davlat va hokuniyatlar bo^linishi tamoyili.
8. Davlat fuqarolik o‘zaro mas’uliyati.

**Jamiyat tushunchasi.** Jamiyat taraqqiyotiga ta’sir qiluvchi omillari. Kishilik jamiyat shakllarining hilma - xilligi. Ibtidoiy jamiyat, iqtisodiy -ijtimoiy hokimiyat va kishilar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlami tartibga soluvchi normalar. Davlat -Jamiyatning yashash shakllaridan biri sifatida huquq jamiyatda kishilar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlami tartibga soluvchi muhim vositadir.

*Jamiyat inson xayvonot dunyosidan ajralgandan so‘ng paydo bo‘lgan. Inson jamiyatning birlamchi bugani va asosidir. Jamiyat — ongli insonlar o‘zaro aloqalarining muayyan tizimi. Inson doimo jamiyat bilan aloqada. Inson jamiyatdan tashqarida yashay olmaydi. U faqat jamiyatdagina rivojlanadi, o‘z qobiliyati va imkoniyatlarini namoyon etadi, shaxs sifatida shakllanadi. O‘z navbatida, shaxs ham jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘sadi. Insonsiz jamiyatni tasavvur etish mumkin emas.*

*Jamiyat — muayyan tabiiy ehtiyoj va manfaatlariga ko‘ra birlashgan kishilarining ma‘lum tarzda tashkil etilgan tizimidir. Kishilar, ularning tashkilotlari, jamoalari turli iqtisodiy, ma’naviy, ahloqiy, diniy va boshqa munosabatlar orqali jamiyatga birlashadi.*

*Jamiyat — kishilarning murakkab ijtimoiy birlashmasidir. Jamiyatda biologik qonunlar emas, balki sotsial qonunlar amal qiladi. Jamiyat birlashishga moyil bo‘lgan birliklar, ya’ni guruuhlar, sinflar, qatlamlardan iborat. «Jamiyat» — yer kurrasidagi barcha kishilarni birlashtiruvchi eng keng tushunchadir. «Kishilik jamiyat» tushunchasi shundan kelib chiqqan. «Jamiyat» tushunchasi o‘z ichiga «fuqarolik jamiyat» va «davlat» tushunchalarini oladi.*

*Jamiyat — muayyan ijtimoiy munosabatlar tizimidir. Shuning uchun jamiyatga aniq tarixiy nuqtai nazardan yondashmoq kerak. Kishilik jamiyat o‘z taraqqiyotida turli bosqichlarni bosib o‘tgan. Misol uchun insoniyatning qadimiy, o‘rta asrlar, yangi va eng yangi davr tarixini ko‘rsatish mumkin.*

*Jamiyat ijtimoiy hayotdagi iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy sohalarning xususiyatlarini o‘zida namoyon etadi. «Jamiyat» tushunchasi ijtimoiy muloqot subyektlarini, ya’ni shaxs, oila, millat va boshqalarni aniqlashga imkon beradi.*

*Davlat — insoniyat hayotining muhim obyektiv tashkiliy shaklidir. U ma'lum iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy muhitdan kelib chiqqan, siyosiy hayotda katta o'rinni va sotsial qimmatiga ega.*

Huquqning ilk funksiyalari paydo bo'lishi tarixiy edi.

*Huquq paydo bo'lishining asosiy bosqichlari va o'ziga xos belgilari*

*Huquqning paydo bo'lishida asosan 3 ta bosqichni ajratib ko'rsatish mumkin.*

*Birinchi bosqich — xukuhning paydo bo'lish boskichi. U asosan ishlab chiqaruvchi iqtisodiyot shakllari vujudga kelayotgan jamiyatga xosdir.*

*Ikkinci bosqich — ushbu tartibga solish tizimi qoidalarining shakllanishi davri. Bu bosqich ishlab chiqaruvchi iqtisodiyotning turli shakllari to'liq o'rnatilgan jamiyatlarda mavjud edi.*

*Uchinchi bosqich — bir qator ilk davlatlarda huquqning yozma tarzda muayyan tizimga solinishi, ya'ni kodifikatsiyalashishidir.*

### Huquqning ilk funksiyalari paydo bo'lishi tarixiy edi.

- *Birinchidan*, huquq normal tashkiliy-mehnatni, jamiyatning ishlab chiqarish faoliyatini, normal iqtisodiy axborot ishlab chiqarishni, mahsulot iste'moli va ayriboshlashni tartibga solish funksiyasini bajaradi.
- *Ikkinchidan*, huquq davlat tuzumini, jamiyatning ijtimoiy tuzilishini, iqtisodiy hayotning tashkil etilishini, ma'lum sotsial guruhlarning hukmronligini, mafkura asoslarini, dehqon jamoalarining, jamiyatning boshqa a'zolarining hayoti, erkinligi, mulkini qo'riqlash funksiyasini bajaradi.
- *Uchinchidan*, huquq jamiyatdagi qarama-qarshiliklarni, o'zboshimchaliklarni va boshqa sotsial ziddiyatlarni yumshatadi. Bu uning gumanistik funksiyasidir.
- *To'rtinchidan*, huquq bir qator zaruriy prinsiplarni va yurish-turish qoidalarini, ruhiy va ahloq qoidalarini ijtimoiy ongga singdiradi. Bu uning mafkuraviy funksiyasidir.
- *Beshinchidan*, huquq yosh avlodni, jamiyatning hayotiy maqsadlarini, sotsial hayot ideallarini, ahloqiy va huquqiy qadriyatlarni o'zlashtirishga tayyorlaydi. Bu uning tarbiyaviy funksiyasi bo'lib, juda muhim hisoblanadi.

### **ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. T. 2014
2. I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T. 1997.
3. I.A.Karimov. Adolat - qonun ustuvorlida. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T-10. T. 2002. 26-52 betlar
4. I.A.Karimov. Bizning bosh maqsadimiz -jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya isloh etishdir. T-13.T. 2005.
5. I.A.Karimov. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. T.2007.
6. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. T. 2000.
7. A.Saidov, UTojixonov, X.Odilgoriyev. Davlat va huquq asoslari. Darslik. T. 2002.

### **3 - Mavzu: Davlat tushunchasi, mohiyati va belgilari. (2 soat)**

#### **Reja:**

- 1. Davlat tushunchasi va mohiyati.**
- 2. Davlatning asosiy belgilari.**
- 3. Davlat tipologiyasi.**
- 4. Davlatning asosiy tiplari.**

**5.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti L.Karimov asarlarida davlat masalalarining rivojlantirilishi.**

Davlat tushunchasi. Davlatning kelib chiqish. Davlat to‘g‘risidagi turli xil nazariyalar. Jamiatning siyosiy tizimida davlatning tutgan o‘rni. Davlat hokimiysi, ijtimoiy hokimiyatning alohida muhim turlaridan biridir. Davlatni tiplarga ajratish. Davlatning tiplari to‘g‘risidagi an'anaviy yondashuv. Davlatning belgilari, davlatning mohiyati, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlarida davlat haqidagi qarashlar.

#### ***Davlatning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:***

- 1. O‘ziga xos ommaviy hokimiyatning – davlat hokimiyatining mayjudligi, ya’ni hokimiyat va boshqaruv apparatining, majburlash apparatining borligi.***
- 2. Aholining hududlar bo‘yicha uyushganligi. Bu fuqarolarning davlat chegaralari doirasida, muayyan ma’muriy-hududiy birlklarda yashashini bildiradi.***
- 3. Suverenitet, ya’ni ichki va tashqi siyosatni o‘tkazishda mustaqil bo‘lish.***
- 4. Huquq ijodkorligi, ya’ni davlat hududida yashovchi barcha kishilar rioya etadigan qonunlarni chiqarishga qodirlik.***
- 5. Aholidan davlat apparatini saqlash hamda aholining kam ta’minlangan qismiga yordam berishga sarflanadigan soliqlarni to‘p-lash.***
- 6. Umuminsoniy funksiyalarini (vazifalarini) bajarish, ya’ni hu-dudni ko‘riqlash, jinoyatchilikka qarshi kurash, umumiylar farovonlik maqsadlarini amalga oshirish.***

***Hozirgi kunda davlatning umumiy e’tirof etilgan quyidagi asosiy belgilarini ko’rsatish mumkin:***

***\*davlat o’z davlat chegaralari doirasida fuqarolik belgisi bo‘yicha birlashgan butun jamiatning, butun axolining yagona vakili sifatida maydonga chiqadi;***

***\*davlat yuridik kuchga ega bo’lgan va huquq normalarini eks ettirgan qonunlar va ularga asoslanib chiqariladigan hujjalarni qabul qiladi;***

***\*davlat o’z vazifalarini va funksiyalarini bajarish uchun zarur bo’lgan davlat organlari hamda tegishli moddiy vositalar tizimidan iborat murakkab mexanizmdir;***

***\*davlat-suveren hokimiyatning yagona sohibidir;***

***\*davlat-qonuniylik va huquq-tartibot posboni bo’lishga maxsus da’vat etilgan huquqni muhofaza qilish organlari (sud, prokuratura, milisiya, polisiya va boshqalar)ga ega bo’lgan yagona tashkilot;***

***\*faqat davlatgina o’z mudofaasi, suvereniteti, xududiy yaxlitligi va havfsizligini ta’minlovchi qurolli kuchlar hamda havfsizlik organlariga ega bo’la oladi.***

*Davlat — siyosiy hokimiyat tashkiloti bo‘lib, muayyan hududda turli sinfiy, umuminsoniy, diniy, milliy, va boshqa manfaatlarni amalga oshirishga ko‘maklashadi.*

*Davlatning mohiyati uning faoliyatining mazmunini tashkil etadi. Davlatni uning faoliyati bilan aralashirmslik kerak. Davlat faoliyati uning muayyan vogelik sifatida namoyon bo‘lishidir. Har bir davlat u yoki bu jamiyatda tutgan o‘rniga qarab o‘z mohiyatiga ega bo‘ladi.*

*Davlatning mohiyatini aniqlashda shakl va mazmun jihatiga e’tibor berish zarur: birinchidan, har qanday davlat — siyosiy hokimiyat tashkiloti. Bu masalaning shakliy tomoni.*


*ikkinchidan, davlat kimning manfaatlariga xizmat qiladi. Bu masalaning mazmun jihatidir.*

*Davlatning mohiyatiga asosan ikki xil (sinfiy va umumijtimoiy) yondashuvlarni ko‘rsatish mumkin.*

*Sinfiy yondashuvda davlat ik’tisodiy hukmron sinfning siyosiy hokimiyatining tashkiloti sifatida qaraladi. Bunda davlat faqat hukmron sinfning manfaatlarini ta’minlashga xizmat qiladi, uning umuminsoniy jihatni ikkinchidari darajali bo‘ladi.*

*Umumijtimoiy yondashuvda davlat turli sinf va ijtimoiy guruhlarning manfaatlarini kelishiruvchi siyosiy hokimiyat tashkiloti sifatida namoyon bo‘ladi.*

*Davlatning mohiyatiga taalluqli bu ikki asosiy yondashuvdan tashqari, yana diniy, milliy, irqiy va boshqa yondashuvlarni ko‘rsatish mumkin. Ular muayyan, bir davlat siyosatida milliy, Diniy, irqiy va boshqa manfaatlar ustuvor ahamiyatga ega bo‘lganda ayniqsa muhimdir. Demak, davlatning mohiyati murakkab va ko‘p qirrali. Davlatning mohiyati sinfiy va umumijtimoiy xususiyatlar bilangina cheklanmaydi. Har qanday davlatning mohiyati aniq tarixiy sharoitlardan kelib chiqadi, unda u yoki bu jihatlar ustunlik qiladi.*



*Davlat tipologiyasi — davlatning mohiyatan o‘ziga xos xususiyatlarini ajratishda yoki biror tipga mansubligini belgilashda foydalanadigan ta’limot, bilimlar tizimidir.*

## **Davlat tipologiyasi**

**Sinfiy -** davlat tipologiyasining asosiy mezoni ijtimoiyiqtisodiy formatsiyalar hisoblanadi. Davlat ishlab chiqarish munosabatlari tipiga ko‘ra, iqtisodiy bazis ustidagi element sifatida — quldorlik, feodal, burjua va sotsialistik davlat tiplariga bo‘inadi. Bu tipologiya davlatlarning sinfiy tinologivasi deb ataladi

**Ma’rifiy-** sivilizatsiya<sup>1</sup> mezoniga asoslangan davlat tipologiyasidyr. Bu yondashuvda ma’naviy belgilar, ya’ni madaniy, milliy, diniy, psixologik va boshqalar tipologiyaning asosiy mezoni hisoblanadi. Bu tipologiyani davlatlarning ma’rifiy (sivilizatsiyaviy) tipologiyasi deb atash

*Tipologiya davlat tipi degan ilmiy tushunchani ajratib ko'rsatishga olib keladi. Davlatning tipi quyidagi xususiyatlardan iborat:*

*birinchidan, davlatning tipi, iqtisod, ishlab chiqarish usuli, ijtimoiy iqtisodiy formatsiyalarning tabiatiga bog'liq bo'lgan hokimiyatning sinfiy taalluqligidan kelib chiqadi, Davlatdagi hokimiyat odatda, qo'lida ishlab chiqarish vositalari mavjud bo'lgan iqtisodiy jihatdan hukmron sinfga xizmat qiladi;*

*ikkinchidan, sinfiy manfaatlarning aks etishiga asoslangan bir mohiyatli hokimiyatga ega davlatlar guruhi birlashtiriladi. Bu davatlarni quldorlik, feodal, burjua va sotsialistik davlatlarga bo'lishga olib keladi;*

*uchinchidan, davlatning tipi biror davlatning uyushganligi, maqsadga intilishi, amal qilish va rivojlanishidagi umumiy, jo'z'iy jihatlarni belgilashga imkon beradi;*

*to'rtinchidan, bir tipdagи davlatlardan keyin boshqa tipdagи davlatlar, ya'ni quldorlik davlatidan so'ng feudal davlat, feudal davlatdan so'ng burjua davlati kelishi qonuniyatları aniqlangan. Albatta, oxirgi almashuv (burjua davlati bilan sotsialistik davlat almashuvi)da oldingi tiplarning o'zaro almashuv qonuniyatları tarixan tasdiqlandi.*

*Prezident I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining umumiy yig'ilishidagi nutqida shunday ta'kidladi: "...olimlarimiz, birinchi navbatda, ijtimoiy fan vakillari oldida turgan ulkan vazifalar haqida to'xtalib o'tmoqchiman. Mamlakatimiz mustaqilligini mustaxkamlash, milliy davlatchilikni shakllantirish, huquqiy demokratik davlatni barpo etish va fuqarolik jamiyatini qaror toptirishdek ulug' orzu-umidlar bilan yashar ekanmiz, ijtimoiy fanlar sohasidagi ilmiy izlanishlar va ularning natijalariga alohida e'tibor bermaslik mumkin emas".*

#### **ADABIYOTLAR:**

1. *O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. T. 2014.*
2. *I.A.Karimov O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T. 1997.*
3. *I.A.Karimov. Adolat - qonun ustuvorlida. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T-10. T. 2002. 26-52 betlar*
4. *I.A.Karimov. Bizning bosh maqsadimiz -jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya isloh etishdir. T-13.T. 2005.*
5. *I.A.Karimov. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. T.2007.*
6. *Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. T. 2000.*
7. *A.Saidov, UTojixonov, X.Odilqoriyev. Davlat va huquq asoslari. Darslik. T. 2002.*

#### **4 - Mavzu:** Davlat funksiyalarini tasniflash.. (2 soat)

##### **Reja:**

1. Davlatning ichki va tashqi funksiyalari va tushunchasi
2. Davlat mexanizmi tushunchalari va tartiblari.
3. Davlat organi tushunchasi, turlari va uning belgilari.
4. Davlat hokimiyatining vakillik va ijroiya organlari.
5. Davlat mexanizmida byurokratiya va byurokratizm.

*Davlatning funksiyasi - bu davlatning hamda u amalga oshiradigan o‘z faoliyatining asosiy yo‘nalishlari bo‘lib, uning mohiyati va vazifalaridan kelib chiqadi.*

*Davlat funksiyalari-davlatning maqsad va vazifalarini amalga oshirish imkonini beradigan uning faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan iborat.*

*Davlatning vazifalari, uning funksiyalaridan farq qilib, hali bajarilmagan reja, ado etilishi lozim bo‘lgan topshiriq, ko‘rsatma, navbatdagi ishlar, tadbirlar hisoblanadi.*

### **DAVLAT FUNKSIYALARI**

*Davlatning ichki funksiyalari - bu davlatning ichki siyosiy vazifalarini hal qilish bo‘yicha asosiy faoliyat yo‘nalishi.*

*Davlatning ichki funksiyalarining tasnifi:*

- moliyaviy-iqtisodiy
- ijtimoiy himoya;
- madaniy;
- siyosiy-huquqiy;
- tabiatni muhofaza qilish;
- soliq funksiyasi;
- ilmiy-texnikaviy va boshqa funksivalar;

*Davlatning tashqi funksiyalari - bu davlatning tashqi siyosiy vazifalarini hal qilish bo‘yicha asosiy faoliyat yo‘nalishi.*

*Davlatning tashqi funksiyalari:  
Jahonda tinchlikni qo‘llab-kuvvatlash va mamlakat mudofasi funksiyasi;  
Tashqi iqtisodiy va siyosiy faoliyat hamda xalqaro hamkorlik.*

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti O‘zbekiston Respublikasi nomidan quyidagi tashabbuslar bilan chiqqan):*

1. BMT tizimini isloh qilish;
2. Afg‘on-tojik nizolarini hal etish;
3. Markaziy osiyoda iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirish;
4. Oqrol saydosi.



*Mustaqillik yillari mobaynida yurtimizda demokratik huquqiy davlat va bozor iqtisodiyotini qaror toptirish yo‘lida huquqiy jihatdan ko‘pgina ishlar qilindi. Respublikada davlat idoralarining, shu jumladan, huquq muassasalarining izchil tizimi shakllantirildi.*

*Davlatga o‘z hokimiyatini amalga oshirish imkonini beruvchi tashkiliy-moddiy kuch davlat mexanizmidir. Mexanizm davlatning nimadan tashkil topganini ko‘rsatuvchi tarkibiy va predmetli ifodasidir.*

*Davlat mexanizmini qurish muayyan obyektiv prinsiplar asosida amalga oshadi. Bu esa jamiyatni davlat tomonidan idora etishning samaradorligini ta’minlaydi.*

*Davlat apparati davlatning mohiyati bilan uzviy bog‘liq. Davlat apparatining shakllanishiga, uning faoliyatiga shu jamiyat tarixiy tarqqiyotining xususiyati, iqtisodiy tuzumi, ijtimoiy muhiti va milliy an’analar ta’sir ko‘rsatadi. Har bir jamiyatda davlat apparati davlatning vazifalarini bajarish uchun tashkil etiladi va shu davlat hokimiyatini amalga oshiradi.*

**Davlat mexanizmi - bu davlat xokimiyatini amalga oshirishga, jamiyatga davlat raxbarligini ta’minlashga yordam beradigan davlat idoralari tizimidir.**

**Davlat mexanizmini uziga xos xususiyatlari kuyidagilardan iborat:**

- davlat mexanizmi boshkaruv ( konun ijodkorligi, konunlarni ijro etish, ularga riyoga kilishni muxofaza etish, odil sudlovnii amalga oshirish) bilan maxsus shugullanadigan davlat xizmatchilaridan iborat. Davlat xokimiyatining mayjudligi mansabdor shaxslar , armiya , ma'muriyati , sudyalarda, ya'ni davlat xizmatchilarida uz ifodasini topadi.
- davlat mexanizmi idoralar va muassasalarning muayyan tizimidir, ular uzelarining bevosita xokimiyatga daxldor funksiyalarini aialga oshira borib, uzoziy boglikdirlar.
- davlat mexanizmi elementlarining faoliyati tashkiliy va moliyaviy vositalar, ma'lum xolatlarda esa, majburlov ta'siri bilan ta'minlanadi.
- davlat mexanizmi uz fukarolarining xukuk va qonuniy manfaatlarini kafolatlash va muxofaza etishi lozim.

**Davlat apparati - davlat mexanizmining bir kismi bulib, davlat xokimiyatini amalga oshirish uchun muayyan vakolatlariga ega davlat idoralarining majmuasidir.**

Davlat mexanizmining asosiy belgilari quyidagilar:


- 1) tarkibi – boshqaruva faoliyati bilan shug'ullanadigan odamlar yig'indisi;
- 2) bir-birlari bilan o'zaro aloqadorlikda va munosabatda bo'lgan idoralar va muassasalarning murakkab tizimi;
- 3) davlat apparati barcha bo'g'imlarining funksiyalari tashkiliy va moliyaviy vositalar bilan, zarur bo'lganda esa – davlatning majburlov choralari bilan ta'minlanadi;
- 4) maqsadi – fuqarolar huquqlari va qonuniy manfaatlarini kafolatlash va muhofaza qilish.



**Davlat boshqaruvi - davlat boshqaruva organlari va ularning mancabdor shaxslari tomonidan amalga oshiriladi.**

Davlat organlari – davlat tomonidan tashkil etilib, davlat nomidan ish ko'radir va uning manfaatini qo'riqlaydi. Davlat boshqaruva orgalari davlat apparatining bir qismi bo'lib, o'z burchlarini bajarish uchun davlat tomonidan farmoyish berish huquqiga ega. SHuning uchun ular o'z vakolatlari doirasida, faoliyat ko'rsatish, huquqiy aktlar qabul qilish va shu aktlarda ko'rsatilgan qoidalarni bajarilishini ta'minlash uchun tashkiliy ishlar olib borilishi

## DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARINING FUNKSIYALARI



**Davlat boshqaruvi O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasida ko'rsatilgan qo'vidagi prinsiplar asosida amalga oshiriladi:**

- 
1. Davlat boqaruvida halqning keng ishtiroy etishi;  
2. Demokratik markazchilik;  
3. Fuqarolarning tengligi;  
4. Qonuniylik.

tuzilishi (ichki tuzilishi)

qonun chiqarish yo'li bilan tashkil topishi

boshqa idoralar bilan aloqada bo'lishi

Davlat idorasining belgiları:

vakolati – ushbu i mustaqil hal et

davlat apparatida faoliyat

huquqiy asosda funksional faoliyat

*Davlat idorasi (organi) – davlat mexanizmining qonunga muvofiq ravishda o‘z tuzilishiga, ijtimoiy hayotning muayyan sohasini boshqarish bo‘yicha aniq belgilangan vakolatiga ega bo‘lgan hamda davlat mexanizmining boshqa qismlari bilan uzviy aloqadorlikda bo‘lgan va yaxlit birlik hosil qiladigan tarkibiy qismidir.*

**ADABIYOTLAR:**

- 1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. T. 2014.*
- 2. I.A.Karimov O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T. 1997.*
- 3. I.A.Karimov. Adolat - qonun ustuvorlida. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T-10. T. 2002. 26-52 betlar*
- 4. I.A.Karimov. Bizning bosh maqsadimiz -jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya isloh etishdir. T-13.T. 2005.*
- 5. I.A.Karimov. O‘zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo‘li. T.2007.*
- 6. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. T. 2000.*
- 7. A.Saidov, UTojixonov, X.Odilqoriyev. Davlat va huquq asoslari. Darslik. T. 2002.*

**5 - Mavzu: Fuqarolik jamiyatni va huquqiy davlat. (2 soat)**

**Reja:**


- 1. Fuqorolik davlati tushunchasi, uning belgilari.**
- 2. Fuqarolik jamiyatni va demokratiya.**
- 3. Fuqarolik jamiyatining iqtisodiy, siyosiy va nazariy negizlari.**
- 4. Fuqarolik jamiyatida oilaning va ommaviy axborot vositalarining o‘rni.**

Fuqorolik jamiyatni tushunchasi, uning belgilari. Fuqorolik jamiyatni to‘g‘risidagi nazariyalar. Fuqorolik jamiyatni va demokratiY. Fuqorolik jamiyatining iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy negizlari. Fuqorolik jamiyatida oilaning ommaviy axborot vositalarining o‘rni.

- *Fuqarolik jamiyat - davlatdan mustaqil va undan holi munosabatlar va vositalar tizimi bo'lib, u shaxs hamda jamoatlarning ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayot sohalaridagi xususiy manfaat va ehtiyojlarini amalga oshirishga sharoit yaratadi.*
- *Fuqarolik jamiyat aksariyat hollarda insonlarning xususiy manfaat va ehtiyojlari sohasi tarzida ta'riflanadi. Fuqarolar huquq va erkinliklarining asosiy ko'pchilik qismi mana shu xususiy hayot sohasida ro'yobga chiqariladi. Biroq bu shaxslarning ijtimoiy hayotdan ajralib qolganligini, begonalashtirilishini anglatmaydi.*
- *Fuqarolik jamiyat-shaxslarning oddiy yig'indisi emas, balki ular o'rtasidagi rang-barang aloqalar, hamkorlik, hamjihatlikning ifodasıdir. Mazkur mushtaraklik va xamjihatlik tashkiliy-institusiyaviy ko'rinishga ega bo'lib, u turli ijtimoiy kuchlar, nodavlat tashkilotlar, birlashmalar mavjudligi bilan tavsiflanadi.*
- *Fuqarolik jamiyatida erkinlik, qonun oldida barchaning tengligi, ijtimoiy adolatning ta'minlanishi hamma fuqarolarning ijodiy salohiyati va iste'dodining bevosita ro'yobga chiqarilishiga imkoniyat yaratiladi. Fuqarolik jamiyat huquq va adolat mezonlari bilan o'chanadi.*

*O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi fuqarolik jamiyatining qaror topishishini xususiy mulkning qat'iy mavqega ega bo'lishi bilan bog'laydi. Shu asosda hozirgi paytda jamiyatda keng qo'lama xususiy lashtirish (aksiyalashtirish) jarayonlari amalga oshirilmoqda.*

*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov shunday degan edi: «Biz fuqarolik jamiyat qurishga intilmoqdamiz. Buning ma'nosi shuki, davlatchiligidimiz rivojiana borgani sari boshqaruvning turli xil vazifalarini bevosita xalqqa topshirish, ya'ni o'zini o'zi boshqarish organlarini yanada rivojlantirish demakdir». Prezidentning yana quyidagilarga e'tiborni qaratgan edi: «Biz uchun fuqarolik jamiyat-ijtimoiy-makon. Bu makonda qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'z-o'zini kamol toptirishga monelik qilmaydi, aksincha, yordam beradi. Shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to'la darajada ro'yobga chiqishiga ko'maklashadi. Ayni vaqtga boshqa odamlarning huquq va erkinliklari*



**ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. T. 2014
2. I.A.Karimov O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T. 1997.
3. I.A.Karimov. Adolat - qonun ustuvorlida. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T-10. T. 2002. 26-52 betlar
4. I.A.Karimov. Bizning bosh maqsadimiz -jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya isloh etishdir. T-13.T. 2005.
5. I.A.Karimov. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. T.2007.
6. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. T. 2000.
7. A.Saidov, UTojixonov, X.Odilqoriyev. Davlat va huquq asoslari. Darslik. T. 2002.


## **6 - Mavzu:** Davlatning shakllari tushunchasi va uning tarkibiy elementlari (2 soat)

### **Reja:**

- 1. Davlat boshqaruv shakli tushunchasi.**
- 2. Davlat tuzilish shakli tushunchasi.**
- 3. Siyosiy rejim tushunchasi.**

Davlat shakllari tushunchasi, uning tarkibiy qismlari, Davlat shakllarining xilma -xilligi, ularning o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi omillar. Davlatni boshqarish shakli tushunchasi. Davlat boshqaruv shakllari. Davlat tuzilish shakli tushunchasi.

O‘zbekistonning davlat tuzilishi tushunchasi va uning o‘ziga xos xususiyatlari. Siyosiy rejim tushunchasi va uning o‘ziga xos xususiyatlari...



### **ADABIYOTLAR:**


1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. T. 2014
2. I.A.Karimov O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T. 1997.
5. I.A.Karimov. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. T.2007.
6. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. T. 2000.
7. A.Saidov, UTojixonov, X.Odilqoriyev. Davlat va huquq asoslari. Darslik. T. 2002.

### **7 - Mavzu: Huquq nazariyasi (2 soat)**

#### **Reja:**

1. Huquq tushunchasi va mohiyati.
2. Huquq kelib chiqishi to‘g‘risidagi nazariyalar.
3. Huquq organlari va funksiyasi.

Huquq tushunchasi. Huquqning paydo bo‘lishi. Ob'ektiv huquq va subfektiv huquqi, tabiiy huquq va pozitiv huquqi, Huquq to‘g‘risidagi nazariyalar.




*«Huquq – bu rasman tenglik prinsiplariga muvofiq bo‘lgan, davlat tomonidan o‘rnatilgan yoki ruxsat berilgan hamda davlat tomonidan majbur qilish imkoniyati bilan ta’minlangan normalar tizimi»<sup>1</sup>.*

*«Huquq insonning umumiy qonun bilan aniqlanadigan zoxiriyligini erkinligidir. Axloqiylikdan farq qilgan holda, huquq majbur kilishga asoslanadi»<sup>1</sup>.*

*«Huquq – bu davlat tomonidan o‘rnatiladigan yoki ma’qullanadigan va qo‘riqlanadigan, hamma uchun majburiy bo‘lgan yashash qoidalariidir. Huquq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi regulyatoridir»<sup>1</sup>.*

*«Huquq davlat tomonidan belgilangan yoki ruxsat etilgan va uning kuchi bilan himoya qilinadigan umummajburiy xulq-atvor qoidalariining tizimi»<sup>1</sup>.*

*Kelzenning yondoshuviga ko‘ra, huquq faqat buyruq, norma sifatida qimmatlidir. Ushbu ma’noda (buyruq, norma sifatidagi) huquqni muqarrarlik shakli sifatida tavsiflanadi. «Ko‘pincha bo‘lganidek,-deb ta‘kidlagan Kelzen,- huquq o‘zida normani (yoki buyruqni) ifodalab qolmay, balki u shuningdek qandaydir qadriyatni tashkil etadi yoki ifodalaydi (mutlaq qadriyatga yo‘l qo‘yish mumkin bo‘lgandagina bunday deyish ma’no kasb etadi). Chunki huquq aynan norma bo‘lganligi uchun qadriyatni tashkil etadi »<sup>1</sup>.*



«Huquq» iborasi kundalik hayotimizda ko‘p qo‘llaniladigan tushuncha bo‘lib, «haq», «haqiqat» so‘zlaridan olingan. Bugungi kunda huquqning bir necha ta’rifi mavjud. Jumladan, Farobiyning fikricha, huquq mamlakatdagi tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash, taraqqiyotga shart-sharoit yaratish, ijodiy mehnatga imkom yaratish vositasidir. Huquq-ehtiroslarni jilovlash vositasi va insonni asrash, avaylash quolidir.

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning fikricha, «Huquq ijtimoiy hamjixatlak va kelishuvga asoslangan ijtimoiy tartib-intizomga erishish, erkinlik, adolatparvarlik va tenglikni vujudga keltirish vositasi»dir<sup>1</sup>.*

*Huquq – davlat tomonidan belgilangan yoki ruxsat etilgan va uning kuchi bilan himoya qilinadigan umummajburiy xulq-atvor qoidalari-ning tizimi.*

### **HUQUQNI KELIB CHIQISH NAZARIYASI**

*Tabiiy huquq  
nazariyasi*

*Ilohiy (teologik)  
nazariya*

*markscha-  
lenincha sinfiy  
nazariyasi*

*Huquqiy prinsiplari (tamoyillar) – bu rahbarlik qiluvchi dastlabki g‘oya bo‘lib, insonlarni o‘z oldilariga qo‘ygan maqsadlariga erishish uchun xizmat qiladigan, asosiy yo‘nalishlarni ko‘rsatib beruvchi faoliyatidir. Huquqiy tizimni shakllantirishda huquqiy tamoyillar (rahbariy g‘oyalar) ning faol harakatini ta’milash muxim ahamiyat kasb etadi.*

*Yuridik adabiyotlarda huquq prinsiplari turli nuqtai nazardan talqin etiladi. Jumladan, rus olimi S.S.Alekseyev huquq prinsiplarini – huquq mazmunining yaxlit holda ifodasi, eng oliy darajadagi normativ umumlashuvi deb hisoblaydi*

*Prof. Islamov Z.M. huquqning mazmuni, uning mohiyati va jamiyatda tutgan o‘rnini belgilab beruvchi g‘oyalarni – huquq prinsiplari deb biladi. Uning fikricha, huquq prinsiplari bir tomonidan, huquqning qonuniyatlarini ifodalaydi, ikkinchi tomonidan, huquqiy tartibga solishning barcha sohalariga ta’sir etuvchi va huquqiy munosabatlarning hamma ishtirokchilariga tarqaladigan eng umumiyy normalardan iboratdir. Huquq prinsiplarini umumiy huquqiy prinsiplar, maxsus-yuridik, tarmoqlararo va sohaviy prinsiplarga bo‘lish qabul qilingan.*

*Huquqiy tizimni shakllantirishda huquqiy prinsiplar (rahbariy g‘oyalar) ning faol harakatini ta’milash muxim rol o‘ynaydi.*

Rahbariy g‘oyalarga:

- *Qonuniylik;*
- *Davlat va shaxsnинг o‘zaro mas’ulligi;*
- *Fuqarolarning qonun oldida tengligi;*
- *Insonparvarlik;*
- *Demokratizm;*
- *Ijtimoiyadolat va boshqalarni kiritishimiz mumkin.*

*Huquqning funksiyasi deganda ijtimoiy munosabatlarga ta’sir etish, ularni tartibga solishning asosiy yo‘nalishlari tushuniladi.*

*Huquqning asosiy funksiyalari quyidagilar - tartibga soluvchi, qo‘riqlovchi va tarbiyaviy.*

*Tartibga soluvchi funksiya* - tegishli ijtimoiy aloqalar hamda tartibni va u yoki bu subyektlarning faol xulq-atvorini ta’milash orqali ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

*Oo‘riqlovchi funksiya* - huquqiy muhofaza va yuridik javobgarlik choralarini belgilash, ularni qo‘llash va javobgarlikni o‘tash tartibini o‘rnatishdan iborat.

*Tarbiyaviy funksiya* - turmushda nimalarni qilish mumkin, nimalar esa taqiqlanadi, u yoki bu vaziyatda qanday harakat qilish lozimligini belgilashdan iborat. Bunda huquq ishontirish metodiga tayanadi, zarur bo‘lganda majburlash metodini, xatto jazolashni nazarda tutadi.

*Ilmiy va o‘quv adabiyotlarda «funksiya» tushunchasi turli xil ma’nolarda ishlataladi. Yuridik fanda «funksiya termini XIX asr oxiri – XX asr boshlarida davlat va huquqning ijtimoiy ahamiyatiga tavsif berish uchun ishlatala boshlangan.*

*«Huquq funksiyasi» tushunchasi to‘g‘risida yagona fikr yo‘q. Agar, shu masala bo‘yicha bildirilgan ko‘pdan-ko‘p fikrlarni umumlashtirganda, huquq funksiyasi orgali huquqning sotsial maqsadi yoki ijtimoiy munosabatlarga huquqiy ta’sir etishining yo‘nalishini tushunish mumkin.*

*Huquq funksiyasi iborasida, uning sotsial maqsadi yoki huquqiy ta’sir etish yo‘nalishi kabi bir-biriga chambarchas bog‘liq bo‘lgan, lekin shu bilan birga, bir-biriga to‘g‘ri kelmagan kategoriyalar tushuniladi. Ularning har biri o‘z ma’nosiga ega va «huquq funksiyasi» tushunchasini belgilashda ma’lum metodologiya vazifani bajaradi.*

#### **ADABIYOTLAR:**

1. *O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. T. 2014.*
2. *I.A.Karimov O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T. 1997.*
3. *I.A.Karimov. Adolat - qonun ustuvorlida. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T-10. T. 2002. 26-52 betlar*
4. *I.A.Karimov. Bizning bosh maqsadimiz -jamiatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya isloh etishdir. T-13.T. 2005.*
5. *I.A.Karimov. O‘zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo‘li. T.2007.*
6. *Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. T. 2000.*
7. *A.Saidov, UTojixonov, X.Odilqoriyev. Davlat va huquq asoslari. Darslik. T. 2002.*


#### **8 - Mavzu: Huquq manbalari va normalari (2 soat)**

##### **Reja:**

1. **Huquq manbalari tushunchasi.**
2. **Huquqiy odat va prosedent.**
3. **Normativ huquqiy akt va normativ shartnoma.**
4. **Huquq funksiyalari tushunchasi.**

Huquq manbasi (shakllari, tushunchasi). Huquqiy odat-huquqning ilk manbalaridan biri. Huquqiy prosedent (sud va ma’muriy prosedent) tushunchasi. Huquqiy funksiya tushunchasi. Huquq fujnksiyasining belgilari, xususiyatlari Huquq funksiyasi tizimi. Huquqning yuridik funksiyasi. Huquqiy funksiyasini amalga oshirish shakllari. Huquqning ta’lim sohasidagi funksiyasi.

## Huquq manbalarini quyidagi uch asosiy turga bo‘lish qabul qilingan



*Normativ-huquqiy hujjatlarning turlari davlatning qaysi organ-lari tomonidan qabul qilinganligiga hamda ularning yuridik kuchi katta yoki kichikligiga qarab farqlanadi. Ushbu belgilarga asosan, normativ-huquq hujjatlarni quyidagi turlarga bo‘lish mumkin:*

*Qonun – umumxalq ovoz berishi (referendumi) orqali yoki mamlakatning oliy vakillik organi (Oliy Majlis) tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjat.*

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi 94-moddasiga asosan Prezident tomonidan chiqariladigan normativ-huquqiy hujjatdir.*

*Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari O‘zbekiston Respublikasi ijro etuvchi hokimiyat organining o‘z vakolati doirasida chiqaradigan normativ-huquqiy hujjatlaridir.*

*O‘zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo‘mitalari va idoralarining buyruq va yo‘riqnomalari davlat boshqaruvi organlari-ning normativ-huquqiy hujjatlaridir.*

*Qoraqalpog‘iston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari.*

*Davlat hokimiyati mahalliy ijroiya organlarining qarorlari.*

*Oonunosti hujjatlari – qonunlar asosida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlardir. Ularga quyidagilar kiradi:*

- ⊕ *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari;*
- ⊕ *O‘zbekiston hukumatining qarorlari;*
- ⊕ *boshqa ijroiya hokimiyat organlarining hujjatlari;*
- ⊕ *joylardagi ijroiya organlarning normativ hujjatlari.*

*Ushbu qonunosti hujjatlari tizimida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari alohida o‘rin tutadi, chunki ularni davlat boshlig‘i chiqaradi. Ushbu farmonlar normativ xususiyatga ega bo‘lishi mumkin. Prezident farmonlari O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va qonunlariga zid kelishi mumkin emas.*

*O‘zbekiston Vazirlar Mahkamasining qarorlari xo‘jalik va madaniy qurilishning eng muhim masalalari bo‘yicha qabul qilinadi. Ular odatda umumiy xususiyatga va huquq normalariga ega bo‘lib, huquq manbalari hisoblanadi.*

## O‘zbekistonda huquq manbalari quyidagilardan iborat

Xalqaro huquqning umum e’tirof etgan prinsiplari va normalari hamda O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini.

Xalqaro huquqning umum e’tirof etgan prinsiplari va normalari – xalqaro huquqning asosiy qoidalari bo‘lib, xalqaro huquqning barcha subyektlari tamonidan tan olingan va ularni bajarmaslikka yo‘l qo‘yilmaydi.

Xalqaro shartnomasi – xalqaro huquqning ikki yoki bir necha subyekti tamonidan qabul qilingan bitim bo‘lib, huquq va maburiyatlarni belgilovchi, o‘zgartiruvchi yoki bekor qiluvchi hujjatdir.

O‘zbekiston Respublikasi qonunlari quyidagi guruhlarga bo‘linishi mumkin:

- 1) Asosiy qonun – Konstitusiya;
- 2) konstitusiyaviy qonun;
- 3) qonun.

4) Qoraqalpog‘iston Respublikasining Konstitusiyasi va qonunlari. Qonunlar va boshqa normativ hujjatlar orasida O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi asosiy o‘rin tutadi. Qonunlar, o‘z navba-tida, kodifikatsiyalangan va jo-riy qonunlarga bo‘linadi. Kodifikasiyalangan qonunlarga kodekslar kiradi. Kodeks – kodifikasiya xususiyatiga ega bo‘lgan qonun bo‘lib, o‘zida ijtimoiy munosabatlarning ma’lum bir sohasini batafsil tartibga soluvchi normalarni birlashtiradi. M: Fuqarolik, Jinoyat, Mehnat, Soliq, Bojxo-narodeksi va h.k.

**Qonunosti hujjatlari – qonunlar asosida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlardir. Ularga quyidagilar kiradi:**

- 1) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari;
- 2) O‘zbekiston hukumatining qarorlari;
- 3) boshqa ijroiya hokimiyat organlarining hujjatlari;
- 4) joylardagi ijroiya organlarning normativ hujjatlari.

Ushbu qonunosti hujjatlari tizimida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari alohida o‘rin tutadi, chunki ularni davlat boshlig‘i chiqaradi. Ushbu farmonlar normativ xususiyatga ega bo‘lishi mumkin. Prezident farmonlari O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va qonunlariga zid kelishi mumkin emas.

O‘zbekiston Vazirlar Mahkamasining qarorlari xo‘jalik va madaniy qurilishning eng muhim masalalari bo‘yicha qabul qilinadi. Ular odatda umumiyl xususiyatga va huquq normalariga ega bo‘lib, huquq manbalari hisoblanadi.

### *Huquq funksiyalari.*

*Huquq funksiyalari-ijtimoiy munosabatlarga yuridik ta'sir etishning asosiy yo'naliishlari bo'lib, ularning mazmuni huquqning mohiyati va jamiyat hayotidagi ijtimoiy vazifasi bilan belgilanadi.*

*Regulyativ (tartibga soluvchi)-huquqning ijtimoiy munosabatlarga, ular mavjud holatini, erishilgan darajasini mustahkamlashga, barqarorlashtirishga qaratilgan ta'sir etishi tushuniladi.*

*Negativ(qo'riqlovchi)- uning ijtimoiy vazifasi bo'lib, u umumiy ahamiyatga molik, o'ta muhim iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va boshqa ijtimoiy munosabatlarni muhofaza etishga, ularning daxlsizligini ta'minlashga yo'naltiriladi va shu bilan birga, jamiyat yot, zararli munosabatlarni siqib chiqarishga qaratiladi.*

### **ADABIYOTLAR:**

- 1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. T. 2014*
- 2. I.A.Karimov O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T. 1997.*
- 5. I.A.Karimov. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. T.2007.*
- 6. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. T. 2000.*
- 7. A.Saidov, UTojixonov, X.Odilqoriyev. Davlat va huquq asoslari. Darslik. T. 2002.*

### **Mustaqil ish mavzulari**

- 1.Davlatning paydo bo'lish sabablari.
- 2.Davlatning moHiyati belgilari.
- 3.O'zbekiston davlatining asosiy vazifalari.
- 4.Davlat Hokimiyatining asosiy vazifalari.
- 5.O'zbekistonda qonun chiqaruvchi Hokimiyat.
- 6.O'zbekistonda ijro etuvchi Hokimiyat.
- 7.O'zbekistonda Sud Hokimiyati.
- 8.O'zbekistonda Konstitusiyaviy sudning aHamiyati.
- 9.Davlat vakillik organlari.
- 10.Davlat funksiyalari.
- 11.O'zbekiston davlatining asosiy funksiyalari.
- 12.O'zbekistonda ekologik funksiya va uning aHamiyati.
- 13.O'zbekistonda demokratik Huquqiy davlat qurish.
- 14.Bozor iqtisodiyotiga O'tishda O'zbekiston modelining aHamiyati.
- 15.Iqtisodni siyosatdan ustunlik tamoyili.
- 16.O'zbekistonda bozor iqtisodiyotining O'tish davrida davlat asosiy islo Hatchi ekanligi.
- 17.O'zbekistonda qonunlarga rioya etish va uning ustuvorligi.
- 18.O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga bosqichma –bosqich O'tish.
- 19.O'zbekistonda kuchli ijtimoiy siyosat yuritish tamoyili.
- 20.Mustaqil O'zbek davlatining rivojlanishi.

- 21.Milliy mafkura va ma'naviyat.
- 22.Demokratiya va iqtisodiyot taraqqiyoti.
- 23.Huquqning moHiyati va belgilari.
- 24.Huquq normalari va uning tuzilishi
- 25.Huquq vakillari (manbalari).
- 26.Huquqiy ong tushinchasi va uning aHamiyati.
- 27.Huquqiy tarbiya va uning aHamiyati.
- 28.Huquqiy madaniyat va uning aHamiyati.
- 29.Huquqiy munosabatlar.
- 30.Normativ huquqiy aktlar va uning turlari.
- 31.O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllashtirishning Konstitusiyaviy asoslari.
- 32.Huquq normalarini sharxlash.
- 33.Huquq normalarini tadbiq etish.
- 34.O'zbekistonda Huquq soHalarining yangilanishi.
- 35.Huquqiy tartibga solish mexanizmi.
- 36.Huquqbazarliklar va iuning turlari.
- 37.Yuridik javobgarliklar va ularning turlari.
- 38.qonunchilik va Huquqiy tartibot.
- 39.O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini qurish.
- 40.Davlat mezanizmi tushunchasi.

**“Davlat va huquq nazariyasi” fanidan kurs ishi mavzulari.**

- 1.Davlat va huquq nazariyasi fani predmetini o'rganish metodlari.
- 2.Davlat va huquq nazariyasining ijtimoiy fanlar tizimidagi o'rni va roli.
- 3.Davlat va huquq nazariyasi fani predmetini o'rganish metodlari.
- 4.Davlat va huquq nazariyasining funksiyalari.
- 5.Davlat va huquqsining o'quv fan sifatida tuzilishi.
- 6.Insonparvarlik va umummadaniy qarashlar davlat va huquq nazariyasi asoslari sifatida.
- 7.O'zbekiston fuqarolik jamiyati huquqini yaratish yo'lida.
- 8.Jamiyat, davlat va huquq.
- 9.Jamiyat haqidagi g'oyalar va tushunchalar.
10. Diniy, siyosiy va huquqiy qarashlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi.
11. Davlat va huquqning paydo bo'lishi haqidagi dunyoviy ta'limot.
12. Davlat va huquqning paydo bo'lishi haqidagi markscha-leninchha ta'limot.
13. Davlat tushunchasi, mohiyati, belgilari va tiplari.
14. Davlat tipologiyasi.
15. Davlatning asosiy tiplari.
16. O'zbekiston Respublikasida boshqaruv shakli.
17. Siyosiy rejim tushunchasi va turlari.
18. Davlat funksiyalari tushunchasi va tasnifi.
19. Davlat mexanizimi, tushunchasi va tarkibi.
20. Huquqqa «sotsiologik» yondashuv - ijtimoiy hayotning o'sishini ta'minlash vositasi.
21. Huquqning psixologik nazariyasi. Tabiiy huquq nazariyasi (huquqqa falsafiy yondashuv).
22. Huquq tamoyillarining tushunchasi va mohiyati.
23. Huquq tamoyillariga tasnifi.
24. Huquq funksiyalarining tushunchasi va turlari.
25. Huquqiy ong.
26. Huquq ijodkorligi tamoyillari.
27. Huquq normasi va uning tuzilishi.
28. Yuridik faktlar.
29. Huquqni tadbiq etish.

30. Huquqni qo'llash va uning bosqichlari.
31. Huquqni qo'llash aklari va ularning turlari.
32. Huquq normalarining sharxlash turlari.
33. Huquqiy xulq-atvor.
34. Huquqbazarlik tushunchasi va turlari.
35. Yuridik javobgarlik tushunchasi turlari va asoslari.
36. Huquqni tartibga solish mexanizmi va uning tushunchasi.
37. Qonuniylik va huquqiy tartibot tushunchasi.
38. Xozirgi zamon asosiy huquq tizimlari.
39. Yuridik tipologiya va uning tushunchasi.
40. Roman-german huquq oilasi.
41. Lotin Amerika huquqiy tizimlari.
42. Skandinaviya mamlakatlari huquqiy tizimlari.
43. Musulmon mamlakatlari huquqiy tizimlari (islom huquqi).
44. Hindiston huquqiy tizimi (hindu huquqi).
45. Huquqiy davlatni shakllantirish.
46. Xalq hokimiyati rejimini ta'minlashda qonunning roli.
47. Davlat, huquq va shaxs.
48. Fuqarolik jamiyatni va uning tuzilishi.
49. Davlat va huquqni rivojlanish istiqbol va yo'llari.
50. Qonun ijodkorligi jarayoni: tushunchasi, prinsiplari va bosqichlari.
51. Huquq sohasi va huquq instituti tushunchalari.
52. Huquqiy munosabat tarkibi: subyekt, obyekt, subyektiv huquq va yuridik majburiyatlar.
53. Huquqni amalga oshirish shakllari: rioya etish, ijro etish, foydalanish va qo'llash.
54. Huquq normalarini normativ va kazual, legal va mualliflik sharhlar.
55. Yuridik amaliyot tarkibi, turlari va funksiyalari.
56. Huquqiy tartibga solish va huquqiy ta'sir etish (axborot-psixologik, tarbiyaviy, ijtimoiy).
57. Huquqiy tartibga solishning samaradorligi, uning belgilari va ta'minlanish asoslari.
58. O'zbekistonda demokratlashtirish va mamlakatni modernizatsiyalash jarayonida huquqiy tartibga solishning samaradorligini oshirish yo'llari.
59. Qonuniylik kafolati: tushunchasi va turlari.
60. I.A.Karimov asarlarida erkin fuqarolik jamiyatni va huquqiy davlat qurish oyalarining ifodalananishi.
61. Musulmon davlati konsepsiyasining o'ziga xos hususiyatlari.
62. Huquqning iqtisod, siyosat, din, ahloq bilan o'zaro munosabati.

## DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI FANIDAN GLASSARIY.

**Huquqning manbasi** -deganda umumiy ma'noda huquqni ifoda etilish shakli tushuniladi. Huquqiy hodisa sifatida huquq manbasini uch xil ma'noda tushunish mumkin

**Moddiy ma'noda** – bu jamiyatdagi mulkchilik shakllari, moddiy shart-sharoitlar, jamiyat a'zolarining qiziqishlari va manfaatlari;

Ma'noda – bu turli huquqiy mafkura va ta'limotlar, huquqiy ong;

**Maxsus yuridik ma'noda** – bu huquqning shakllari.

**Huquqiy odat** – uzoq davr mobaynida amalda bo'lish natijasida shakllangan va davlat tomonidan

umummajburiy qoida sifatida tan olingan yurish-turish qoidasidir.

**Huquqiy pretsedent** (lot. "praesedens" – avvalgisi, oldingisi) – sud yoki ma'muriy organning yozma yoki og'zaki qarori bo'lib, bu qaror kelgusida barcha shunga o'xhash ishlarni ko'rib chiqish va hal qilish uchun asos bo'ladigan namuna normadir.

**Normativ-huquqiy hujjat** – vakolatli davlat organi (yoki mansabdor shaxs)ning belgilangan tartibda qabul qilgan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan, umummajburiy tusdagi qoidalarni o'rnatuvchi, o'zgartiruvchi yoki bekor qiluvchi yuridik hujjati.

**Qonun** – davlat hokimiyatining oliv vakillik va qonunchilik hokimiyati organi tomonidan yoki bevosita xalqning xohish - irodasiga ko'ra (masalan, referendum o'tkazish yo'li bilan) qabul qilingan, qoida tariqasida eng muhim ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik hujjat

**Normativ shartnomalar** -ikki yoki undan ortiq mustaqil huquq sub'ektlari o'rtasida tuziladigan hamda ularning huquq va majburiyatlarini o'rnatadigan, uzgartiradigan yoki bekor qiladigan og'zaki yoki yozma shaklda ifoydalananadigan va tuziladigan bitimlar

**Huquqiy odat** – huquqning eng qadimgi manbalaridan biri hisblanadi.

**Huquqiy pretsedent** – sud yoki ma'muriy organning yozma yoki og'zaki qarori bo'lib, bu qaror kelgusida barcha shunga o'xhash ishlarni ko'rib chiqish va hal qilish uchun asos bo'ladigan namuna normadir.

**Normativ-huquqiy hujjat** – vakolatli davlat organining belgilangan tartibda qabul qilgan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan, umummajburiy tusdagi qoidalarni o'rnatuvchi, o'zgartiruvchi yoki bekor qiluvchi yuridik hujjati hisoblanadi.

**Normativ shartnomalar** ham huquqning muhim manbasi hisoblanadi. Normativ shartnomalar ikki yoki undan ortiq mustaqil huquq ijodkorlari o'rtasida tuziladigan, ularning huquq va majburiyatlarini o'rnatadigan, o'zgartiradigan yoki bekor qiladigan bitimlardir. Normativ shartnomaning muhim turi bu – halqaro shartnomaga hisoblanadi.

**Huquqiy odat**- uzoq davr mobaynida amalda bo'lishi natijasida shakllangan va davlat tomonidan

umummajburiy qoida sifatida tan olingan hulq atvor qoidasidir.

**Xalqaro shartnomaga** – davlatlar va xalqaro huquqning boshqa sub'ektlari o'rtasida ular uchun umumiy ahamiyatga ega bo'lgan hamda o'zaro huquq va majburiyatlarini qabul qilish yo'li bilan ular o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishga da'vat etilgan ochiq ifodalangan bitimdir.

## **Savollari.**

### ***1-variant***

1. Davlat va huquq nazariyasi fanining predmeti va metodlari
2. Davlatning ta’lim funksiyasi
3. Jamiyat tushunchasi. Davlat va jamiyat tushunchalarining nisbati

### ***2-variant***

1. Davlatning paydo bo‘lishiga oid nazariyalar
2. Davlatning ekologik funksiyasi va uni amalga oshirish
3. Prezidentlik respublikasining assosiy belgilari va mohiyati

### ***3-variant***

1. Davlat va huquq nazariyasi fanining ijtimoiy fanlar bilan aloqasi
2. Respublika – davlat boshqaruv shakli sifatida
3. I.A.Karimov asarlarida davlatga ta’rif va uning o‘ziga xosligi

### ***4-variant***

1. O‘zbekiston hududida ilk davlatlarning paydo bo‘lishi
2. Davlat mexanizmi tushunchasi va tarkibi
3. O‘zbekiston Respublikasining boshqaruv shakli va uning o‘ziga xosligi

### ***5-variant***

1. Davlat va huquq nazariyasi fanining predmeti va metodlari
2. Davlatning boshqaruv shakli va uning tasnifi
3. Davlatning ta’rifi va mohiyati

### ***6-variant***

1. Davlat apparati tushunchasi va belgilari
2. Davlat va huquq nazariyasi fanining boshqa fanlar bilan aloqasi
3. Siyosiy rejim tushunchasi va turlari

### ***7-variant***

1. Davlat tipologiyasining mazmun va mohiyati
2. Davlat organining belgilari va mazmuni
3. I.Karimov asarlarida huquqiy davlat qurishga oid fikrlar

### ***8-variant***

1. Davlatning boshqaruv shakli va uning tasnifi
2. Jamiiyat tushunchasi va uning davlat bilan aloqasi
3. Davlat va huquq nazariyasi fanining xususiy metodlari

### ***9-variant***

1. Davlat tipologiyasining mazmun va mohiyati
2. Davlatning ijtimoiy funksiyasi tushunchasi va mazmuni
3. O‘zbekiston Respublikasining boshqaruv shakli va uning o‘ziga xosligi

### ***10-variant***

1. O‘zbekiston hududida ilk davlatlarning paydo bo‘lishi
2. Davlat apparati tushunchasi va belgilari
3. Davlatning ta’rifi va mohiyati

***11-variant***

1. Davlat funksiyalarining tushunchasi va tasnifi
2. Iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko‘ra davlatlarning tiplari
3. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi

***12-variant***

1. Davlatning tuzilish shakli va uning turlari
2. Davlat mexanizmi va davlat apparati o‘rtasidagi nisbat masalasi
3. Davlatning paydo bo‘lishiga oid nazariyalarning xilma xilligi

***13-variant***

1. Davlatning siyosiy rejimi va uning tasnifi
2. Davlatning ekologik funksiyasi mazmuni
3. Davlat tipologiyasi tushunchasi va mohiyati

***14-variant***

1. Davlat va huquq nazariyasi fanining ijtimoiy fanlar bilan aloqasi
2. Monarxiya – davlat boshqaruv shakli sifatida
3. Davlat funksiyalari tushunchasi va turlari

***15-variant***

1. Davlat tushunchasi va belgilari
2. G‘ayridemokratik siyosiy rajim tushunchasi va turlari
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida jamiyat, davlat va davlat organlari masalalari

***16-variant***

1. Davlatning ichki funksiyalari
2. Davlat mexanizmi tushunchasi va tarkibi
3. O‘zbekiston Respublikasi davlati tuzilish shaklining o‘ziga xosligi

***17-variant***

1. Davlatning tashqi funksiyalari
2. Davlat tushunchasi va belgilari
3. Jamiyat tushunchasi va fuqarolik jamiyatni

***18-variant***

1. Davlatning mudofaa funksiyasi
2. Davlat va huquqning o‘zaro nisbati
3. O‘zbekiston Respublikasida qonun chiqaruvchi hokimiyat

***19-variant***

1. Federativ davlat tuzilishining asosiy xususiyatlari
2. Ijro etuvchi xokimiyatning o‘ziga xosligi
3. Demokratiya tushunchasi va turlari

***20-variant***

1. Davlat va huquq nazariyasi fanining funksiyalari
2. O‘zbekistonda sudlov tizimining xususiyatlari
3. Davlat tushunchasi va uning belgilari

***21-variant***

1. Davlat suvereniteti uning asosiy belgisi sifatida
2. Davlatning paydo bo‘lishiga oid nazariyalarning xilma-xilligi
3. Davlat tipologiyasi

***22-variant***

1. Monarxiya – davlat boshqaruv shakli sifatida
2. Davlatning iqtisodiy funksiyasi
3. Davlat mexanizmi tushunchasi

***23-variant***

1. Respublika – davlat boshqaruv shakli sifatida
2. Davlat va huquq nazariyasi fanining obyekti va predmeti
3. Davlat va huquqning paydo bo‘lishi

***24-variant***

1. Prezidentlik respublikasining asosiy belgilari
2. Davlat va huquq nazariyasi fanining metodlari tushunchasi va turlari
3. Davlat funksiyasi tushunchasi va uning tasnifi

***25-variant***

1. Davlatning ekologik funksiyasi va uni amalgalashish
2. Huquqshunoslik tizimida “Davlat va huquq nazariyasi” fanining o‘rnini
3. Davlat tushunchasi va uning asosiy belgilari

***26-variant***

1. Davlatning ta’lim funksiyasi
2. Davlatning paydo bo‘lishiga oid nazariyalar
3. O‘zbekistonda xokimiyat vakolatlarining taqsimlanishi

***27-variant***

- 1.Davlatning huquqni muhofaza qilish funksiyasi
- 2.Davlat tipologiyasi tushunchasi va mohiyati
- 3.Milliy va hududiy federatsiyalarning o‘ziga xosligi

***28-variant***

- 1.Davlat va huquqning paydo bo‘lishi
- 2.O‘zbekistonda hokimiyat bo‘linishi prinsipining o‘ziga xosligi
- 3.Qoraqalpog‘iston Respublikasining davlat boshqaruv shakli, tuzilish shakli va siyosiy rejimi

***29-variant***

- 1.Davlat mexanizmi va davlat apparati tushunchalarining nisbati
- 2.Davlatning ijtimoiy himoya funksiyasi
- 3.Davlat boshqaruv shakli tushunchasi va tasnifi

***30-variant***

- 1.Davlat organi tushunchasi va turlari
- 2.Davlat funksiyalari tushunchasi va turlari
- 3.Davlatning paydo bo‘lishiga oid nazariyalar

**O'QUV ADABIYOTLARI, DARSLIK VA O'QUV  
QO'LLANMALAR  
Asosiy adabiyotlar.**

<b>№</b>	<b>Muallifi</b>	<b>Adabiyotning nomi</b>	<b>Adabiyot turi</b>	<b>Nashri, yili</b>	<b>Adabi yot-ning ARM dagi shifri</b>	<b>Adabiyotning ARM dagi inventar raqami</b>	<b>ARM M dagi coni</b>	<b>ARM imzo-si</b>
1.	Yusufaliyeva R., Axmedshayeva M., Najimov M.	Davlat va huquq nazariyasi	Darslik	Toshkent 2006.				
2.	Odilqoriyev X.T.	Davlat va huquq nazariyasi.	Darslik	Toshkent 2018.				
3.	Saydullayev Sh	Davlat va huquq nazariyasi x darslik.	Darslik	Toshkent:t . TdYUU, 2018.- 220b				
4.	Xojiyev Ye..	Davlat va jamiyat boshqaruvini ng xuquqiy asoslari	Darslik	Toshkent: 2017.				
5.	O'quv qo'llanma	Inson manfaatlari hamma narsadan ustun tavsiyalar.	O'quv qo'llanma	Toshkent 2017.				
6.	Oily Majlis axborotnomasi	Qonun hujjatlari ta'sirini baholash tizimi.	O'quv qo'llanma	Toshkent 2016.				
7.	Odilkoriyev X.T., va boshqalar.	Davlat va huquq nazariyasi.	Darslik	Toshkent 2009.-				
8.	Tul'teyev I.T	Rivojlangan	Darslik	Toshkent				

		davlatlarda davlat boshqaruvi tarixiy tajriba hozirgi holat va rivojlanish tendensiyalar i		2016.				
9.	Islomov Z.M.	Davlat va huquq nazariyasi	O'quv qo'llanma	Toshkent 2007.				
10.	Lazarev V.V., Lipen' S.V., Saidov A.X. pod red. akad.Abduraxmanova Q.X.-.	Teoriya gosudarstva i prava uchebnik	Darslik	myu ros.ekon akad2008. -620 s.				
11.	Islomov Z.M...	Davlat va huquq nazariyasi	Darslik	Toshkent: adolat,, 2007.				
12.	Yarboyev X.X.	Davlat va xuquq nazariyasi fanidan	Darslik	O'UM.- GulDU 2021				
13.	Yarboyev X.X.	Davlat va xuquq nazariyasi fanidan	Darslik	O'UM.- GulDU 2020.				

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojatnomasi - 2020
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojatnomasi - 2021
3. Nayitboyev F. Najimov M. Hozirgi zamon asosiy huquqiy tizimlari (qiyosiy huquqshunoslik).- T.: TDYU. 2018 -229 b.
4. Najimov M.K. Huquqiy ong va huquqi madaniyat. –T.: TDYU, 2018.- 66 b.
5. Najimov M.K. Davlat funksiyalari. –T.: TDYU 2018. 64 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliv bahodir. –Toshkent: “O'zbekiston” NMIU,2018
7. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –Toshkent: “O'zbekiston” NMIU,2017.
8. Javliyev N.B. Huquqning mohiyati: an'naviy va zamonaviy nazariyalar. O'quv qo'llanma. T.: TDYU, 2010.-96 b.
9. Odilkoriyev X.T., Yakubov Sh.U. Milliy huquqiy tizim va huquqiy kadriyatlar. Monografiya. T.: Smi-asia, 2010 -400 b.

### **Elektron adabiyotlar.**

### **Axborot manbalari**

1. www. tdpu. uz
2. www. pedagog. Uz
3. yumpu.com
4. www. Ziyonet. Uz
5. library-tsul.uz
6. www. edu. Uz
7. adolatnashr.uz
8. tdpu-INTRANET. Ped

***O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari va nutqlari:***

1. Karimov I.A. Xalqimiz bor ekan Amir Temur nomi barhayotdir // Yangicha fikrlash va ishslash – davr talabi. T. 5. – T.: 1997. – B. 167-170.
2. Karimov I.A. Sohibqiron kamolga yetgan yurt // Yangicha fikrlash va ishslash - davr talabi. T. 5. – T.: 1997. – B. 177
1. Karimov I.A. Amir Temur – faxrimiz, g'ururimiz // Yangicha fikrlash va ishslash - davr talabi. T. 5. – T.: 1997. – B. 182-191.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q // Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7 – T.: "O'zbekiston", 1999.
3. Karimov I.A. Olloh qalbimizda, yuragimizda // Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. – T.: "O'zbekiston", 1999. – B. 132-154.
4. Karimov I.A. Ezgu fikr, ezgu amal, ezgu so'z ulug'langan kitob // Xalq so'zi. 2000 yil 6 noyabr
5. Karimov I.A. Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar deb hisoblashar edi. – T.: "O'zbekiston", 2005. 62 b.
6. Karimov I.A. "Mamlakatimiz taraqqiyotining qonuniy asoslarini mustahkamlash faoliyatimiz mezoni bo'lishi darkor". - Xalq so'zi gazetasi. 2006 yil. 25 fevral`.
7. Karimov I.A. "Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim". - Xalq so'zi gazetasi. 2006 yil 11 fevral`.
8. Karimov I.A. "Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilishdir". - Xalq so'zi gazetasi. 2005 yil 29 yanvar`.
9. Karimov I.A. "Inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari - eng oliv qadriyat". - Xalq so'zi gazetasi. 2005 yil 8 dekabr`.
10. Karimov I.A. "Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o'z kuch-qudratimizga, xalqimizning hamjihatligi va bukilmas irodasiga bog'liq". - Xalq so'zi gazetasi. 2004 yil 30 aprel`.
11. Karimov I.A. "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda". - T.: "O'zbekiston", 1999.
12. Karimov I.A. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari". - T.: "O'zbekiston", 1997.Normativ-huquqiy aktlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: 2003.

2. Konstitutsionnyiy Zakon Respublikni Uzbekistan “Ob osnovax gosudarstvennoy nezavisimosti Respublikni Uzbekistan” ot 31.08.91 g. // Vedomosti Verxovnogo Soveta Respublikni Uzbekistan. 1991. № 11.

3. “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi”//O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi axborotnomasi. -1997. № 9

4. “O’zbekiston Respublikasi Referendumi to‘g‘risida”gi Qonun(Yangi tahriri) O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi axborotnomasi 30.08.2001 y. № 265-II // №9-10, 176 m. // O‘zR Qonuni bilan o‘zgartirish kiritilgan 03.12.2004 y. № 714-II // O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi axborotnomasi, 2005, № 1, 18 m.

5. “O’zbekiston Respublikasi Senati to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonun. 12.12.2002 yilda qabul qilingan. // O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi axborotnomasi 2002, № 12, 213 m. O‘zR Qonuni bilan o‘zgartirish kiritilgan 25.04.2003 y. № 482-II // O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi axborotnomasi 2003, № 5, 360 b.

6. “O’zbekiston Respublikasi Qonunchilik Palatasi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonun. 12.12.2002 yilda qabul qilingan // O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi axborotnomasi 2002, № 12, 215 m. // O‘zR Qonuni bilan o‘zgartirish kiritilgan 25.04.2003 y. № 482-II O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi axborotnomasi 2003, № 5, 360 m.

7. “Normativ huquqiy xujjalalar to‘g‘risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonuni. 14.12.2000 yilda qabul qilingan // O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi axborotnomasi 2001, № 1-2, 8 m. // 12.12.2003 y № 568- II; 03.12.2004 y. № 714- II O‘zR Qonuni bilan o‘zgartirish kiritilgan // O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi axborotnomasi 2004, № 1-2, 18 m.; 2005, № 1,18 m.

8. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 iyuldagagi “O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish haqida”gi Qarori// Xalq so‘zi. 1998 28 iyul.

### **Adabiyotlar ro‘yxati.**

- 1.Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. Toshkent. 2009. Y.f.d.,prof.X.T.Odilqoriyev. O‘zb.Resp.I,I.V.Akademiyasi
- 2.Antonov I. P. Osnovi pravovoy sistemi Federativnoy Respublikni GermaniY. (Teoreticheskiy i istoriko-pravovoy aspekti). – M.: Akademiya upravleniya MVD Rossii, 2003. – 147 c.
- 3.Bobotov S. V., Jigachev I. Y. Vvedenie v pravovuyu sistemu SSHA. – M.: Norma, 1997. – 333 s.
- 4.Vvedenie v shvedskoe pravo. – M.: Progress, 1986. – 387 s.
- 5.David R., Joffre-Spinazi K. Osnovnie pravovie sistemi sovremennosti. – M.: Mejdunar. otnosheniya, 1996. – 400 s.
- 6.David R. Osnovnie pravovie sistemi sovremennosti. – M.: Mejdunarodnie otnosheniya, 1986. – 380 s.
- 7.Ermolovich V. I., SHelkopylas V. A. Pravovie sistemi: istoriya i sovremennost: Materiali mejvuzovskoy nauchno-prakticheskoy konferensii. – Minsk, 5–6 yanvarya 2001 g. – Mn.: BGEU, 2001. – 176 s.
- 8.Inako S. Sovremennoe pravo Yaponii / Otv. red. V. A. Tumanov. – M.: Progress, 1981. – 291 s.
- 9.Marchenko M. N. Pravovie sistemi sovremennoego mira: Ucheb. posobie. – M.: Zersalo, 2001. – 400 s.
10. Matkarimova G. Halqaro huquq va O’zbekiston huquqiy tizimi. – T.: Adolat, 2002. – 90 b.
11. Pravovie sistemi stran mira: Ensiklopedicheskiy spravochnik / Otv. red. A. Y. Suxarev. – M.: Norma, 2003. – 976 s.

12. Pravovaya sistema Niderlandov / Otv. red. V. V. Boysova, L. V. Boysova. – M.: Norma, 1998. – 348 s.
13. Reshetnikov F. M. Pravovie sistemi stran mira. – M.: YUrid. lit., 1993.
14. Romanov A. K. Pravovaya sistema Anglii: Ucheb. posobie. – M.: Delo, 2000. – 344 s.
15. Saidov A. X. Vvedenie v osnovnie pravovie sistemi sovremennosti. – T.: Fan, 1988. – 217 s.
16. Saidov A. X. Sravnitelnoye pravovedeniye: Ucheb. posobiye / Otv. red. V. A. Tumanov. – T.: Adolat, 1999. – 480 s.
17. Semitko A. P. Rossiyskaya pravovaya sistema // Teoriya gosudarstva i prava / Pod red. V. M. Korelskogo i V. D. Perevalova. – M., 1998. – 493 s.
18. Sinyukov V. N. Rossiyskaya pravovaya sistema: Vvedenie v obshuyu teoriY. – Saratov: Saratovskiy yurid. ins-t, 1994. – 473 s.
19. Sinyukov V. N. Pravovie sistemi i pravovie semi // Teoriya gosudarstva i prava: Kurs leksiya / Pod red. N. M. Matuzova i A. V. Malko. – M., 1999. – S. 17–19.
20. Fridmen L. Vvedenie v amerikanskoe pravo. – M.: Progres, 1993. – 256 s.
21. SHumilov V. M. Pravovaya sistema SSHA: Ucheb. posobie. – M.: DekA, 2003. – 400 s.
22. Marchenko M. N. YAvlyaetsya li pravovaya sistema Rossii sostavnoy chastyu romano-germanskoy pravovoy semi? // Pravovaya politika i pravovaya jizn. – 2001. – № 1. – S. 66–76.
23. Urazaev SH. Z. Nezavisimost i formirovanie pravovoy sistemi // Obshestvennie nauki v Uzbekistane. – 1992. – № 7–8. – S. 20–24.
24. Tixomirov Y. A. Pravovaya sfera obshestva i pravovaya sistema // Jurnal rossiyskogo prava. – 1998. – № 4–5. – S. 9.
25. Xayitboyev F. P. Jamiat huquqiy tizimi tushunchasining ayrim nazariy muammolari. // J. Huquq-Pravo-Law. – 2000. – 1-son. – B. 28-31.
26. Xayitboyev F. P. Jamiatning huquqiy tizimida huquqiy amaliyotning o‘rni. // J. O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar. – 2001. – 1-son. – B. 25-29.
27. Xayitboyev F. P. Milliy huquqiy tizim elementlari to‘g‘risida. // J. O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar. – 2000. – 2-son. – B. 25-26.
28. Xayitboyev F. P. O‘zbekiston Respublikasi milliy huquqiy tizimini shakllantirishda ikki palatali parlamentning o‘rni. // Ilmiy-amaliy anjuman ma’ruza matn. T.: TDYUI, 2002. – B.122-126.
29. Xayitboyev F. P. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi – milliy huquqiy tizim o‘zagi. // “O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi – Davlat va jamiat islohotining huquqiy asosi” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman ma’ruza matn. – T.: TDYUI, 2002. – B.189-192.
30. Xayitboyev F. P. Yuridik texnika milliy huquqiy tizimning tarkibiy qismi sifatida. // J. O‘zbekistonda demokratlashtirish va inson huquqlari. – 2003. – 4-son. – B. 18-22.
31. Xayitboyev F. P. Umumiy integrativ jarayen: milliy huquqiy tizim va halqaro huquq. // J. Hayot va qonun. – 2003. – 5-son. – B. 66-67.
32. Xayitboyev F. P. O‘zbekiston milliy huquqiy tizimini o‘rganishning dolzarb muammolari. // J. Ijtimoiy fikr. – 2004. – 4-son. – B. 23-24.
33. Xayitboyev F. P. Fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida milliy huquqiy tizimni takomillashtirishning ayrim nazariy muammolari. // Ilmiy-amaliy seminar ma’ruza matn. 8 oktabr 2005. – T.: TDYUI, 2005. – B. 2-3.
34. Xayitboyev F. P. O‘zbekiston milliy huquqiy tizimining shakllanishida Konstitusianing roli va ahamiyati. // Ilmiy-amaliy seminar ma’ruza matn. 3 dekabr 2005. – T.: TDYUI, 2005. – B. 2-3.
35. Xayitboyev F. P. Hozirgi zamon asosiy-huquqiy tizimlari. O‘quv qo‘llanma. T.: TDYUI, 2006. – 61 b.

### *Asosiy adabiyotlar*

1. Agadjanov S. G. Gosydarstvo Seldjukidov i Srednyaya Aziya v XI-XX vv. M.: Nayka. 1991.
2. Azimov SH. Gosydarstvo i pravo Samanidov. Dyshanbe «Irfon». 1999.
3. Bikerman E. Gosydarstvo Selevkidov. M. 1985.
4. Boboev X.B. O‘zbek davlatchiligi tarixi. – T.: “Fan”, 2004. – 294 b.
5. Byniyatov Z. - M.: Gosydarstvo Xorezmshaxov Anyshteginidov. 1097-1231gg. M.: Nayka 986.
6. Islomov Z.M. Davlat va huquq: umumnazariy masalalar(Davlat nazariyasi). – T.: “Adolat”, 1969. – 272 b.
7. Islomov Z.M. ObЩestvo. Gosudarstvo. Pravo. – T.: “Adolat”, 2001. – 695 s.
8. Ishanov A.I., Samatova X.S., Urazaev SH.Z. Istorya gosudarstva i prava Uzbekistana. – T.: “O‘qituvchi”, 1969. – 140 b.
9. Karaev O.K. Istorya Karaxanidskogo kaganata (X nachalo XIII vv). Frunze 1983
10. Kayumov R. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiviy huquqi. – T.: “Adolat”, 1998. – 399 b.
11. Lebedeva S.V. “Istorya gosudarstva i prava Uzbekistana” dlya studentov zaochnogo otdeleniya. – T.: TDYUI. 2003. – 12 s.
12. Muqimov Z. O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi. – T.: “Adolat”, 2003. – 280 b.
13. Perikanyan A.G. ObЩestvo i pravo Irana v parfyanskiy i samanidskiy periody. - M.: 1983.
14. Rahmonqulov H.R. O‘zbekiston Respublikasining milliy huquq tizimi. - T.: TDYUI. 2005. – 63 b.
15. Risolai «mynaxabyl masoyil». - T.: Akademiya, 2002.
16. Saidov A.X., Toshqulov J.I. O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi. –T.: IIB Akademiyasi. 1996. – 112 b.
17. Syltonov T.I. CHingizzan i CHingizidы. Sydba i vlast. - M.: AST. 2007.
18. O‘zbekiston xalqlari tarixi. Akademik Asqarov A. tahriri ostida.  
I tom. - T.: “Fan”, 1992. – 186 b.
19. O‘zbekiston xalqlari tarixi. Akademik Asqarov A. tahriri ostida.  
I tom. - T.: “Fan”, 1993. – 253 b.
20. “O‘zbekistonda jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish yo‘lida” o‘quv qo‘llanma. - T.: “Akademiya”, 2005. – 640 b.
21. Hamidova M.A. “O‘zbekiston davlati va huquqi” sirtqi bo‘lim talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. - T.: TDYUI. 2003. – 23 b.
22. Hamidova M.A. “O‘zbekiston davlati va huquqi” fanidan ma’ruzalar matni. T.: TDYUI. 2005. -121b.
23. Hamidova M.A. O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi. - T.: TDYUI. 2004. – 191 b.
24. Hamidova M.A. O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi. - T.: TDYUI. 2005. -640 b.
25. SHodiev J. Buxoro amirligida davlatchilik masalalari(1773-1920). - T.: TDYUI. 2005. – 73 b.
26. Shodiyev J. Buxoro amirligi davlatchilik tarixi(1773-1920). - T.: TDYUI. 2006. – 66 b.

*Qo‘shimcha adabiyotlar.*

1. Agzamxodjaev A. Pravovye osnovy gosudarstvennoy nezavisimosti Respublika Uzbekistan./Otv.red. A.X.Saidov. - T.: «O'zbekiston», 1993. – 93 b.
2. Axmedov B. CHingizzon va yning vorislari davrida Markaziy Osiyo // Tarixdan saboqlar. - T.: 1994.
3. Axmedov B. O'zbek ylysi. - T.: 1992.
3. Axmedov B. Gosydarstvo kocheyvых yzbekov. - M.: 1965.
4. Amir Said Olimxon. Buxoro xalqining xasrati tarixi. - T.: "Fan". 1990. – 51 b.
5. Amir Temyr jahon tarixida. - T.: 1996.
6. Amir Temur. Pod.Red. Axmedov B. – T.: Universitet, 1999. – 263 b.
7. Boboev H.B. Amir Temur va temuriylar sultanati. - T.: Kamalak, 1996. - 199 b.
8. Boboev H.B., Hasanov S. "Avesto ma'naviyatimiz sarchashmasi". - T.: "Adolat", 2001. - 160 b.
9. Djaborov S. SHariat, Semeynoe i obyichnoe pravo v Uzbekistane: istoriya i sovremennost. - T.: «Fan», 1996.
10. Jabborov I. Antik madaniyat va ma'naviyat xazinasi. - T.: «O'zbekiston», 1999. - 201 b.
11. Ziyo Azamat. O'zbekiston davlatchiligi tarixi. - T.: «SHarq». 2000. - 320 b.
12. Qur'oni karim. Arabchadan Alouddin Mansur tarjimasি. - T.: «CHO'lpon». 1996. - 544 b.
13. Lunyov YU.F. Gosudarstvo i pravo Uzbekskix xanstv. -M.: "Ast" 2004. – 215 s.
14. Majma al-arkam. - M.: Nauka 1981. - 123 s.
15. Nabiev A. Mustaqillik uchun kurash yoxud parchalangan Turkiston tarixi. - T.: YOzuvchi, 1998. - 93 b.
16. Nizomulmulk. Siyosatnoma yoki "Siyar ul-mulk". - T.: «Adolat», 1997. - 255 b.
18. Rajabova M. SHariatda jinoyat va jazo. - T.: «Adolat», 1996. – 132 b.
19. Rtveladze E.V., Saidov A.X., Abdullaev E.A. Qadimgi O'zbekiston sivilizatsiyasi: davlatchilik va huquq tarixidan lavhalar. - T: - «Adolat», 2001. - 415 b.
20. Sagdullaev T. va boshqalar. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. - T.: "Akademiya". 2000. - 217 b.
21. Temur tuzuklari. - T.: «SHarq», 2005. - 159 b.
22. Tamerlan: epoxa, lichnost, deyaniya. - M.: 1992
23. O'zbek diplomatiyasi tarixidan. - T.: JIDU, 2003. - 374 b.
24. O'zbekistonning yangi tarixi. 1-jild. - T.: «SHarq», 2000. - 463 b.
25. O'zbekistonning yangi tarixi. 2-jild. - T.: «SHarq», 2000. - 687 b.
26. O'zbekistonning yangi tarixi. 3-jild. - T.: «SHarq», 2000. - 559 b.
27. Fayziev M.M. O'zbekiston Konstitutsiyasi hayotimiz qomusi. - T.: OO'MTV, 1996. - 20 b.
28. Hidoya. - T.: «O'zbekiston», 2004. - 479 b.

#### Internet saytlar

1. <http://www.lex.uz>
2. <http://www.juristlib.ru>
3. [http:// www.pravo.vsem.uz](http://www.pravo.vsem.uz)
4. [http:// www.kodeks.uz](http://www.kodeks.uz)
5. <http://www.lawlib.uz>

6. <http://www.zakon.uz>

7. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)

8. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)

9. [www.zivo.tdu.uz](http://www.zivo.tdu.uz)

10. [www.ec.tdu.uz](http://www.ec.tdu.uz)

11. [www.referat.ru](http://www.referat.ru)

12. [www.google.ru](http://www.google.ru)

13. [www.yandex.ru](http://www.yandex.ru)

*Elektron ta'lim resurslari*

1. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)

2. [www.pravoteka.ru](http://www.pravoteka.ru)

3. [www.fiqh.uz](http://www.fiqh.uz)

4. [www.hayrettinkaman.net](http://www.hayrettinkaman.net)